

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**"YENGIL SANOAT MAHSULOTLARINI KONSTRUKTSIYALASH
TEXNOLOGIYASI" KAFEDRASI**

«KOSTYUM KOMPOZITSIYASI»

fanidan

MA`RUZALAR MATNI



NAMANGAN - 2016 yil

Kostyum kom'ozitsiyasi» fanining maqsadi va unda ko'riladigan asosiy masalalar keltirilgan.
Ma`ruza matni 5320900 «Yengil sanoat buyimlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi»
bakalavriat ta`lim yo`nalishlari talabalariga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

katta o'qituvchi: M.M.Qurbanova

Taqrizchilar:

Namangan muhandislik-texnologiy
instituti dotsenti Alieva D.G'

Kosonsoy "AL-AZIZ" MCHJ korxonasi
muxandis -texnologi F. Yo'ldashev

Ushbu to'ldirilgan va qayta ishlangan ma`ruzalar matni «Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi» kafedrasining 2016 yil ____ avgust 1- sonli yig'ilishida muhokama etildi.

Ushbu to'ldirilgan va qayta ishlangan ma`ruzalar matni NamMTI ilmiy-uslubiy kengashining 2016 yil ____ avgustdagi 1 -sonli yig'ilishida ko'rib chiqilib, cho' etishga ruxsat etildi.

1 MAVZU: KIRISH. KOMPOZITSION KATEGORIYALAR.

Mashg`ulot turi - ma`ruza

Asosiy savollar:

- 1."Kostyum kompozitsiyasi" fanining maqsad va vazifalari.
2. Kompozitsiya asosiy tushunchalari.
- 3.Kostyum kompozitsiyasida uslub va uslublash. Katta badiiy uslublar.
- 4.Zamonaviy kostyumning uslubiy yechimlari. Moda tushunchasi va uning tarkibi. Moda funktsiyalari. Moda rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Tayanch so`z va iboralar:

Kompozitsiya asosiy tushunchalari. Kostyum kompozitsiyasida uslub va uslublash. Katta badiiy uslublar. Zamonaviy kostyumning uslubiy yechimlari. Moda tushunchasi va uning tarkibi. Moda funktsiyalari. Moda rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Kostyum tektonikasi. Tektonika va shakl. Material xususiyatlarini va tektonika. Notektoniklik sabablari. Hajmiy-fazoviy strukturaning (shakl) asosiy xususiyatlari: shaklning geometrik turi, shaklning katta-kichikligi, vazni. SHakl – kostyumni badiiy loyihalash jarayoning asosi. Kompozitsion shakllantirish.

Adabiyotlar

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А.Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
- 2.Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
- 3.Xasanbaeva G.K. To'qimachilik dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
- 4.Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.
- 5.Xasanboeva G.K., SHomansurova M. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma.-T.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
- 6.S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma.-T.:Turon-Iqbol, 2006-y., 128b.
- 7.Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

1."KOSTYUM KOMPOZITSIYASI" FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Mamlakatimiz yengil sanoati keng iste'molchilar ommasi extiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarmoqda. Ommaviy ishlab chiqarish bilan bir qatorda mahalliy sanoat korxonalari ham, yakka buyurtma tikish korxonalari ham aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari bu soha kadrlarini yetishtirish bilan birga

maktablarda, maktabdan tashqari muassasalarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, tikuvchilik korxonalarida xizmat qilishga tayyorlash ishlarining ham katta ahamiyati bor.

Ushbu material shu fanni o'rganayotgan kishilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, kiyim shakli, chiziqlari, proporsiyalarini o'is etishni rivojlantirishga maksimal yordam beradigan qilib to'plangan va bayon etilgan.

Kostyum kompozitsiyasi" fanining maqsadi kostyumni dizayn, amaliy san'at obhekti sifatida, san'atning hamma qonuniyatlari xos bo'lgan ijodiy jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Uslub va kostyum tarixining, kostyum modalarining qisqacha xarakteristikasi beriladi.

Kostyum kompozitsiyasining asoslari kostyum qilishning asosiy printsiplarini aks ettiruvchi kategoriyalar, xususiyatlar va kompozitsiya vositalari yordamida ifodalanadi.

"Kostyum kompozitsiyasi" fanida berilgan materiallardan amaliy ishda bilib ijodiy foydalanish didni, tadbirkorlikni rivojlantirishga, kiyim madaniyati tushunchasini kengaytirishga, professional bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

2. KOMPOZITSIYA ASOSIY TUSHUNCHALARI.

Tektoniklik.

Kom'ozitsiya nazariyasi kuzatilayotgan hodisalar orasidagi eng umumiy va eng muhim aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslangan bo'ladi. Kostyum kom'ozitsiyasida tektonika bilan hajmiy-fazoviy struktura ana shunday kategoriyalar hisoblanadi.

Tektoniklik. Tektonika shakldagi konstruktsiya va material bajarayotgan ishining ko'zga ko'rinib turadigan aksidir.

Tektonik shakl - bu sanoat buyumi shakli konstruktsiyasining va tayyorlanish usulining material xususiyatlarini badiiy tushunib yetish, ularni ko'rsatib berish nuqtai nazaridan ifoda topgan ishi. Material yoki tayyorlanish usuli tektonik shaklni topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rassom material xususiyatlarini, uning konstruktsiyadagi ishini va buyumning tayyorlanish texnologiyasi xususiyatlarini - bo'larning hammasini umumiy g'oyaga, ya'ni badiiy va kompozitsion mo'ljalga bo'ysundirib ongli ravishda tanlaydi, topadi, bo'rttirib ko'rsatadi. Xar bir materialning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlar muayyan shaklga asos qilib olinadi. Masalan, shifondan bo'laklari minimal miqdorda bo'lgan mayin, plastik, yengil shakl yasalsa, parchadan qattiq, «quruq», geometrik shakl yasaladi.

Materialdan buyumning qanday ishlash nuqtai nazaridan foydalanish har qanday buyumning chinakam tiktonikligiga erishishning muhim shartidir. Agar muayyan materialning potentsial-konstruktiv imkoniyatlaridan foydalanilmasa yoki, bundan ham yomoni, uni g'ayritabiiy tarzda ishlashga majbur etilsa (masalan, zich to'qilgan, dag'al gazlamadan drapirovka qilinsa yoki yumshoq, plastik gazlamadan aniq geometrik siluet loyihalashtirilsa), unda tektonika buzilishidan qutilib bo'lmaydi.

Odamning harakatlari natijasida chinakam zo'r kelishlar hisobga olinmasa, shakl konstruksiyasini ishlayotganda notektoniklik yuzaga keladi (masalan, siyrak strukturali mayin gazlamalardan gavdaga yopishib turadigan siluetli ko'ylakda har xil bo'rtmalar va mayda bo'laklar kop bo'lganda).

Qachonki tektonika muayyan badiiy yaxlitlikning uzviy qismi bo'lsa, shundagina u aniq-ravshan va ifodali bo'lib chiqadi. Fan-texnika revolyutsiyasining yutuqlari-yangi materiallarning paydo bo'lishi tektonikaga katta ta'sir ko'rsatadi.

Nima uchun tektonika kom'ozitsiyaning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Gap shundaki, konstruksiya va shaklning konkret materialda ifoda topgan o'zaro bog'liqligi - bu eng muhim jihat bo'lib, u butun buyumning kompozitsiyasini va shu kompozitsiya ustida olib borilgan ishni, ya'ni kompozitsion priyomdan boshlab va shakl xarakterini hamda uning nyuanslarini topishga qadar kompozitsiya vositalaridan foydalanishgacha bo'lgan ishni belgilab beradi.

Kostyum hajmiy-fazoviy shaklining xususiyatlari.

Xar bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o'zaro muayyan ta'sir etishi nuqtai nazaridan qarash, ya'ni uni hajmiy-fazoviy struktura, deb hisoblash mumkin. Bu struktura ba'zan oddiy va ixcham, ba'zan esa juda murakkab bo'ladi. Hajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat'i nazar undagi barcha elementlarning o'zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg'unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Kom'ozitsiyaning ikkita asosiy kategoriyasi o'zaro mustaqkam bog'liqdir. Tektonikaning buzilishi (konstruktiv asos ishining soxta aks etishi) sanoat buyum hajmiy-fazoviy strukturasini elementlarining uzviy aloqadorligiga albatta ta'sir etadi, shuningdek hajmiy-fazoviy yechimning 'rintsi' jihatidan noto'g'ri hal etilishi tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

Kostyum yaratayotganda uning nimaga mo'ljallanganligini va qanday sharoitda ishlatilishini bilish kerak. Kostyum qulay, ishbo' va chiroyli bo'lishi kerak. Shuning uchun kostyumning shakl konstruktiv hal-etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya'ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo'ladi.

Qismlarni muayyan tartibda tashkil to'ganligi, ya'ni strukturasini kostyumni xarakterlab beradi. Struktura deganda obrazli, funktsional va texnik yechimga bog'liq bo'lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy sistemasini tushunish kerak. Geometrik shakl (to'g'ri to'rtburchak, tra'etsiya, oval, uch-burchak va hokazo) kostyum shakl strukturasining elementlari hisoblanadi.

Umuman shakl va uning qismlarining geometrik ko'rinishi, shaklning katta-kichikligi va uning massasi kostyum shaklini xarakterlaydi.

Shaklning geometrik ko'rinishi shaklning uchta fazoviy koordinatalaridagi o'lcham miqdorlarining nisbati bilan, umuman shakl yuzasi va detallari yuzasining xakteri bilan, belgilanadi.

Kiyim shaklini ko'rib chiqayotganimizdagi dastlabki taassurot shaklning hajmdorlik darajasidan, siluet va chiziqlardan kelib chiqadi.

Xajmdorlik darajasi - bu uchta fazoviy koordinata bo'ylab shakl o'lchamlarining nisbatidir. Shaklning xajmdorlik darajasi bitta (vertikal bo'ylab), o'lchamli bo'lsa, chiziqli xarakterda (1-rasm a); (ikki bo'y va en) o'lchamli bo'lsa, tekislik xarakterida (1-rasm, b); kiyim shakli uch o'lchamli bo'lsa, hajm xarakterida. (1-rasm, v) bo'ladi.



1-rasm. Kiyimdagi geometrik shakl turlari, (a-chiziqli xarakteridagi, b-tekislik xarakteridagi, v-hajm xarakteridagi).

Buyumning hajmdorlik darajasini tanlash kostyumning ko'rinishi va nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Chiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etilsa, tekislik xarakteridagisi har qanday ishga mo'ljallangan kostyum uchun va hamma turdagi gavdalar uchun, hajm xarakteridagi shakl esa asosan bo'ychan, ozg'in gavdalarga mo'ljallangan bashang kiyim uchun tavsiya etiladi.

Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali 'roektsiyasini kostyumning silueti deb ataladigan bo'lgan. Odatda kostyum shaklini asosan frontal siluetlar va kamroq 'aytlarda 'rofil siluetlar xarakterlaydi. Siluet ma'lum davr mobaynida modada yuz bergan xarakterli o'zgarishlarni umumiy tarzda aniqlash imkonini beradi.

Siluetlarni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin: gavdaga yopishib turish darajasiga binoan - yopishib turadigan, sal yopishib turadigan, bemalol turadigan (120-rasm); bel chizig'i-ning holatiga binoan - bel chizig'i tabiiy joyda, bel chizig'i yuqoriroqda ko'tarilgan yoki pastroq tushgan, bel chizig'i sezilmaydigan (121-rasm); etak chizig'ining tizzaga nisbatan holatiga binoan-kiyim uzunligi tizzagacha, «mini»-tizzadan yuqori turadigan kalta, «midi» boldirlar yarmigacha tushadigan o'rtacha va «maksi»-to'liqqacha tushadigan uzun; bo'ksa, ko'krak chiziqlarini sezilish darajasiga binoan va yelka chiziqlarining holatiga binoan (yelkalari ko'tarilgan, yelkalari kengaytirilgan).

Aniqroq tasavvur etish uchun siluetni geometrik shakllarga (to'g'ri to'rtburchak, tro'etsiya, ovalga) nisbat berib qaraladi, uni alohida 'redmetlarga: bo'chkachaga, urchuqqa va hokazo; o'simliklarga: chuchmomaga, ochilmagan lolaga, bananga va shu kabilar; harflarga: X-simon, U-simon, A, D, T va hokazolarga taqqoslanadi.

Shaklning tabiiy chegaralarini tashkil etuvchi siluet ramkadan iborat bo'lib, kostyumning yechimlari shu ramka doirasida hal qilinadi.


Kiyimning konturlarini kiyim alohida qismlarining, detallarining konturlarini chiziqlar deb olsa bo'ladi. Kiyim kom'ozitsiyasi to'g'ri, egri va siniq chiziqlardan tuziladi.

Kiyimda quyidagi asosiy chiziq gru''alari bo'ladi.

Siluet chiziqlari - shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziqlar (2-rasm, a);

konstruktiv chiziqlar - kiyim shaklini hosil qilishdagina qatnashadigan chiziqlar: yelka choklari, yon choklar, vitochkalar, yeng o'tqazish choklari va hokazo (2-rasm, b);


konstruktiv-dekorativ chiziqlar ham shakl hosil qiluvchi, ham dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: bo'rtmalar, kokyotlarni ulash choklari, qirqmalar, mayda taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, burmalar va hokazo (2-rasm, v);



2-rasm. Ayollar ko'ylagi siluetlari



3-rasm. Bel chizig'i tabiiy holatdagi, yuqori ko'tarilgan va past tushirilgan holatlari.




4-rasm. Kiyimdagi chiziq turlari, a-siluet chiziqlar, b-konstruktiv chiziqlar, v-konstruktiv-dekorativ chiziqlar, g- dekorativ chiziqlar

dekorativ chiziqlar - dekorativ vazifalarnigina bajaruvchi chiziqlar: qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, tasmalar, to'rlar, bezak detallar, fo'rnitura, kashtalar, bantlar va hokazo (4-rasm, g).

Chiziqlar kiyimda katta rol o'ynaydi, chunki ular nazarimizni shaklning konstruktiv yuzasi bo'ylab yetaklab, harakat (dinamika) hosil qiladi-da, bu kishi gavdasini ma'lum ko'rnishida idroq etilishiga ta'sir qiladi (gavdani uzaytirib yoki 'asaytirib, gavda hajmini kengaytirib yoki kichraytirib ko'rsatadi). Bundan tashqari nazarimiz (qarashimiz) harakatini chiziqlar yordamida gavdaning ma'lum qismida (belda, bo'ksada, ko'krakda) to'xtatib turish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Shaklning k a t t a - k i c h i k l i g i. Shaklning bu xususiyatiga kiyim shakli katta-kichikligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki yoki uch shaklning ularni bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida qaraladi. Faqat ko'rinishi o'xshash kiyimlarga va ularning tarkibiy qismlarinigina katta-kichiklik jihatidan taqqoslash mumkin (5-rasm).

Katta bilan kichikni taqqoslayotganda shaklning katta-kichikligi umuman xayoldagina kattalashib yoki kichiklashib ko'rinadi.



5-rasm. Kiyim shaklining katta-kichikligi

M a s s a - bu umuman kiyim shaklini yoki undagi alohida qismlarning ko'rinishdagi og'irlik miqdori. Shakl massasining ko'rib idroq etilishiga quyidagilar ta'sir etadi;

shaklning katta-kichikligi - kattaroq shaklning massasi kattaroq tuyo'ladi;

hajmdorlik darajasi - hajm xarakteridagi shaklning massasi maksimal, chiziqli xarakterdagi shakl massasi esa minimal bo'lib ko'rinadi (1-rasm, a-v);

shaklning o'z chegarasi doirasida konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativ chiziqlarga qanchalar to'lganlik darajasi - kiyim shakli chiziqlarga siyrak to'lgan bo'lsa, massasi minimal, eng ko'p to'lgan bo'lsa massasi maksimal bo'lib ko'rinadi. (6-rasm, a);

materialning rangi, rasmi va fakturasi - fonini zich to'ldirib turgan yirik rasimli odmi yoki to'q rangli materiallar va fakturasi yaltiroq materiallar massasi maksimal, fonini siyrak to'ldirib turgan mayda rasimli ochiq rang, oqish materiallar va fakturasi siyrak materiallar massasi minimal bo'lib ko'rinadi (6-rasm, b)



6-rasm. a- shaklning chiziqlarga to'lganlik darajasiga qarab massaning o'zgarishi.



6-rasm. b– massaning material rasmi hisobiga o'zgarishi.

Kiyimlarni loyihalayotganda uning massasini yoshga, mavsumga va nimaga mo'ljallanganiga bog'lab hisobga olish kerak. Masalan, yasli yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimining massasi yengil bo'lishi kerak, shuning uchun ularni hamma vaqt ochiq, mayin rangli, mayda siyrak rasimli materiallardan tiqiladi; qishki kiyim ham ko'rinishda yengil bo'lishi kerak; chunki uning tabiiy vazni nisbatan katta bo'ladi, shuning uchun ular xur'aygan tukli fakturali materiallardan tiqiladi; maktab bitiruvchilarining tantana marosimidagi ko'ylaklarini oq, 'ushti, havorang va boshqa rangdor gulli materiallardan tiqiladi, chunki bunda, yoshlikka xayolchanlik xos bo'lgani uchun, sho'xchanlik, qushdek yengil lik, 'arvoz hissi sezilib turishi kerak.

3.KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA USLUB VA USLUBLASH. KATTA BADIY USLUBLAR.

Uslub va uslublash. Sanhatda uslub asosiy tushunchalarnidan biri bo'lib, vaqt mobaynida va jamiyatda kostyum evolyutsiyasi bilan bog'liq. Davr uslubi, tarixiy kostyum uslubi, moda uslubi, dizayner uslubi, firma uslubi tushunchalar ham uchraydi.

Uslub – badiiy fikrlashning eng umumiy kategoriyasi; sanhatda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g'oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy-plastik o'xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlar, g'oya va qarashlari aks etiladi. Uslub – davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo'ladi. Uslub barcha sanhat turlariga o'zgacha tahsir etadi, uni “davrning katta badiiy uslubi” deb atashadi. Sanhat tarixida davrga mansub “katta uslublar” birin ketin bo'lgan: Qadimiy Misr, Antik, Roman, Gotik, Renessans, Uyg'onish, Barokko, Rokokko, Klassitsizm, Ampir, Modern. Ushbu uslublar kostyum turini, shaklini, proportsiyalarini, qo'llagan matolarini, kiyish usulini va h.k. belgilagan.

Har bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat: paydo bo'lishi, avjga yetishi, inqirozga uchrashi. SHuni ehtiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo'lgan: oldin bo'lgan, ayni shu vaqtda xukumronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari. Har bir mamlakatda badiiy

madaniyati rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan aloqaligi bilan bog'liq badiiy uslublarni evolyutsiya dinamikasi o'ziga xos bo'lgan: masalan, XV asrda Italiyada Renessans uslubi avjiga chiqqan bo'lsa, Frantsiyada - kech Gotika, Germaniyada esa - Gotika XVI asrni o'rtasigacha bo'lgan, O'rta Osiyoda esa - Renessans uslubi IX asrdan boshlab to XVII asrga qadar rivojlangan.

“Katta uslub” doirasida “mikrouslublar” rivojlanishi mumkin. Masalan, Rokokko uslubi doirasida (1730-1750 yy.) “shinuazri” (xitoy uslubiga o'xshash) va “tyurkeri” (turkcha uslub); modern uslubi doirasida (1890-1900 yy.) “neogotika”, “neorus” va geometrik uslublari; “art deko” uslubda (1920 yy.), Misr, rus, afrika, geometrik va b. mikrouslublar mavjud bo'lgan.

Ammo, tarixiy davrlar o'tishi bilan “katta uslub”lar o'tmishda qoldi: jamoa va insonni turmush surhati tezlashishi, informatsion jarayonlarni rivojlanishi, yangi texnologiyalar va ommabop bozorni tahsiri, yagona uslubga emas, balki ko'p uslubiy shakllar va plastik siymolarni mavjud bo'lishiga olib keldi.

XIX asrda ilgari bo'lgan uslublarga asoslangan uslubiy yo'nalishlar paydo bo'la boshladi (eklektizm, o'tmishga berilish va b.). Eklektika – bu har xil uslublarni aralashmasi, bir necha uslubni baravariga mavjudligi. XX asrda eklektika madaniyatini muhim xususiyatlaridan biri bo'ldi, ayniqsa asrni oxirida – postmodernizm madaniyati modaga tahsir etgandi.

XX asrda “katta uslub”larni o'rniga sanhatda avangard sanhatni innovatsion mohiyati bilan bog'liq yangi kontseptsiyalar keldi: abstraksionizm, funksionalizm, syurrealizm, pop-art, op-art va h.k. Modada har bir o'n yillikda “mikrouslub”lar mavjud bo'lgan: 1910 yy. - neo-grek va sharq uslubi; 1920 yy.- rus, misr, lotin amerika, afrika; 1930 yy.- neoklassitsizm, o'tmishga berilish, lotin amerika, syurrealizm; 1940 yy.- kantri, vestern; 1950 yy.- Ng'yu Luk, SHanel'; 1960 yy. – kosmik; 1970 yy. romantik, retro, folg'k, etnik, sport, djins, diffuz, militari, ichki kiyim, disko, safari, pank; 1980 yy. – ekologik, yangi qaroqchilar, neoklassik, korset; 1990 yy. – granj, etnik, neo-pank, kiberpank, glamur, o'tmishga berilish, neo-xippi, minimalizm, dekonstruktivizm va b.

Har bir mavsumiy nashrlar yangi uslublarni targ'ibot etadi, dizaynerlar esa o'z uslubini yaratishga intilishadi. Ammo, barcha uslublar tasodifiy paydo bo'lmaydi. Siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar va b. uslubni shakllanishiga ta'sir etib, uni aktual qiladi. Modali uslublarda insonning siymosi va turmush tarzini o'zgarishi hozirgi zamonda uni o'rni va roli bo'yicha tasavvuri ifodalanadi. Yangi uslublarni paydo bo'lishiga yangi materiallar va ularga ishlov berish usullari tahsir etadi.

Ko'p uslublar orasida klassik uslubni ajratish mumkin: ular uzoq vaqt davomida aktualligini saqlab, modada bo'ladi. Klassik uslub muayyan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: universallik, ko'pfunksiyalik, shakl yaxlitligi va oddiyligi, odamni talablarini qondiradigan. Klassik uslubga, masalan, ingliz, SHanel uslublari kirishi mumkin.

“Katta badiiy uslub”lar va “mikrouslub”lardan tashqari “muallif uslubi” yoki “ustaning individual uslubi” degan tushunchalar bor. Bu uslub turida muallifning mavzulari, g'oyalari, qo'llagan tasviriy vositalari va badiiy usullari namoyon etiladi. K.SHanel, K.Dior, A.Kurrej, Dj.Versache, K.Lakrua, V.Zaytsev, V.Yudashkin va b. ijodi muallif uslubi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy buyum muhitni badiiy-plastik bir xilligi “dizayn-uslub” deb ataladi. Bu uslub texnikaviy taraqqiyotni o’zlashtirish natijasini namoyon etadi. U yangi mato va texnologiyalar bilan bog’liq bo’lib, buyumlarni tashqi ko’rinishini faqat o’zgartirmasdan, insonni hayotiga yangi xossalarni baxsh etadi va buyum insonni o’zaro aloqasiga tahsir etadi.

Dizaynda “*firma uslubi*” degan tushuncha ham bor – bu firmani ishlab chiqargan mahsulotiga uslubiy birlik mansub. Firma uslubi konkret mualliflar tomonidan yaratiladi va subhektiv xossaga egadir.

“Uslub” tushuncha bilan “uslublash” tushunchasi chambarchas bog’liq. Yangi san’at asarlari yaratilganda uslublash badiiy usul sifatida qo’llanadi. *Uslublash* – mahlum uslubning siymosi va formal belgilarini yangi, unga monand emas badiiy kontekstda g’arazli maqsad bilan qo’llash.

Bu usul timsol bilan erkin foydalanishni, transformatsiya etishni ko’zda tutadi, asos qilib olingan uslub bilan aloqani uzmasdan. Bu holda ijodiy manba doimo tanish bo’ladi. Badiiy vosita sifatida uslublash klassitsizmda, neoklassitsizmda va b. qo’llangan.

Zamonaviy dizaynda ommabop istehmolchiga mo’ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda bu usul o’z ahamiyatini saqlab qolgan, ayniqsa, kommertsiyachilik dizaynida (“korporativ” dizaynda).

Dizaynda uslublash – bu birinchidan buyumni loyihalashda muayyan uslub xossalarini ongli qo’llash (bu ma’noda ko’pincha “stayling” tushunchasi qo’llanadi); ikkinchidan – madaniy namunani ko’rinarli xossalarini to’g’ridan-to’g’ri loyihalayotgan buyumga ko’chirmoq, ko’pincha bezakda; uchinchidan – tabiiy shakllar yoki muayyan buyumlarga taqlid etib, shartli dekorativ shakl yaratish.

Uslublash usulda ajoyib kolleksiyalarini Iv Sen-Loran 1960-1980 yy. (“Afrikanka”, “Rus balet-operalar”, “Xitoy ayoli”, “Ispan ayoli”, “Pikasso hotirasiga” va b.) yaratgan.

Modaga nisbatan uslub-og’ishmasi ijtimoiy fenomen. K.Shanel aytishi bo’yicha: “Moda o’zgaradi, haqiqiy uslub esa – xech qachon”.

Dizaynerlar, moda jurnallari, televidenie va Internet tavsiya etgan ko’p uslublar orasida zamonaviy kostyum dizaynida asosiy yo’nalishni aniqlash mumkin.

Bu yo’nalishlardan biri – modani demokratizalyalanishi, o’ziga xos “modani xukumdorligidan ozod bo’lish”, barchaga majburiy yagona modali namunani yo’qligi, turli mo’ljall kiyimlarni farqlanmasligi, “yaxshi did” qonunlarni, turli buyumlarni birikmalarini, ranglar va materiallarni qo’llash qoidalarni muqarrar emasligi.

Ikkinchi yo’nalishi – buyum muhitini industrializatsiyalanishi, har bir insonga o’z fikrini erkin ifodalashga sharoit yaratish.

Jamoani oldida turgan muammolarni yechishda ko’mak berishda dizaynni insonparvar roli kuchaymoqda, chunki u turmush tarzini shakllanishiga insonning talablar tarkibini aniqlashga ta’sir etishi mumkin, jamiyatda ekologik qiymatini tasdiqlashga imkon beradi.

4.Zamonaviy kostyumning uslubiy yechimlari. Moda tushunchasi va uning tarkibi. Moda funktsiyalari. Moda rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Klassik uslubi. Klassik (odmiy, ishbilarmon, elegant) uslubiga modaga deyarli sig'inmaydigan, turg'un vaqt davomida tanlangan, deyarli o'zgarmaydigan uslub. Klassik uslub – chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, bichimni mantiqaligi. Odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko'zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e'tiborni o'ziga sifati bilan tortadi. Klassik uslubini asosida, uni ba'zi elementlarini kombinatsiya qilib, har xil mikrouslublar shakllanadi. Klassik uslubga libosning barcha elementlarini kiritish mumkin. Yangi klassika odatiy shakllarning sipoligini yuqotdi – modellar yumshoq, tabiiy va oliyjanob. Ammo, avalgiday klassika detallarni minimumi bilan farqlanadi. Ko'pincha materiallar erkaklar modasida o'zlashtirilgan – bu reps, gabardin, poplin va flanelg', yupqa klassik yo'l –yo'l va "yolochka", yumshoq jun gazlamalari. Uslub favoriti – shim va yubka, nimcha bilan klassik kostyum.

Ingliz uslub. Kiyimda klassik uslubni tipik namunasi – ingliz uslub. Bu uslub uch asr maboynida rivojlanadi va modani injiqligiga qaramasdan o'z ommabopligini yo'qotmadi.

"Ingliz kostyum" tushunchasi XY111 asrda pado bo'lgan. Aynan shu vaqtda Angliyada shakli va rangi bo'yicha sipo kiyim uslubi yuzaga kelgan.

XY111 asrni 80–chi yillarida otda yurish kostyum juda ommabop bo'lgan: movutdan frak, redingot – etagi to'g'ri ustki kiyim, tor pantolonlar, qaytarmali etiklar. Bu odmi kostyumni ingliz kostyumi deb atashadigan bo'ldi.

Ingliz uslub ayollar kostyumiga xam tahsir etdi: silueti o'zgardi, ayollar qattiq moslamalarni (karkaslarni) kiyimaydigan bo'ldi, bu kiyimni qulay va oddiyroq qildi. X1X asrni 80–chi yillarida ayollar modasiga erkaklar kostyuminini bichimini eslatadigan kostyum kirdi: astarli jaket va to'g'ri shaklli taxlamali yoki taxlamasiz yubka. SHunday kostyumni odatda erkak ustalari tikishgan. Ingliz kostyumi ko'zga tashlanmaydi, shuning uchun yorqin emas, yo'l –yo'l yoki kaktak –katak gazlamalari qo'llanadi.

SHanel' uslubi. Koko SHanel uslubi – bu erkin ayolnini elegant –amaliy uslubi. Tviddan kostyumlar, qora duxobadan kichkina ko'ylaklar va yaltiroq bashang liboslar XX asr klassikasi deb hisoblanadi. Frantsuz dizayneri Gabriel SHanelning nafis bichimi ayollarni korsetlardan voz kechishga va shimni go'zallik ramzi qilishni majbur qildi. Bu uslub oddiy, go'zal va internatsional. Madam SHanel kostyumida o'z fikirini amalga oshirdi: "Men modaga qarshiman, chunki u tez o'tib ketadi. Baxor kelgani uchun kiyimlarni tashlanganini ko'rishga toqatim yo'q".

SHanelning kostyumi to'g'ri yoki nim yopishgan siluetli, bel chizig'i tabiiy holda va o'rta kenglikda o'tqazma yeng, yoqali yoki yoqasiz, qopqoqli qoplanma cho'ntakli, yirik tugmali. Bezakka maxsus e'tibor beriladi: yengning shlitsasida uch tugmadan kam bo'lmasligi kerak, zarli yoki kumish, jun, to'r tasma. SHanel gazlamalari – tvid, djersi. SHanel buyumlarni klassik uzunligi – tizzani sal berkitadi. Nafis elementlari tuqalar, zanjirli belbog'lar, breloklar, bantlar, tug'nog'ichlar. SHanel ilk bor ikki rangli tuflilarni yaratdi, sumkalarni zanjirlar bilan bezatdi, erkaklar smokinini ayollar modasigi kiritdi va kichkina qora ko'ylakni va sviterni kiritdi. Zamonaviy modada SHanelning sodiq davomchisi – mashhur dizayner Karl Lagerfeld.

Minimalizm uslubi. Minimalizm uslubi yoki *purizm*, oddiy etilganda – soddalik, odatda davrlar qirrasida ro'y berdi, qachonki eskisi jonga tekkan, yangisi esa xali yaratilmagan. Aynan shu vaqtda jamoada "toza varaqdan hayotni boshlash" talab paydo

bo'ladi. Turli davrlarda va mamlakatlarda minimalizm o'ziga xos bo'lgan. Bu uslub komfortlikni xoxlaydi, uning shiori: qanchalik kam bo'lsa, shunchalik yaxshi! Bu uslubda oddiy bichim, rang palitrasi ochiq, qora, kul va oq ranglar ko'p qo'llanadi; tabiiy ranglar kiyimni har xil qilib ko'rsatadi. Bu uslub ayollarga taqinchoqlarni kiyishni, jingalak sochni, aksessuarlarni kiyishni man etgan, modaga qora tuflini kiritgan. Siluet pret-a-porte moda tendentsiyalariga rioya qilgan. Bu shaxar uslubda yumshoq siluetlar, to'kilib turadigan va qalin materiallar (jun krep va krep –gabardin), neytral va pastel ranglar mavjud.

Animal uslub kiyimda charm va mo'ynani qo'llash. Animal uslub mododadan chiqmaydi, demak u klassik deb hisoblansa bo'ladi. Zamonaviy moda bu uslubda xayvonlarning charmini imitatsiya qiladigan materiallar qo'llanadi. Animal uslubi kundalik kiyim modasi emas.

Bugun tabiiy mo'yna va charm dabdalik ramzidir. Sunniy charm va mo'yna tabiiylaridan qolishmaydi. Bu uslubda murakkab bichimlar bo'lmasligi lozim. Animal uslubida ansambil sidirg'a buyumlar bilan elegant kurinadi.

Katak–katak uslubi. Katak–katak kiyimga moda kiradi va ketadi, ammo doimo qaytadi. Katak–katakni uzoq xayoti klassik uslubga kiritishga imkon beradi. Kundalik modani yangi siymosi – “*shotlandka*”, yorqin taxlamali katak–katak yo'li yubkalari, djemperlar va beretlar. Kundalik kiyimda mayda katakli–*vishi* qo'llanishi mumkin. Optimal variant – oq fon, qizil katak–katak. Katak–katak materiallar sidirg'a materiallar bilan qo'llanilishi yaxshi effekt beradi. Surilgan katak–katak “tovuqning panjachasi” naqshni Koko SHanel kiritgan.

Romantik uslub – bu fantaziya, izlanish, xotira sohasi, u tarixiy kostyumga intiladi va undan shakl, bichim va dekorativ bezak o'zlashtiriladi. Romantik libos qomatni go'zalligini va ayollarninig an'anaviy suzilmoqligini, sentimentalligini, sezuvchanligini namoyon etishi lozim. Bu uslubning asosiy silueti – X–simon, yumshoq va main chiziqlar bilan. Minimalistik uslub m'an etgan bezaklar – drapirovkalar, dekolg'te, koketkalar, qo'sh burmalar, volanlar, ryushlar, jabo, bantlar, to'rlar, buflar, manjetlar rulikdan izmalar romantik liboslarda keng qo'llanadi. Bu uslubda yorqin ranglar libosda qo'llanadi. Poyabzal loklangan charmda va kimxobdan baland poshnali “kemacha” tuflilar. Uzun yoki kal'ta qo'lgoplar. Murakkab soch turmagi. Vualli shlyapalar, nozik taqinchoqlar, shifondan sharflar. Bu uslub kechki va bayramona kiyimlarida qo'llanadi.

Fantazi uslubi. Zamonaviy moda romantikaga o'z kurinishini namoyon etadi. Fantaziya uslubi avangard uslubidan farqi – zamonaviy modani ifodasi bo'lmaydi. Romantik uslub – bu utmish va kelajakni fantastik siymolari. Fantazi uslubini asosiy xususiyatlari: noreallik, ertaklik, syurrealik, abjirlik, jasurlik. Bu uslub tomashabinni xayratga soladi. Fantazi liboslarni siluetlari har xil va o'zgacha. Bezak sifatida bantlar, strazlar, munchoqlar, charm va zamsha, kashta va b. qo'llanadi. Fantazi uslubi dizaynerning ijodini cheklamaydi.

Xippi uslubi. XX asrni 60–chi yillarida xippi modani boshdan oyoqqa og'dardi. Endi modaning qoidasi–xech qanday qoida bo'lmasin. Bu xippi o'zgacha psixologiyasi – “gullar bolalarini”. Ammo, zamonaviy modada 60–chi yillardagi kabi mahnaviy va ideologik intilish yo'q. Zamonaviy dizaynerlar faqat cheklashni mutlaqo yo'qligi, kiyim tassavur chegarasidan chiqishi kerak. Xippilarni libos to'plamida kashtali djinslar,

o'zgacha belbog'lar, ola-bula koftalar va topiqlar, to'qilgan yoki katta sumkalar, tunika yoki uzun, beli yuqori kutarilgan yupqa ko'ylak, ochiq shippaklar, kosmetikani minimumlikligi, to'g'ri tashlangan sochlar. Xippilar orasida dehkonalar kiyimi – taxlamali uzun yubka keng tarqalgan. Munchoqlardan fenechkalar, bandanalar, charmdan kurtkalar, qo'sh burmali jaketlar va dumaloq yoki kvadratli to'qilgan linzali kichkina ko'zoynalar keng qo'llanadi. Zargar buyumlar meksikali, hind yoki maroqash melg'xiordan qilingan zargar buyumlar. Bilak uzuklar, uzuklar, qo'loq va burun uchun xalqalar. Tinchlik ramzlari, mushtum, Ing'-Yan va boshqa sharq ekzotikasi ramzlari marjonlar bilan bezatilgan.

Retro uslubi. Utmish modasi – zamonaviy dizaynerlarini ijodida ilxomlanish manba. Retro uslubi – zamonaviy modada utmish mavzularni, detallarni, modellashtirish usullarni qo'llash yo'nalishi, ammo ularni takrorlanmasligi.

Har bir tarixiy davr modasi o'ziga xosligi bilan ajraladi, ularni o'z retro siymosi bor. Retro moda o'tmish modasini nusxasi emas, balki uni stilizatsiyasi bo'lishi kerak.

Vintaj usuli. Utmishga asoslangan romantik modada yana bir yo'nalish vintaj (vintage). Bu uslubda o'tgan yillardagi o'ziga xos liboslari mavjud, yahni popukli sumkalar, to'qilgan shollar va b. Vintaj kolleksiya modellari benuqson tarbiyalangan, qirolicha qomatli, nozik va elegant xaqiqiy ledilarni eslatadi. Bu uslubning asosiy elementlari – to'g'ri siluetlar, kashta va to'rni qullanishi, shaklni sipoligi.

Mutaxassislar romantik uslubni rivojlanishini prognozlashmoqda. U uniseks modani asta-sekin siqib chiqarmoqda. XX1 asrda ayollarning nazokatini namoyon qiladigan, xarakatiga mayinlik beradigan kiyim birichi qatorga chiqadi. Taxmin bo'yicha moda tanani berkitadi. Ertaklar va tasavvuf ilxom manbasi bo'ladi. Dengiz, okean, sexir, tasavvuf, erotika, musiqa, sevgi, parvoz va b. romantik yo'nalishni belgilaydigan eng ommabop mavzular bo'ladi.

Sport uslubi. Sport uslubi qulay va go'zal sport liboslarni modaga ta'sir etdi. Xozir sport uslubida libosning barcha elementlari qilinishi mumkin: uy kiyimidan bashang kostyumigacha. Eng oddiy sport usubining varianti kiyimda qoplonma cho'ntaklar, pogonlar, fo'rnitura, koketkalar, xlyastik va patalar va b. Sport uslubiga bir necha mikrouslublar kiradi.

Safari uslubi. Safari – bu sport uslubining eng ommabop yo'nalishi. “Safari” uslubi Afrikada ingliz xarbiylar ov safarida kiyigan liboslariga asoslangan. Bu uslubni targ'ibotchisi 1980–chi yillarda Iv Sen–Loran bo'lgan. Safari uslubdagi libos – bu asosan zig'ir, ip, aralashma va djins gazlamalardan tikilgan kiyim. Safari uslubda barcha yechimlari qo'laylikka qaratilgan: o'rtasi taxlamali qo'p qoplonma cho'ntaklar, uzun etiklar, shlemlar, charm belbog'lar, yelkasiga osilgan sumkalaru uslubda tipik detallari portfel–cho'ntaklar yoki pogon va o'qdonlar bo'lgan. Yuqorida aytilgan ranglar qatorida safari uslubida zirvorlar rangi, sarig'ich–yashil, noxat, yashil limon ranglar qo'llangan. Sudralib yuradigan hayvonlarning terisiga o'xshaydigan animal bosmalar va rasmlar keng qo'llanadi. Gannover moda eksperti Tuula Zalo safari uslubini zamonaviy yo'nalishini shunday tavsiflaadi: “Yangi safari uslubidagi liboslar yangi gazlamalaridan va animal bosmalarga asoslanadi. Bichimiga esa deyarli ahamiyat berilmaydi”.

Denim yoki djins uslubi. Bu uslub boshidan doimo ommabop, hashamatli, yoki oddiy. Djins uslubida asosiy rang– to'q–ko'k. Ilk bor ishchilar uchun kiyim bo'lib, xozir

esa ko'k denim "ot kutyur" va "pret-a-porte"da keng namoyish qilinadi. Indigoga bo'yalgan ip gazlamasi dag'alligini yo'qotdi. Yangi texnologiyalar yordamida yangi xususiyatlarga ega bo'ldi. Bugun djins uslubi sport uslubidan chiqib, boshang kiyimiga ham kirdi. Zamonaviy denim yaltiroq qoplonma va payetkalar bilan bezatilgan, kamalak ranglarga bo'yalgan.

Militari uslubi. Militariluk – 70–80–chi yillarda sport va dam olish uchun kiyimlarida xarbiylashgan uslub. Bu uslubda ajralib turadigan detallari – pogonlar, pat va qopqoqlar, q'qdonlar, haqi rangli gazlamalar, xarbiy botinkaga uslublangan poyabzallar. Xarbiy formaga moda doimo qaytadi, chunki u uniformani namoyish etadi. Militari uslubda dizaynerlarni qiziqtiradigan xossa – uning utilitarligi va teatralligi. Bu uslub tartib va jasorat ramzi. 2001–2002 yillarda militari uslubi keng tarqalgandi. Bu davrdagi militari modasi ko'proq teatral tomonga intilgandi. Iv Sen–Loran Moda Uyi gusarlarni mundirlariga o'xshagan paltoni taqdim etishdi. Dlog'che va Gabbana yelkani epoletlar bilan bezatishgan, ko'kragini esa zargorli buyumlar va oltin tugmalar bilan bezatishgan.

Dengiz uslubi. Bu uslub ilk bor 1880 yillarda bolalar kiyimida paydo bo'lgandi. Matros kiyimini eslatadigan bolalar kiyimlari juda ifodali va qulay bo'lgan. So'ung bu detallar ayollar modasiga kirgan. Dengiz uslubi bugun ham o'z muhimligini yo'qotmadi. Bu uslubni farqlaydigan detallari kvadrat shakldagi katta yassi yoqa va oq–ko'k tasmalar. Dengiz uslubda to'q–ko'k bleyzerlar, oltin tugmalar, oq shimlar, furajkalar va b. mavjud. Odatda bu uslubda yozgi kiyim yaratiladi. Unga taxlamali yubka yoki shim, keng bluza, matros yoqali jaket, yo'l–yo'l mayka yoki bluzka kiradi. Bu liboslarda asosan tabiiy zig'ir va ip gazlamalari qo'llanadi.

Kosmik uslub. Kosmik uslubni asosan kosmosni eslatadigan futuristik turdagi materiallar qo'llanadi. Mavzuni ifoda etish uchun sport gazlamalari (elastik tolali sintetik gazlamalar) ham qo'llanadi. Texno gazlamalar – bu yuqori texnologiyali gazlamalar, ular hashamatli ko'rinadi va kiyilganda optimal komfortni bahsh etadi. Gazlamaning fakturasi ifodali bo'lgani bois, rangi va bichimiga deyarli axamiyat berilmaydi. Nyuanslar asosiy bo'ladi – bezak oq va kumish ranglar. Qora rang kam uchraydi. Siluetlar oddiy tug'ri va tor. Ajralib turadigan uslubiy vositalar – yoqa o'mizini sipo variantlari ("kemacha" shaklida, tik yoqa va baland yoqa–truba). Kosmik uslubida poyabzal o'zgacha mahnoga ega – "lunoxod"turidagi, tumshig'i dumaloq, qalin taglikli yoki tekstil gazlamalardan etiklar.

Op–art uslubi. Gazlamalarni optimistik bosmalari op–art uslubini sport yo'nalishiga kiritishiga imkon berdi. Op–art uslubi (*optical art* – optik sanhat) ilk bor 60–chi yillarda modaga kirdi. Tasviriy san'atda op–art oqimining asoschisi vengriya rassosmi Viktor Vazarelli bo'lgan. Bu uslubning o'ziga hosligi – yassi va fazoviy figuralarni tasavvur qilinishiga asoslangan ko'z aldanishlar. Optik rangtasvirda oddiy bir xil elementlar shunday joylanadi, qachonki shakl tarkibi yaxlit tasavvur etilmaydi, ya'ni ko'z aldanadi. "Sof rang va sof shakl o'ziga butun dunyoni sig'dirish mumkin" – hisoblagan V.Vazarelli. Op–art uslubidagi liboslarda geometrik, abstarakt naqshlar, yorqin, bir–biri bilan kontrastli rangli gazlamalar qo'llanadi (masalan oq–qora ranglar birikmasi).

Graffiti uslubi. Bu yoshlar uslubi 1960 yildagi op–art uslubining davomi. Graffiti (italian *gruffiare* - tirnamoq) – bu devorlarda rasm yoki yozuvlardan badiiy

kompozitsiyani yaratadigan “ko’cha sanhati”. Pikasso graffitida odamning yuzini va qomatini ifodalash uchun minimal miqdorda grafik elementlari qo’llanadi degan. Bu uslubning asosiy xossasi –jins yoki yoz kiyimida shaxar tasvirlagan kashta yoki shaxar mavzudagi, matn, yozuvlar va bolalar rasmlarning imitatsiyasi bo’yicha bosma.

Fitnes uslubi. Fitnes – bu sport bilan shug’ullanish mahnosini bildiradi. Ohirgi payitlarda moda yaratuvchilari sport kostyumi g’oyalariga nazarini tashlashgan. Ular velosipedistlar, suzuvchilar, gimnast kostyumlariga o’z e’tiborini qaratishdi. Fitnes uslubidagi liboslarida elastik materiallar, sport kostyumdan o’zlashtirilgan lampaslar, tasma “molniyalar” va yorqin kontrast rang birikmalari qo’llanadi.

Folklor uslubi. Folklor uslubi – bu milliy kostyumlarning elementlarini qo’llaydigan uslub. 1950 yillardan boshlab qishloq uslubi “kantri uslub” ommabop bo’lgandi, 1990 yillarda bu uslub etnomiks shaklida tarqalgandi. Folklor uslubi bugun – bu faqat kiyimni bezagigina emas, balki elementlarni, shaklni, buyumlarni zamonaviy modada o’zlashtirish. Folklor uslubida kiyim yaratish – bu milliy kiyimni nusxasini yaratish emas. Gazlamani tanlash, uning rangini, merejka kashtasi, naqshli tasma, atlas lentalar, bichim va detallarni qo’llanishi buyumni folk uslubiga mansubligini ko’rsatadi. SHartli folklor uslubiga ingliz kantri, amerikalik vestern va turli etno–miksalar kiradi.

Kantri uslubi. Kantri uslubi XX asrni boshida vujudga keldi. Bu atama mamlakat va qishloqni ifodalaydi. Bu uslub shaxardan tashqariga sayr uchun kiyiladigan kiyim nazarda tutiladi. Masalan, kantri uslubida tviddan tikilgan sport kiyimi, yupqa jun gazlamasidan tikilgan palto bo’lishi mumkin. Odatda kantri uslubdagi kiyimga uzun sharflar, to’qilgan shapkalar, etikka tiqilgan shimlar qo’shimcha kiyiladi. Ayollar yubkalar, yopinchoqlar, shlyapalar, tufli va paypoqlar kiyishi mumkin. Kantri uslubida muhim detal – gulli, yo’l–yo’l va katak–katak naqshli tekstil. Kostyum koloritida tabiiy ranglar qo’llanadi: yashil, sariq, moviyosmon va suv, daraxt, kuzgi yaproqlar va b.

Gaucha uslubi. Bu uslub 1960 yillarda modaga kirgan folk uslubining bir varianti. Gaucha uslubi Janubiy Amerikadagi chorvodorlar–gaucha kiyimlaridan o’zlashtirilgan: charm va zamsha kurtkalar, charmdan qilingan popuk va zaklepkalar bilan bezatilgan shimlar, nimchalar. Gulli ko’ylak kovboy etiklari bilan, short bilan romantik bluzkalar – bu gaucha uslubdagi ijod qiladigan dizaynerlarni zamonaviy modellaridir. Zamonaviy modada gaucha uslubi naqshlar, materiallar, bo’yoqlar va shakllar o’zgacha birikma.

Yapon uslubi. XX asr oxirida va XXI asr boshida ommabop bo’lgan etno uslub. Bu uslubni mantiqiylik va bekam–ko’shtlik tavsiflaydi. Libosdagi tipik detallari: yapon kimonosini eslatadigan bichim, ierogliflar, “obi” belbog’i, yog’och taglikli ketani eslatadigan oyoq kiyim.

Moda tushunchasi va uning tarkibi.

Moda (frants., mode — meg’yor, tarz, usul) paydo bo’lishi anchagina murakkab voqea bo’lib, jamiyat hayotidagi qator-qator hayot omillariga bog’liq, insonning juda ko’p faoliyatiga o’tadi.

Moda — turmushning tashqi ko'rnishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muloqatda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir (V. Dalg').

Moda bilan uslub o'rtasidagi farq zaminida ularning ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatning o'tmishga va tevarak-atrofdagi dunyoga munosabati umuman ifoda topsa, modada ana shu jamiyat ichidagi zamondoshlarning o'zaro bog'liqligi aks etadi.

Oldiniga jamiyat bir qismining didi o'zgarishi natijasida kelib chiqqan moda keyinchalik uslub yaratilishining dastlabki momenti bo'lib qolishi mumkin. Uslub yaxlit bir sistema bo'lib shakllangandan keyin modani tartibga solib, cheklab va yo'naltirib turadi. Bu ikkala tushuncha bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'liq bo'lib, bir-biriga dinamik nisbatda bo'ladi. Jamiyatning ishlab chiqarishdagi texnika, fan, informatsiya, turmushdagi o'zgarib turuvchi sharoitni davr badiiy-didi bilan moslashtirishga bo'lgan ehtiyoji uslub bilan modani harakatlantirib turadi. Boshlangich barqaror shakllar ishlab chiqish uslubining vazifasi bo'lsa, yangi formalar qidirish modaning ulushi bo'ladi. San'at taraqqiyotida moda eksperimentator va razvedkachi rolini o'ynaydi.

«Umuman modaga xayratlanib va xayrixoxlik bilan qaraydilar. Undan zavqlanadilar, unga ergashadilar. Lekin hamma emas. Modani yoqtirmaydiganlar ham bo'lib, ular o'zining yetuk bo'lmagan yoki ochiqdan-ochiq konservativ didlarini boshqalarga o'tkazish mumkin deb hisoblaydilar. Modelerlarning xar bir yangi taklifiga ular ashaddiy qarshilik ko'rsatadilar. Biroq hali hech kim vaqtni to'xtata olgan emas!» (V. Zaytsev. Takaya izmenchevaya moda. M. 1980, 11-bet).

Almashlab turish modaning eng muhim xususiyati. Yangi moda paydo bo'lganda kostyum o'zining estetik qadrini yo'qotadi. Bu esa modaning xarakteridagi ziddiyatni ko'rsatadi. Moda vaqtinchalik va o'tib ketadigan tushunchaku, lekin unda go'zallik tushunchasi sifatida saqlanib qoladigan estetik topilmalar o'am bo'ladi. Moda - zamonaviy degani, estetik qiymat esa hamma vaqt o'zgarmas bo'lib qoladi. Biroq modaning ziddiyatliligi uning progressivligini inkor etmaydi. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo'ladi. Moda turmush madaniyati va estetikasini olg'a tomon yetaklab boradi. U zamonaviylik nuqtai nazaridan eng ma'qul yechimlarni tanlab oladi. «Moda—bu yangilanish! Bu tabiat rioya qiladigan printsip! Daraxt eski bargini, odam esa jonga tekkan kiyimini tashlaydi. Narsalar haddan tashqari o'rganish bo'lib ketsa, odam ulardan tez charchaydigan bo'lib qoladi. Moda zerikarli bir xillikdan xalos qiladi. Odamlar bir-biriga yoqishni xoxlaydi: chiroyli kiyinsam, yaxshi ko'rinsam deydi - bu tabiiy ehtiyoj» (Pg'er Karden. «Nedelya», 1975, 38-son).

Moda-bu taqlid va yangilik. Lekin bunda hamma vaqt yangilikka yoki g'ayritabiiylikka taqlid qilinaermaydi. SHaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatida taqlid bilan bir qatorda buning aksi bo'lgan hodisa-o'ziga xoslik namoyon etish ham bo'ladi.

Moda qaerda paydo bo'ladi? Ko'pchilik Modellar uyida deb hisoblaydi. Xo'sh, Modellar uyi bo'lmaganda moda qanday paydo bo'lgan? Hamma vaqt modaning avtori bo'lganmi? Moda tarixchisi Beyonning ta'kidlashicha, modaning asosiy chizig'ini hech kim yaratmaydi. Moda jamiyat bilan birgalikda o'sa boradi va

taraqqiy topadi, u - zamona farzandi-yu, lekin o'zining qat'iy xarakteri bor. Muayyan konkret moda ko'chkiga sabab bo'ladigan qor soqqaga o'xshaydi. U o'sib, semirib boradida nihoyat, chegarasiga yetganda, buzilib ketadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, iqlim, tevarak-atrofdagi tabiat xalq an'analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, texnika, sportga ommaviy qiziqish, yangi materiallar paydo bo'lishi, kosmik davr kabi turli-tuman omillar modaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

2 - MAVZU: KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNIYATLARI VA XUSUSIYATLARI

Mashg'ulot turi - ma'ruza **Asosiy savollar:**

1. Kompozitsiya yaxlitligi.
2. Kostyumda kompozitsion markazning o'rni.
3. Kompozitsiyani yaxlitligini yaratish uchun qo'llaniladigan qonuniyatlar (miqdor, sifat, markazda joylashish).
4. Kompozitsiyada statiklik va dinamiklikni yaratish sabablari (geometrik shakl turlari, chiziqlar, nisbatlar, rang, ritmik tuzilishlar).
5. Simmetriya va asimmetriya turlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Kompozitsiya yaxlitligi. Kostyumda kompozitsion markazning o'rni. Kompozitsiyani yaxlitligini yaratish uchun qo'llaniladigan qonuniyatlar (miqdor, sifat, markazda joylashish). Kompozitsiyada statiklik va dinamiklikni yaratish sabablari (geometrik shakl turlari, chiziqlar, nisbatlar, rang, ritmik tuzilishlar). Simmetriya va asimmetriya turlari. Simmetriya guruhlari. Kompozitsion muvozanat.

Adabiyotlar

1. Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
2. Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
3. Xasanbaeva G.K. To'qimachilik dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
4. Н.Содиқова. Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.
5. Xasanboeva G.K., SHomansurova M. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma.-Т.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
6. S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma.-Т.:Turon-Iqbol, 2006-y., 128b.

1. Kompozitsiya yaxlitligi.

Kostyum kompozitsiyasining uyg'un bir butunlik sifatida shaklni yaxlitligi, simmetrik va asimmetrik, statiklik va dinamiklik kabi bir qator xususiyatlari bor.

Shaklning yaxlitligi. Shaklning yaxlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion mujassamligi o'rtasidagi aloqa mantiqini va uyg'unligini aks ettirgan bo'ladi.

Xar qanday kompozitsiyani asosiy elementlar bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarning bir-biriga bo'ysunganligiga asoslangan muayyan sistema deb qaralsa bo'ladi. Bunda asosiy va bo'ysungan qismlar bir butunlik tashkil etib, o'zaro bir-birini kuchaytiradi.


Kompozitsion tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda ham albatta asosiy qism yoki kompozitsion markaz mavjud bo'lib, boshqa qismlar unga bo'ysundirilishi kerak. Asosiy qismi yaxlit kompozitsiyada hukmron bo'lib turadi.

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo'lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko'krakda, bo'ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va hokazo yerda bo'ladi. Kostyumning istalgan qismi - masalan, bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim, sumka, biron bezak va hokazo kompozitsion markaz bo'lishi mumkin. Ust kiyimning istalgan qismi ham - ko'krak qismi, yubka, yenglar, yoqa va boshqalar - kompozitsion markaz bo'lishi mumkin.

Asosiy qismini kostyumda qanday joylashtirish jins-yosh alomatlariga (katta yoshlilar uni yuz yaqinida joylashtirishadi, yasli yoshidagi bolalar uchun esa u yuz atrofida yoki oyoq yaqinida bo'ladi), gavda tuzilish turiga (to'la kishilar uchun asosiy qismni belda, bo'ksada bo'lishi tavsiya etiladi) va kiyimning nimaga mo'ljallanganiga bog'liq.

2. Kostyumda kompozitsion markazning o'rni.

Shakl elementlarining o'zaro tengsizlikni belgilaydigan, kompozitsion markazning boshqa qismlardan ustunligini ta'qidlab beradigan xususiyatlarning qonuniyatlari asosida kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatishga erishiladi. Quyida shu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz.




7-rasm. Miqdor qonuniga asosan asosiy qismini bo'rttirib ko'rsatish sxemasi.

Miqdor qonuni. Bir turli bezakning katta-kichikligi, xajmi, massasi yoki miqdori kattaroq bo'lgan boshqa qismlaridan ustunroq kelib turadi (7- rasm).



8-rasm. Markazda joylashganlik qonunidan foydalanib asosiy qismini bo'rttirib ko'rsatish

Markazda bo'lish qonuni. Bo'rttirib ko'rsatiladagan qismning nisbatan markaziy joyda bo'lishi boshqa xamma jihatlari teng bo'lgan holda shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko'rsatadi (8- rasm).



9-rasm. Sifat qonuniga asosan asosiy qismni bo'rttirib ko'rsatish sxemasi

3. Kompozitsiyani yaxlitligini yaratish uchun qo'llaniladigan qonuniyatlar (miqdor, sifat, markazda joylashish).

Sifat qonuni. Xususiyati yoki bir guruh xususiyatlari jihatidan ko'proq bo'lgan qism ustun bo'lib turadi. Rasmiy xarakterda bo'lgan har qanday turli bezaklarning har xil aktivligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko'rsatish priyomlaridan biri bo'ladi (9-rasm).



10-rasm. Mazmun omili qonunidan foydalanib asosiy qismni bo'rttirib ko'rsatish.

Ma'no omili qonuni. Bir butunning ma'nosi bor bezakli qismi (emblema, gullar va boshqalar) rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turadi (10-rasm).

4. Kostyumda statiklik va dinamiklikni yaratish sabablari (geometrik shakl turi, chiziqlar, nisbatlar, rang, ritmik tuzilish).

Statiklik va dinamiklik. Kompozitsiyaning ifodaliligi, uning tushunishga qulayligi shaklning bo'ysungan qismlardan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo'lib ko'rinishi (dinamikasi) qay darajada hosil qilinganligiga bog'liq. Nimaiki bo'rttirilayotgani aniq bo'lishi uchun, harakatni kostyumning qaysi qismiga qaralsa ham, dinamika rassomning bo'rttirib qo'ygan qismini ko'rsatadigan bo'lishi kerak.



11-rasm. Kiyimning statik shakllari.

Statiklik - shakl turg'unligining, tinchlik holatining bo'rttirib ifoda etilganidir. Shaklning statikligi o'lchamlar tengligini yoki o'lchamlar nyuansini xarakterlaydi (11-rasm).



12-rasm. Kostyumdagi dinamika. (a-shakl dinamikasi, b-tengsiz bo'linishlar dinamikasi).

O'lchamlardagi kontrastlik qaysi miqdor ko'proq bo'lsa, o'sha tomonga yo'nalgan dinamika hosil qiladi (12-rasm, a).

Shaklning dinamikasi ham shaklni qismlarga kontrast bo'laklashda paydo bo'ladi. Bunday holda kattaroq qismdan kichikroq qism tomon harakat paydo bo'ladi (12-rasm, b).

Gavdani ko'rib idroq etish kostyumdagi dinamikaga qanday ta'sir etilganiga bog'liq: agar harakat yuqoriga tomon yo'nalgan bo'lsa, gavda darozroqday, pastga tomon yo'nalgan bo'lsa, kaltaroqday ko'rinadi.

5.Simmetriya va assimetriya turlari.

Simmetriya va asimmetriya. Simmetriya - kompozitsiyaning eng yorqin va ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri. «Simmetriya. Uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go'zallikka va kamolotga yetishmoqchi va buni yaratmoqchi bo'lib kelgan o'sha g'oyadir» (G.Veyl. Simmetriya. M., Nauka, 1968, 37-


bet). Demak, simmetriya oddiy bir takrorlanish emas, balki o'ziga xos go'zallik normasi ekan.



13-rasm. Kiyim simmetriyasi

Kiyim kompozitsiyasida simmetriya masalalari muhim rol o'ynaydi. Bu ikki jihatda: materialdagi rasm kompozitsiyasida va kostyumning o'zini shakllantirishda o'z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasini va shu kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin (13-rasm).

Tabiatda absolyut (mutlaq) simmetriya bo'lmaydi. Kostyumda ham ko'pincha simmetriyadan chetga chiqishlar bo'lib, bu uning nimaga mo'ljallanganiga, ishlatilish sharoitining xarakteriga, ishlab chiqarishdagi texnologik sharoitga, badiiy obrazlilik vazifalariga bog'liq bo'ladi.



14-rasm. Simmetriya ichidagi assimmetrik yechim.

Asimmetrik kompozitsiya ham simmetrik kompozitsiya singari funktsional vazifani hal etishning ob'ektiv natijasi bo'ladi. Lekin asimmetrik shakl ustida ishlash murakkabroq kompozitsion muvozanatni nozik his etishni, badiiy butunlikni ta'minlash darajasida taraqqiy topgan intuitsiyani talab qiladi. Asimmetriyaning kundalik kostyum kompozitsiyasida yorqin ko'zga tashlanadigan emasligi undan shakl xususiyatlarining ozgina qismida foydalanishni bildiradi. Amalda bunday kompozitsiyalar simmetriya ichida asimmetriyani ko'rsatish maqsadida hal etiladi (14-rasm).



15-rasm. Kiyim assimmetriyasi.

Bashang kiyimdagi yorqin ifoda etilgan asimmetriya kiyimni odatdagidan boshqacha, yorqin ko'rinishli, dinamik qilib turadi (15- rasm).

3 - MAVZU: KOMPOZITSION VOSITALAR

Mashg'ulot turi - ma'ruza

Asosiy savollar:

- 1.Proportsiya va nisbatlar. Proportsiyalar – uyg'unlashtirish asosiy vositasi. Proportsiya turlari.
- 2.Metrik va ritmik tuzilishlar.
- 3.Rangni kostyum kompozitsiyasidagi o'rni.

Tayanch so'z va iboralar:

Proportsiya va nisbatlar. Proportsiyalar – uyg'unlashtirish asosiy vositasi. Proportsiya turlari. Metrik va ritmik tuzilishlar. Rangni kostyum kompozitsiyasidagi o'rni. Rang xususiyatlari. Rang doirasi va axromatik qatori asosida garmonik rang birikmalarini yaratish. Kontrast, nyuans va o'xshashlik asosida figurani tashqi ko'rinishini o'zgartrish. Kostyum shakli va material. Kostyumda qo'llaniladigan materiallarni asosiy xususiyatlari: struktura, faktura, naqsh. Kostyumdagi dekorativ bezaklar.

Tarixiy va milliy kostyum – dizaynerlar ijodiy faoliyati manbaasi sifatida. Kostyum va naqshni paydo bo'lishi va ularni rivojlanishi. Kostyumlarni ibtidoiy turlarini tuzilishini tarixiy jarayoni.

Adabiyotlar

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А.Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
- 2.Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
- 3.Хасанбаева Г.К. То'қимачилик dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
- 4.Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.

- 5.Xasanboeva G.K., SHomansurova M. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma.-T.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
- 6.S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma.-T.:Turon-Iqbol, 2006-y., 128b.
- 7.Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

1.Proportsiya va nisbatlar. Proportsiyalar – uyg'unlashtirish asosiy vositasi. Proportsiya turlari.

Kompozitsiya vositalari orasida proportsiyalarni, o'lcham nisbatlarini birinchi o'ringa qo'yish kerak - butun kompozitsiyani qurishning asosi mana shu. Kiyim detallari o'zicha qanchalik yaxshi bo'lmasin, lekin butun hajmiy - fazoviy strukturani aniq proportsional sistema birlashtirib turmasa, shaklning bir butun bo'lib chiqishi qiyin.

Kiyim shakli monolit bo'lmaydi va, odatda, uni tashkil etuvchi butun bir qator qismlardan iborat bo'ladi. Shaklning bo'laklardan iboratligi odam gavdasi tuzilishining murakkabligidan, uning qad-qomatidan, necha yoshdaligidan; materialni xarakteridan va kiyimni tikish texnologiyasidan; modaning nimaga mo'ljallanganligi va yo'nalishi qandayligidan kelib chiqadi.

Proportsiyalar - bu kiyim alohida qismlardagi mos o'lchamlarning bir - biriga hamda odam gavdasidagi mos o'lchamlarga bo'lgan nisbatidir.

Kostyum kompozitsiyasida ikki xil asosiy nisbat bo'lib, ularni oddiy nisbatlar va irrirtsional nisbat deb ataladi.

Oddiy nisbatlar - bu butun sonlar nisbati. 1 dan 8 gacha bo'lgan sonlar oddiy nisbatlarning chegarasi hisoblanadi. Ularni amalda inson idroq etadigan miqdorlar mosliligini aniq idroq etish chegarasi deyish mumkin. Kostyum ustidagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, $7/8$, $3/4$, $1/3$, $2/3$ nisbatlari eng ko'p uchrab turar ekan ;

Irrirtsional nisbatlar - bu ko'pincha geometrik tuzilma yordamida olinadigan kasr sonlar nisbati.

Quyidagilar irrirtsional nisbatlarning proportsionalligiga misol bo'la oladi: kvadrat tomonining uning diagonaliga nisbati



1-20-расм. Кийим қисмларининг оддий нисбатлари.

31:

16-rasm. Kiyim qismlarining oddiy nisbatlari

teng tomonli uchburchak asosi yarmining shu uchburchak balandligiga nisbati (16-rasm, b).

$$a:v-1: \sqrt{3}:1:1,74;$$

«Oltin kesim» deb ataladigan geometrik proportsiya

$$a:v*v:(a:v).$$

«Oltin kesim» proportsiyalari irratsional sonlarni ishlatish qulayroq bo'lishi uchun sonlar qatori tarzida ifoda etiladigan matematik qatori qilishi mumkin. Bu qatordagi raqamlar o'zidan oldingi ikkita son yig'indisi tarzida hosil bo'ladi (1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, 34, 55 va hokazo), har qaysi juftdagi sonlar nisbati ($3/5$, $5/8$, $8/13$, $13/21$ va boshqalar) esa «oltin kesim» nisbatiga yaqin.

AV kesmasining «oltin» kesim» ini geometrik yasash quyidagicha bo'ladi: V nuqtasidan AV ga perpendikulyar chiziladi, unda $VE*1/2$ AV kesmasi belgilanadi. A bilan ye nuqtalarni birlashtiriladi, $yeD*VE$ kesmasi, nihoyat, $AS*AD$ belgilanadi

$$AV:AS*AS:VS$$

Kostyumda shaklning hamma xususiyat jihatlarini proportsiyalab olinadi, ya'ni detallarning o'lchamlari proportsiyasiningina emas, balki ifodali faktura sathining, gul, dekorativ elementlar, shakl alohida qismlari sathining proportsiyalari ham topib olinadi.

Qanday proportsional nisbatlarni tanlash kiyimga qo'yiladigan funksional talablarga bog'liq. Shuning uchun hamma hollarda bir xilda yaxshi bo'laveradigan qandaydir proportsiya bo'lishi mumkin emas. Proportsiya tanlash kishi gavdasining xususiyatlariga ham - uning bo'yi, to'laligi, qomat rasoligi qandayligiga va, albatta, yoshiga ham bog'liq.


Masshtab va masshtablilik. Kiyimda proportsiya garmoniyaning yana bir muhim vositasi - masshtablilik bilan ajralmaslikda bo'ladi.

Masshtablilik - shaklning va undagi elementlarning odamga nisbatan, tevarak - atrof fazoga va boshqa shakllarga nisbatan mosligida.


«Inson - hamma narsalarning me'yori» - bu so'zlar qadimgi Yunonistonning Del fa shahridagi ibodatxona marmar devoriga o'yib yozilgan. Bu so'zlar predmetlar olamining inson o'zi uchun nimaiki yaratgan bo'lsa, hammasining mohiyatini aniq ifoda etadi.

Kiyimning masshtabliligi uning absolyut katta-kichikligiga emas, balki uning odamga mosligiga qarab belgilanadi. Kostyum va uni tashkil etgan hamma elementlar (ust kiyim, oyoq kiyim, bosh kiyim va boshqalar) odamning o'lchamlariga - uning bo'yiga, gavda tuzilishiga hamma vaqt biron nisbatda, ya'ni mos bo'ladi.


Kostyumning masshtabliligi uning nimaga mo'ljallanganiga, mavsumiga, odam qanday atrof - muhitda bo'lishiga bog'liq.



17-rasm. Kiyim qismlarining irratsional nisbatlari
a-kvadrat tomonining uning diogonaliga nisbati,
b-teng tomonli uchburchak tomoni yarmining uning balandligiga nisbati



17-rasm. Kiyim qismlarining irratsional nisbatlari v-“oltin kesim” nisbati.




18-rasm. Kiyimdagi masshtablik.

Masshtablilikning idroq etilishi bilan shakl bo'laklari o'rtasida bog'liqlik bor. Shakl bo'laklari qancha yirik bo'lsa shuncha katta masshtabli bo'ladi. Gorizontall bo'lingan shakl vertikaliga bo'lingan shaklga qaraganda yirik tuyo'ladi (18-rasm).

Kostyum va undagi qismlarning masshtabliligi materiallarning hususiyatlarini qanday tushunishga, kiyim konstruksiyasi va uni qanday tikilishiga bog'liq.

Predmetlarning real kattaligi yoki masshtabliligi haqida tushuncha ularni bir-biriga chog'ishtirish protsessida ham, odam o'lchamlariga taqqoslash protsessida ham yuzaga keladi. Masshtablilikka erishish proportsiyalash bilan bog'liq bo'ladi. Proportsiyalarni o'zgartirish yo'li bilan gavdani kattalashtirib yoki kichiklashtirib ko'rsatib, gavdaga chinakam yoki sun'iy masshtab berish mumkin.

Kontrast, nyuans, o'xshashlik. Shakl elementlari o'xshashlik, printsipiga kontrastlik printsipiga binoan birlashgan bo'lishi, ya'ni hamma qismlar takrorlanishga asoslangan yoki shakl, rang, hajmlilik darajasi, fakturadagi chiziqlar jihatidan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'lishi mumkin.



19-rasm. Kiyimda shakl va chiziqlar nyuansi

plastik nyuanslar avvalo shakl xarakterida ko'zga ko'rinib, unga san'atga xos, alohida iliqlik beradi.

Nyuans - eng nozik vosita. «Sal-pal degani qaerda boshlansa, san'at o'sha yerda boshlanadi» - deganida buyuk K. Bryo'lov san'atning eng xarakterli xususiyatini aytgan bo'lsa ajab emas.

Kostyum kompozitsiyasini nyuansli hal etilishi hamma yoshdagilarga, hamma tur qomatlilarga va har qanday ishga mo'ljallanganda ham to'g'ri kelaveradi.

2.Metrik va ritmik tuzilishlar.

Ritm tushunchasi umumiy ko'rinishda - bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashlanib turishi.

Kostyum kompozitsiyasidagi ritm kostyumni tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ritm hosil qiladigan bog'lanish kuchi anchagina bo'lib, u kostyumning hamma qismlariga ta'sir etib turadi. Ritm har qanday asarga musiqiylik baxsh etadi, uni harakatga soladi.

Ritm sababli bosh kompozitsion g'oyaning jarangdorligi ortadi, muayyan tartib va ravonlik kiritiladi.

Shakl elementlarining va ular o'rtasidagi intervalning takroriyiligi ritmning xarakterli alomati hisoblanadi. Aktsentli (e'tibor tortadigan) elementlar aktiv elementlar deyiladi, aktsentsizlari esa passiv elementlar deb yuritiladi; Aktiv

elementlar o'rtasidagi oraliq (interval) dinamik odim deb ataladi. Elementlar harakatining orta borish tezligi *sur'at* deyiladi.

Oddiy metrik qator, ya'ni bir xil shakllarning teng intervallarda takrorlanishi kompozitsiya tuzishga asos qilib olinadigan eng oddiy qonuniyat hisoblanadi.

Metrik takrorlanishlar quyidagi singari har xil bo'lishi mumkin: teng shakllarning teng intervallarda takrorlanishi (20-rasm, a);

teng shakllarning har qaysi shakl tugagan joydan boshlab (intervalsiz) takrorlanishi (20-rasm, b);


shakl elementlarini radial joylashtirilishi (20-rasm, v).

Ikki yoki undan ortiq oddiy metrik qatorlarning birga qo'shilganidan iborat qator *murakkab metrik qator* deb ataladi.



20-rasm. Kiyim kompozitsiyasida metrik tartiblar
(a - teng elementlarning teng intervallarda takrorlanishi,
b - teng elementlarning intervalsiz takrorlanishi,
v - teng elementlarning radial yo'nalishda takrorlanishi).

Biroq metrik qatorni haddan tashqari ko'p ishlatib bo'lmasligini yodda tutish kerak, chunki bir turli elementlarning tez-tez takrorlanishi zerikarli bir xillikka olib keladi. Shakllarning va ular o'rtasidagi intervallarning birin-ketin qonuniy o'zgara borishi (kattalash yoki kichraya borishi) shakllar joylanishining *ritmik tartibi* deyiladi.



21-rasm. Kiyim kompozitsiyasida ritmik tartiblar
(a-teng elementlarning interval o'zgarib almashinishi,
b-o'zgara boruvchi elementlar teng intervallarda almashinishi,
v-elementlarning va ular orasidagi intervallarning almashinishi,
g-elementlarning radial yo'nalishda almashinishi).

Ritmik qator arifmetik progressiya yoki geometrik progressiya qonuniyatlariga asoslangan bo'ladi. Qatorni arifmetik progressiyaga yasoslanib tuzilganda qatordagi qo'shni elementlar yoki interval miqdori o'rtasida o'zgarmas farq bo'lishiga, geometrik progressiyaga asoslanib tuzilganda esa o'zgarmas nisbat bo'lishiga rioya qilinadi.

Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo'lishi mumkin:

teng elementlar takrorlanib turadi-yu, ular o'rtasidagi intervallar o'zgara boradi (21-rasm, a);


shakl elementlari kattalasha yoki kichraya boradi-yu, interval o'zgarmaydi (21-rasm, b);

shakl elementlari ham, ular o'rtasida intervallar ham kattalasha yoki kichraya boradi (21-rasm, v);

shakl elementlari radial yo'nalishda kattalasha yoki kichraya boradi (21-rasm, g).

Ritm kamaya boradigan yoki orta boradigan bo'ladi. Bunday sur'at sekin, o'rtacha, tez bo'lishi mumkin. Bu kostyumda dinamika hosil qiladi.

Odam gavdasining simmetriya o'qiga nisbatan yechimlarini turli xil qilishdan foydalanib, shakl elementlarining ritmik tuzilishiga erishsa bo'ladi (22-rasm).



22-rasm. Gavdaning simmetriya o'qiga nisbatan detallarning simmetrik joylanishi



23-rasm. Metroritmik tartiblar.

Kostyum kompozitsiyasida ritmik tuzilishning birgina turidan foydalanish kamdan-kam uchraydi. Shakl elementlarining metroritmik (murakkab ritm) bo'lib birga qo'shilganini ko'proq ko'rish mumkin (23-rasm).

Shaklning hamma elementlari - hajm, chiziqlar, faktura, detallar, bezak va xokazolar ritmik tuzilishi mumkin.

Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizontaal, diagonal, spiral, nursimon, radial, bir tomonli, qarama-qarshi va aralash yo'nalishli bo'ladi.


Elementlarning rivojlana borishida o'z qonuniyat borligi kompozitsiyani ritmik hal qilishning xarakterli xususiyatidir. Bu qonuniyatning buzilishi, ya'ni aritmiya kompozitsiya yaxlit idroq etilishiga putur yetkazadi.

3.Rangni kostyum kompozitsiyasidagi o'rni.

Predmetning eng muhim informatsion sifatlaridan biri rang hisoblanadi. Amaliy san'at predmetlarida rangning vazifasi turlicha. Bu'lar psixologik, ijtimoiy, estetik vazifalardir.

Rang hayot va mamot simvoli, quvonch va xafalik ifodasi bo'lib kelgan: u ilqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengil lik va vazminlik hissini berishi mumkin; bizning his-tuyg'ularimizda ham rang ta'siri bor: «qaro kun», «oq ko'ngil», «yorqin niyatlar», «qora niyat», «oq yo'l» - bu'larning hammasi rangning psixologik vazifasini bildiradi.

Turli tarixiy davrlarda rangga, rang simbolikasiga munosabat turlicha bo'lgan. Masalan, ko'chmanchilar yorqin to'q ranglarni ma'qul ko'rgan bo'lsa, o'troq xalqlar ochiqroq murakkab ranglarni yoqtirgan.



24-rasm. Ranglar doirasi

Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar monandligi (garmoniyasi) katta ahamiyatga ega (24-rasm).


Kiyimda ko'pincha monoxrom (yakkarangli birga qo'shilishlar uchraydi - bu rang tusi jixatidan bir xil, lekin oqishligi xar xil ranglarning birga kelishi.

Xromatik ranglarning ikki rangli monandligi quyidagi printsiplarda yuzaga keladi:

O'xshash ranglar - bir xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining bir choragidagi ranglarning birga qo'shilgani (25-rasm, a);

Kontrast ranglar-har xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining qarama-qarshi turgan choraklaridagi ranglarning (sarg'ish qizil bilan ko'kish yashilning va ko'kish qizil bilan sarg'ish yashilning) biriga qo'shilgani (25-rasm, b);

O'xshash-kontrast ranglar—bitta mushtarak asosiy rangi va ranglar doirasining yonma-yon choraklaridagi kontrast asosiy ranglari bor ranglar (sarg'ish qizil bilan ko'kish qizillar, ko'kish qizil bilan ko'kish yashillar, ko'kish yashil bilan sarg'ish yashillar va sarg'ish yashill bilan sarg'ish qizillar) birga qo'shilgani (25-rasm, v).



25-rasm. Xromatik ranglarning monandlik sxemasi

(a - ranglarning o'xshash qo'shilishi,

b - ranglarning kontrast birga qo'shilishi,

g - ranglarning uchrangligi birga qo'shilishi).

Ko'p rangli monandlik uchburchak va to'g'riburchak printsipi tuziladi (25-rasm, g).

Axromatik ranglarning ikki rangli birga qo'shilganidagi monandlik kontrastlik va nyuans printsipida, uch rangli birga qo'shilganlikdagi monandlik esa miqdor va sifat (oqishlik) jihatidan o'zaro turli nisbatlar asosida tuziladi. Masalan, ko'plab oqish ranglar bilan oqishligi unga yaqin o'rtacha kam daraja odmi rangdan.

Xromatik va axromatik ranglarning birga qo'shilgani kiyim kompozitsiyasida juda ifodali bo'lib chiqadi. Oq rang sof xromatik rang tusining kuchi va jarangdorligi yuzaga keladida, bayramona manzaralilik hissi tug'iladi; oq rang bilan mayin ranglar (oq-havo rang, oq bargikaram va boshqalar) uzviy osongina qo'shilib, soflik va bashanglik hissini yuzaga keltiradi.

Qora rang bilan sof xromatik rang birga qo'shilib, ko'zga tashlanib turadigan va keskin ko'rinadigan ranglar hosil qiladi. Qora rang tusining yorqinligini va sofliğini bir qadar kamaytirish xususiyatiga ega.

Oraliq ranglar ham xuddi shu qonuniyatga bo'ysunadi.

Monandlik umuman birlashadigan ranglarning miqdoriga ham, sifatiga ham bog'liq.

Ranglar kompozitsiyasini ishlab chiqayotganda ranglarning baravar kontrastligi hodisasini - rangning unga tegib turgan va uni o'rab turgan ranglarga bog'liq o'zgarib ko'rinishini hisobga olish kerak. Bunda xromatik kontrast va oqishlilik kontrasti bo'ladi. Masalan, sariq limon qizil dasturxonda to'q sariq tusga kiradi, sariq dasturxon ustida esa ochroq sariq bo'lib ko'rinadi. Atrofidagi ranglar ta'sirida rang oqishligining o'zgarishi *oqishlilik kontrasti* deyiladi. Masalan, limon odmi dasturxonda ochroq, oq dasturxonda esa to'qroq rangli ko'rinadi.

Tegishib turgan ranglar bilan o'zaro ta'siri yo'q ranglar neytral ranglar deyiladi. Kulrang, ko'kimtir kulrang, yashilroq kulrang va boshqa ranglar ana shunday ranglarga kiradi.

Baravar kontrastlik hodisasini hisobga olish-bet, ko'z, soch rangiga moslab kiyim rangini tanlashda juda muhim. Nomaqbul rang kontrasti bo'lib qolsa, bet bilan kiyim orasiga neytral rangli yoqa, bezak gazlama, sharf, kosinka va boshqa ko'rinishidagi neytral rangli yo'l qo'shish kerak.

Rangni idroq etish sun'iy yoritish, materialning fakturasi va zichligi qandayligiga qarab o'zgaradi.

4 - MAVZU: QADIMGI DUNYO KOSTYUMI.

Mashg'ulot turi - ma'ruza

Asosiy savollar:

1.Qadimgi Misr naqshi va kostyumi.

2. Qadimgi Bobil va Ossuriya naqshi va kostyumi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Qadimgi Misr, Bobil va Ossuriya naqshi va kostyumi. Kostyum shakli, bichimi, bezagi. Ularning ijtimoiy belgilari. Eron naqshi va kostyumi. Uning shakli, ranglari, konstruktiv yechimi va ijtimoiy belgilari.

Adabiyotlar

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А.Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
- 2.Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
- 3.Хасанбаева Г.К. То'qimachilik dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
- 4.Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.
- 5.Хасанбаева Г.К., Шомансурова М. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma.-Т.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
- 6.S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma.-Т.:Turon-Iqbol, 2006-у., 128b.
- 7.Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

1.Qadimgi Misr naqshi va kostyumi.

Davr va badiiy uslub tavsifi.

Miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxirlarida Qadimiy Misr yirik markazlashgan quldorlik mamlakati bo'lib, davlatni fir'avn boshqargan. Uning hukmronligi cheksiz edi. Misrliklarning tasavvurida fir'avn Xudoning yerdagi soyasi hisoblangan. Kohinlar (din ruxoniylari) fir'avnning cheksiz xuquqini himoya qilib, ijtimoiy tengsizlik va zulmga imkon yaratishgan.

Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoiti Qadimiy Misr xo'jaligining rivojiga sabab bo'lgan. Misrliklar, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va har hil xunarmandchilik (to'quvchilik, zargarlik, qo'lollik) bilan shug'ullanganlar. Mamlakat aholisi har xil tabaqalardan, ya'ni quldorlar, aslzodalar, shaharliklar, erkin dehqonlar va qullardan iborat edi.

Tabiat kuchlariga sig'inish va afsonalar Misr madaniyatining manbai bo'lgan. Odamlar quyoshga, oyga, yerga, suvga, hayvonlarga (timsonga, chiyabo'riga va boshqalarga), o'simliklarga sig'inishgan. Din mamlakat xayotining barcha tomonlariga ta' sir etgan. Jumladan, san'atda, odamlarning estetik tasavvuri katta rol o'ynagan. Ilohiylashtirilgan narsalar doimo ma'no timsoli bo'lgan. Misol uchun, moviy nilufar - serhosillikni va abadiylikni bildirgan, ilon - saltanat belgisi bo'lgan.

Tasviriy san'at (devoriy tasvirlar) ramziy va chizmalı bo'lgan. Xususan, odamlar tasviri ham chizma shaklda shartli ifodalangan. Devoriy tasvirlar va haykallarda ularning qomati, turishi, ishoralari qonunlashtirilgan edi. Qadimiy misrliklar baland


bo'lyli, keng yelkali, beli va bo'ksasi tor, ozg'in bo'lishgan. Ayollari esa xushro'y, nafosatli, kelishgan, yuzlari bodomsimon, ko'zlari chiroyli bo'lgan. Taniqli sharqshunos olim G. Erbesning yozishicha, - "ularning tomiriga bir tomchi ham chet elliklar qoni qo'shilmagan, odamlarining tana terisi qorachadan kelgan, sog'lom yuzlari qizil, qirra burun, keng peshonali, qaldirg'och qoshli, tim qora sochli bo'lgan. Bilaguzuklar bilan bezatilgan qo'l va oyoqlari go'zallik timsollari bo'lgan" (G.Erbes. Uarda. M., Mir, 1965).

Me'morchilik misli ko'rilmagan yuksak darajaga erishgan edi. Misr ehromlari, ibodatxonalari, shaharlari hozirgi zamongacha odamzodni hayajonga soladi, ularning ko'p sirlari haligacha yechilmagan.

Adabiyot, musiqa, raqs, tasviriy san'at ham yuksak darajaga erishgan edi. Ehromlardan topilgan namunalar yordamida dekorativ amaliy san'at buyumlari bilan tanishishimiz mumkin. Ularning barchasi yuksak did bilan yaratilgan va xozirgacha insonni hayratda qoldiradi.

Misr zig'irining vatani xisoblanadi. Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoitlari ushbu o'simlikni o'stirishga qulay bo'lgan. Misr to'quvchilarining mahorati misli ko'rilmagan darajaga erishgan edi. O'sha zamon zig'ir tola matosining tashqi ko'rinishi va xususiyatlari to'g'risida hozirgacha saqlanib qolgan mato namunalari yordamida tanishish mumkin. 1 sm shunday gazmolda 84 tanda va 60 arqoq iplari o'tkazilgan; 240 m junda ingichka va xattoki ko'zga ko'rinmaydigan hom ipakning vazni 1 g edi. To'quvchi bunday ipni faqat barmoqlari bilan sezardi. Misrning zig'ir tola matosining yu'qaligi tabiiy ipak matolardan qolishmasdi. 5 qavat zig'ir tola gazlamadan tayyorlangan kiyim ostidagi tana aniq ko'rinadi. Matoning fakturasi ham har-xil bo'lgan. Yangi podshohlik davridagi to'rsimon, yaltiroq munchoqlar va tilla kashtalar bilan bezatilgan gazmollar odamda unutilmas taassurot qoldiradi.

Matolarning ranglari rang-barang bo'lgan. Rang tanlash tasodifiy bo'lmagan. Zangori rang - Nil daryosi (suv) va osmonning; sariq rang - qum va yerning; yashil rang - o'simlikning; qizil- quyoshning timsoli xisoblanardi; qora rang bilan esa tasvirning



26 – rasm. Misr naqshi chegarasi chizilardi.

Naqshda, asosan quyosh nurlari, geometrik shakllar (yo'l-yo'l, ilon izi) va stilizatsiyalangan o'simliklar va xayvonlar tasvirlanar edi (26-rasm). Misr naqshining tekisligi, osoyishtaligi, vazminligi o'ziga xos hususiyatlarga ega edi.

Qadimiy podsholik kostyumi

(miloddan oldingi 2000 - 2400 yillar.)

Bu davrda, asosan, erkaklar faqat bir kiyim - peshband "sxenti" ni kiyganlar. Ular shakli to'rt burchak yoki trapetsiyasimon bo'lib, o'lchamlari har xil edi. Sxenti belgi ingichka charm kamar yoki tasma bilan biriktirilardi. Sxenti gavdaning orqasida burmalanardi, oldida esa qator ritmik taxlamalar qilinardi. Sxentining ustidan yoki tananing ustiga to'rt burchakli peshband kiyishgan. Boylar kiyimi zig'ir tolali matodan, qo'llarniki esa dag'al teridan qilinardi. Faqat fir'avn, vazirlar, koxinlar va boy yer egalarning kiyimlari bezatilar edi (27-rasm).



27 – rasm. Qullarda kalta peshbandlar.

Fir'avnning saltanat belgisi ilon "urey" va kalxat bilan bezatilgan toj edi. Uning ikkinchi bosh kiyimi "plat" bo'lgan. U trapetsiyasimon shaklli bo'lib, yo'l-yo'l matodan tikilar edi, peshonasida esa tor tasma yoki metall chambarak bilan mahkamlanardi.

Bo'yniga taqiladigan yumaloq marjon yoqa yerdagi turmush manbai - quyosh ramzini ifodalardi. Yoqa bir necha qavat yelimlangan matodan tayyorlanib, tasvirlar bilan bezatilardi yoki to'rsimon to'qilib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilardi.

Chopon hassasi va sun'iy oltin soqol ibtidoiy qabilalardan qolgan ramziy belgidir. Soqolni tasma yordamida ko'zoynakga o'xshatib quloqqa maxkamlanardi.

Misrliklar sochlarini butunlay olib tashlab, boshlariga o'simlik tolalaridan yoki jundan yasalgan parik kiyishardi. Bu pariklar ham bosh kiyim xisoblanib, boshni issiqdan saqlardi. pariklarning katta - kichikligi va uning shakli shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi. Yirik yer egalari bir necha koqildan iborat bo'lgan parik kiyishardi, mayda yer egalari va qullar esa kichik parik kiyishgan.

Koxinlarning kiyimi qimmatbaho kamar bilan bezatilgan. Ibodat qilish 'aytida ular qo'lon terisini yoki kalxat va boshqa niqoblarni kiyishgan. Ayollar kiyimining shakli oddiy bo'lgan. U ikkita to'rt burchak matodan tikilgan ko'ylak "kalaziris" edi. Kalaziris ko'krakning pastidan boshlanib, tovongacha yetardi va bitta yoki ikkita keng tasma yordamida yelkada ushlanardi.



28–rasm. Gavdaga yopishib turadigan kalaziris.

Bu kiyimni barcha ayollar, xattoki fir'avn oila a'zolari va qullar ham kiyishgan. Ijtimoiy farqi faqat matoda bo'lgan: boylar – yu'qa gazmoldan, qullar va dexqonlar esa dag'al matodan kiyganlar.

Bu davrning oxirida kiyimlar shakli o'zgara boshlaydi. Yangi, mukammalroq sxenti paydo bo'ldi. Burmalar va plissirovka bilan bezashga intilish boshlandi. Kiyimlarning rangi qizil, zangori, yashil bo'lgan. Duradgorlik rivoj topishi bilan sariq, jigarrang va feruza ranglar kirdi. Oyoq kiyimi qamishdan to'qilgan shiaklar edi.

O'rta podsholik kostyumi (miloddan oldingi 2400 - 1700 yillar.)

Bu davrda viloyatlarning bir - biridan ajralib ketishi o'z-o'zi bilan ovora bo'lib qolgan xayotga olib keldi va shunga qaramasdan fir'avnning xuquqi birmuncha oshdi.

Bu davr san'at yodgorliklarida sxentining ustidan yupqa matodan qilingan peshbandlar tasvirlangan. Ular to'rt burchak shaklli bo'lib, sal - pal burmalangandi. Oddiy aholida oddiy sxenti va kalaziris saqlanib qolgandi.

Yangi podsholik kostyumi (miloddan avvalgi 1580 - 1090 yillar.)

Bu davr misrliklarning giksosslardan ozod bo'lganligi bilan farqlanadi. Keng tashqi savdo ichki bozorda yangi noma'lum xashamatli narsalarning paydo bo'lishiga va san'atning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Kiyimda sinfiy farq oldingidan ham ko'proq sezilardi. Aslzodalar va koxinlar kiyimi matosining yu'qaligi bilan, tilla va sirlangan bezaklar, serburmalar va 'plissirovkalar bilan farqlanishi bilan birga harir bo'lgan ip va zig'ir matolardan tikilgandi. Xilma-xil ranglarga bo'yalgan matolarni sidonlik ayol qullar kashtalar edi.

Shu yangiliklarning kirib kelishiga qaramasdan kiyimning shakli o'zgarishi joriy qilingan chegaralarda sodir bo'lgandi. Tor, tanaga yopishib turgan kiyimga intilish, xattoki, burmalangan kiyimlarda ham sezilardi. Shu sababdan odamlar yo'rgaklanganga o'xshash bo'lgan va ularning harakatlari yodlangandek edi.

Bu vaqtda erkak va ayollar kiyimlarining bir-biriga o'xshashi qayd qilingandi. Erkaklarning kiyimi plissirovka qilingan yubka va yo'inchiqdan iborat edi. Katta yumaloq yoqa - marjonni faqat fir'avn va uning oila a'zolari kiyibgina qolmay, balki, boy tabaqalar ham kiyishgandi. Marosim kiyimlarida qadimiy kiyim turlari: sxenti, uch burchakli peshband va boshqa qoxinlik anjomlari saqlanib qolgandi.

Kambag'al aholi tabaqalarining kiyimlari oddiyligicha qoldi. Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lsa ham, tor ko'ylak kalaziris saqlanib qolgandi.

Misrliklar bosib olgan Suriyadan erkak va ayollarning kiyimiga plashch - naramnik kirdi. Bu ikki bukilgan to'g'ri to'rt burchak shaklli matodan tikilgan va boshi uchun kesim qilingan, yoni tikilgan uzun kiyim edi.

Askarlar charmli peshband va ko'krak pech kiyishgandi. Misrliklar oyoq kiyimi juda oddiy bo'lgan. Bu charm yoki qamishdan ishlangan shippak edi.

Ularning kostyumlarida har xil bezaklar bo'lgan: qo'l va oyoq bilaguzuklari, uzuklar, marjonlar, sirg'alar, tilla va simdan yasalgan tillaqoshlar va boshqalar. Kambag'allar esa chinni pasta va sirlangan loydan yasalgan bezaklarni taqishgan.

Erkaklar va ayollarning bosh kiyimlari juda xilma-xil va murakkab bo'lgan. Ularning shakli va bezagi shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi.

Ayollar yuziga pushti - qizil yog' upani surgan, qosh va kipriklarini qoraga bo'yashgan. Erkaklar esa kipriklarini yashil rangga bo'yar edilar. Qo'l va oyoq tirnoqlarini esa maxsus o'simlik (genna) bilan qizg'ish sariq rangga bo'yar edilar.

Misrda paydo bo'lgan badiiy elementlar keyinchalik boshqa madaniyatlarga ham ta'sir etib, rivojlanib, Ovroqpa kostyumiga ham kirgan va xozirgi zamongacha saqlanib qolgan.

2. Qadimgi Bobil va Ossuriya naqshi va kostyumi.

Bobil va Ossuriya davr va badiiy uslub tavsifi.

Bobil—Ossuriya madaniyati yodgorliklari - yozuv va san'at asarlari - xalqning urf-odatlar va turmush tarzi to'g'risida ma'lumot beradi.

U kuchli, katta byuroqrat apparatli mamlakat bo'lgan. Uning yaxshi o'rgatilgan, zamonaviy harbiy texnika bilan qurollangan lashkarlari bor edi. Ular savdo-sotiq, chorvadorlik va kishlok xo'jaligi bilan shug'ullanganlar. Tarixi, asosan, bosqinchilik yurishlari bilan nishonlangan harbiy mamlakat odamlarining kahri qattiq va muomalasi ko'pol bo'lgan.

San'at asarlari ossuriya-bobilliklarning tashqi ko'rinishini saqlab qoldi. Ular shartli usulda tasvirlangan. Gavdani, kiyimni va sochini tasvirlaganda ular naqqoshlik usuliga rioya qilgan edilar. San'at asarlari, asosan, podshohlarning ovga, urushga yurishlariga, shaharlar va qal'alarni qamal qilishiga, taslim bo'lgan xalqlar hadyalarini olishlariga bag'ishlangandi. Ossurliklarning tashqi ko'rinishi misrliklardan keskin

farqlanardi. Ular baqaloq, baquvvat, boshlari katta, yuzlari yapaloq, sersoqol va sochlarini juda hafsala bilan taraydigan xalq edi.

Ularning kiyimlari shark uchun tipik bo'lib, kiyim bichimlari sharqiy kiyimlarning barcha turlariga asos bo'lgandi.


Bobil va Ossuriya erkaklar kostyumi

Erkaklar kostyumi. Ossuriya—bobilliklarning barcha sinf va guruhlarining kiyimi yaxlit bichilgan kalta yengli ko'ylak "*kandi*" edi (29, 30, 31--rasmlar). Harbiy-aristokratik aslzodalar va, ayniqsa, podshohlar kiyimi hashamdor edi.




29-rasm. Ossur-Bobil podshohi kiyimi

Odamlarning ijtimoiy holi kiyimda yaqqol ifodalanardi. Uzun kandini faqat podshoh, qohin, podshohga yaqinlar va yirik amaldorlar kiyishi mumkin edi. Boshqa aholi bo'ksasida belbog' bog'langan kalta ko'ylak kiyishardi. Kiyimning baxosi va baravar kiyilgan kiyim soni qat'iy belgilangandi.



30-rasm Shoh Ashurbanipal

Bir yo'la bir kiyimdan ortiq faqat podshoh kiyishi mumkin edi. Boy bezatilgan kandidan tashqari podshoh plashch "*konas*" ('odshox ramzi) (29-rasm) kiyardi. Kandi va konas geometrik naqshli kashta bilan bezatilardi.



a

b

v

31-rasm Ossur-Bobil erkaklar kostyumi

Unga o'yma naqshli oltin plastinani kiritishardi. Konas va kandini chegarasiga tikilgan popuk maxsus ingichka tolali jundan qilinardi va to'q-qizil (qirmizi) rangga bo'yalardi. Shohning kandisi yuqori sifatli oq jun matodan qilinardi, plashch konas esa qirmizi rangga bo'yalardi. Oltin plastinkalar va kashtalar yordamida shoh kostyumi yorqin taassurot qoldirardi. Tarixning barcha davrlarida shohning saltanat ramzi - bosh kiyimi tiara "*kidaris*" bo'lgan. U namatdan qilingan tepasi tor, metall plastinka bilan bezatilgan kalpoq, sir va qimmatbaho tosh bilan bezatilgan oltin toj - bog'ich "*fa-nons*" edi. Fanonsning uchi popukli bo'lib ensadan bog'lanib, orqaga tushardi. Shohning qo'lida tirsagidan yuqori spiral bilaguzuklar, bilagida esa ossur xudosi tasvirlangan bilaguzuk taqilardi. Kamon tortib turgan qanotli xudo Ossur tasviri - quyosh ramzi - doirada tasvirlangandi.

Shoxlarning oyoq kiyimi - shippaklar - kiyimiga nisbatan oddiyroq edi.

Podshohga yaqinlarning xizmatkorlardan farq qiladigan belgisi - kandini bezatadigan popuk uzunligi va eni edi. Popukning eni qanchalik kengroq bo'lsa va kiyimda uning miqdori ko'proq bo'lsa, tabaqa oliy hisoblanardi. popukning bir bo'lagini kiiimga tikmasdan tanani aylantirib, turli usulda o'rashardi. Oltin peshona bog'ich xam aslzodalarning farq belgisi bo'lgan. U popukli uzun tasma bilan yakunlanardi.

Bobil va Ossuriya ayollar kostyumi

Ayollar kostyumi. Yozuv yodgorliklarning ma'lumoti bo'yicha, Ossuriya-Bobilda ayollarning ahvoli juda og'ir bo'lgan. Ular umuman huquqsiz bo'lib, umrbod otasiga, eriga, o'g'liga yoki erkak qarindoshlariga qaram bo'lgan. Shuning uchun, san'atda ayollarning tasviri deyarli bo'lmagan. Tasviriy yodgorliklarning birida shox Ashurbanipalning xotini bilan shiyonchada, ziyofatda o'tirgani tasvirlangan. Tasvirda shohning xotini va uning xizmatkorlari uzun ko'ylak va ustidan yopinchoq kiyishgan, ularning bichimi va shakli erkaklar kiyimidan farqlanmasdi.



32-rasm. Ossur ayollar kostyumi. M.a. VI-IV asrlar

Ular xam ser va boy naqshlangandi (32-a rasm). Kiyimlarda ko'llangan asosiy mato - jun gazmol bo'lgan. Ossuriya-Bobilda matolar juda qimmat turgan. Mashhur kashtachilar - sidon cho'rilar matoni kashtalardi. Matoni bo'yash kasbi juda rivojlangandi. Ularning qizil, zangori, sariq, ko'k va jigar ranglari aynimasdi; kirmizi rang bo'yoqni tayyorlash va gazmolni unga bo'yash usullari sir saqlanardi.

Aslzodalarning kiyimi qimmatbaxo metallardan yasalgan taqinchoqlar bilan bezatilardi. Turli mapqoli ramzni ifodalaidigan ziraklar, bilaguzuklar, uzuklar og'ir va oddiy shaklli bo'lsa ham, chiroyli, naqshli qilinardi. Ularda qadimiyliklar uchun muqaddas timsol tasviriga aylangan koinot elementlari - kuyosh, oy, yo'lduzlar tasvirlangandi.

Saqlanib qolgan san'at yodgorliklariga binoan, Ossuriya-Bobilda kiyilgan kiyimlar asrlar davomida kam o'zgargan va sharq xalqlari kiyimining asosi bo'lgan.

5 - MAVZU: QADIMGI VA FEODAL DAVRI SHARQ KOSTYUMI

Mashg'ulot turi - ma'ruza

Asosiy savollar:

1. Hindiston san'ati, uning xarakterli xususiyatlari. Kostyumning turlari.
2. Xitoy san'ati xususiyatlari. O'rta asr feodal xitoy kostyumi. Erkaklar va ayollar kostyumi turlari, bichimlari va konstruktiv-dekorativ yechimi.
3. O'rta asrlar va feodal Yaponiya san'ati. Yaponiya kostyumi.

Tayanch so'z va iboralar:

Hindiston san'ati, uning xarakterli xususiyatlari. Mato to'qish san'ati, naqshlari va turlari. Kostyumning turlari. Ularning shakli, konstruktiv-dekorativ yechimini asrlar moboynda o'zgarishi.

Xitoy sanhati xususiyatlari. Xitoy sanhatida naqsh, rang; xitoy ramzlari. O'rta asr feodal xitoy kostyumi. Erkaklar va ayollar kostyumi turlari, bichimlari va konstruktiv-dekorativ yechimi. Kostyum turlari va bezaklarida ijtimoiy belgilarni aks ettirilishi.

O'rta asrlar va feodal Yaponiya san'ati. Yaponiya san'atini o'ziga xos ifodalovchi vositalari. Kompozitsiyaning xarakterli tamoyilari. Yaponiya kostyumi. Shakl, bichim va bezaklarni xarakterli xususiyatlari. Kostyum – ijtimoiy tabaqalar ifodasi.

Adabiyotlar

1. Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
2. Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
3. Хасанбаева Г.К. То'qimachilik dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
4. Н.Содиқова. Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.: 2006. -192 б. XIX-XX асрлар. Т. 2001.
5. Хасанбаева Г.К., Шомансурова М. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma. -Т.: Yangi asr avlodi, 2008. -168b.
6. S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma. -Т.: Turon-Iqbol, 2006-у., 128b.
7. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

1. Hindiston san'ati, uning xarakterli xususiyatlari. Kostyumning turlari. Hindiston davr va badiiy uslub tavsifi.

Sharq davlatlari qatorida Hindiston inson tsivilizatsiyasining beshigi bo'lgan. Hozirgi zamonda dunyoga mashhur hind madaniyati 5000 yillik davrni o'z ichiga oladi. Bu madaniyat muqaddas Gang daryosining vodiysida tug'ilgan edi.

Miloddan 1000 yil avval Hindistonda yirik quldorlik davlatlari yuzaga kelgandi. Dexqon jamoalari hokimiyatining barqarorligi jamoa munosabatlarining bo'linmaganligiga va ibtidoiy tuzum sarqitlarining saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramasdan, davlat iqtisodi va madaniyati rivojlangan edi. Mehnat taqsimoti jarayonida tabaqalar paydo bo'lgandi. Ularni shimoli-g'arbdan kelgan ariylar joriy etgandi. Eng ulug' koxin tabaqasiga *braxmanlar* kirardi, *kshatriylar* tabaqasiga — jangchilar, *vayshi* tabaqasiga - yer egalari va hunarmandlar, *shudra* tabaqasiga - harbiy asirlar va qullar kirardi.

Hindlarning eng qadimiy dini *vedaizm* (*veda*- bilim)ni ariylar olib kelgan. Bu dinda tabiiy hodisalarga sig'inilardi.

Keyin braxmanlar vedalik xudolarni chekintirib, yangi din - *braxmanizm*ni kirgizishdi. Bu dinda Dunyoni yaratgan Braxma, uni saqlab turadigan Vishnu, barbod qiladigan Shiva va boshqa bilim, yaxshilik va yomonlik xudolari mavjud edi. Braxmanizm tabaqalarga bo'linishni saqlab qolgandi.

Miloddan avvalgi III asrda braxmanizmga qarshi yangi diniy oqim *buddizm* keng tarqalgandi. Bu dinda *kastalar* (tabaqalar) teng deyilgani uchun buddizm davlat diniga aylangandi.

Feodal munosabatlar V—VI asrda barpo etilgan edi.

Dehqon jamoalarining kasta sistemasi va, ayniqsa, kohin tabaqalarining mustahkamligi braxmanizmning qayta tug'ilishiga sabab bo'ldi. Lekin ular buddizmning ba'zi fikrlarini o'ziga kiritgandi. Yangi din *induizm* deb atalardi. Induizm - falsafa, din, etik va xukuqiy sistemalarning murakkab kom'pleksi. Bu dinlar Hindiston aholisi turmushining barcha tomonlariga, madaniyat va san'atning rivojlanishiga asrlararo kuchli ta'sir ko'rsatgandi.

Ilk feodalizm davrida Hindiston boshqa xalqlar va qabilalarning (yunonlar, shaklar, gunlar, kushonlar va b.) bosqinchiligiga uchragandi.

VIII—IX asrlarda Hindistonga arablar bostirib kirdi. Ular islom dinini va islom etik asoslarini olib kelgan edi.

XVI—IX asrlarda (1526—1858 yillarda) Dehli sultonligini Buyuk Mo'g'ullar (Boburiylar) sulolasi boshqargandi.

XVIII asrning o'rtalarida Ovrupolik mustamlakachilar tomonidan Hindistonga bosqinchilik urushlari boshlagan edi (portugallar, gollandlar, frantsuzlar va inglizlar). Natijada, XIX asr o'rtalarida inglizlar Hindistonni butunlay bosib oldi va o'z mustamlakasini o'rnatdi. Endi ular Hindistonda nasroniy dinini targ'ib qila boshladilar.

XX asrning ikkinchi yarmida (1947 yil) Angliya Hindistonga mustaqillik berishga majbur bo'ldi.

Hozirgi paytda Hindiston aholisining 84 foizi induizmga, 12 foizi islomga, qolganlari buddizm, sikhizm, nasroniy va boshqa dinlarga e'tikod qiladi.

Hindistonning tabiati juda boy va xilma-xil bo'lganligi sababli, u xar xil ajoyib shakllarni yaratgan. Odam va tabiat orasidagi qarama-qarshilik hindlarning fikr va dunyoqarashidagi xususiyatlarining juda murakkabligiga asos bo'ldi. Tizzada turgan odamning tabiatga bo'ysunishi, tushunmaslik va qo'rqinch, ezilganlik va qattqlik diniy fikrlash asosida sodir bo'lgandi. Soni ko'p xudolar hind fikrlashini son xususiyatiga, miqdor hukmdorligi hind san'atining tushunchasiga olib keldi.

Hind me'morchiligi — bu faqat me'morchilik, tuzulish, fikr va hisni ifodalash emas, balki u haykal va tasvirlar uchun asos edi. Diniy va fuqarolik me'morchiligida soni ko'p tasvirlar takrorlanib, ustuvorlik qilardi. Tasviriy va naqsh shakllarini ajratish mumkin emas edi.

Qadimiy zamonlarda Hindistonda haykaltaroshlik va monumental rassomchilik rivojlangandi. Ular Adjantadagi g'or ibodatxonalarda hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. U yerda, asosan, afsonaviy va induistik kompozitsiyalar tasvirlangandi.

Miniatyura tasviriy san'ati Hindistonda qadimiy zamonlarda mavjud bo'lgan. XI asrda yaratilgan miniatyuralar palma yaproqlariga ishlangandi. Hind miniatyurasining bir necha yo'nalishi bo'lgan:

- Mo'g'ul maktabi;
- faxri - diniy afsonaviy mavzular;
- Malva - G'arbiy Hindiston gudjar miniatyurasi, Ramayana va Maxabxarata dostonlari shu usulda tasvirlangan;
- Kangra - vishnuizmning qayta takrorlanishi. Krishna - hukmdorlik mavzulari;
- Bengal - afsona va kishlok mavzulari.

Ko'p asrlardan beri Hindiston ma'naviy madaniyatidagi falsafiy va ilmiy adabiyot-yodgorliklari, Baxsa, Kalidasa va boshqa shoirlar va dramaturglar yaratgan asarlar jahon madaniyatida taniqli o'rin egallaydi. Adabiyot xazinasida Ramayana va Maxabxarata epik

poemalari, afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklari va b. to'plangan.



33-rasm. Raqsga tushayotgan Shiva

Hindiston musiqa va raqs san'atiga g'oyat boy mamlakat. Qadimiy raqs, ashula, musiqa, pantomima hozirgacha mashhur va ommabop. Ming yillardan buyon Hindiston hunarmandchiligida eng muhim o'rinni mato to'qish egallab keladi. Hindiston paxta vatani bo'lsa xam, u yerda ipak, jun toladan yupqa harir yoki kalin dag'al matolar to'qilardi. Matolarning sifati juda yukori darajada bo'lgan. Ip gazlama shunchalik harir bo'lganki, yetti kavat mato ostidan tanadagi xol ko'rinardi.



34-rasm. Krishna o'z go'ilari bilan nayda o'ynaya'ti

Gazmollarning naqshi to'qima, bosma, ko'lda tasvirlangai, trafaret yordamida batik va tuguncha usulida, kashtalangan yoki o'yma modda yordamida hosil qilingan edi. Mato naqshining ko'rinishlarida o'simlik, xayvonot, odamiy tematik tasvirlari, adabiy mavzular va xirof (musulmon) mavzulari bo'lgandi.

Hindiston erkaklar va ayollar kostyumlari

Hind kostyumidagi shakl - bu din bilan yuqori darajaga ko'tarilgan go'zal va pok tana; u hayot beradi va hayot davomchisidir. Uni berkitish kerak emas, chunki tana shakli xar tomonlama kamolat chopqisi deb hisoblanardi. Tana barkamol edi va unga faqat bironta narsa qo'shilishi mumkin edi.

Ijtimoiy tabaqalar ajralib turish uchun zargarlik taqinchoklaridan foydalanishardi. Ularning miqdori va bahosi shaxsning tabaqa belgisi sanalardi. Braxmanlarning kiiimlari oppoq harir matodan bo'lib, qo'shimcha ko'p bezaklar taqilardi.

Induizm dini falsafasi bo'yicha hamma narsa juda yaxshi va kiyimni o'zgartirishga hojat yo'q. O'zing kamolga yetgin, ortiqchalik - bu o'tkinchilik, deb xisoblanardi. Bu kiyimning yangi shakllarining paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasdi.

Eng qadimiy tasvirlangan kiyim shakllari (miloddan avvalgi III minginchi yil) belga va yelkaga o'ralgan tikilmagan mato bo'laklari edi. yelka kiyimi mato parchasidan iborat bo'lib, chap yelkaga tashlanardi va o'ng ko'ltik ostidan o'tkazilib, tanaga o'ralardi. Bel kiyimi esa hozirgi *dxomurs*. (34, 35-rasmlar) o'xshash ariylar olib kelgan kiyim edi.

Kostyumning asosiy elementi "*nivi*" edi. Bu belga o'ralgan va qorinda taxlam qilingan tikilmagan mato bo'lagi edi. "*Nivi*" so'zi sanskrit (qadimiy hind tili)dan kelib chiqib, hozirgacha ayollar kiyimida saqlanib qolgan.

Tananing yuqori tomoni yo'inchiq "*ynaecaca*" va "*na-ridxana*"ga o'ralgan (34-rasm). Ushbu kiyim elementlari erkak va ayollar kiyimining asosi bo'lgan edi.

Miloddan avvalgi 320-yildan milodning 320-yiligacha bo'lgan davr kostyum evolyutsiyasida muhim rol o'yna-di. Bu davrda bichilgan va tikilgan kiyimlarning asoslari mavjud bo'lgandi. Markaziy Osiyodan kelgan bosk-inchilar (xunlar, shaklar, kushonlar) yopishib turadigan, bichilib tikilgan kiyimni olib kelishdi. U kimxobdan, shoyi astarli, tor, tanaga yopishib turadigan, tunikasi-mon bichilgan "*jssha*"simon yelka kiyim va etikka kirgizilgan, tor, tizzasidan tepaga sal kengaygan "*ay-joma*"simon ishton edi. Lekin bu xil kiyim hindlarga to'g'ri kelmagandi. Ular kiyimga yangi shakl va xususiyat berishdi — yelka kiyimi yupqa zarli i'lar bilan to'qil-gan muslindan qilinib, belida belbog' bilan burma hosil qilib bog'lanardi. Bel kiyimi esa "*nimdxoti*" - yum-shoq, tiniq, yo'l-yo'l matodan qilinardi. Bu davrda ham juda ko'p taqinchoqlar taqilardi. Erkaklar ustki kiyimi "*adxivasa*" — bichilib tikilgan va zar bilan kashtalangan ko'ylak bo'lgan.

320—1100 yillar hind kostyumining barqarorlashgan davri deb hisoblanardi. Bu davrda erkak va ayollarning hamda mahalliy kiyimlarning ajralishi yuz bergandi.





36-rasm. Raqsga tushayotgan ikki kishi

Aynan shu davrda musulmonlarning Hindistonga kirib kelishi san'atning rivojlanishida yangi bosqichni nishonlaydi. Yangi din — islom — mahalliy urf-odatlarining o'zgarishiga olib kelgandi.

Arap oldingi davrda etnik omil kiyimning asosi bo'lsa (tikilmagan — maxalliy aholiniki, tikilgan — chet elliklarniki), musulmonlar kelgandan so'ng diniy omil birlamchi bo'lib qoldi. Bu davrdagi kiyimlar bilan miniatyuradan tanishib chiqsa bo'ladi. Hindlarda odatdagi tikilmagan kiyimlar (bel kiyimi — *dxoti* va yo'inchiq — *dupatta*) saqlanib qolgandi, islom diniga kirganlar musulmonlar kiyimini kiya boshladi. Lekin musulmonlar kiyimi chapdan o'ngga o'ralsa, hindlar esa o'ngdan chapga o'rashardi (o'xshamaslik uchun). Sharf yoki yo'inchikni yelkaga tashlashardi yoki boshga o'rashardi.



37-rasm. Cho'milishdan keyin

Ayollar esa yot ko'zdan saqlanish uchun sharf bilan yuzlarini berkitishardi, keyinchalik, XIX asrda, u "*sari*"ga aylandi. Islom dini ta'sirida ayollar kichkina, tor, yopishib turadigan, bichilgan, orqasida tugmalangan koftasimon kiyim "*choli*"sh kiyishadigan bo'ldi (36, 37-rasmlar). Shunday qilib, bichilgan va tikilgan kiyim etnik to'siqlardan o'tib, kostyum asosi bo'lib qoldi. Ammo odatdagi bo'ksaga o'ralgan bog'ich kambag'allarning kiyimiga aylandi.

Bu davrda liboslar kengroq, aniq shaklsiz va uzunroq bo'lgandi. Keyinroq kiyim yana qisqara boshladi.

Bel kiyimi shalvar edi (turkiya shalvari-ning xili). Yupqa va qimmatbaho matodan qilingan ayollar ishtoni "*sutxni*" deb, erkaklarniki esa — "*sutxna*" deb atalardi.

Yelka kiyim — "*kamis*" (avval uni "*ko'rta*" deb atashardi, hozirgi vaqtda ko'rta deb erkaklar ko'ylagini atashadi). Kamisning old va orqa bo'laklarini alohida bichilardi, yelka kesimi kiya bo'lgandi, belida vitachkalar qilinardi. Kamisning uzunligi bo'lsa o'rtasidan boldirning o'rtasigacha bo'lishi mumkin edi. Beldan pastroq yon choklarda kesimlar qilingandi. Kamisni old yoqa o'mizi uchburchak shaklida bo'lib, orqasida kichkina tik yoqa bo'lgan. Ko'ylak turli rangli naqshli ipak matodan qilinardi.

Erkaklarning bel kiyimi, ya'ni ishtoni, "*payjoma*" ikki poy va rombsimon og'dan iborat bo'lgandi. Ishtonning tizzasidan tepa tomoni keng bo'lgan, pasti esa yopishib turardi. Ishtonning tepa tomoni uzunroq bo'lgani uchun uni bilaguzuk kabi ko'ndalang taxlamlari hosil bo'lardi, shu sababdan uning nomi "*churidara*" ("*churi*"-bilaguzuk) deb atalardi. Ishton ko'pincha oq ip gazmoldan tikilardi (38, 39-rasmlar).



38-Mo'g'ul sulolasi davridagi ayol va erkak kostyumlari

Eng ko'p tarqalgan erkaklarning yelka kiyimi - "*ko'rta*" - ip gazlamadan tikilardi. Ko'ylak yaxlit bichilgan stan, yon ko'shimchalardan, alohida bichilgan yeng va hishtakdan iborat edi. Tik yoqa o'miziga planka tikilardi, yoqasi esa yo'q edi.

XIX asrda inglizlar hukmdorligi davrida mahalliy kiyimga yana bir necha o'zgarish kiritildi. Ingliz harbiy kiyimi hind kiyimi bilan aralashgandi. "*Syurtuk*" va "*pilotka*" XX asr erkaklari milliy kiyimiga aylandi. Ammo bel kiyimi dxoti bo'yicha qoldi. Ayollarning kiyimi o'zgarmasdan, burungi holida qoldi.

Bezaklar, poyabzal.

Bezaklar hindlar kiyimida xozirgacha, ayniqsa ayollarda, muhim rol o'ynaydi. Ular faqat bezak belgisi emas, balki ko'proq ijtimoiy rol o'ynaydi. Hindistonda bezak taqmagani bironi ham ayol yo'q (bevalardan tashqari).



39-rasm. Raqsga tushayotgan ikki kishi

O'rta va past tabaqali ayollar barcha taqinchoqlarini doimo taqib yurishardi. Zargarlik buyumlari xilma-xil bo'lgan: ziraklar, uzuklar, marjonlar, bilaguzuklar, to'qalar, kamarlar, sochiga va peshonasiga takadigan taqinchoqlar va boshqalar. Ular chig'anokdan, fil suyagidan, marjondan, marvariddan, donlardan, nozik, fayans, rangli shisha va oynachalardan qilinardi. Oltin va qimmatbaho toshlar ham juda ko'p qo'llanardi.

Hindlar kostyumida kosmetika (bo'yanish) keng qo'llanardi. Ular yuzlarini, ko'llarini, Oyoqdarini turli ranglarga bo'yashardi. peshonadagi nuqta VII asrdan boshlab Buddaning yetti go'zaligidan biri deb xisoblanardi. Keyin bu xolsimon nuqta odatga aylandi.

Oyoq kiyimlari: charm yoki yog'ochdan ishlangan shippaklar, kishda somondan to'qilgan tufli va namat yoki charmdan qilingan etik. Hindlar uyga kirganda oyoq kiyimini yechib kirishardi (musulmonlardan o'tgan odat).

2.Xitoy san'ati xususiyatlari. O'rta asr feodal xitoy kostyumi. Erkaklar va ayollar kostyumi turlari, bichimlari va konstruktiv-dekorativ yechimi.

Davrlar tavsifi, xitoy kosmik ramzlari va san'at tavsifi

Xitoy madaniyati 4000 yil ilgari vujudga kelgandi. Uning madaniyati Misr madaniyati bilan raqiblik qilishi mumkin. Agar Misr madaniyatidan faqat yodgorliklar qolgan bo'lsa (ehromlar, ibodatxonalar va san'at asarlari), Xitoy madaniyatini vasiyatlari esa xozirgi zamongacha o'zgarmasdan qoldi (til, yozuv, musiqa va boshqalar.).

Xitoyda feodal tuzumi miloddan avvalgi V-III (ayrim ma lumotlar bo'yicha XI - VIII) asrlarda tashqil etilgandan beri bu milodni XIX asrni yarmigacha o'zgarmasdan qolgandi. Xitoy madaniyati rivojlanishida qo'shni mamlakatlar tsivilizatsiyasining ta siri deyarli bo'lmagan edi. Xitoyning mayda viloyatlari Bogdo'xanning xukumdorligiga sig'inishardi. U o'zini Osmon o'g'li, mamlakatni esa - Dunyoviy (Djo'ngo) deb xisoblardi.

Xitoyda davlat xizmati, saroy qoidalari, hayot, kiyinish odati davlat tomonidan qat'iy qonunlashtirilgandi. Xitoyliklarning dunyoqarashiga va tafakkuriga bir necha

falsafiy oqimlar va dinlar ta 'sir etgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda mavjud bo'lgan falsafiy oqimlardan biri "Daosizm" (dao tszya) edi. Uning asoschisi Lao-TSzi bo'lgandi. Uning asosiy fikri - dao (yo'l) ta'limoti edi - Kionotning o'z-o'zidan vujudga kelishi, rivojlanishi va barbod bo'lishining azaliy, tabiiy va umumiy qonuni.

Konfutsianlik (jutszya) - etnik - siyosiy talimot. Uning asosida ajdodlarni xurmat qilish turardi. Bu falsafiy oqim keyin dinga aylandi.

Keyin O'rta Osiyo orqali Xitoyga asosiy din bo'lib buddizm kirib keldi.

Qadimiy Xitoy falsafalari tabiatning qarama - qarshiligini (Yan - yorug'lik, In - qorong'ulik) tan olgandi, ammo kurashda emas, balki muvozanatda, osiyishtalikda, qo'shilishdi. Ularning tasavvurida dunyo tuzulishining asosida erkak - yan va ayol - in omillarning ijodiy o'zaro aloqasi bo'lgan.

"Itszin" (o'zgarishlar kitobi) qadimiy Xitoyliklarning dunyo tushunishida ma'no so'z bilan emas, ramziy ishoralar bilan ifodalanardi.

1. Dunyo tuzulish dialektikasining grafik ramzlari:

Uzluksiz erkaklar kuchi - Yanni aks etadi;

Uzluqli chiziq ayol kuchi - In ni aks etadi.

Yan o'z moxiyatini birlikda, In - ko'pligiga ko'rsatadi. Barcha dunyo voqealari erkak va ayollar kuchlarining o'zaro aloqasi natijasida bo'lgani uchun, ularning hammasi oddiy belgili chiziqlarning birikmalari bilan ifodalanishi mumkin: erkak kuchini mutlaqo xukumdorligini barbod bo'lish chegarasida, ulug' Yan, Yoz; ayollar kuchini mutlaqo xukumdorligini barbod bo'lish chegarasida, ulug' In , qish; erkaklar kuchining o'sish ramzi, yoz Yan, Bahor; ayollar kuchining o'sish ramzi, yoz In , kuz.

Qorong'ulik va yorug'lik - bu bir-biriga intilayotgan kuchlar, ular bir-birining o'rniga keladi. yer bilan Osmon ijodiy harakatda qo'shilganda, shu tsikl avjiga yetgan deb xisoblanadi. Ayni shu voqea qadimiy Xitoyning belgi ramzlari va naqshlarning asosi bo'lgan. Shu sababdan bulut tasmalar, to'lqinli jingalaklar, momaqaldiraq s'ilapalar, bulut va chaqmoqni tug'diradigan ajdaholar xitoy kostyumining bezagining doimiy elementlari bo'lgan. Ular qadim -qadim o'tmishdan o'rta asrlarga kelgan va xozirgi zamongacha saqlanib qolgan.

Geometrik shakllar ramzi

Qadimiy xitoyliklar tasavvurida Osmon doira shaklda, chunki, u bir chiziq chegarasida berk, boshi va oxiri yo'q va Osmonning cheksizligini ifodalaydi.

Yer - kvadrat (4 tomon va 4 burchak), yerning chegarasi bor, shuning uchun kvadratni har tomoni burchak bilan yakunlanadi.

Ushbu shakllar yer va Osmonning fizik holatini tasviri emas, aks holda, ularning faqat geometrik ishoralari va kosmik omillarining mohiyati. Shu ikkita shakllar qo'shimchasi san'atda va kostyumda ko'p uchraydi.

Son ramzlari.

"I tszin" da Osmon va yer son ramzlari quyidagicha bo'lgan: Osmon - 1, 3, 5, 7, 9; yer - 2, 4, 6, 8, 10. Demak, unni mobaynida toq sonlar - Yanni, juft sonlar - In ni ramzi bo'lgan. Osmon sonlari beshta, yer sonlari ham beshta edi. Bu sonlar qo'shilib Metall - "TSzin ", Daraxt - "Mu", Suv - "Shuy", Olov - "Xo" va yer - "Tu" ni yaratadi. Demak, 5 tabiiy kuchning aylanishiga ikkita asosiy sabab bo'lgandi.

9 - Yan chiziqning nomi, 3 - Yan sonning ramzi, 6 - In chiziqning nomi, 1 - Osmon ramzi, chunki u bitta chiziq bilan ifodalanadi, 4 - yer ramzi, chunki u 4 chiziq bilan (kvadrat) ifodalanadi. Kostyumda shakl son va ramz ishoralari keng qo'llangandi.

Qo'shilgan doira va kvadrat shaklli (er va osmon qo'shilganligini ifodalaydi) imperator bosh kiyimida 5 nefrit har xil rangli osilchoqlar qilingandi, ular 5 tabiiy kuchlarning ramzi edi. Erkaklarning kiyimida tugmalar soni toq, ayollarnikida juft qilinardi; erkaklar holatining oldida 8 ajdahoning tasviri bo'lsa, 9 - si esa orqasida qilinardi.

Rang ramzlari.

Geometrik shakl va sonlar "tiliga" nisbatan rang ishoralari odamning tuyg'usiga zo'r ta sir etar edi. Ammo ular qarama - qarshi va murakkab bo'lgan. Misol uchun, agar Osmon - Yan - Koinotning yorqin omili, yer - IN o'nga qarma - qarshi deb xisoblansa, u holda nima sababdan Osmon qora - binafsha yoki qora, yer - sariq rang ramzi bilan ifodalanganligini tushunish qiyin.

Ikkita omilning o'zaro aloqasi bilan tug'ilgan 5 tabiiy kuch ramzlari; yashil rang - Baxor rangi, yosh o'simlik va yaproqlar rangi; tabiiy kuch daraxt - Muni mohiyatini aks etuvchi rang; Bahor - yilning boshi; Sharq - kun chiqadigan joy, shuning uchun yashil, tug'ilish va yoshlikning ramzi; Yupiter sayyoraning - ko'kimtir - yashil rangi; qizil rang - Yoz, Olov - Xo, Janub va Mars sayyorasining ramzlari; oq rang - Kuz ramzi, u paytda omborlar oq guruch bilan to'ladi; kuzga tabiiy kuch metall - TSzin mos keladi (kayralgan bolta tig'ining rangi); bu g'arb - uchgan, quyosh botadigan tomoni va o'lgan odamlarning ketadigan joyi (motam kiyimlari oq rangli qilinardi); Oy va Zuxra - Veneraning ("Taybo" - "buyuk oq" - metall yo'lduzi) nurlari; qora rang - Qish rangi, eng qorangi davrni, zimiston saltanat - Shimol rangi, yorqin emas Merkuriy rangi, tabiiy kuch suv - Shuyni rangi. sariq rang - Yoz faslining oxiri rangi, don ekinlarning yetilishi, xosil tug'diradigan tuproq rangi, tabiiy kuch yer - Tuning ramzi, bu markaz ramzi, ya ni yerni; Saturn sayyorasining ramzi (dexkonchilik xudosi).

O'simliklar va tirik jonlarning ramzlari.

Xitoyda Osmon va yerning antro'omorfik tasvirlari yo'q. Odamlarni Osmon va yer shunchalik qiziqtirmasdan, balki ularning qo'shilishi - nikohi qiziqtirardi. Shundan xitoyliklarning tasavvuri kelib chiqqan: ajdaho - yomg'ir xukumdori, erkak mohiyati edi. Ajdaxoni bulutlar orasida arvoz qilib yurgani yoki to'lqinlararo suzgani va shu vaqtda yelkasidan va bo'ksasidan alanga chiqib turgani tasvir etilardi. Suv - uning tashqi, Olov - ichki muxitining ramzi deb xisoblanardi. Shunday qilib, ajdaxo ikki qarama-qarshi kuchlarni: yer - Osmon va Olov - Suvni birligini ko'rsatardi. Alangali dur - sharsimon chaqmoqni eslatadigan moma - qaldiraq simosi bo'lgan.

Ajdaho - kuyov ramzi bo'lgan, baqa va quyon - abadiy eleksir bilan bog'liq; ko'rsha'alak - baxt, sog'lik, saxovat; xo'roz - quyoshga sog'inish bilan bog'liq; bug'u - martabani oshirish ramzi; zog'orabaliq - muvaffaqiyat tilash ramzi; anor - ko'p bola tilash ramzi; shaftoli - ko'p yil yashash istaklarining ramzi va boshqalar.

Qadimiy Xitoy kostyumining oddiy shaklining paydo bo'lishiga odamlarning xo'jalik ishlari, xom - ashyo imkoniyatlari va inson iqlim sharoitlari sabab bo'lgandi.

Tantanali va rasmiy kiyimlarning shakllari oddiy kiyimlardan o'zlashtirilgandi. Ular, bichimi bir xil bo'lgani holda, matosi, bezaklari va arziyas konstruktiv farqlari bilan ajralib turardi.

Xitoyliklarning kostyum tavsifi.

Xitoyliklar kiyimlari ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat edi.

Yelka kiyimi. Odatda xitoyliklar yelka kiyimlarining oldi ochiq bo'lgan. Ichki va ustki kiyimlarning bichim asosi bir xil bo'lgan. Konstruktiv xususiyatlari bo'yicha barcha kiyimlari ikki turga bo'linadi:

- birinchi turi – sharqiy-osiyo turi - tunikasimon bichilgan, old va orqa bo'laklarining uzunligi teng, yelkasida ikkiga buklangan ikki yon matodan tikilgan kiyim edi; matoning eniga qarab yengi ham bichilardi, yetmagan uzunligiga qo'shimcha mato bo'lagi tikilardi; Rim tunikasidan va yapon kimonosidan bu bichim stanni qo'ltig'i yumaloqlanganligi bilan farqlanardi; O'rta Osiyo kiyimlaridan orqasida o'rta choki borligi bilan farqlanardi;


- odatdagi xitoy kiyimining ikkinchi turi ham oldi ochiq va orqa o'rta chokli bo'lgan, lekin ularda qiyalangan yelka choki qilinardi; shu sababdan ularning old va orqa bo'laklari alohida bichilardi.

Ushbu ikki tur kiyimlarning simmetrik va assimetrik bichimlari bo'lardi. Simmetrik bichimda old bo'laklari uchma - uch bo'lgan, assimetrik bichimda esa, chap old qismiga qo'shimcha bo'lak ulanardi, o'ng bo'lagi ko'rinmasligi uchun kaltaroq qilinardi.

Sharqi - osiyo bichim turidagi simmetrik kiyimlarga erkak va ayollarning ichki va ustki ko'ylaklari kiradi, assimetrik kiyimlariga esa erkak va ayollar xalatlari va ichki ikki bortli koftalar kiradi.

Yelka chokli kiyimlarga nimchaning barcha turlari, yoni tikilmagan simmetrik bichimli erkaklar ichki kiyimi va ayollar ko'ragini siqib turadigan ichki ko'ylagi kiradi.

Birinchi tur kiyim bichilganda, yonini pasti sal kengaytiriladi, tor matolardan tikilgan xalat va koftalarni yoniga qo'shimcha qiyiqlar tikilardi. Stan bilan yaxlit bichilgan yengning asosiy bo'laklariga qo'shimcha bo'laklar tirkiladi. yengning pastki tomoni (chok bo'ladigan joyi) to'g'ri yenglarda gorizontaal va uchiga qarab torayadiganlari qiya bichilardi (40 - rasm).



40 – rasm. Har xil tarixiy davlarda imperatorlar kostyumi.

Yelka kiyimning barcha turlarida yoqa o' mizi aylana qirqilgan; oldi qirqilgan ikki qavatli tik yoqasi bo'lgan. Etagi esa dumaloqlangandi.

Barcha turli xitoy kiyimlarda farqlovchi hususiyatlaridan biri – ma'lum uzunlikda etagini yonlarida, oldida va orqasida yoki hamma tomonlarida kesimlari bo'lishi shart edi. Kesimlar bo'limlarning pastki tomonlarini tikilmaganligidan xosil bo'lardi (41 - rasm).



41 – rasm. Min davridagi kiyimlar.

Xitoy yelka kiyimining yana bir qiziqarli hususiyati - o'ziga xos tugmalash usuli. Odatda, asosiy gazmoldan eshib shnur qilinardi va undan sharsimon tugmacha tikilardi. Ba'zan, sharsimon metall yoki shisha tugmalar ham qo'llanardi. Shnurdan qilingan ilgaklar o'ng tomoniga qilinardi. Assimetrik kiyimlarda tugmalar yoqasidan yon kesimgacha qilinardi. Odatda erkaklar kiyimida tugmalar soni toq, ayollarniki - juft bo'lardi.

Bashang kiyimlarning bichimi kundaliklardan farqlanmasdi, lekin ularga qo'llangan matolarning sifati ancha yuqori edi. Ayollar kiyimi, ayniqsa yoshlarniki, ranglar yorqinligi, naqsh, rang - barang kashtalari va bezaklari bilan ajralib turardi. Boy ayollar koftalarning yoqa va chap old bo'lagi aylana kashtalangan xoshiya bilan, kambag'allarniki - bir xil rangli tasma bilan bezatilardi.

Har xil yelka kiyimlar, bel kiyimi - ishton ayollar va erkaklar kiyimining asosi bo'lgan. Shunga e'tibor berish kerak: yelka kiyimi hech qachon ishtonga tikib kiyilmas edi. Eng keng tarqalgan erkaklar ichki kiyimi sharqinson osiyo bichimidagi simmetrik "duy tszin " yoki asimmetrik "se tszin " ko'ylak "xan shan tsza" bo'lgan. Issiq obxavoda ko'ylakning o'zi ustki kiyim bo'lishi mumkin edi. Boshqa vaqtda uni ustidan to'q rangli astarli 'atadan qavilgan, yana bitta yoki bir nechtasini yaratishar edi.

Keng tarqalgan erkaklarning ustki kiyimi sharqiy osiyo bichimidagi uzun xalat "chan pao" edi. Xashamatli bezatilgan xalatlar aslzodalar va amaldorlar uchun rasmiy kostyumning majburiy elementi edi.

Ko'chada va xizmatga oid joylarda xalat ustidan old bo'laklalarining uzunligi teng kalta yoki uzun kofta kiyishardi.

O'rta tabaqali aholi shunga o'xshagan lekin bezatilmagan xalat va ustidan kofta yoki nimcha kiyishardi. Ko'pchilik oldida xalatsiz yurish beadablik va kambag'allik xisoblanardi. Kambag'al shaharliklar va dexqonlar xalatsiz yurishardi.

Ayollar ichki kiyimining erkaklarnikiga nisbatan farqi bor edi. Qadimiy Xitoy odatlari bo'yicha ayollar go'zalligining asosiy belgisi - yassi ko'krak xisoblanardi. Unga erishish uchun qizlar va ayollar ko'kragini uzun i' gazlamali tasma "bao syun tyao" bilan tarang siqib bog'lab qo'yishardi. Shu maqsadda ham tanani siqib turadigan ichki nimcha "kan tszyan , kan tszyar" ni kiyishardi. Faqat xomilador va bola emizadigan ayollar ko'kraklarini bog'lamas edilar.

Qadimiy Xitoyda ayollar ustki kiyimi sharqi-osiyo usulida turli assimetrik bichilgan kofta "pao" bo'lgan. Uni uzun ishton va yubka-kofta ustidan kiyishardi. Kofta ustidan nimcha "bey sin " va tantanali marosimlarda etagi shokila bilan bezatilgan uzunroq nimcha "sya 'ey" kiyishardi. Boy ayollar koftalarining yoqasi va chap old bo'lagining etagini kashta va xoshiya bilan bezatishardi. Kambag'al ayollar koftasi bezaksiz edi yoki bir rangli tasma bilan bezatilardi. Koftani ishton ustidan kiyishardi.

Ayollar xalati "tsi pao" sharqi - osiyolini assimetrik bichimli ko'rsatar edi. Xalatning shakli to'g'ri yoki sal tanaga yopishib gavda shaklini ko'rsatar edi. Modaga asoslanib ularni yengi to'g'ri, keng yoki tor, qiyalangan, uzun yoki kalta bo'lardi. Yozlik xalatlar yengsiz bo'lishi mumkin edi. Xalatlarning uzunligi tizzadan yoki tupig'igacha bo'lib, yon kesimli yoki kesimsiz bo'lishi mumkin edi. Chap old bo'lagini borti qiyalangan, dumaloqlangan va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin edi. Xalatni ikki qavatli tik yoqasining eni urfga oid o'zgarardi (42 - rasm). Xalat "tsi pao" ni koftadan asosiy farqi - uni uzun ishtonsiz kiyishardi.

Erkaklar yelka kiyimining ranglari ko'k, qora, oq, kul rang va jigar rang bo'lgan, ayollar kiyimlarining ranglari yorqinroq bo'lgan.

Erkaklar va ayollar bel kiyimlari ishton "kutsza" va yubka-plaxta "tsyun za" va peshband bo'lgan.



42 – rasm. Yuqori tabaqa ayollarining kiyimlari.

Ustki va ichki ishtonlarning bichimi farqlanmasdi. Ishtonlar ikki yoki bir necha mato bo'laklaridan bichilardi. Ikki poycha bo'laklariga keng og' va tepasiga oq to'g'ri to'rtburchak shaklli mato tikilardi. Tepasi juda keng ishtonlar bo'ksada to'q rangli ip

matodan qilingan tasma yordamida mahkamlanardi. Ortiqcha kengligidan oldida tahlam qilinardi. Ayollar ishtoni og'ida o'rta chok qilinmas edi (yovuz rux kirmasin deb), erkaklarnikida esa o'rta chok qilinardi. Ishtonlar cho'ntaksiz bo'lardi.

Sovuq paytda va ba zan bayram va tantana munosabati bilan ishton pochasi paypoq ustidan chiqarilib, mahsus qora tasma bilan bog'lab qo'yilardi.

Uch faslga mos ishtonlar bo'lgan: yozlik-astarsiz, oq, qora, ko'k, kul rang matodan; bahor, kuzlik astarli to'q rangli matodan; qishlik, paxtali, qavilgan qilinardi.

Ishton -paypoq "toqau" Xitoyda paydo bo'lgan. Bu alohida, og'i biriktirilmagan, paypoqsimon poychalar edi. Ular bog'ich yordamida belboqqa mahkamlanardi. Xozirgi davrda "toqau" ni ishton ustidan kiyishadi.

Odatda ishtonni kanop tola "bu, mabu" yoki shoyi va ip matodan tikishadi.

Sovuq faslda ishton ustidan paxta bilan qavilgan ishton toqau ham kiyiladi.

Ko'pincha xitoyliklar ishton poychasini tizza pastidan bog'lar edi. Ba zan uni gamash "bi" bilan tortib qo'yishardi yoki ustidan etiksimon paypoq "va" ga kirgizardi.

Yubkap plaxta "shan" ni o'rta va yuqori tabaqaning erkak va ayollari kiyishardi. Uning bichimi bir xil bo'lgan: ikki to'g'ri to'rtburchakli matoga belbog' tikilar edi (peshbandga o'xshash) va ular yordamida belga mahkamlanardi. Shanni yon tomoni plissirovka, o'rtasi orqa va old bo'laklarida kashta qilinardi.

Ayollar yonlari tikilgan, yonining tepasida uchburchak kesiklari qilingan yubka kiyishardi. Kesiklar orasidan ichiga kirgizilgan kofta ko'rinardi.

Ko'pincha kofta va plaxta kiyishganda old belboqqa peshbandni qistirib qo'yishardi. Uni qurbonlik marosimlarda kiyish shart edi. Peshband odatda qizil rangli bo'lib, shaxsning ijtimoiy sharoitiga mos qilib bezaklanardi.

Kostyumning eng muhim bo'limlaridan biri belbog' "day" hisoblanardi. Aslzodalar va amaldorlarning boylik belgisi bo'lib, ular xilma-xil bo'lardi. Ularning ikki turi uchrardi:

1) matodan qilingan ikkita ilgak va uzun osilinib turgan uchi bilan belbog';

2) charmdan qilingan va nefrit, metall yoki shox plastinalar bilan bezatilgan belbog' kamar.

Nefrit xalqalar va boshqa bezaklar bilan to'qilgan rangli shnurlar "shou" lar shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatardi. Shouni beliga bog'lashardi, uchlari esa yonida yoki orqasida osilinib turardi. Unga ba'zan kerakli foydali buyumlarni (pichoq, chaqmoqtosh, uzuk va boshqalar) osib qo'yishardi.

Nefritdan yasalgan osilchoqlar "peyyuy" ham kiyimning bezagi bo'lgan, ular ham odamning ijtimoiy ahvolini ko'rsatardi.

Bosh kiyim va pricheskalari. Qadim zamonlarda xitoyliklar sochlarini qirqmaganlar. Ular sochlarini tugunga yig'ib, shpil ka yordamida mustahkamlab qo'yilar edilar. Bosh kiyimlarning shakllari har xil bo'lgan. Ularning kiyish odatlari Ovrupoliklarnikiga qarama-qarshi bo'lgan. Agar Ovrupoliklar hurmat bilan bosh kiyimni yechsa, xitoyliklar esa qaytaga uni kiyar edilar.

Ochiq havoda yoki binoda o'tkaziladigan marosimlarda (uchrashuvlar, banketlar va boshqalar) bosh kiyimni kiyish shart edi.


Qadimiy Xitoyda bosh kiyimni yechish lavozimdan ozod qilishni yoki aybiga iqrar bo'lib kelishini bildirardi. 1644 yilda manjurlar bosib olgandan so'ng

xitoyliklarning tashqi ko'rinishi o'zgardi, chunki manjurlar erkaklarning peshona sochini qirqishga, orqasida qolgan sochini esa uzun qilib o'rishga majbur qildilar.

Bosh kiyim voyaga yetganda kiyilardi. Bosh kiyimda mahalliy va ijtimoiy belgilar bo'lardi. Nefritdan osilchoqlar qilingan bosh kiyim faqat tantanali marosimda kiyilardi. Xitoy ayollari odatda bosh kiyimni deyarli kiyishmasdi, faqat tantanali marosimda, ayniqsa, to'yda, murakkab bosh kiyim kiyilardi. Bosh kiyimlarni shakli 6-qirrali, 3-qirrali, dumaloq, soyabonli yoki soyabonsiz, konussimon va boshqalar bo'lgandi.

Bosh kiyimlarni shakli 6-qirrali, 3-qirrali, dumaloq, soyabonli yoki soyabonsiz, konussimon va boshqalar bo'lgandi.

Oyoq kiyimlar. Matodan, kanop tolasidan yoki poholdan to'qilgan yengil tufli "tszuy" keyinroq "li" deb atalgan oyoq kiyim keng tarqalgan edi. Matodan qilingan tuflining boshlig'i "semyan" ko'pincha naqshli qilinardi. Qalin tagligi bir necha qavat yelimlangan va tikilgan qog'ozdan qilinardi. Charmdan qilingan tufllilar ham uchrab turardi (43 - rasm).



43 – rasm. Oyoq kiyimlari.

Tantanali tufli "si" ikki qavat hoshiya bilan bezatilardi. Tovonning yon tomonlari yanchilgan chig'anoq toshdan qilingan bo'yoq bilan bezatilardi. Uchi esa, qo'shimcha yelkasimon qo'shimcha bilan bezatilardi.

Yog'ingarchilikda yog'ochdan qilingan skameykasimon, tepasi yo'q shippak "tszi" kiyishardi. Matodan qilingan tasma yordamida tszi oyoqqa bog'lanib qo'yilardi.

Ko'chmanchilar tasirida Xitoyga charm etik "syue" kirib keldi, shular qatorida matodan qilingan etik ham bo'lgan.

TSin davrida saroyda uchi sal ko'tarilgan ipak yoki charm etik kiyishgan. Fuqaro amaldorlar kvadrat tumshuqli etik kiyishardi. Bu Osmon va yerning jismoniy va intellektual kuchlarini qarama-qarshiligini ko'rsatardi.

Etik qunji - "syuetun" dan cho'tak sifatida foydalanar edilar.

3.O'rta asrlar va feodal Yaponiya sanhati. Yaponiya kostyumi.

Yaponiya davrlar tavsifi,dinlari va falsafalari.

Yaponiya - juda qadim zamonlarda tsivilizatsiya paydo bo'lgan Sharqiy Osiyodagi mamlakatlardan biri.

VI asrdan boshlab Nara shahrida imperator xokimiyati va Xitoyga oid rivoj boshlangan edi. VI-IX asrlar feodal Yaponiyaning eng yuqori yutuqqa erishgan davri

edi. XIX asrgacha (1868 yil) Yaponiya tashqi dunyodan ajralib turgan feodal mamlakat bo'lgan. Ammo Xitoy, Xindiston, Koreya va Indoneziya madaniyatlari bilan Yaponiya aloqa bog'lagan edi.

Yaponiya dinlari sintoizm ("sin"- xudo, "tao"- yo'l) va VI asrda Koreya orqali Xitoydan kelgan buddizm edi.

"Yaponiya madaniyatining muhim, o'ziga xos hususiyati shundan iboratki: bu madaniyat tabiatga oid, ya'ni tabiat namunalariga qarab tuzilgan, va shu hususiyati bilan boshqa Osiyo mamlakatlaridan, ayniqsa, Xitoydan farqlanardi." (Syunkiti Akimoto. Izuchaya yaponskiy obraz jizni. M. 1961.)

Tabiat bilan inoqlikda turish yaponlarga odat bo'lgan. Tabiat bilan uyg'unlikka intilish - yapon san'atining muhim hususiyati edi.

Yapon san'atining kuchi - bu uning haddan tashqari oddiyligi va samimiylıkda bo'lib, materialning mohiyatini tushunish uchun mayda - chuydaga e'tibor berilmaganligidadir.

Yapon san'atining asosiy negizi shuki - barcha atrofdagi narsalar badiiy ta'sir ostiga olingan. Bu san'at - butun jon-tani bilan chambarchas bog'langan turmush san'ati.

Ya'onliklarda go'zallikni anglash uchun 4 tushuncha mavjud: 3 tushuncha (sabi, vabi, sibuy) tomiri bilan qadimiy din sintoizm bilan asoslanadi, 4-si esa (yugen) buddizm falsafasi bilan bog'liq.

"Sabi" - yaponlar uchun go'zallik va tabiiylik bir-biriga aynan o'xshash tushunchadir. G'ayritabiiy narsalar go'zal bo'la olmaydi. Faqat maxsus sifatlarni qo'shib tabiiylik yaratish mumkin. Sabi - bu tabiiy zang, arxaik mukammal emaslik, eskilikning go'zalligi, vaqt tamg'asi. U tabiat va san'at orasidagi aloqani amalga oshiradigan vositadir.

"Vabi" - san'at va kundalik hayot orasidagi ko'prik. Vabi tushunchasini, yaponlar ta'kidlashi bo'yicha, so'z bilan tushuntirib berish qiyin. Uni sezish kerak. Vabi - bu bironta bejamdorlikni, yaqqollikni, jo'rttaga qilinganlikni, ya'ni yaponlar tushunchasida beodoblikning yo'qligi. Vabi - bu doimiy go'zallik, dono izchillik, tabiat go'zalligi, buyumlarni go'zalligi - mana shularning hammasi "vabi" tushunchasi bilan bog'liq. "Sibuy" (sabi - vabi) tushunchasi yaponlar buyum bilan ishlashiga bog'liq. Yapon ustasi buyumga hukmdor qo'lga emas, balki, sevgan ayoliga, undan o'ziga o'xshagan bola bo'lishini xoxlagan erkakga o'xshab yondoshadi. Yapon rassomi materialni zo'rlamasdan, uning mohiyatini, go'zalligini ko'rsata oladi. Yapon san'atining maqsadi - toshni, yog'ochni, qog'ozni va boshqa materiallarni shunday holatga yetkazishi kerak ediki, ular eng to'liq o'z tabiiy go'zalligini ochishi lozim edi.

San'at siri shundaki, aytilmaganni eshitish, ko'rinmaydiganni tomosha qilish. Bu to'rtinchi go'zallik tushunchasi "yugen" ning asosidir. Bu shamani ustalik bilan amalga oshirish, oxirigacha aytmasdan, shama bilan yakunlash, ham o'ziga xos go'zallikdir. Yaponlar o'tkinchida go'zallik manbaini xis qilishgan va uni tomosha qilishgan (sakuraning gullashini, vulqon Fudziyamaning tutunini, suvni oqishini va boshqalarni tomosha qilishlari). Ifodali qilib ko'rsatish o'rniga shama qilish - yaponlar printsiipi bo'lgan. Xayotni abadiy rivojlantirish va barkamollik bir-biriga to'g'ri kelmaydi deb hisoblashardi. Ayni shu sababdan ular simmetriyani inkor etadilar. "O'rog'lik xatda bo'sh joylar mo'y qalam bilan chizilgan joylariga nisbatan ko'proq

ma'noga egadir" (LaoTSzo'). Faqat bitta so'zdan yozilgan she'r - "xayku", bitta poetik siymodan iborat teatr - "noo" yugenni ifodalaydi. Tosh va qumdan yasalgan poema bog'i yugen tushunchasining eng muxim yutug'i deb hisoblasa bo'ladi.

Yaponlar shu sababdan buyumlarni uzoqqa chidamaydigan qilib yasashadi.

Yaponiya me'morchiligi uzoq vaqt Xitoyning a'sirida bo'lgandi (ibodatxonalar, pagodalar va boshqalar). Me'morchilik va peyzajning bir-biriga uyg'unlik bilan qo'shilishi - Yapon ko'rilishining muxim, o'ziga xos xususiyati edi.

Keramika va chinni san'ati yuqori estetik yutuqqa erishgandi. Xaykallar yog'och va bronzadan qilinardi. Mayda plastika "nettske" XVII asrda keng tarqaldi. Bu yog'och yoki suyakdan yasalgan xunarmandlar, aktyorlar, afsonaviy qahramonlar yoki hayvonlarning haykalchalari edi. Nettske tamaki xaltani, kinni yoki kamarni tasmasiga taqilardi. Bu cho'ntaksiz milliy yapon kiyimining bir bo'limi edi.

Laklangan buyumlarni, chinni buyumlarni, metalloplastikani tayyorlash va ipak matodan kashta tikishda amaliy san'at yuqori yutuqqa erishgandi.

O'ziga xos qonun - qoidani, turmush tarzini falsafiy mulohaza etish, tabiatni lirik tasavvur qilish yapon rassomchiligining asosi bo'lgan. Tasviriy san'at asosan chiziqli bo'lgan.

Gazmollar Yaponiyada eng qadim zamondan ma'lum edi. Ular zig'ir, paxta va kanop o'simliklarni ekar edilar. VI asrda chet eldan kelgan qimmatbaxo ipak matolardan aslzodalar uchun buyumlar qilinardi.

Yapon san'atini ajratadigan xususiyatlaridan biri bu gazmoldagi naqshni raporti emas, balki, rasmday yoki raporti yashirilgan qilinardi.

Yaponlar Osiyodagi matoni bo'yash texnikasiga taqlid qilib, bir necha gazmol bo'yash usullarini qo'llashgandi:

- gazmolga erkin rasm solish;
- o'yma andaza (trafaret) ishlatish;
- mumda tasvir qilish;
- batik;
- bosma usulda gul bosish;
- tugun, qisqich va tasma bilan bog'lab matoni bo'yash;
- gazmolga kashta tikish.

Naqshda asosan tabiiy manbalari tasvirlanardi. Odamni tashqi dunyoning bir bo'lagi deb his etish kostyum san'atida o'z nozik aksini to'gandi.


Ya'poniya erkaklar kostyumi

Erkaklar kiyimi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat. Ular shaxsning ijtimoiy axvolini yaqqol ko'rsatadi (44 - rasm).

Ichki kiyim "sitagi" bel va yelka kiyimlaridan iborat. Bel kiyimi "fundosi" va "kosimaki" bo'lgan. Fundosi - bu ip gazlamadan qilingan songa bog'lanadigan bog'ich. Fundosining birinchi turining uzunligi taxminan 2,25 metr oq matodan qilinardi.

Uning bir uchi belidan aylantirib bo'g'imga bog'lanardi, ikkinchisi esa oyog'ini orasidan o'tkazib orqasida belda mahkamlanardi. Fundosining ikkinchi turi "ettyu fundosi" birinchisiga nisbatan kaltaroq bo'lib, beliga maxsus bog'ich yordamida

mahkamlanardi. Uni feodal Yaponiyada samuraylar va amaldorlar, XIX-asrda, aholining barcha tabaqalari kiyishardi.



44 – rasm. Erkak va ayollar dzyubanining bichimi.

Kosimaking uzunligi tizzasigacha bo'lgan. Matoni bo'ksaga aylantirib o'rab, tasma bilan mahkamlashardi.

Yelka ich kiyimi "dzyuban" va "nagadzyuban" deb atalardi. Dzyuban ip gazlamadan qilinardi, yengi esa oq yoki rangli ipakli matodan bo'lishi mumkin edi. Uning bichimi tunikasimon bo'lgan. Dzyuban ikki bo'lak matodan qilinardi, orqasida o'rta chok tikilardi, yon choki yeng o'miziga va yon kesimiga joy qoldirib tikilardi; yoqa o'mizi ham qirqilardi; old etagi taxminan 3-4 sm toraytirilardi. Eni taxminan 12 sm mato yoqa o'miziga va oldiga tikilardi va yoqa "eri" va qaytarma old "oqumi" hosil qilinardi. Olib qo'yiladigan yoqa "xanperi" ham tikilardi. yeng bichimi to'g'ri to'rtburchak shaklida edi. U ikki buklanib, yeng o'miziga tikilardi. yengning eni yeng o'mizi uzunligi bilan baravar qilinardi. Dzyubanining orqasida ichidan koketka (astar) tikilardi.

Ichki yelka kiyimining yana bir turi nagadzyuban edi. Dzyubanga nisbatan uning uzunligi boldirgacha bo'lib, yengining eni yeng o'mizidan kengroq qilinardi va ortiqcha eni yeng o'miziga tikilmas edi.

Erkaklar ustki kiyimi yelka va bel kiyimlaridan iborat edi. yelka kiyimiga "kimono" va "xaori" kirardi, bel kiyimiga - "xakama" (45 – rasm). "Kimono" (kiru mono - ustidan kiyiladigan) XVII-XIX asrlarda ustki kiyim sifatida keng tarqalgandi. Kimono - xalatsimon, uzunligi to'pig'igacha, etagi chapdan o'ngga o'ralgan kiyim. Uni kiyganda ichki kiyim yoqalari "xanperi" ko'rinishi kerak edi. Kimonoga eni 35 sm, uzunligi taxminan 9 metr mato ketardi. Ortiqcha uzunligi yoki eni qirqilmasidan chokka tikilardi yoki qaytarilardi. Kimononing asosiy bichimi ichki kiyim bichimiga o'xshash edi. U ikki bo'lak, ikki yeng, ikki old qiyiq, ikki yoqa "oqumi"dan iborat edi. Asosiy bo'laklar shakli to'g'ri to'rtburchak, qiyiq tepa tomoni qiya qirqilgan to'g'ri to'rtburchakdan iborat edi. yeng o'mizining uzunligi yeng enidan torroq qilinardi. yelka chizig'idan pastroq qiyiq uzun tomoni yoqa tikilardi. Yoqa o'miziga va qiyiqning qiya tomoniga yoqa tikilardi.



45 – rasm. Erkaklar kimonosi.

Kimononing bichimi yeng va yeng o'mizining uzunligi, xanperini bor yoki yo'qligi bilan farqlanardi.

Faslga moslanib kimono har xil qilinardi:

- "xitoe" - yozlik, astarsiz;
- "avase" - salqin mavsumga moslanib astarli qilinardi;
- "kosode" - qishlik, astar va avra orasiga hom-ashyo ipak tolasi solingan, ammo qavilmagan;

- "vatapire" - qishki, astar va avra orasiga paxta solinib qavilgan.

Sovuq paytda yaponlar ustma - ust bir necha paxtali kimono kiyishgan.

Kimono sidirg'a yoki yo'l-yo'l to'q rangli ip'ak matodan tikilardi.

Erkaklar kimonosi kashta qilingan beshta oq gerb "mon" bilan bezatilishi mumkin edi. Ulardan uchasi orqasida va ikkitasi oldida bo'lardi.

Kimononing ustidan belbog' "obi" bog'lanardi. Ularning ikki turi bo'lgan: "xeko obi" - kundalik kiyimda va "kaku obi" - qishlik va tantanali kiyimda. Xeko obi yumshoq eshilgan matodan qilinib ikki qayta bo'ksasidan aylantirib, uchini pastga qaratib bog'lanardi. Kaku-obi to'q ko'k, jigar rang yoki kul rang yo'l-yo'l qalin ipak yoki ip gazlamadan qilinardi. U uch qayta bo'ksadan aylantirilib, uchlarini tepaga qaytarib o'ng tomonida tugunga bog'lanardi.

Ulardan tashqari erkaklar kiyimida yana bir necha turli belbog'lar bo'lardi:

- sipo rangli, ayollarniki o'xshash matodan qilingan, eni 10 sm, taxlangan holda o'ng bo'ksasida galstuksimon bog'langan obi;
- to'q rangli "chaynalgan" matodan qilingan, eni 10 sm, qalinlikda eshilgan, sharfsimon, orqada bantga bog'langan obi.

Bolalarning belbog iplar esa uchinchi turiga o'xshash edi, lekin uning rangi yorqinroq bo'lib, yirik rasimli edi.

Ustki kiyim "xaori" faqat kimononing ustidan yoki xakama bilan kiyilardi. Bu oldi ochiq xalatsimon, uzunligi kimonodan qisqaroq kiyim. Uning old bo'laklari uchma-uch bo'lib ilgaklarga ilingan ikkita bog'ich yordamida birlashtirilardi.

Odatda xaori astarli qilinardi, ammo qishliklar paxtali va yozliklari astarsiz bo'lishi ham mumkin edi.

Bayram va rasmiy tantanaga oid xaori qora ipakdan qilinib, oq mon bilan kashtalanar edi; kundaliklari, esa to'q rangli yo'l-yo'l bo'lishi shart edi.

Xaorini bichimi ham tunikasimon bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat edi: stan, yon qiyiqlar (yon qiyiqlar bo'lmasligi ham mumkin edi), yeng va yoqa bo'lgan. Xaorining yeng o'mizining uzunligi yengini eniga teng. Uning silueti pastga qarab kengaygan yoki toraygan bo'lishi mumkin.

Erkaklar ustki bel kiyimi "xakama" ning tashqi ko'rinishi yubqa- ishtonga o'xshaydi. U uzun va keng kiyim bo'lgan. Xakama besh asosiy bo'limlardan iborat: yaxlit bichilgan tepasining markaz bo'lagi, ikkita poychasi va ikkita belbog'. Old bo'laklarida pastga qarab kengaygan, dazmollangan, qarama-qarshi uchtdan taxlamalar qilingan; orqa bo'laklarida esa ustima usti qilingan uchta qarama-qarshi, chuqur, diagonal yo'nalishda dazmollangan tahlamalar qilingan. Rasmiy xakama juda uzun va 'plissirovkalangan qilinadi. Old va orqa bo'laklariga alohida uzun bog'ich – belbog'lar tikilardi, yon choklarini tepa tomonida chuqur kesimlar qoldirilardi.

Xakama ip yoki ipak gazmoldan tikilardi va astarli yoki astarsiz bo'lishi mumkin edi.

Xakamaning ijtimoiy farqi faqat matoda edi, bichimi esa bir hil bo'lgan.

Yaponlarning kostyumi nimaga mo'ljallanganiga qarab "past uslub" - "fundagi" va "yuqori uslub" - "refuku" ga ajralardi.

Kiyimning kiyilishi quyidagicha bo'lgandi:

- "sagefuku" - ish kiyim;
- "fundagi" - kundalik kiyim;
- "haregi" - qishlik kiyim;
- "refuku" - rasmiy - tantanali kiyim.

Misol uchun, refuku uch bo'limdan iborat edi: kimono, uning ustidan xaori va yirik plissirovkali xakama edi. Kimono va xaorining oldi, orqasi va yenglarida oila gerbimon bo'lishi shart edi. Refukuning rangi to'q yoki qora bo'lishi shart edi, mon va bant esa oq bo'lardi. Ish kiyimi - "sagefuku" - quyidagi bo'limlardan iborat edi: yelka kiyim xanten, ishton momoxiki, belbog' obi va boldiriga kiyiladigan buyum. Xanten tunikasimon bichilib bir bo'lak matodan qilinardi, orqasida esa yoqa tikilardi. Old bo'laklariga to'rtburchakli qiyiqlar va yoqa tikilardi. yenglari to'g'ri to'rtburchak yoki trapetsiyasimon qilinardi. Xantenning yana boshqa bichimlari ham uchrardi.

Ishton "momoxiki" to'qqiz bo'lakdan iborat bo'lgan: to'rt qo'shaloq bo'lim - qiyiqlar va uzun tor belbog'. Har bitta to'rt qiyiqlar o'zaro tiqilib alohida poychani hosil qiladi, belbog' esa tepa qismini taxminan yarmisiga tiqiladi. Ishton belida emas bo'ksada mahkamlanadi.

Yaponiya ayollar kostyumi

Ayollar kiyimi. Ayollar kiyimining mohiyati - ayol gap qaytarmaydigan, qaram, bosiq va nafis, xushfe'l, muloyim bo'lishi lozim edi. Bu xususiyatlar ayolning tashqi ko'rinishida aksini topgan edi.


Ayollar kiyimi ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat. Ichki kiyim "futano" va "xadadzyuban" yoki kosimaki va dzyuban edi. Futano - oq ip matodan qilingan uzunligi tizzagacha tikilmagan yubka edi. Kosimaki - muslin yoki qarilar uchun oq va yoshlar uchun rangli krepdan, uzunligi topigigacha qilingan, tikilmagan yubka. Bu bel kiyimlar kimononing oldi ochilganda ko'rinardi.

Dzyuban, xadadzyuban va nagadzyuban bir xil bo'laklardan iborat edi. Ammo, erkaklarning kiyimida yeng o'mizi va stanning yon choklari to'liq tikilsa, ayollarnikida esa yon chokini qo'ltiq tomoni ma'lum darajada tikilmasdan ochiq qoldirilardi.

Ichki yelka kiyimlar o'zaro eni va uzunligi bilan farqlanadi. Dzyuban kalta, nagadzyuban esa uzun qilinadi. Xadadzyubanning ustidan bichimi kimonoga o'xshash nagadzyuban kiyiladi va belbog' "datemaki" bilan bog'lanardi. Xadadzyuban sovuq paytda kosimakining o'rniga kiyiladi. Ichki kiyim ip yoki ipak gazlamadan tiqiladi.

Ustki kiyim kimono va ba'zan uning ustidan kiyiladigan kiyim xaori edi.

Ayollar kimonosining bichimi erkaklarnikidan farqlanmas edi. Farqi faqat kimononing tikilishida bo'lgan: yengning ich tomoni va yeng o'mizining qo'ltiq tomonidan tikilmasdan ochiq qoldirilardi (46 - rasm).



46 – rasm. Ayollar kimonosining bichimi.

Kimono juda qulay kiyim bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega edi:

- belbog' obi bilan birgalikda issiqni yaxshi saqlaydi;
- yengining tikilmaganligi va yoqasini yopishib turmaganligi havo almashinishiga imkoniyat beradi;
- bichimi erkaklarnikiga nisbatan kamroq o'zgaradi.

Ayollar kimonosi nimaga mo'ljallanganligi matodan bilinardi. Bashang kiyimlarda yoshlar ko'k, kul rang, binafsha, pushti matolarni qo'llagan. Naqshlari esa (to'qilgan, kashtalangan yoki tasvirlangan) yenglarida va etagida joylashgandi. Kundalik kimonoga esa sipo rangli, kopincha yo'l-yo'l matolar qo'llanardi. Tantanali paytda ayollar ustima-usti bir necha (uchtagacha) kimono kiyishardi. Bu holda ichki kimonolarining xan'yorisi oq bo'lishi va ustki kimonodan ko'rinishi shart edi. Kimono ustidan belbog' "obi" bog'lanadi. U ayollar kiyimining eng muhim bezagi edi. Qimmatbaxo obini maxoratli to'qimachilar qo'lda to'qishadi va xashamatli tasvirlar bilan bezatishadi.

Obi beldan balandroq bog'lanib, yeng o'mizi qo'ltiq tagigacha borib, uni berkitadi. Belbog' obining bog'lash usullari juda murakkab. Kimono kiyilgandan so'ng, ortiqcha uzunligi ko'tarilib ko'krakdan pastroqda maxsus tasma bilan bog'lanadi. Kimononing osilib turgan qismi bo'ksaga tushirilib, ikkinchisi tasma bilan mustaxkamlanadi. Keyin ustki belboqqa nisbatan torroq ichki belbog' psita obi kiyiladi va u tasma bilan mustaxkamlanadi.

Faqat shundan so'ng, ikkiga taxlangan asosiy ustki obi bilan gavda bir necha marotaba o'raladi. Uning tepa qirrasining orasiga maxsus yostiqlar "oblage-no-sin" qo'yiladi. Oblage-no-sin orqada bog'lanadigan yostiqsimon bantning asosi bo'lgan.

Obining old tomoni qattiq bo'lishi uchun maxsus karton plastinkasi ("mae-sin" yoki "obi-ita") ni qo'yishadi. Shundan so'ng, obi ikki qavat shnur "obzidame" bilan mustahkamlanadi. Odatda obzidame orqaga bog'lanadi, oldida esa dekorativ "dengiz" tugun bog'lanadi yoki yirik munchoq qadaladi.

Obining taxlamlarida yapon ayollari mayda buyumlarini solib yurishadi, sig'maganlarini esa - yengning uchi - "sode" ga solishadi, chunki ular sumkani olib yurmasdi.



47 –rasm. Ayollar kimonosi.

Ustki kiyim - xaorining uzunligi modaga bog'liq edi. Uning bichimi erkaklarnikiga o'xshash, tunikasimon bo'lgan, etak tomonini esa sal toraytirishadi. Farqi esa faqat qo'ltiq tomonini ochiqligida edi.


Ya'pon milliy kiyim kiyish tartibi quyidagicha bo'lgan: oldin bo'ksasi oq mato bilan o'ralgan ; keyin och rangli yopishib turgan dzyuban kiyishgan; ustidan xalat "sitagi" ni va so'ngra kimono va obi kiyilardi, ba zan, xaori kiyilardi.

XV asrga qadar ular sochlarini tashlab yurishgan, keyin prichyoska qilishadigan bo'lishdi. Prichyoskalar xilma-xil bo'lgan va kopincha juda murakkab edi. prichyoskalar yog'och, bambuk, metall, marjon va toshbaqa kosasidan yasalgan dekorativ taroqlar va shpil kalar bilan bezatilardi.

Yaponlarning bosh kiyimi bo'lmagan. Uning o'rniga issiqda va yog'ingarchilikda soyabon tutishardi. Sayrda va ishlagan paytda ular tekis keng soyabonli pohl shlyapalar kiyishgan, qishda esa - romollar yoki kapyushonsimon yopinchoqlar kiyishgan.

Oyoqqa kalta paypoq kiyishardi. Ular paxta yoki shoyidan qilinardi, tagligi esa qalin jun gazmoldan edi. Ushbu paypoqni ibodatxona, teatr va uyda kiyishardi.

Oyoq kiyimi "geta" va "dzori" bo'lgan. Skameykasimon yog'och taglikli oyoq kiyim geta yaponlarning milliy poyabzali xisoblanadi. Dzori - oyoqqa charm tasma yordamida mustahkamlangan, yumshoq taglikli poyabzal bo'lgan (48 - rasm).



48 – rasm. Oyoq kiyimlari.

Yapon milliy kostyumida issiq paytda yelpig'ichlar qo'llangan. Ularni bir necha turi bo'lgan. I asrda xitoyliklar taqlid etilgan qog'oz yelpigpich "utiva" keng tarqalgan edi. VII asrda Yaponiyada ixtiro qilingan taxlama yelpig'ich "ogi" askarlar kostyumiga kirdi. Ular uni belbog'iga qistirib yurishardi. X asrda ogi aristokratlar orasida tarqaldi. Yaponlarda o'ziga xos pantomima - "elpig'ich tili"- tuzilgandi. yelpig'ichlar oltin yoki kumush ierogliflar bilan, peysajli rasmlar, har xil saxna janrlari: odam shakllari va kalligrafiya ajabranarli uyg'unli yaxlitlik kasb etib, yelpigichning naqsh tasvirlariga tabiiy ravishda uyg'unlashardi.

Erkaklar belbog'ining majburiy qismi "intro" bo'lgan. Bu dori, xashxidlar va pastalarni solib yuradigan quticha edi. Ular xaykalcha netske yordamida belbog'ga qistirilib qo'yilardi. Odatda, intro yog'ochdan qilinib, oltin yoki rangli lak bilan sirlanardi va rangli rasmlar bilan bezatilardi. Yirik buyumlarini kvadrat shaklli ip yoki ipak gazmoldan qilingan "furosiki" da olib yurishardi.

6 - MAVZU: YEVROPA ANTIK DAVRI KOSTYUMI

Mashg'ulot turi - ma'ruza

Asosiy savollar:

- 1.Qadimiy Yunon kostyumi turlari, ularning bichimi, bezagi, qo'llaniladigan materiallari.
- 2.Qadimiy Rim kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi, qo'llaniladigan materiallari.

Tayanch so'z va iboralar:

Antik davrni san'hati va kostyumi. Qadimiy Yunon kostyumi, Qadimiy Rim kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi, qo'llaniladigan materiallari. Antik kostyumining shakllantiruvchi vositalari va ijtimoiy belgilari.

Adabiyotlar

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А.Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
- 2.Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
- 3.Хасанбаева Г.К. То'qimachilik dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
- 4.Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.

- 5.Xasanboeva G.K., SHomansurova M. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma.-T.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
- 6.S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma.-T.:Turon-Iqbol, 2006-y., 128b.
- 7.Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. —М.: Академия. 2003

Qadimiy Yunon davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

Qadimiy tsivilizatsiyalarning badiiy merosida Yunoniston va Rim ustalarining ijodi muxim o'rin egallaydi.

Yunonistonning ajoyib madaniyati Bolqon yarim orolining janubida miloddan avvalgi VII—I asrlarda ravnak, topgan. Uning tabiiy sharoiti, ilik, dengiz iqlimi, serxosil vodiylari va tog' yaylovlari, boy foydali qazilmalari qadimiy yunonlarning asosiy turmush tarzini ifodalaydi.

Yunonistonning siyosiy tuzilishi kadimiy sharq istibdodlardan keskin farqlanardi. Yunoniston quldor mamlakat bo'lsa ham, uning asosi demokratiya edi. Erkin aholi teng xuquqlarga ega edi. Barcha muxim masalalar kengash va ovoz berish yordamida yechilardi.

Qishloq. Xo'jaligi, xunarmandchilik va savdo iqtisodning asosi edi. Miloddan avvalgi V asrda mamlakatda san'at ravnaq, topgan va bu asr Yunoniston tarixida "oltin" asr deb ataladi. San'at asarlarida quldorlik demokratiyasining rivojlanishi, urf-odatlar, ozod ellarning qarashlari va didlari yorqin ifodalangan. Shu davrda Afinada qurilish, shaxar markazini tiklash, yangi ibodatxonalarni va ijtimoiy binolarni (maktab, stadion va b.) qurilishi juda yuksak darajaga erishgan. Bu vaqtda (ulug Fidiy, Miron, poliklet ajoyib xaykallar va muxtasham binolar bunyod etganlar; Sofokl va yevripid tragediya va she'rlar yozgan va boshqa taniqli yozuvchilar, olimlar, faylasuflar ijod etgandi.

Bu davrda inson barkamolligi shuxratlangan. Mard va har tomonlama barkamol, mukammal odam siymosi estetik ideal bo'lgan. Kuch, go'zallik, sport bilan shugullanish natijasida garmoniyaga oid rivojlangan tana chiroy uchun eng zarur namuna bo'lgan. Yunonlar insondagi sog'lik va guzallikni oldingi oringa, boylikni esa, keyingi o'ringa ko'uyar edilar.

Yunonlarning dini afsonalardan ayrilmas edi. Ular tushunmagan narsalarga odam qiyofasini bergan edilar. "Xudolarni o'uziga qaratish uchun, ularga odam qiyofasini berish kerak" deb o'ylashgan. Yunonlarning xudosi ideallashgan mukammal odamning siymosi bo'lgan. Xayvonlar esa, san'atda insonga bo'uyisungan va tabiat kuchini ifodalovchi bo'lib afsonalarga kirgan.

Vatanparvarlik, yuqori ong, barkamol insonning cheksiz qobiliyatiga ishonish, badiiy tilning oddiyligi va ifodaliligi, sharoitni to'g'ri aks ettirish - antik madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri edi.

Antik san'at Ovrupo madaniyatining kelajagida muxim axamiyat kasb etgan.

Antik san'atdagi inson go'zalligi to'g'risidagi tasavvurlar mujassamlanib, tarixda birinchi marotaba odamning tanasi va ruxi go'zallik, estetik idealning asosiga olingan. Polikletning nazariy asarida o'lchov birligi sifatida odamning bo'yi olingan.

Yunon jamiyatida ayollarning xuquqlari cheklanganiga qaramasdan, ular siymolari san'atda sog'lom, yaxlit shaxs va xar tomonlama barkamol ifodalangan edi. Misol uchun, Afrodita iloxining (Venera Milosskaya) xaykali xozirgacha ayollarning guzallik timsoli xisoblanadi.

Yunonlarning turmush tarzi va estetik tasavvurlari ta'sirida kostyumlari shakllangan. Qulay iqlim, odam tanasiga estetik qarash antik yunon kostyumi shakllarining uyg'unligini va yengilligini aniqlagan edi.

O'z kiyimlari uchun yunonlar yumshoq, to'qilib turadigan, yaxshi burmalanadigan matolarni ko'llagan edilar. Matolarni ko'lda tikuv dastgoxida ishlab chiqarar edilar. Tukuvchilik maxorati yuqori baxolanardi. Afsonalar bo'yicha barcha Olim' iloxlari va boshqa a'zolari mashxur toqimachilar bo'lishgan va o'zaro shu kasbda musobaqalar o'tkazishgan.

Yunon matolarining tola tarkibi jun va zig'ir bo'lgan. Paxtani ular birinchi marotaba Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn)ning xarbiy yurishlarida Xindistonda kurishgandi.

Yunonlarni kostyumning, asosan, plastik tomoni qiziqtirgani uchun, ular kiyimda sidirga matolarni qo'llashgan. Ko'k, qizil, to'q qizil, yashil, sariq, jigarrang va, asosan, oq ranglar uchrardi. Kul va jigar ranglar motam ranglari edi. Sidirra gazmollar kashtalangan, aplikatsiya qilingan yoki tasvirlangan xoshiyalar bilan bezatilgan. Yunon naqshining belgi ma'nosi bo'lmagan. Me'morchilikda va amaliy san'atda naqsh buyumning bezagi bo'lgan. Naqshlar o'simlik shakllaridan uygunlik asosida ishlangan. Ikkinchi manba - geometriya bo'lgan. U go'zal san'at, xar qanday shaklning asosi deb xisoblangan. Usimlik va geometrik tasvirlar, stilizatsiyalashgan tasvirlarda meandr, krittulkini va 'almettalar eng ko'p uchragan.

San'atning barcha turlari kabi yunonliklar uchun kostyum yaratish ijod edi. Matoning plastik xususiyatlaridan go'llallikni yaratib, yunonlar go'llallik qonunlari bo'yicha mato bilan ishlash maxoratini o'rganishgan. Xar xil yunalishlarda joylashgan, tana shaklini ko'rsatadigan va xarakatlarga binoan o'zgaradigan burmalar kostyumning estetik asosi bo'lgan edi. Yunon kostyumini yaratish uchun gazmolning shunday fakturasini tanlash kerak ediki, qaysiki yaxshi taxlanib, naqsh va bezaklar bilan uyg'unlashsin. "Odamning aqli bovar qilmaydi, qanday qilib qadimiy yunon va rimliklar shunday go'zal, o'ziga xos garmonik drapirovkalarni o'ylab topishgan" (S.CHuykov. Italg'yanskie dnevniki. M., 1966, s.67).



49-rasm. Bo'rtma tasvir. Erkaklar - xiton va hlamidada, ayollar –xiton va gimatiyda



50-rasm. Galikarnas maqmarasidagi Mavsol haykali. Xiton va gimatiy.

Yunon kostyumining tuzilishi asosida turnab kuyilgan, maxkamlangan yoki gavdaga uralgan gazmol parchasi edi. Matoning eniga, uzunligi taxlanish usuliga, bukilish, uranish va joylanishiga qarab kostyumning xar xil turlari yaratilgan.


Erkaklar va ayollar kiyimining asosiy turlari ko'ylak "*xiton*" va yopinchiq "*gimatiy*" bo'lgan. Ular to'g'ri to'rtburchak shaklida zig'ir yoki jun matolardan qilingandi.)

Qadimiy Yunon davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar xitoni (49-rasm) ko'pincha bir parcha matodan qilinardi. Yon tomonidan qo'li uchun joy qoldirib tikilardi. Ba'zan, xitonning yon tomoni ochiq qoldirilardi yoki yeng qilinardi. Bunday xiton yaxlit to'qilardi. Odatda, xitonning uzunligi tizzagacha bo'lgan, uzun xitonni esa koxinlar va aktyorlar turli marosimlarda kiyishgan. Xitondan, odatda, uyda yoki ichki kiyim sifatida foydalanishgan.

Eng keng tarqalgan ustki kiyim yopinchoq "*gimatiy*" (50-rasm) turri to'rtburchak (1,7x4 m) jun matodan qilinardi. Uning eng keng tarqalgan kiyish usuli: sal drap'irovkalangan, yoki taxlamalar xosil qilingan, bir tomoni chap yelkadan ko'krak-20 tushib turgan, ikkinchi tomonini esa orqadan o'ng qo'lining tagidan o'tkazilib, chiroyli taxlamalar bilan joylashtirilardi edi.

Kengroq va uzunroq gimatiyni "*pallium*" yoki "*alladium*" deb atalgan va uni dramaturglar, notiqalar kiyishgan. Bu kiyim odamning tashqi ko'rinishiga ulug'vorlik salobatini berardi, drap'irovka gavdaning pplastik egiluvchanligini ta'sdiqlardi. Drapirovkalarning turri, aylana va egri yunalishda joylanishi va bitta yelkadagi markazga yirilishi tananing xarakatlariga muvofik bu, obrazning dinamikligini ta'kidlar edi.



51-rasm Diplodiy.

Yunonlarning ustki kiyimi gimatiydan tashkari yopinchoq "*xlamida*" xam bo'lgan. Uni sayoxatchilar va jangchilar kiyishgan. U xam turri to'g'ri to'rtburchak matodan qilinib, gimatiyga nisbatan kaltaroq edi. Xlamida yelkaga tashlanardi va chap yoki o'ng yelkaga to'g'nagich "*fibula*" bilan maxdamlanardi. Erkin tomonlari chiroyli faldalar naysimon burma bilan to'qilib turardi, bir qo'li ochiq qoldirilardi. Odatda, xlamidani bosma movutga o'xshagan jun matodan tayyorlashgan.

Yunonlar, ko'pincha, boshyalang yurishgan, ammo sayoxatga keng soyabonli yumaloq fetr shlyapa kiyishgan.

Jangchilarning ichki kiyimi kalta *xiton* bo'lgan, uning ostidan metallidan peshband kiyishgan. Xitonning ustidan sovut "*kirasa*", boshga dubulg'a (shlem) kiyishgan. Boldimi "*knemides*" bilan ximoya kilishgan. Ustki kiyimi xlamida bo'lgan.

Kosiblar va qullar, odatda, yengsiz yoki kalta yengli dag'al jun matodan xiton kiyishgan. Qullar esa, o'ng tomoni ochiq "*ekzomida*" yoki ishlagan p'aytda p'eshband kiyishgan.

Qadimiy Yunon davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Ayollar kiyimi. Yunon jamiyatida ayollarning xuquqlari cheklanganiga qaramasdan, avlollar tarbiyalagan go'zallik tugysi, umumiy madaniyat rivoji yunon ayoli-ning kiyim bichimini aniqlar edi. Kiyim ayol qomatining chiroyini ko'rsatishi, to'qilib turishi lozim edi.

Insoniyat tarixida yunonlar birinchi bo'lib topgan drapirovkalarning joylanishi va ritmikasi badiiy birlik ko'rnushiga itoat etgan.

Ayollarning kiyimlari erkaklarnikiga nisbatan xilma-xil bo'lgan. Asosiy kiyimi xisoblangan xiton va gimatiydan tashkari boshqalari xam bor edi.

Xitonning bir necha turi bo'lgan: qaytarmali (yoqasimon) xiton "*di'lodiy*", keng "*ionik*" yoki tor "*darik*" xitonlar. Diplodiy (51-rasm) odamning bo'yidan 60-70 sm uzunroq to'g'ri to'rtburchakli matodan qilinib, yon tomonlari tikilmasdi. Tepa tomoni esa qaytarilardi va yelkasi to'g'nagich "*fibula*" bilan maxkamlanib, drapirovkalanardi.

Xitonning qaytarmasi boshqa rangli mato bilan yoki kashta bilan bezatilib, diplodiyning erkin faldalari va drapirovkalari bilan uygunlashgan.

Eng oddiy xiton — darik xitoni edi. U bo'uy baravar bir parcha matodan qilinib, yelkasi fibulalar bilan maxkamlanardi, yon tomoni esa ochiq tikilmasdan qolardi. Ba'zan u ikkita parcha matodan, orqa bo'lagi uzunroq qilinib, boshga yopinchok sifatida tashlanardi.

Spartan qizlari o'ng tomoni tikilmagan va yelkasi biriktirilmagan xiton "*eplos*"ni kiyishgan. Odatda, Afina eplosda tasvirlanardi.



51-rasm. Bo'rtma tasvir. Xiton va gimatiy

Eng murakkab, ser drapirovkalangan go'zal ayollar kiyimi — ionik xiton bo'lgan. U ikki parcha keng, uzun, yumshoq, matodan qilinib, yelkasi ko'pgina fibulalar bilan maxkamlanib, ser drapirovkalarni xosil etardi.

Xitonlar belidan, ko'ragining pastidan yoki bo'ksasidan belbog' bilan boylanardi, ortiqcha uzunligi belbog'ning ustidan tushirib kuyilib, "*klopos*"yai xosil etardi. Ba'zan xitonlar ikki joyidan bog'lanardi, ayniqsa, ionik xitonlar turli usulda bog'lanar edi (52-rasm).



52-rasm. Alkamen. proqna va Itis. Xiton.

Ayollarning ustki kiyimi xilma-kil drapirovkalangan gimatiy edi (51-rasm). Ayollar gimatiyi erkaklarnikiga nisbatan kichikroq, ammo ko'rinishi go'zalroq edi. Ayollarga ko'chaga xiton va gimatiysiz chikish taqiqqlangandi, erkaklar esa gimatiyni xitonsiz kiyishardi.

Xunarmand va savdogar tabaqaga mansub ayollar jun yoki zigir matodan sipo xiton va gimatiy kiyishgan, ko'chaga chiqqanlarida gimatiy bilan boshlarini xam yopishgan.

Qullar, odatda, o'z milliy kiyimini kiyishardi.

Yunon ayollari xusniga go'zal soch turmaklari (pricheskalari) yanada xusn qo'shardi. Sochlari uzun bo'lib, Gomerning "tillajingalak" sochlari eng chiroyli xisoblanardi. Sochni orqaga turmaklash usuli "*korimbos*" klassik usul, deb xisoblanardi. Ayollar ko'pincha sochini tasmalar va to'rlar bilan bezatishardi.

Ayollarda bosh kiyim asosan bo'lmagan, ular namgarchilikda gimatiyni boshga tashlab yurishgan yoki dumaloq poxoldan qilingan shlyap "*foliya*"ni kiyishgan.

Ayollarda kiyimga ko'shimcha soyabon va bargsimon yelpig'ich bo'lgan.

Oyoq kiyimlari turli shaklli shippaklar edi. Ular yorqin rangli charmdan qilinib, oltin va kumush bilan bezatilardi.

Zargarlikda Yunoniston yuksak maxoratga erishgan. Sirralar, marjonlar, kameya va intaliyalar, uzuklar, zanjirlar, tillakosh "*diadema*"nay, bilakuzuklar oltin va kumushdan ishlangan va qimmatbaxo toshlar qadalib, quyma naqshlar bilan bezatilgandi.

Yunon ayolini kosmetikasiz tasavvur qilish mumkin emasdi. Ular bronza oynaga karab yuzlarini qizilga, lablarini, kosh va ki'rikklarini bo'yashib, atirlar separ edilar. Atirlari nozik flakon "*lekif*"larda saqlanardi, bu idishlar xaqiqiy san'at asari bo'lgan.

Insoniyat ko'p marotaba yunonlar kiyimiga o'xshash kiyim yaratishga intildi, ammo kadimiy Yunonistonda o'ziga xos sharoitlarda san'at asosida yaratilgan kostyumlarning plastik go'zalligi faqat o'z davri sharoitida kamolotga erishishi mumkin. Lekin antik kostyumning asosiy badiiy elementlari — umumiy plastik shakli, mutanosibliklari, drapirovka ritmlari Ovrup madaniyatining boyligi bo'ldi va keyingi davrlarda Ovrupo kostyumining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Qadimiy Rim davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

Qadimiy Rimning tarixi miloddan avvalgi III asrda boshlanib, milodning V asrida qullarning qo'zgoloni va yaxshiy qabilalar xujumidan keyin nixoyasiga yetgan edi. Rim mamlakati xarbiy imperiya bo'lgan.

Rimning tarixiy taqdiri uning tabiiy sharoitlari bilan asoslangan edi. Serxosil yerlarning kamligi Rim jamiyatining xarbiylashtirilishiga sabab bo'ldi va rimliklarni bosqinchilik urushlariga olib keldi. Yashash uchun kurash rimliklarni qiyinchiliklar bilan kurashga chorladi, og'ir turmush sharoiti esa ularni juda ishbilarmon odam qildi.

Rim jamiyatining aniq sinfiy tabaqalanishi qadimiy rimliklarning kostyumida uz ifodasini topdi. Bir tomonda erkin aholining murakkab, xashamatli, yorqin va rang-barang kiyimlari bo'lsa, ikkinchi tomonda esa, qullar va qambagallarning oddiy dagal kiyimlari bo'lgan.

Lekin Rim jamiyatida quldorlar orasida xam tengsizlik bor edi. Ayniqsa, sinfiy tabaqalanish Rim imperiyasida (I—V asrlar) ko'chayib ketgan edi. Aholining xar xil tabaqalarining kiyimi ularning jamiyatda egallagan o'rni bilan bog'lik edi. Ba'zan, kostyumda maxsus belgilar uchrar edi. Kiyimda zamon ruxidagi dabdabalik misli ko'rilmagan darajaga yetib, ma'naviy madaniyatni juda past darajaga tushirdi.

Qadimiy rimliklarning kiyimi respublikachilik davrida yaratilgan. Jangovar jangchi va basavlat ayollar ularning estetik ideali bo'lgan. Murakkab kiyimlar gavdaga savlat va salobat baxsh etgan.

Kiyim tayyorlash uchun ko'llangan matolar: jun, zigir va sharqdan olib kelingan xarir shoyilar bo'lgan. Kostyumda yorqin ranglar ko'llanar edi: qizil, binafsha, to'q qizil (qirmizi) va sariq. Oq rang tantanali deb xisoblanardi.

Chetdan qaraganda, rimliklarning kostyumi yunonlarnikiga o'xshash bo'lib, ammo bu o'xshashlik faqat nisbiy edi, chunki yunonlar va rimliklarning kostyumlari drapirovkalanardi. Ammo Rimda odamning go'zalligi tugrisidagi tasavvur va kostyumning estetik baxolanishi Yunonistonga nisbatan mutloq boshqa edi. Rimda go'zal odam tanasiga siginishmas edi. Rimda iqlim sovuqroq bo'lgani uchun kiyimlar yo'piq bo'lib, issiq saqlashi kerak edi.

Bundan tashqari, Rimning oliy tabaqalari yunonlarga nisbatan boshqacha bo'lgan. Ular ishlamagan va shuning uchun ularda tananing mashq qilishiga extiyoj yo'q edi.

Rimliklarning kostyumi, xarbiy kostyumdan tashqari, tez xarakat qilishga imkoniyat bermas edi. Umuman, sekin yurish, kostyumdagi benuqsonlik va sunpiy xarakatlar nazokatning cho'qqisi deb xisoblangandi.

Qadimiy Rim davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Erkaklar kostyumi. Rimliklar kostyumining asosi ichki kiyim "*tunika*" va ustki kiyim "*toga*" bo'lgan.

Ularning ko'rinishi yunonlar kiyimiga o'xshash edi, ammo bichimi va moxiyati bilan farqdanardi.

Tunika — turli shaklli, yengli, bichilgan ichki kiyim bo'lgan (53-rasm). Uning asosiy ,: turlari "*kolombium*", "*talaris*" va "*dalmatika*" bo'lgan.



53-rasm. Delf aravakashi.

"*Kolombium*" — uzunligi boldirgacha bo'lgan, keng emas, kalta yengli tunika. "*Talaris*" — boylarning uzun yengli tunikasi. "*Dalmatika*" — uzunroq, keng yengli, yoyilib turganda xoch (krest)ga o'xshagan kiyim. Shuning uchun dalmatikani nasroniy kiyishgan (rimliklar avval butparast edilar, I asrdan boshlab nasroniylikni qabul qilishgan). Roxib sarkardalar kiyishgan kirmizi rangli tunika eng bashang kiyim edi. Uni pal mettalar bilan kashtalangan kirmizi matodan tikishardi. Senatorning tunikasi vertikal qizil chiziq bilan bezatilardi va shu bilan u farqlanardi.

Salqin paytlarda rimliklar baravariga bir necha tunika kiyishardi. Misol uchun, imperator Avgust birdaniga to'rtta tunika kiygandi.

Tunikada, u ichki kiyim bo'lgani uchun, ko'chada yurish mumkin emas edi.

Rimning ramziy ustki kiyimi "*toga*" bo'lgan. Uni faqat erkin rim fuqarolari kiyishi mumkin edi. Chet elliklar va qullarga togani kiyish man' etilgandi.

Toga katta tugri to'rtburchak (6x1,8 m) yoki ellipssimon jun mato parchasidan qilinardi. Toganing murakkab drapirovkalarini xosil qilish juda qiyin edi, shuning uchun bu ishni qullar bajarardi.

Qirmizi rang saltanat ramzi bo'lgan. Qirmizi rangli togani faqat imperator kiyishi mumkin edi. Qirmizi chiziqli "*toga preteksta*" magistrat, tsenzor, pretor, kvestor va koxinlar kiyishi mumkin edi. Saqlanib qolgan qadimiy odatga binoan, toga protekstani 17 yoshgacha bo'lgan ugil bolalar kiyishardi. 17 yoshga to'lgan kundan boshlab ular oq togani kiyar edilar, bu balogatga yetganlik ramzi edi. Togadan tashkari "*latserna*" tantanali plashch, deb xisoblanardi. Latseraning uzunligi tizzagacha bo'lib, unga ko'llangan matolar juda qimmatbaxo, ya'ni tilla va kumush bilan tukilgan edi. Odatda, uni orqaga tashlab, ikki yelkani yop'ishar va ikki uchini buynining oldida maxsus tuka "*fibula*" bilan biriktirib qo'yishardi. Keyinchalik latserna o'zgara boshladi va oddiy matodan qilingan oq toganing ustidan kiyadigan plashch bo'lib qoldi.

.....
.....Rim imperatori va yuqori lavozimli shaxslar, odatda, "*oludamentum*" — ortacha xajmli, uzunligi tizzadan sal pastroq plashch kiyishgan. poludamentumni orqaga va chap yelkaga tashlab, o'ng yelkada fibula bilan qistirib kuyishgan. Ba'zan, uni sharsimon taxlab, chap yelkaga tashlar edilar va uni bir necha marotaba chap qo'lga o'rashardi.

Jangchilar katta bo'lmagan jun mato parchasidan qilingan plashch "*sagum*"nya kiyishardi. Kambagallar va qishloqliklar dagal jundan plashch "*penula*"ni kiyishgan. Uning shakli yarim doyra yoki doyra edi, bosh uchun kesim qilib, kapyushon tikib kuyar edilar. Biroq, ko'pincha qimmat baxo matodan qilingan penulani rimlik oliftalar xam kiyishgan.

Rimliklar ishton kiyishmagan. Biroq shimolda ular bu kiyim turini ko'chmanchi qabilalardan olishgan. III asrdan boshlab ko'p rimliklarning garderobiga ishton kirgan edi, ayniqsa xarbiylarda.

Erkin rimliklarning Oyoq kiyimi shippak va nimetik bo'lgan. Ular toga bilan kiyilishi shart edi. Shippaklar tasma yordamida oyoqqa maxkamlanardi. Ular rang-barang charmdan tayyorlanib, kumush va oltin tuqalar bilan bezatilardi. Kambagallar va qullar oddiy yogochdan tayyorlangan boshmoqni kiyishgan.

Rimliklarning pricheskalar xar xil edi. Sochlari jingalak yoki sillik bolgan. Odatda, ular soqollarini qirib tashlar edilar, ammo kichkina jingalak qilingan Soqol xam kuyishgan.

Kostyumga qushimcha bezaklar: uzuklar, to'qalar, yumaloq "*bulla*"lar va gullar, yaproqdan gulchambarlar taqishgan, xarbiy sarkardalar oltindan yasalgan gulchambarlar bilan yasanishgan.

Qadimiy Rim davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Ayollar kiyimi. Rimda ayollarning o'rni yunon ayollariga nisbatan boshqacha bo'lgan. Ular katta yuridik xuquqlarga ega bo'lib, izzat-xurmat qilinardi. Ammo Yunoniston

va Rimning ijtimoiy tuzumining o'xshashligi va yunon madaniyatining ta'siri natijasida qadimiy yunon va rim ayollarining kiyofasida o'xshashlik bor edi.



54-rasm. Rim haykallaridan nusxalar. Ayollar kostyumi: stola va palla.

Qadimiy rim ayollari kiyimining badiiy tomoni shaklni drapirovka yordamida yaratishga asoslangan, ammo rimliklar kiyimining drapirovkasi yunonlamikiga o'xshash plastik bo'lmagan.

Ayollar kiyimi tunika, "*stola*" va "*palla*" dan iborat edi (54-rasm).

Oldingi bezak elementlari kiyimda ko'p joy egallamas edi. U vaqtda kiyim tor shaklli tunikadan iborat edi. Tunikaga tikilgan yumshoq charm tasma ko'krakni ushlab turar edi.

Tunikaning ustidan kengroq, uzun, xitonsimon "*stola*"ni kiyishardi. Agar tunika yengli bo'lsa, stola yengsiz edi va aksincha. Stolani belbog' bilan boglashardi, ortiqcha uzunlikdan "*buf*" xosil qilishardi. Ko'pincha stolani ikkita belbog bilan boglashardi: odatda, birining ustiga ikkinchisini ko'ndalang kiyib maxkamlanardi. Tunika va stolaga qo'llangan matolar xar xil edi: qalinrogi ichki kiyimga, yupqa va qimmatbaxosi — ustki kiyimga. Stolaning etagi keng qo'yma burma "*instita*" bilan bezatilardi.

Ayollarning ustki kiyimi yunonlarning gimatiyiga o'xshagan yopinchok "*palla*" bo'lgan. Uni turli usulda kiyishgan. plashch palla gavdaning atrofida aylana drapirovka qilinardi. Uydan chiqqanda rim ayollari boshlarini va yuzlarini to'r bilan berkitishardi.

Yosh qizlar pallaning o'rniga kalta, tizzadan yuqorida bo'lgan "*tunika interior*"ni kiyishgan. Balogatga yetganda va to'uy kunida ular tor, uzun, belbogsiz "*tunika tekta*"ni kiyishgan.

Imperiya davrida boylikka intilish ayollarning kiyimiga xam uz ta'sirini ko'rsatdi. Xilma-xil ranglarga bo'yalgan yupqa matolar paydo bo'lgan. Ayniqsa, yunon va ossuriya ipaklari boshqa shoyi gazmollardan afzalroq, xisoblangan. Shoyi matolarga qiziqish shunchalik zo'r ediki, xattoki 1 kadoq shoyining narxi 1 qadoq oltinga teng edi.

III—IV asrlarda asta-sekin drapirovka yo'qoladi. Qimmatbaxo, yirik naqshli matolar kose va ossuriya matolarining o'rniga keladi. Kiyim ogiir, shakli yassi va tananing guzalligini ko'rsatmaydigan bo'ldi. Plastik stolaning o'rnini uzun, tor, keng yengli, qalin gazmoldan qilingan "*dalmatika*" egalladi.

Rim qambag'al aholi dag'al matodan qilingan tunika va 'alla kiyishardi. Ko'chaga chikkanda ular boshlariga 'allani urab yurishardi.

Boy ayollar kashta va metall tuka bilan bezatilgan yumshoq boshmokni kiyishgan. Ularni qizil, ok, tuk sariq (zafaron) charmdan qilishardi.

Rim 'atritsiankalarining soch turmaklari xilma-xil va murakkab bo'lgan. Ular sochlarini tuyari farq ochib, silliq tarashar, ba'zan uzun kokillar yoki yunonlarnikiga o'xshash prichoskalar qilishardi. Lekin karkasda maxkamlangan kokillardan qilingan baland prichoskalar, darxaqiqat, rim ayollariniki bo'lgandi. Agar uzining sochi yetmasa, sun'iy sochlarni qullashardi.

Patritsiankalar o'z kiyimini oltin, marvarid va qimmatbaxo toshlardan yasalgan zargar buyumlari bilan bezatar edilar.

Kiyimga qoshimcha qilib patdan yasalgan yelpigich olib yurishardi.

Rim matronalari suxbat paytida, ko'pincha, qo'lida kaxrabo (yantar) soqqa ushlab turar edilar.

Ayollar ko'p miqdorda xar xil kosmetik vositalarni ishlatar edilar: xidli atirlar, sirkalar, upa va boshqalar.

Rim imperiyasi barbod bo'lgandan keyin (476 y.) antik quldorlik dunyosi xam yo'qoldi. Qadimiy dunyo tarixining so'nggi bosqichi yakunlandi. Lekin ularning yaratgan madaniy merosi jaxon tarixida muxim o'urin egallaydi.

7 - MAVZU: V – XX ASRLAR G'ARBIY YEVROPA KOSTYUMI.

Mashg'ulot turi - ma'ruza

Asosiy savollar:

- 1.Roman uslubi kostyumi (IX- XIII asrlar).
- 2.XIII-XV asrlar Gotik uslubi.
- 3.Uyg'onish davri kostyumi. Davrning umumiy tavsifi.Estetik timsolini o'zgarishi. Italiya kostyumi. Ispaniya kostyumi. Frantsiya kostyumi. Olmoniya kostyumi.
- 4.Barokko uslubidagi Yevropa erkaklar va ayollar kostyumi. Materiallar, ranglari va naqshlari. Mushketerlar modasi.
- 5.Rokoko uslubidagi Yevropa kostyumi. Materiallar, ranglari va naqshlari.Erkaklar va ayollar kostyumining konstruktiv va dekorativ yechimi. Modani tarqalishi.
- 6.XIX- asr Yevropa kostyumi. Klassizm uslubidagi kostyum. Kiyimning asosiy shakllari va assortimenti. Ampir uslubi.1830-1860 yillardagi modaning keskin o'zgarishi.
- 7.XX asr Yevropa kostyumi. Kostyumning demokratizatsiyalanishi. Ayollar kostyumida modern uslubining ravnaq topishi. Urushdan keyingi davragi yangi estetik timsol va modani keskin o'zgarishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Roman uslubi kostyumi(IX- XIII asrlar) , XIII-XV asrlar Gotika uslubi. Go'zallikning estetik timsoli. Kiyimni dekorativ yechimi, qo'llaniladigan materiallar. Erkaklar va ayollar kostyumi turlari va shakllari.

Uyg'onish davri kostyumi. Davrning umumiy tavsifi.estetik timsolini o'zgarishi.

Italiya kostyumi. Ispaniya kostyumi. Frantsiya kostyumi. Olmoniya kostyumi.

Barokko uslubidagi Yevropa erkaklar va ayollar kostyumi. Materiallar, ranglari va naqshlari. Mushketerlar modasi.

Rokokko uslubidagi Yevropa kostyumi. Materiallar, ranglari va naqshlari. Erkaklar va ayollar kostyumining konstruktiv va dekorativ yechimi. Modani tarqalishi.

XIX- asr Yevropa kostyumi. Klassizm uslubidagi kostyum. Kiyimning asosiy shakllari va assortimenti. Ampir uslubi. 1830-1860 yillardagi modaning keskin o'zgarishi.

XX asr Yevropa kostyumi. Kostyumning demokratizatsiyalanishi. Ayollar kostyumida modern uslubining ravnaq topishi. Urushdan keyingi davragi yangi estetik timsol va modani keskin o'zgarishi.

Adabiyotlar

1. Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
2. Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
3. Хасанбаева Г.К. То'qimachilik dizayn tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
4. Н.Содиқова. Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.: 2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т. 2001.
5. Хасанбаева Г.К., Шомансурова М. Maxsus kompozitsiya. O'quv qo'llanma.-Т.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
6. S.U. Ro'latova va b. Libos kompozitsiyasi. O'quv qo'llanma.-Т.: Turon-Iqbol, 2006-у., 128b.
7. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

1. Roman uslubi kostyumi (IX- XIII asrlar). Roman uslubi davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

Bu davrda, odatda, mato va kiyimlar feodallar qarorgoxida ishlab chiqarilardi. Faqat XI asrda shaxarlarning rivojlanishi bilan kiyim tikadigan tsexlar paydo bo'ldi. Kiyim jun va zigir matolardan qilinardi. Rim savdogarlaridan sotib olingan shoyi boylik ramzi edi va faqat boy feodallargina shoyidan kiyim kiyishi mumkin edi.

Yuqori tabaqalar kiyimi, asosan, yorqin rangli (ko'k, yashil, qirmizi) matolardan, oddiy tabaqalarniki esa to'q ranglardan (kul va jigar rang) tikilardi. Odatda, sariq, rangli kiyimni kiyishmasdi, chunki bu rang xiyonat va nafrat ramzi xisoblangan. Umuman, ramziylik o'rta asr san'atiga mansub edi. Oq, rang — soflik, ishonch, sadoqat; qora — qaygu; zangori — nafislik ramzi bo'lgan. O'rta asrlardan boshlab jallodlar butunlay qizil rangli (qonning rangi) kiyim kiyishgan.

Matolar sdirga bo'lgan, kiyimlarning chegarasi mo'yna, naqshli xoshiya yoki kashta bilan bezatilardi.

Sinfiy farq kiyimlarda, asosan, matoning sifati va bezagning qimmatbaholigi bilan belgilangan. Barcha kostyumlarning shakli va bichimi juda oddiy va odmi bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda asosan ko'p lzma kiyimlar bo'lgan. Gavdani imkoniyat boricha yopishardi — bunda

din ta'siri sezilardi. Ayollar kiyimi yopiq va uzun, erkaklarniki esa uzun yoki kaltaroq bo'lardi.

Iqlim ham o'rta asr kiyimining tuzilishiga ta'sir etgan.

Roman uslubi davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi birining ustidan biri kiyiladigan ikkita ko'ylak "*tunika*" va yopinchokdan iborat edi. Oldin tunikalar kalta, tizzagacha bo'lgan, XI asrdan boshlab ular boldirgacha uzaydi, kaltasini faqat yoshlar va dexqonlar kiyishgan. Bu davrda kostyumning farqi yoshga qarab o'zgarardi. Odatda, keksaygan odamlar juda kalta, juda tor va juda yorqin rangli kiyimlarni kiymas edilar. Qirol tunikasining uzunligi yerga tegardi. Tunika doimo beldan bogllanardi, ba'zan, belbogning ustidan kiyim osilib turardi.



55-rasm. Erkaklar kostyumi. Roman uslubi.

Ichki tunika "*kamiza*" yaxlit bichilgan uzun yengli edi (55-rasm), ustkisi esa — "*kotta*" yengsiz yoki keng kalta yengli bo'lgan. Yoqa o'mizi tougri to'rtburchak yoki oval-simon edi. Kotta, kamizaga nisbatan, qimmatroq matolardan tikilardi. Sovuq paytda ustidan "*rob*" (nimchaga o'xshash) va o'ng yelkada tuqa bilan maxkamlangan yopinchoqni kiyishgan. Oddiy aholi ko'pincha plashch penulani kiyishardi.

Yunon va rimliklardan farqli ravishda erkaklar ishton kiyishgan. Matodan bichilib tikilgan ishtonlar tor, oyoqqa yopishib turgan va uzun bo'lgan. Qizil ishtonlar eng modabop edi.

Oyoq kiyimlari rangli yumshoq charmdan yoki matodan tikilgan, qattiq tagliksiz, uzun tumshuqli yumshoq boshmoqlar edi.

Sochlarini aylana shaklida qisqa qilib qirqib, peshanaga gajak kilishgan. XI asrda esa uzun sochlarini yelkaga tashlab yurishgan.

Bosh kiyimlar — kapishon va konussimon qalpoqlar bo'lgan.

XI asrda esa qo'lqop ham kiyadigan bo'ulishgan.

XII—XIII asrlarda tikish usuli takomillashishi bilan kiyim xilma-xil bo'la boshladi. Cherkovning talablariga qarshi kiyim torayib, gavdaning tepa qismiga yopishib turadigan bo'lgan edi.

Erkaklar kostyumi avvalgiday ikkita tunika — kamiza va kottadan iborat edi. Kottani yelkasi juda tor bo'lib, u yon qiyiqlar yordamida pastiga kengaygandi. Aslzodalar uzun, past tabaqalar — kalta kottani kiyishardi. Kotta yengli yoki yengsiz bo'lishi mumkin edi. Uning

oldi berk bo'lgani uchun boshdan kiyilardi, shuning uchun old yoqa o'mizi sal qirqilib, bogichga boylanar edi.



56-rasm. Ayollar kostyumi. Roman uslubi.

Bu davrda erkaklar kiyimi shakli va bichimi ritsarlar sovuti ta'sirida edi. Kiyimlari tanaga yopishib turadigan shaklda bo'lib, paxta bilan kavilgandi. "*Blio*" (ritsar sovutiga o'xshash) — belidan pastroq kesilgan berk qoplanma ustki kiyim. Tepa tomoni yelka, ko'krak va belga yopishib turib, bo'uksasidan esa kengaygandi. pastki bo'limi ikki yarim doyra shaklida bichilib, old va orqasiga tikilgandi. Uzunligi tizzasigacha yoki undan sal pastroq bo'lgan. Yaxlit bichilgan tor yenglarining uchi konussimon kengaygandi. Kontrast rangli ichki tunikasi etakning yon kesimlaridan ko'rinardi.

"*Shoss*"lar — yumshoq movutdan bichilib tikilgan, tor, oyoqqa yopishib turadigan ishton-paypoqlar edi. Ularning pochasi aloxida kiyilib, tepasi tasma yordamida yelka kiyimining belbog'iga biriktirilardi. Ishtonning pochalari o'zaro biriktirilmasdi, keyinroq ular old va orqa uloqdar yordamida ulanib kuyilardi.

Ustki kiyim asosi plashch "*naramnik-mi'arti*" edi. Bu ikkiga bukilgan to'gri to'rtburchak yoki oval shaklidagi mato parchasi bo'lgan, bosh uchun esa teshik qilinardi, yon tomonlari tikilmasdi. Miarti buyiga ikki rangli bo'lishi mumkin edi. Xar xil uzunligi va kiyish usuli bu kiyim turini xilma-xil qilardi. Bu kiyimni, asosan, yoshlar kiyishardi. Aslzoda feodallar kiyimida miparti keng tarqalgandi. Bu kiyimda ularning tamya (gerb) belgilari qullangandi. yenglari, old yarim bulaklari, ishton pochalari, oyoq kiyimlari xar xil ranglarga bo'yalib, tamga belgilari bilan bezatilardi.

Roman uslubi davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi, erkaklarniki singari, birining ustidan biri kiyiladigan uzun tunikalar edi. Ichki tunikani ichki ko'ylak "*G'salshza*"ning ustidan kiyishardi. Tunikalar "*kotta*" va "*syurko*" deb atalardi.

Kiyimning silueti yelkasi tor va etagi juda keng trapetsiyasimon bo'lgan. Odatda, ko'ylaklar yoqasiz, berk edi. Bel chizigi ko'tarilgandi. XI asrdan boshlab uzun yubkaning etagi yonidan yoki oldidan ko'tarilib, qorinning ustida burmalangan, chunki bu davrda urushlarda, vabo va o'lat epidemiyalari natijasida ko'p odamlar xalok bo'lgan va shuning uchun aholini ko'paytirish kerak edi va xomilador ayollar izzat ikromda bo'lgan edilar.



57-rasm. Ayollar kostyumi. Roman uslubi.

Kotta (56, 57-rasmlar) yengi tor va uzun, syurko esa yengsiz yoki keng kalta yengli bo'lgan. Syurkoni belbor bilan boglashgan. Ustki kiyim - uzun, yorqin rangli, yarim doyra shakldagiplashchlar bo'lgan.

Oyoq kiyimlari rangli charmdan, poshnasiz, yumshoq tagcharmli, yopiq, tuflilar edi.



58-rasm. Ayollar kostyumi. Gotik uslub.

Qizlar sochini yoyib yoki o'rib yurishardi, ayollar esa sochini bosh kiyim bilan berkitar edilar. Ko'pincha bu yuz uchun teshik qilingan dumalok ro'mol edi. Bu ro'mol butunlay boshni va yelkani berkitardi. Ko'pincha ro'molning uchini kottaning yoqa o'miziga kirgizilardi. Ba'zan, ro'molning ustidan yopinchoq, bogich, chambar kiyilardi. Tuka "*fibula*"lar, uzuklar, kamar va chambarlar bilan kostyum bezatilardi.

XII asrda nasroniy dinining ta'siri kuchli edi. O'rta asr madaniyati va san'ati antik an'analar zahirida vujudga kela boshlaganiga qaramay, unda asta-sekin antik an'analar susayib, sxematizm avj oldi. Bu o'rta asr madaniyatida aristokratlarga mansub elementlar paydo bulishiga asos bo'ldi. Aslzodalarning saroy xayotida ayollar muxim rol o'ynaydigan bo'ldi. "Go'zal ayol"ga sig'inish Bibi Maryamga sig'inish bilan bog'langan edi.

Cherkovning ta'qibiga qaramay, aslzoda ayollar kostyumida xashamatli, murakkab siluetlar va boy bezaklar paydo bo'ldi. Ayollar avvalgiday ichki ko'ylak - kamizani va ustki ko'ylak - kottani kiyishardi. Kotta yonidan yoki orqasidan tasma bilan bog'lanib, belga yopishib turardi va bo'ksasidan yon qiyiqlar yordamida pastga qarab kengaygandi. yenglari tor edi va ko'pincha uzunligi yergacha yetardi. Belbog'lar faqat dekorativ rol o'ynardi, shuning uchun uni beldan pastroqda bo'ksaga taqishardi. Ustki kiyimlari erkaklarniki singari

mo'yna bilan sirlangan yarim doyra shakldagi plashchlar edi. Turli usulda uralgan oq ro'mol bilan ayollar sochlarini berkitishardi.

2.XIII-XV asrlar Gotik uslubi.

Gotik uslubi davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

XIII asr feodalizm rivojlanishi davri bo'ldi. Sinfiy kurash va feodallar orasidagi tabaqaga bo'linish kiyimda xam o'z aksini topgandi. Bu davrda dabdabalarga qarshi va kiyim yordamida tabaqalarning farqlanishi to'g'risida dastlabki qonunlar chiqarilgan edi. Mazkur qonunlar bilan xar bir sinfga kiyimning shakli va mato tanlanishi cheklangandi.

Ayni XIII asrda bichish asoslari paydo bo'ldi. Tikish usullari xam takomillashtirildi. Kiyimlarda o'tqazma yenglar paydo bo'ldi. yenglar kunduzi vaqtincha ko'klanib, kechkurun so'kilardi, chunki kiyimning torligi sababidan yechish kiyin edi. Keyinroq yenglarni tasma yordamida biriktiriladigan bo'ldi.

XIV asrda oldi ochiq kiyimlar va yoqalar paydo bo'lgandi.

Kostyumning shakli xilma-xil bo'la boshladi. Kiyimda ikkita you'nalish paydo bo'ldi: "kalta va uzun" kiyim modalari. Ayrimlar uzun va keng kiyim kiyishgan bo'lsa, boshqalar, ko'pincha yoshlar, kalta va tor kiyimni afzal ko'rishardi.

Buyiga chuzilgan gotik mutanosiblik bu davr kiyimining asosi xisoblangan. Ayniqsa, XV asr kiyimlarida gotikaning ta'siri sezilardi.



59-rasm. Erkak va ayol kostyumi. Gotik uslub.

Shu davrda paydo bo'lgan baxmal eng modali, deb xisoblanardi. Matolar endi, asosan, naqshli bo'ldi. Eng keng tarqalgan naqsh turi – o'simliklar tasviri bo'lgan. Kiyimlarda yorqin ranglar kiyichardi, ularning birikmalari xaddan tashqari bashanglikni ko'rsatardi.

Gotik uslubi davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Erkaklar kostyumi. Aholi barcha tabaqalarining ichki kiyimi avvalgiday kamiza edi. Uning ustidan uzunligi boldirning o'rtasigacha yoki topig'igacha tushadigan kottani kiyishardi. Odatda, kotta uzun yengli va dekorativ belbog'li bo'lar edi. Lekin XIV asrning o'rtasidan boshlab u modadan chikdi. Endi tor yengli kalta kurtka — "*purpuren*" urf bo'ldi (59-rasm). Unga ishton-paypoq maxkamlanardi. Oliftalar uzun purpuren kiyishgan.

Purpurendan tashqari oliy zotlar ikki ustki kaftan — "*kotardi*" va "*blio*" kiyishardi. Kotardi uzunligi bo'ksadan pastroq tushadigan tor, keng qanotsimon yoki tor yengli,

gavdaga yopishib turadigan kiyim edi. Blio - belidan qirqilgan va past qismi yubkasimon, yoni tikilmagan kaftan edi. Odatda, blioni orqasi bog'ich bilan biriktirilardi.

Ustki kiyimlar xam xilma xil bo'lgan. Bu davrda ustki kiyim — naramnik barcha tabaqalarning kiyimi bo'lgan. Naramniklar kalta yoki uzun bulishi mumkin edi. Undan tashkari, ko'pincha, qo'ngiroqsimon yengli, yoni tikilmagan kalta plashch "*tabor*" uchrardi. Uni geroldlar va pajlar kiyardi. Yonlari tikilgan naramnik "syurko"ga aylandi. Syurko qalbaki yengli yoki yengsiz bo'lgan, uni kapyushon bilan monaxlar kiyishgan.



60-rasm. Yan Van Eyk. Arnolfin rafiqasi bilan. Gotik uslub.

Oyoq kiyimlar charm yoki baxmaldan tikilgan poshna-siz nim etik va tuflilar edi. Oyoq kiyimning uchi oldin sal uchli bo'lsa, XIV asrdan boshlab u juda uzayib, 50 sm gacha chuzildi. XIV asrgacha ular kashta va qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan.

Prichyoskalar xilma-xil edi. Feodallar, ayniqsa yoshlar, yuziga va yelkasiga tushib turadigan kokillar bilan bezatishgan.

Oddiy aholi sochini kulogigacha qisqa qirqib, peshonasiga gajak qilardi. Bunday prichyoskani feodallar xam qilar edi.

Bosh kiyimlar xilma-xil bo'lgan. O'rta asrning asosiy bosh kiyimi plashch yoki kurtkaga tiqilgan kapyushon edi. Ba'zan, kapyushonni plashchdan aloxida kiyishardi. XIV asrda ikki uzun matodan qilingan va boshiga salla-simon uralgan bosh kiyim "*shaperon*" kiyilgandi. Ulardan tashqari, turli shaklda fetr shlyapalar bo'lgandi.

XIV—XV asrlar modasini saroy **burgund modasi** deb ataladi, chunki shu davrda burgund saroyi Ovrupoda eng boy bo'lgan va uning modasi go'zallik namunasi deb xisoblangan. Xilma-xil kostyumlarning shakllari tez-tez o'zgargani uchun bu davr modalar karnavali deb ataladi. Mutlaqo qarama-qarshi kiyim turlari modada baravar mavjud bo'lgandi: tor va kalta, keng va uzun kiyimlar, ammo ular gotik uslubining moda yunalishiga bo'ysunar edi. Bejamdorlik, chiziqlarning nozikligi va mutanosiblik modali siluetning asosiy xususiyatlari edi.

Bu davrda burgund modasi asosan feodallar orasida tarqalgandi. Erkaklar kiyimlari noqulay, keng va uzun yoki tor va kalta qilingandi. Kamizani juda yu'qa matodan, boshqa kiyimlarni esa shoyidan, baxmaldan va jun matolardan tikishardi.

Kalta purpuren ichki kiyim xisoblanib, unga ishton-paypoq biriktirilardi, ammo u ustki kiyim sifatida xam kiyilishi mumkin edi. Ishton-paypok oyoqning shakli bo'yicha bichilardi,

oyoq qiyshiq bo'lsa, paypoqni ichidan tikilgan kanop losini yordamida tuyari qilib ko'rsatilardi.

Bu davrning yangi modali kiyimi "*jaket*" bo'lgandi. Jaket — kalta, oldi ochiq, etagi belidan xurpaygan yubkasimon kiyim edi. Belni belbog' bilan boglashgan. Jaket tik yoqali bo'lib, ba'zan, u mo'yna bilan bezatilardi. yenglari xilma-xil edi: ko'ngiroqsimon, osilib turadigan, ammo ko'upncha yelkada xurpaygan, bufli, uchi tor (bunday shakl "*jigo*" deb atalardi) bo'lgan. yenglari uzun bo'lgani sababli qo'lni o'tkazish uchun kesimlar qilingandi. Bu xolda yenglar osilib turardi. XV asr o'rtalarigacha jaketning beli qirqilmagandi.

Keksaygan odamlar ko'chaga chiqqanda *kaftan* kiyishgan. Bu tor, uzunligi tizzagacha yoki boldirning o'rtasigacha bo'lgan kiyim edi, yengining shakli xar xil bo'lgan. Odatda, belni boglab yurishgan.

Uzun kiyimlarga "*u'lend*" va "*rob*" kirardi. U Plendning uzunligidan oldi yerda sudralib yurardi. Uning oldi ochiq bo'lib, beli bog'lanardi. U beligacha tugmalanardi, etagi esa ochiq qiinardi. Ko'pincha, sholsimon yoqasi mo'ynadan qilinardi.

Rob — bu yoqa o'mizi oldida yoki orqasida qirqilgan ko'planma kiyim. Robning oldi tor, beli bog'langan, orqasida, ba'zan, yoqasining tagiga shleyfni tikib qo'yishardi. yengning tepasi bufli, uchi esa tor bo'lgan. Rob tik yoqali edi. Bu kiyimni, asosan, oliftalar kiyishardi.

Plashchlarning turi xilma-xil bo'lgan. Avvalgiday, ilk o'rta asrdagi yarim doyra shaklli plashchlarni oddiy tabaqalar kiyishgan, sen or va pajlar naramnikni; kalta va qo'ng'iroqsimon yenglari tikilmagan yengil plashch "*tabar*"vya geroldlar kiyishgan. Yumaloq plashchlarni (diametri 4 metrgacha bo'lgan) xam kiyishgandi. Aslzodalar yumaloq mo'yna yoqali plashch, oliftalar esa penula turidagi kapyushonli, qo'l uchun kesimi bor kalta plashch kiyishgan. Oyoq kiyimlarining uchi juda chuzilgandi (61-rasm). Avval ritsarlar bu urfni kiritishgandi. Ular xarbiy kasblarni ko'z-ko'z qilib, ishlamasliklarini ko'rsatish maqsadida bu urfni kirgizgan edilar. Ammo boyib ketgan byurgerlar xam oyoq kiyimlarining uchini cho'zdirar edilar. Ularning orasidagi musobaqa ta'sirida oyoq kiyim uchining uzunligi 70 sm gacha yetgandi. Ularning nomi "*ulen*"lar edi. Oyoq kiyimning uchiga kanop tikishardi yoki uchini oyog'iga bog'lab qo'yishardi. Chavandozlar yumshoq charmdan baland etik kiyishardi, aholi esa kalta etik kiygan.

Pricheskalarining turlari xam xar xil bo'lgan.

Eng keng tarqalgan bosh kiyim — dandana va kudai-roqchalar bilan bezatilgan kapyushon edi. Undan tashkari "*shaperon*" kiyishardi. Oddiy xalq chepets "*beguin*" kiygan. Boylar esa, beguinni ustidan shlyapa kiyishgan. Shlyapalar movutdan yoki yupqa namatdan (fetr) konussimon shaklli soyabonli qilinardi. Oliftalar baravar ikkita shlyapani kiyishardi — bittasini boshga kiyib, ikkinchisini esa orqaga tashlab yurishgandi.

Kostyumga zarur buyumlar qo'shimcha bo'lib urfga kirib keladi. Kamarga charm yoki kimxobdan xamyonni, xanjarni; yelkadagi tasmaga — ovchi buryausini osib qo'yishardi. Boylar qo'lqop kiyishardi. Odatda, uni chap qo'lga kiyishgan, cherkovga kirganlarida yoki raqsga tushganlarida yechib, belbog'iga qistirib kiyishardi. Ov kilganda qo'lqopni ikkala qo'lga kiyishardi.



61-rasm. Gotik uslub oyoq kiyimlari.

Gotik uslubi davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi avvaldagiday kotta va kamizadan iborat edi. Oddiy tabaqa aholida kamiza ustki kiyim xam bo'lgan. Kottani tepasi tor bo'lib, yoni yoki orqasi shnurovka, pastisi esa yon uloqlar yordamida kengroq, yubkasimon qilinardi. Kotta yengi uzun, tor va konussimon, manjetli bo'lardi.

XIII asrdan e'tiboran ko'ylakning beli pastroq, tushib yubkasi shleytli bo'la boshladi. Shleytning uzunligi tabaqasiga mos bo'lishi kerak edi. **XIV** asrda modaga yengil mo'yna bilan bezatilgan syurko kiradi. Uni faqat boylar kiyishardi. Keyinroq, syurko bo'ksagacha qisqarib, nimchasimon bo'ldi. Belbog'lar esa, dekorativ rol o'ynardi.

Ustki ko'ylakning yenglari xilma xil: tor, uzun, uchi tugunga bogllangan; keng, qo'ng'iroqsimon, qisqa, tirsagidan tikilgan dekorativ mato bilan bezatilgandi. Ba'zan, yubkaning oldiga qorin ustida ser burmalangan matoparchasi tikilardi. Shu sababli ayollar gavgani orqaga sal egib qullarini qorin ustiga kiyib yurishardi.

XIII—XIV asrlarda yoqa o'mizi "*dekol te*" yelka tomoniga kengaydi. Aholining barcha tabaqalari uzun yoki kalta "naramnik"ni kiyishardi. Ba'zan, uni belbog' bilan bog'lashardi. Ustki kiyim yarim doira yoki doirasimon, oldi ochiq ko'kragida tuqa "fibula" bilan biriktirilganplashch edi. Boy ayollar ko'pincha qo'l uchun teshik qilingan penulani kiyishgan. penula shleyfli bo'lib, uning yoqa o'mizi mo'yna bilan bezatilgandi.

Oyoq kiyimlari esa erkaklarnikiga o'xshash, rangli yumshoq charmdan yoki qimmatbaxo qalin matodan tikilardi.

Pricheskalar xam o'zgargandi. Qizlar sochini urmasdan, yoyib yurishardi yoki urab qulogining ustidan "kuyni shoxiga" o'xshatib turmab qo'yishardi. Bu xolda qulogi berqilardi, buyni esa ochiq turardi. Ayollar boshlariga ro'mol tashlab yurishardi. Undan tashqari, xar xil shaklli chepets va chambarlar kiyishardi.

Ayollar taqinchoqlarga ko'p axamiyat berishardi. Ular belbog' zanjir, tuqalar, marjon va qo'ngiroqchalarni sevib taqishardi. Belboqqa tasbex, oynacha, tumor va tilla yuritilgan kalxatning tirnog'ini osib qo'yishardi.

XIV—XV asrlardagi burgund modasi ayollar kiyimiga xam ta'sir etgandi. Ularning kiyimi erkaklarnikiga o'xshab silueti uzaytirilgan, qisqa lif, uzun, keng bo'lmagan yubka va baland bosh kiyim edi .

Kamiza va kotta avvalgiday ichki kiyimlar bo'lgan. Kottani tepa tomoni bo'ksasigacha shnurovkalangandi, yengi tor va uzun bo'lgan. Oddiy tabaqalar kottani ustki kiyim sifatida kiyishardi, oliy zotlar esa erkaklar robini kiyishgan. Robning lifi qisqartirilgandi, kamar ko'krakning tagidan bog'lanardi, yubkasi shleyfli edi. Shleyfning uzunligi qat'iy belgilangan va uning bo'uyi ayolning ijtimoiy xoliga mos bo'ulishi kerak edi. Cherkov shleyfga doimo qarshi bo'lgan. Shleyfni u "iblisning dumi" deb atardi.

Robning yengi tor, voronkasimon manjetli bo'lgan. Yoqa o'mizining asosiy shakli uchburchak bo'lgan. Kopincha ko'ylakning oldi va orqa o'mizining chuqurligi beligacha bo'lib, oldi boshqa matodan qilingan uloq bilan berkitilardi. O'miziga yoqa yoki mo'yna tikilardi. Cherkov dekoltega xam qarshi bo'lgan, uni "duzaxga deraza" deb atardi.

Robdan tashqari ayollar "duzax derazali" yengeiz, kalta syurkoni kiyishgan. Syurkoni mo'yna bilan bezatishgan.

Plashchlar tobora yo'qola boshlaydi. Ammo uni ko'chaga chiqqanda kiyishardi. Penula uzayib, shleyfli, qul uchun kesimli va dekolteli bo'lgandi.

Oyoq kiyimlarining shakli erkaklarnikiga o'xshash edi, lekin uchlari unchalik uzun bo'lmagan.



62-rasm. Ayollar bosh kiyimi. Gotik uslub.

XV asrda pricheskalar o'z rolini o'qotadi, chunki bosh kiyimlar boshni berkitardi (62-rasm). Bo'yinning go'zalligini ko'rsatish uchun peshona, chakka va ensa ochiq qoldirilardi. Ayollar, ba'zan, peshonani balandroq ko'rsatish uchun qosh, peshona xamda ensadagi sochni qirib tashlashardi. Eng keng tarqalgan bosh kiyim — "*ennen*" edi. Uning shakli konussimon bo'lib, balandligi ijtimoiy xolga mos bo'lishi kerak edi. Undan tashqari, xar xil chepetslar, turli usulda o'ralgan ro'mollar va kichkina fetr shlyapalarni xam kiyishardi.

3.Uyg'onish davri kostyumi. Davrning umumiy tavsifi.Estetik timsolini o'zgarishi.

Italiya kostyumi. Ispaniya kostyumi. Frantsiya kostyumi. Olmoniya kostyumi.

XIII – XV asrlar Ovro'a O'g'onish davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

XV—XVI asrlarda Farb mamlakatlarida burjuaziyaning feodallarga qarshi kurashi jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xarakat, o'rta asrlardagi uzoq

turg'unlikdan so'ng, fan va san'at taraqqiyotida, ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan va antik madaniyatga qiziqishni ku'chaytirgan.

Bu davr progressiv to'ntarish yasab, jaxon madaniyatida yangi muxim bosqich bo'lgan edi.

Qirol xokimiyati shaxarliklarga suyanib, tarqqoq dvoryan kuchlarini ko'porib, yangi birlashgan milliy monarxiyalarni barpo etdi. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar yaratildi. Yirik Ovrupo mamlakatlari bosqinchilik siyosati natijasida mustamlakalarga ega bo'lib, boyiy boshladi. Keng jaxon savdosi rivojlandi.

Zamon taqozosi ilmlii siymolariga muxtoj edi va bu muxtojlik o'tkir fikrli, extirosli, serqirra bilimdonlarni - Petrarka, Kopernik, Jordano Bruno, Leonardo da Vinchi, Bokkachcho kabi mutafakkirlarni dunyoga keltirdi.

Ular o'rta asrdagi zulmat bosgan katolik dini dunyosiga qarshi yangi, ruxni ko'taradigan dunyoqarashni kiritdilar.

Bu davrda Rimda qazish ishlari olib borildi. Vizantiya barbod bo'lganda saqlanib qolgan qo'lyozmalarda, Rim xarobalaridan qazib olingan noyob san'at namunalarida yangi dunyo — yunongrek obidaları vujudga keldi. Uning yorqin shu'lalari oldida o'rta asr sharpalari goyib bo'ldi.

Inson bilan qiziqish, go'zallik va tabiatga intilish tabiatshunoslik fanlarining, san'at va adabiyotning ravnaq topishiga asos bo'ldi xamda san'atda yangi badiiy usul — realizm yuzaga keldi. San'at asarlarining markazida irodasi murakkab va uziga xosligi, yutuq, va kamchiliklari bilan buyuk inson turar edi. Bu - yangi erkin inson, xar tomonlama barkamol, cheksiz taraqqiyotga intilgan, epchil, xushyor, uddaburon, xayotiy kuchiga ishongan odam edi.

Tarixiy rivojlanish notekis bo'lishiga qaramasdan, barcha Ovrupo davlatlari bu madaniy-tarixiy davrdan o'tib, o'ziga xos milliy fazilatga ega bo'lgan madaniyatni yaratadi.

Bu davr o'zining yangi go'zallik idealini, odamning yangi ko'rinishini va, albatta, yangi niqob — kostyumini yaratdi. Uni yaratishda nafaqat tikuvchilar, balki ko'plab rassomlar xam ishtirok etganlar.

Ustki, keyin esa ichki kiyim keng, qulay bo'la boshladi. Kiyimlarda xarakatga erkinlik beruvchi kesimlar paydo bo'ldi. yelkalar kengaydi, gavda salmoqli bo'ldi, oyoqlarga keng boshmoqlar kiyishdi.

Erkaklarning kiyimlari salmoqliligi va xashamatliligi bilan ajralib turar edi. Ular tashqi kurinishlariga ko'proq ahamiyat berardilar.

Bu davrda odamning tashqi kurinishi uning ijtimoiy xolini, siyosiy fikr yuritishini, moddiy ta'minotga mansubligini ko'rsatar edi.

Italiya kostyumi

Italiya madaniyati antik an'analar zamirida vujudga kela boshlaganiga qaramay, unda asta-sekin antik an'analar susayib, sxematizm avj oldi. XV asrdan — Uyg'onish davrida realistik san'at taraqqiy eta boshladi. Rassomlar tabiatga, insonga ko'proq murojaat qila boshladilar. Italiya liboslarida xam o'zgarishlar sezila boshladi. Farang, Vizantiya va Sharq mamlakatlari urfi zaminida mashxur Italiya kostyumi bunyodga kela boshladi.

Kiyimning go'zalligi kech o'rta asr modasidagi grafik noziklikdan ranglar barkamolligiga o'tdi. Kiyimlar qimmatbaxo matolardan (baxmal, kimxob, kashtalangan va naqshli matolardan) tikila boshladi. Renessans kostyumi, ayniqsa ayollarniki, harir matolardan yasalgan drapirovkalardan iborat edi. Yashil, qizil, to'qqizil ranglar urf bo'lgandi.

Endi kiyimda gorizontal chiziqlar ustunlik qila boshladi. Bosh kiyim endi gavadani uzaytirmaydi. Oliy tabaqalarning modasi ustunlik qilar edi, ammo oddiy aholining kiyimida oldingi davr odatlari uzoq saqlanib qolgandi. Lekin Uyg'onish davrining kostyumi deyarli demokratik edi, chunki unda asrlarning qat'iy sinfiy shartlanishi yo'qolib, moda endi odamning tabaqasini emas, balki uning moddiy ta'minotini kor'satardi (Kiyimda mexnatni mensimaslikni kor'satadigan detallar (uzun shleyflar, ingichka bel, juda uzun yenglar va boshqalar) yo'qoldi. Endi assortirlik ta'siridagi kiyimlar "odamiy" mutanosiblikka ega bo'ldi.

Erkaklar kostyumi. Bu davrdagi erkaklar kostyumi xilma-xil edi. Yoshlar burgund modalariga rioya qilib, ko'ylakni ustidan kalta tor kurtka "purpuren"ni va gavadaga yopishib turgan yorqin rangli ishton-paypoqni kiyishardi. Kurtkaning tor yenglarining bukiladigan joylarida (yelka va tirsak) ichki ko'ylaki kurinadigan kesimlar paydo bo'lgandi. Ba'zan, yengni kurtkaga tasma yordamida biriktirishar edi. Bu yangilik bitta kurtkaga xilma-xil yenglarni biriktirishga imkoniyat bergan edi. Kiyim, asosan, bir rangda tikilar edi, Farangilar ta'siridagi ikki rangli kiyimlar "*mi'arti*" xam modaga kirgan edi. Ko'pincha tor kurtkalarni yonida kesimi bo'lar edi va oldi tasma yordamida shnurovka qilib biriktirilar edi. Ba'zan, yengsiz va yoni tikilmagan kurtkalar yopinchiqqa aylangan edi. Yoqa o'mizi chuqur o'yilar edi yoki orqasida tugmalanadigan tik yoqali qilinar edi. Kiyimlar kashta yoki mo'yna bilan bezatilardi.

Ustki kiyim kurtkaning yelkasiga tugmalangan plashch edi. Uzun, keng kaftanlarni faqat keksaygan odamlar kiyishardi. Kaftanlar - keng, osilib turgan qo'ng'iroqsimon yengli bo'lib, odatda, uning beli bog'lanmasdi. Uzunligi tizzagacha yoki to'piqqacha tushar edi. Yoqa o'mizi — kare.

Oyoq kiyimi tumshuui dumaloq yumshoq tufllilar, shippaklar va botinkalar edi.

Modali prichyoskalar ikki turli edi: sochlarini sillik orqaga tarashar yoki, Ko'pincha, peshona gajak kiyishardi.

Bosh kiyim turlari ko'p edi: yumaloq, feskaga o'xshash shlyapalar, chambarlar, soyabonli shlyapalar, beretlar, tyur-banga o'xshash bogichlar. Oliftalar baravariga ikkita shlyapani kiyishar edi bittasini boshga kiyib, ikkinchisini orqaga tashlab yurishar edi.

Kostyumning qo'shimchalari: belbog'ga bog'langan cho'ntaklar, xamyonlar, qo'lqoplar xamda taqinchoqlar bo'lgandi.

XV asr o'rtalarida ichki ziddiyatlar Italiyani tarqoq xolga keltirdi. Italiya kuchli Ovrupo mamlakatlariga qarshilik kor'sata olmadi va ularning orasida kurash maydoniga aylandi. Uning yerlarini Frantsiya va Ispaniya askarlari toptadi. Siyosiy va ijtimoiy kuch-qudratini yo'qotgan Italiya modada xam ustunlikni boy berdi.

XVI asrning boshida Ispaniya Ovrupodagi eng kuchli mamlakat bo'lib, modada xam xukmronlik qildi. Ispan askarlarining kiyimiga taqlid qilib kiyim kiyish urfga aylandi. Italiya modasida faqat erkaklarning kostyumida taqlid sezilardi. Kiyimlarning shakli va rangi odmiroq bo'ldi, erkaklar kostyumining asosi — Ispan koleti oldi ochiq tik yoqali yoki oldi berk kare o'mizli kaftanga aylandi. Yoqa o'mizidan oq ichki ko'ylak ko'rinar edi. Yoqa

o'mizi tasma yordamida burmalanardi. Kaftanni yangi bufli bo'lgan yoki yelkasida "kanotchalar" qilinar edi.

Ko'pincha koletlar zarbof kashta bilan bezatilgan bo'lib, tuk ranglari matoning fonida ajralib turar edi bel kiyimlari: ishton-paypoq va ustidan kiyilgan uzunligi tizzagacha bo'lgan sharsimon ishtonlar edi.

plashchning o'niga keng, oldi ochiq, kalta keng yengli va katta sholsimon yoqali kaftan kiyishardi. Yoqasi mo'ynali xam bo'lishi mumkin edi.

Oyoq kiyimlari yumshoq poshnasiz, uchi keng boshmoqlar bo'lgandi.

O'rta asrdagi og'ir qilichning o'niga shpaga taqishgan. O'ng tomonga xanjar, chap tomonga shpaga qistirib yurish faqat dvoryanlarga xos edi.

prichoskalari avvalgiday uzun yoki Ispanlarnikiga o'xshash kalta qirqilgan sochlar edi. Soqol qo'yishar edi.

Bosh kiyimlar: beret va Ispan shlyapalari. Uyda feskaga o'xshagan shlyapani kiyishardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan xilma-xil edi. XV asrda Florentsiya modalari keng tarqalgandi. Bu davrda ayollar libosi kamtarona bo'lib, shakl va undagi chiziqlar xamda siluetning oddiyligi bilan farqlanardi.63-rasm

Ayollarning ko'ragi maxsus mato bilan siqilgan va uning chiziqlari tekislangan edi. Ular naqshli kimxob va baxmaldan tikilgan baravar ikkita ustki ko'ylak kiyishardi. Ichki kiyimni xali kiyishmagandi. Odatda ko'ylaklarning beli qirqilgandi, bel chizigi ko'krakdan sal pastroq bo'lib, yubkasi uzun shleyfli edi. Lifning yoqa o'mizi uziga xos edi: oldi — to'rtburchak, orqasi — uchburchak (bo'yinni uzunroq ko'rsatish maqsadida). Ko'pincha, ustki ko'ylak lifining oldini qirqib shnurovka qilishardi. Odatda, yenglari lifga tasma yordamida biriktirilar yoki ko'klanardi. Ba'zan, bitta ko'ylakka xar xil yenglarni biriktirish mumkin edi. Tor yenglar Ko'pincha uzunasiga qirqilib, o'zaro shnur yoki tasma yordamida biriktirilardi. yenglari uzun edi, lekin panja ochiq qolardi. Bu o'rta asrlikka nisbatan yangilik edi, chunki u davrda urf-odat bo'yicha kaftni yopib yurish kerak edi.



63-rasm. Anolo Brozino. Eleonora Toledskaya og'li Jan bilan. Italiya kostyumi.

Qizlar yupqaroq yengil matolardan ko'ylak kiyishi mumkin edi. Tantanali ko'ylakni ustiga qimmatbaxo yengil yopinchiqlarni tashlab yurishar yoki yelkasiga yerda sudralib yuradigan mayda burmalangan mato parchasini biriktirib qo'yishardi. Astarli uzun plashchlar avvalgiday ustki kiyim xisoblanardi.

Sochlar ayollar go'zalligining asosiy ramzi, deb xisoblangan. Qizlar sochlarini tashlab yurishgan, ayollar esa turmaklab marvarid, to'r va yengil sharflar bilan bezatishgan.

Kiyimga qo'shimcha qo'lqoplar, xamyonlar va dastro'mollarni olib yurishgan.

XVI asrdan boshlab ayollarning ko'ylaki erkaklarnikiga nisbatan xashamatliroq bo'lgan. Bel chizig'ini tabiiy xoliga kelgan. Yubkani og'ir matolardan taxlam qilib taqilganligi sababli uning uzunligi qisqargandi. Ichki ko'ylakning yengi tor va uzun, ustki ko'ylakning esa bufsimon keng va kalta edi. Yoqa o'mizi chuqur bo'lib, qimmatbaxo kashtalangan ro'mol bilan yopilgan edi. Ustki kiyimi plashch bo'lgan. Oyoq kiyimlari yumshoq bo'lgan, ba'zan ayrim modaga berilgan ayollar bo'yini balandroq ko'rsatish maqsadida baland tavonli tufli kiyishardi. Bu davrda ichki kiyim va paypoq, odatga kirdi. Florentsiyada oq. matodan tikilgan paypoqdar eng modali deb xisoblanardi.



64-rasm. a- Sebastyano Maynardi. Yosh ayolning portreti. Italiya. b– Domeniko Venetsiano. Xonum portreti. Italiya. c– Jon van Klene. Frantsuz malikasi Eleonoraning portreti.

d– Frantsua Klue. Yelizaveta Valua. Ispaniya.

Prichyoskalarining shakli xam xilma-xil bo'lgan (64-a, b rasm). Asosan sochlarini faqat to'r bilan yopishgandi. Bosh kiyimlar Ispan beretlari, poxol shlyapalar bo'lib, ular kamdan-kam kiyilgan.

Modaga niqoblar kirib keldi, ularni ko'chaga chiqqanda kiyishardi. Nikobni faqat dvoryanlar kiyishi mumkin edi. Matodan tikilgan, kashta va qimmatbaxo toshlar bilan bezalgan qo'lqoplar va dastro'mollar kostyumning qo'shimchasi bo'lgan. XVI asrda ixtiro qilingan to'r igna bilan to'qilardi va juda qimmat turardi. Kiyimga qo'shimcha yana kichkina qimmatbaxo matodan qilingan xaltachalarni beliga qistirib kuyish, yelpig'ichlar va muftalarni olib yurish xam modaga kirgandi.

Ispaniya kostyumi.

XV asrning oxirida, Ispaniya chet el bosqinchilaridan ozod bo'lib, misli ko'rilmagan rivojga erishdi. Amerikaning ochilishi bilan va Italiyadan Ovruponing G'arbga dengiz yo'llarining ko'chishi bilan Ispaniya muxim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgandi. Mustamlakalardan bosqinchilik yo'li bilan olib kelingan tilla va kumush va boshqa boyliklar Ispaniya qirolining taxtini mustaxkamlagandi.

Bir tomondan, din aqidalari bilan bog'langan, ikkinchi tomondan esa — Renessans insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan Ispaniya madaniyati qarama-qarshi xususiyatlarga ega bo'lgandi.

Ispaniya Uyg'onish davrining murakkabligi xamda mavritan madaniyatining ta'siri natijasida Ispaniya madaniyatida o'zgarish ro'y berdi. Bular Ispaniya me'morchiligiga, tiliga, urf-odatiga va kostyumiga ta'sir etdi. XVI asrda Ispaniya buyuk mamlakat bo'lib, butun Ovrupoga nafaqat iqtisodiy va siyosiy tazyiq ko'satgan, Ovrupo modasining shakllanishiga xam ta'sir etgandi.

Ispaniya modasi o'zining ijtimoiy-siyosiy tavsifida eng reaksion dvoryan sinfiga taalluqligi bilan ajoyib barqarorlikka erishdi. Bu moda monarxik kekkayish, aristokratik dimogdorlik timsoli qiyofasida dunyoga tanildi.

Ispan qirol saroyining obro'si oshib, shu sababli unga shuxrat keltirdi. Saroy kostyumi aristokratik murosasizlik bilan manmansiragan etiketni yaratdi.

Ispaniya modasiga katolik dini xam juda kuchli ta'sir etdi. Katolik dinining zoxidligi kiyimda tanani berkitishni, ranglarning to'q bo'lishini talab qilardi. Ammo to'q ranglar, ayniqsa qora rang, keng tarqalganligiga boshqa sabab xam bor edi, ya'ni qora tanli marvlardan oq tanli Ispanlarning farqini ko'satish uchun tanlangandi.

Shunday qilib, saroy aslzodalarining bukilmaydigan bellari, manmansiragan va magrurlanib ko'tarilgan boshlari, karkas yordamida kuzgolmaydigan ko'o'laklari xaqida fikr tugilgandi.

Ular xar xil matolar yordamida kostyumda bashanglikga erishar edilar. Ispan kiyimlarida naqshli (to'qima, kashtali, bosma) matolar keng qo'llangandi. Asosiy tasvirlar — katta medalon-tamg'alar, nasroniy dinining ramzlari, geraldik mavzular. Naqshlarda yorqin rangli fonlarda ko'p tilla va kumush iplar ishlatilardi. Naqshli gazmollar yotik va tik yunalishda ustidan tikilgan xar xil kimxob tasmalar, zarbof bogichlar, turlar bilan bezatilardi.

XVI asr oxirida qizil, binafsha, yashil, jigarrang va kul ranglar modada bo'lgandi. Kiyimlar asosan bir rang tusida bo'lardi. Qora rang keng tarqalgandi.

Erkaklar kostyumi. XVI asrning birinchi yarmida erkaklar kostyumi deyarli yumshoq va qulay bo'lgandi. U ko'ylakdan, tor kalta, tor uzun yengli koletdan, tor ishton-paypoqdan va kalta ishtondan iborat edi.

Xarakat qilishga qulay bo'lishi uchun tirsak va boshqa joylarda kesimlar qilinardi. Yuzasi kesilgan matolar "tarashlangan" mato deb atalardi. Keyinroq, bunday matolar dvoryanlik belgisi bo'ldi.

Ustki kiyimning oldi ochiq, keng, uzunligi bo'ksagacha, kalta keng bufsimon yengli, katta shol yoqali (Ko'pincha mo'ynadan) edi.

Oyoq kiyimi rangli charmdan yoki qalin matodan (Ko'pincha duxobadan) tikilgan poshnasiz, yumshoq, keng tumshukli tufli edi.

Sochlari qisqa qir qilgandi, Soqol va muylov kuyishgandi. Bosh kiyim beret bo'lgandi. Kiyimning kushimchalari qo'lqoplar va shpaga bo'lgan.



65-rasm. Xuan Pantoxa de la Kruz. Don FernandodAragon.
Ispan erkaklar kostyumi.

XVI asr o'rtasidagi kostyum noqulay va odmiroq bo'lgandi. Uning shakli ritsarlik yaroq-aslahalariga o'xshash edi. Kolet — tor paxtali, uzunligi belgacha yoki bo'ksagacha, oldi tugmalangan, baskali, tik yoqali kiyim edi. Uning yengi tor edi, ba'zan yenglari ikki qavat bo'lib, ustki yengi dekorativ rolni bajarar edi. yelkasiga ko'ragini kengroq ko'satish uchun kanotchalar yoki valiklar tikilardi. Ular kumush va zarlar bilan bezatilgandi.

XVI asr o'rtasidan boshlab avvalgiday tikilgan emas, tukilgan ishton-paypoqlar paydo bo'ldi. Uning ustidan kalta, ot tolasi va kanop tolasi bilan tuldirilgan sharsimon ishton "*briches*"iya kiyishgandi. Ko'pincha uni boshqa rangli mato tasmalar bilan bezatishardi.

Kiyimning ajralmas kismi "*freza*" yoqasi edi. Uni oxorlashgan, ko'kimtirroq tus berishgan va maxsus qisqich bilan unda taxlamlar qilishgan. Oppoq, freza orastalikning birinchi belgisi bo'lgandi. Ularni shakli va kattaligi xar xil edi. Frezaning kattaligi tufayli ovqatni yeyish uchun vilka vujudga kelgandi.



66-rasm. Jorj gover. Meri Kornuellis.

XVI asr oxirida modaga to'rlar kirib keldi. Ular juda qimmat turardi va shuning uchun XVII asr boshida to'rni Ispaniyada ko'llash man' etilgandi.

Ustki kiyim — kalta va uzun, ba'zan yoqaliplashchlar edi. Ular asosan yarim doyra shaklida edi.

Boshlariga beretning o'rniga baland, ensiz soyabonli bezatilgan shlyapalarni kiyishgan.

Ayollar kostyumi. XVI asrda Ispaniyaliklarning estetik tasavvuriga binoan ayol ozg'in va xushbichim bo'lishi kerak edi. Kostyumning uchburchakli silueti gavdani turib va monumental qilib ko'rsatardi. Kiyim juda noqulay va dayaal bo'lib, odamning harakatiga xalaqit berardi (66-rasm).

Ayollar baravar ikkita ko'ylak kiyishardi. Ichki ko'ylakning oldi berk, ustki ko'ylakniki esa ochiq edi. Shleyfsiz yubqa metall kamishdan qilingan maxsus konussimon karkas ustidan kiyilardi. Yubkada bironta taxlam yoki burma bo'lmasligi kerak edi. Shu davrning urf-odati bo'yicha ko'ylakning ostidan Oyoq kurinmasligi shart edi. Shunday shaklli yubka "*vertyugad*" (fazilatni saqllovchi) deb atalardi. Lifni oldi juda tor, past uchburchak edi. Gavdani maxsus qalin matodan qilingan shnurovkali lif bilan siqishardi. Unga ko'krak shaklini yashirish uchun paxta solishar edi.

XVI asr o'rtalaridan boshlab lifga metalldan planka yoki kit muyidan (kit ogzidagi mugiz plastinkasi) qilingan plastinkalarni kuyishadigan bo'ldi. Ushbu ichki lif ko'krakni siqadigan "*korset*"ga aylangandi. Ko'ylak ko'krak va bo'yinni berkitardi, dekol te si (odatda kvadratsimon) bo'lsa, uni kashtalangan ro'mol "*shemizetka*" bilan berkilardi.

Ichki ko'ylakning yangi tor, ustkiniki esa — keng va uzun edi.

Yoqasi gofrelangan "*freza*" bo'lardi.

XVI asr o'rtalaridan boshlab yenglarning shakli o'zgar-di: ichki ko'ylak yengini bir necha joyidan bogllab buf qilishardi, ustki ko'ylakniki esa kalta dagal bufga aylandi. Ba'zan, ustki ko'ylak yengsiz bo'lishi mumkin edi. Ichki ko'ylakning yangi ko'pincha taxlamli manjetli edi.

Belni qimmatbaxo toshlar bilan bezalgan duxoba yoki metalldan yasalgan kamar bilan bog'lashardi. Uning uchi etagigacha osilib turardi.

Oyoq kiyimlari yumshoq tufli edi. poshnali tufli birinchi marta XVI asr oxirida paydo bo'lgandi.

prichyoskalari oddiy va odmi edi. Ko'pincha "*bando*" prichyoskasi uchardi, boshning o'rtasidan farq ochib, sochlarni yuzga tushirib va orqaga turmaklab qo'yishardi. Sochlarini chamber, gullar va qimmatbaxo toshlar bilan bezatishardi.

Bosh kiyimni kam kiyishardi (64-e rasm). Ularning shakli erkaklarnikiga o'xshardi. Ammo Ispaniyada o'ziga xos maxsus bosh kiyim — *vual* (tur) bo'lgandi. U bosh yoki yelkaga tashlanib, gavadani urab yergacha tushardi. Ushbu vuallar Ispan ayollarining kostyumini maxsus buyumi bo'lib qoldi. Ular "*mantil ya*" deb atalardi.

Ustki kiyim plashch edi.

Kiyimga qo'shimcha qo'lqop va yelpig'ichni olib yurishardi. XVI asrdan boshlab yelpig'ich Ispan ayollari kostyumining ayrilmasismi bo'lib qoldi. Asrning ikkinchi yarmida buklama yelpig'ichlar paydo bo'lgandi. To'r bilan bezalgan dastro'mollarni qo'lda ushlab yurishardi.

Xalq kostyumida karkas va korsetlar bo'lmagan. Ularning kostyumi ichki ko'ylak, shnurovkalangan korsaj va sal qisqartirilgan yubka, peshband, to'r yoki mantilyadan iborat edi.

Frantsiya kostyumi

XVI asr davomida Frantsiya G'arbiy Ovrupodagi qudratli davlatlardan biriga aylandi. Frantsiya mutlaqligining — absolyutizmining xalqaro munosabatlardagi asosiy maqsadi Ovrupoda o'z mavqeini kuchaytirish va sungra o'z yerlarini ko'paytirish edi. Lekin muvaffakiyatsiz olib borilgan urushlar Frantsiyaning axvolini og'irlashtirib, ularga qaram qilgandi.

Kuchli Ispaniya Frantsiyaning madaniyati va kostyumini butunlay o'ziga qaratib ololmadi. XV asr oxiridan boshlab Frantsiyaga asta-sekin Italiya Renessansining gumanistik dunyoqarashi va badiiy ideallari tarqalgandi. Adabiyotda va san'atda o'zining realistik yunalishi paydo bo'lgandi. **Erkaklar kostyumi.** Frantsiya kostyumi Ispaniya kostyumiga taqlid qilsa xam, ular kostyumida o'z dinini va fe'lini ifodalagan o'ziga xos xususiyatlar sezilardi. Frantsiya kostyumlari xech qachon butik va krtib turgan bo'lmagan, kostyumga doimo qandaydir milliy didga oid yumshoqlik, yengillik kiritilardi. Ularning kostyumi yorqin, och va quvnoq bo'lib, erkin va elegant xarakterat kilishga imkoniyat berardi.

Modada matolar — baxmal, movut, shoyi, kimxob bo'lgandi. Shu qimmatbaxo matolar tilla va kumush kashta va mayda marvarid bilan bezatilardi.

Etiket bo'yicha aslzodalarga mansub kostyumlarning soni 30 dan kam bo'lmasligi kerak edi va xar kuni kiyimni almashtirish zarur edi. Bu davrda "aristokratlar o'z boyligini yelkasida olib yuradi" degan makolning paydo bo'ulishi bejiz emas edi

Erkaklar oq, kashta qilingan ko'ylak, oldi ochiq kamzol, ishton-paypoq va kalta sharsimon ishton "*briches*"ni kiyishardi. Ustki kiyimi oldi ochiq, beli maxkam bog'langan kaftan bo'lgan. Asr o'rtasida modaga ko'pincha kaytarma yoqali plashchlar kirgandi.

Oyoq kiyimning to'mtok tumshugi — "*ayiqning oyogi*" — kesimlar va kashtalar bilan bezatilardi.

Kalta qirqilgan sochlar, Soqol va muylovlar modada edi.

Frantsuz beretlari Ispaniya beretlariga nisbatan keng, qattiq soyabonli bo'lib, pat bilan bezatilardi.

XVI asrning oxirida erkaklar kostyumiga yana bitta o'zgarish kiritilgandi. Kostyum oddiyroq va odmiroq, bo'lgandi. Unga qirol Genrix IV ning qarorlari sabab bo'lgandi. Ularga binoan, dvoryanlarning kiyimi to'q'q, odmi, ammo qimmatbaxo va nozik bo'lishi shart edi. Kolet kengroq bo'ldi, unga faqat frezani emas, balki shu paytda paydo bo'lgan qaytarma yoqa kilishgandi. plashchlar uzaydi va ko'pincha bir yelkaga tashlab yuradigan bulishdi. pantalonlarning uzunligi tizzagacha uzaydi va ular yumshoq burmali bo'ldi. prichyoskalari xam o'zgardi. Modaga orqasiga silliq taralgan uzun sochlar kirdi. Qirolning sochi erta oqargani uchun chakkasidagi sochini ulash modaga kirdi. Bosh kiyimi oq tuyaqushning pati bilan bezalgan soyabonli shlyapa edi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan Ispan modasi ta'siriga kamroq tushgandi. Ispan ko'ylaklarini frantsuz ayollari faqat odob yuzasidan tantana munosabati bilan kiyishardi. Bu og'ir va noqulay kiyimlarni ular uzlarini didlariga mods o'zgartirgan edilar: buynini va ustki ko'ylakning oldini ochiq qilib, kiyimini boyroq bezatishardi.

XVIac' birinchi yarmida Ispan modali silueti konus-simon shaklni eslatardi. Ichki va ustki ko'ylaklar karkasga tortilgandi, tor lifi dekol tesi "kare" edi. Ba'zan, dekol tesi ulok "shemizetka" bilan berkitilardi. yenglarining boshi tor bo'lib, uchi juda kengaygandi va Ko'pincha mo'yna manjetli edi. Ustki ko'ylakining yengi orasidan ichki ko'ylakning yenglari kurinardi.

Asr o'rtalarida ayollar kostyumi erkaklarnikidek Ispan modalariga o'xshardi. Shu davrda ayollar kostyumida birinchi marta korset ixtiro qilingandi. Ko'ylakning silueti avvalgiday bo'lgan, faqat yenglari o'zgargandi. Ustki ko'ylak yengining shakli kichkina bufli edi. Uning kesimlaridan ichki ko'ylakning yengi kurinardi. Ba'zan, ustki ko'ylakning yengi o'rta asrlarning valikli "jigo" yoki "kanotcha"larini eslatardi.

Oyoq kiyimlari past poshnali tufllilar va baland taglikli italian tufllilar edi.

prichyoskalar — marjon bilan bezatilgan, sochlar ikki yarim doyra shaklida peshonada joylangan. Bosh kiyim-lar prichoska shakliga moe tur bilan bezalgan che'etslarva beretlar edi.

Tur bilan bezatilgan dastro'mollar va yarim nikoblar urf bo'lgan.

Marvarid marjonlar va uzun dekorativ kamarlar antika bezak edi.

XVI asr oxirida ayollar kostyumining shakllari kes-kin o'zgargandi. Asosan, yubkaning shakllari o'zgargandi. Oldin yubka keng taxlamli bo'lgan bulsa, endi esa uning shakli abajurga o'xshash shaklga aylangandi. Yubkaning tagidan kattik karkas va uning ustidan belga aylana "gildirak"simon valikni kiyishgandi. Lif yana toray-di. Belni ingichkaroq ko'satish uchun lifning old "uch-burchak"i yubkaga uzaytirilgandi. yenglarning shakli avvalgiday qolgandi va tuka bilan birlashtirilgan yotik kesimlar qilinardi. Dekol te ovalsimon va juda chu-kur bo'lganligi tufayli "shemizetka" bilan berkitilardi. Yoqa shakli xam juda o'zgardi. Frezaning o'rniga bosh-dan balandroq kutarilgan karkasli tik yoqa kirgandi. Yoqa bir yoki ikki kavatli bulishi mumkin edi.

prichyoskalar ikki xil bo'lgandi — yo sochlarni jingalak qilib orqaga tashlab yurishardi yoki simli karkas yordamida tepaga kutarib qo'yishardi.

Nikoblar did-farosatga karab tanlanardi. Kostyumning qo'shimchalari: taxlama yelligichlar, xamyonlar, oynachalar, 'iyoz shaklli zanjirga osilgan soatlar, tasma yordamida belga osilgan teri parchalari (bur-gani tutish uchun) edi.

Angliya kostyumi

XVI asrda Italiya Renessansining Angliyaga ta'siri sezilardi. Insonparvar dunyoqarash E. Rotterdamskiy va T. Morning asarlarida aksini to'di. Tasviriy san'at-da Italiyaga o'xshab yukri darajaga erisha olmagan balsa xam, adabiyotda nixoyat ajoyib rivojga erishgandi (V.Sheks'ir).

Garchi ularning saroy odoblari frantsuzlardan ancha farqli bo'lsa xam, ingliz kostyumi asosan frantsuz modalari ta'sirida rivojlangandi. Manarxga SIGINISH bilan bogrlik, saroy etiketi qat'iy va takallufli bo'lgan.

Ingliz kostyumi shakllarining erkinligi va ayrim detallarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farqdanib turardi.



67-rasm. Noma'lum rassom. Yakov I. Angliya

Erkaklar kostyumi. XVI asr birinchi yarmida erkaklar kostyumi oq ko'ylakdan, gavgaga yopishib turgan, uzun yengli yoki yengsiz dubletdan, djerkindan, yopishib turgan ishton-paypoqdan va keng, ser burmalangan ustki ishtondan (shosso') iborat edi. Dublet paxtali bo'lib, kavilardi. Djerkinning yengi tirsagigacha edi, yubkasi esa silliq yoki burmalangan bo'lib, lifga tikilar yoki ilgak yordamida kistirilardi.

XVI asr o'rtasida Angliyada tukuv mashinasi ixtiro etilganligi sababli tukilgan ishton-paypoqlar asta-se-kin tarqala boshladi.

Asming ikkinchi yarmida qirol saroyi dabdabaliligi erkaklar kostyumiga ta'sir etgandi. Modaga kirgan Ispan-frantsuz koleti va bufsimon ustki ishton yorqin rangli matolardan tikilib, kashta va qimmatbaxo toshlar va to'r bilan bezatilardi (67-rasm). Koletni yengi tor, yelkasida qanotchasi bo'lib, yoqasi tik edi. Paxta tikilgan ustki ishtonlar shunchalik darajada kengayib ketganligi sababidan, Parlament o'tirar joylarni kengaytirishga majbur bo'lgandi.

Asming birinchi yarmida freza yoqasi, ikkinchi yarmida esa kaytarma yoqa modaga kirgandi.

Ustki kiyim plashch bo'lgan.

Tuk va odmi kiyimlarni faqat burjualar va puritanlar (XVI—XVII asrlarda ingliz va shotland burjuaziyasi uyushtirgan diniy-siyosiy xarakat qatnashchilari) kiyishgandi.

Sochlarini kalta qirqib, qimmatbaxo qilib bezatilgan beretni kiyishgandi.

Ayollar kostyumi. XVI asming 20-yillarida ayollarning kostyumi frantsuz kostyumiga o'xshash edi. Ularning kostyumi kuyidagilardan iborat edi: oq ip yoki jun matodan tikilgan ko'ylak, gavgaga yopishib turgan dagal lifli kott va syurko yoki yassi lifli va pastga qarab kengaygan yubkali ko'ylak edi. Ko'ylakning yengi tor va manjetli edi.

Asrning 30-yillarida oldi ochiq ko'ylaklar paydo bo'ldi. Shuning uchun kottani va ko'ylakning yengini qimmatbaxo matodan qilishadigan bo'ldi. Ba'zan, qaytarma manjetga qo'llangan mato bilan yubkaning etagini bezatishardi. Ko'ylakning gazmollari (baxmal, atlas, yupqa movut) sidirga bo'lgandi. Kottani esa boshqa rangli parcha yoki shtoffdan tikishardi. Qizil rang Ovrupoda keng tarqalgan edi va eng bashang va tantanali deb xisoblanardi. Uning qatorida jigar rang, och qizil, to'q qizil, och va to'q yashil, zangori va kul ranglar keng tarqalgandi.

40—50 yillarda Mariya Tyudorning didiga moslanib, kostyum kurinishini yo'qotadi. Uning o'miga ko'ylakning lifi yopik, Ispaniyadan kelgan karkasli yubka, kichkina yoqa o'mizi, tik-kaytarma yoqa, manjetli tor yenglar urf bo'lgandi. Ustki kiyim keng uzun, oldi ochiq bo'lib, Frantsiya marlotiga o'xshagan kiyim edi.

60—80 yillarda ingliz kostyumida chet el ta'sirlari ko'proq sezilgandi. Ayollar kiyimida ko'ngiroqsimon yenglar o'miga paxta to'ldirilgan bufsimon yenglar kirgandi. Venetsian modasining ta'sirida kiyimlarning shakli kattaya boshladi.

Bosh kiyim sifatida duxobadan tikilgan karkasli kichkina yuraksimon shapkachadan foydalanilgan. prichyoskalar bosh kiyimga yarasha maxsus karkasli qilinardi.



68-rasm. Qirolicha Yelizaveta (Angliya) tantanali libosda.

Ba'zan, uni tillaqosh yoki tilla chambar bilan bezatishardi.

Shu davrlarda kiyim bezagi sifatida kashta va to'r ko'p kullanardi.

Asrning 80-yillarida modaga Frantsiyadan vertyugad kirib keldi, lekin uning shakli o'zgartirilgandi.

Asrning ikkinchi yarmida aristokrat modalarida boylikni ko'satish avjiga chikkandi. Qirolicha yelizaveta savlatli kiyimni xush kurardi (68-rasm). Shunga nisbatan, ko'ylakning lifi juda torayib, qoringacha tushgan uchli edi. Yubkasi qisqarib, yon tomonlariga chuzildi va maxsus karkasga tortildi. Ingliz ayollari kostyumining boshqa kostyumlardan asosiy farqi - bitta ko'ylakda ikkita yoqaning bo'lishi Ko'pincha oldi kesilgan freza va tik karkasli yoqa yoki ikki qavat yarim doyra shakldagi yoqalar edi. Aslzodalarning kostyumi qimmatbaxo toshlar, marvarid, kashta, to'r va turli kesimlar bilan bezatilgandi.

prichyoskalar va bosh kiyimlar murakkab bo'lgan. Ba'zan, parikni kiyishardi.

Oyoq kiyimlar past poshnali yoki poshnasiz, kashta bilan bezatilgan shoyi tuflilar va dastaksiz tuflilar edi.

Kiyimga qo'shimcha qo'lqoplar bo'lishi shart edi, ayniqsa Ispan qo'lqoplari kadrlanardi.

Shunday qilib, XVI asr ingliz kostyumi, asosan, chet el modalari ta'sirida rivojlangan edi, ammo ular doimo kiyimlarni o'z didlariga mos o'zgartirar edilar. Aristokratlarning tashki kurinishida boylik eng muhim rol o'ynagan.

Olmoniya kostyumi

XV asrning oxirlarida Olmoniyada o'rta asr urf-odatlarini butunlay saqlanib qolgandi. Avvalgilari saqlanib qolgani xolda yangi kiyimlar xam paydo bo'lgandi.



69-rasm. Savdogar. Nemis gravyurasi. XV asr



70-rasm. Nyurenbergdan savdogar. Nemis gravyurasi. 1576 yil.

Kostyumning rivojlanishida yollangan askarlar (lands-knextlar), asosiy sinfiy kuch — byurgerlar, keng tarqalgan jaxon savdosi va Ovrupo madaniyati ta'sir etgandi.

Erkaklar kostyumi. Olmoniya erkaklar kostyumi Ovrupo mamlakatlarining kiyimlariga o'xshagandi. Kostyum shaklining maydalanganligi va xar xil bezaklarining ko'pligi olmoniya kostyumining milliy xususiyati edi (69,70,71-rasmlar).



71-rasm. Nyurenbergdan sotuvchi. Nemis gravyurasi

Ustki kiyim keng, yengi katta bufli "*shaube*" edi. Uning rangi shaxning tabaqa belgisini ifodalardi. Knyazlar, aslzodalar va ritsarlar qizil yoki binafsha rangli, boy shaxarliklar esa kora yoki jigar rang shaubeni kiyishi mumkin edi. Xunarmandlarga shaubeni kiyish m'an etilgandi.

Shaubening ichidan "*vams*" kiyishardi. U frantsuz purpureniga, italian djubbonesiga yoki ingliz djerkiniga o'xshash edi. Uning oldi juda ochiq bo'lib, ichki ko'ylagi ko'rinardi. Ichki ko'ylaginining yoqa o'mizi ser burmalangan yoki mayda taxlam qilingandi. Ko'ylakning yoqa o'mizini va yengning uchini kashtalash nemis va ingliz kostyumini farqlovchi belgisi edi.

Ustki kiyim bufsimon yengli trapert va yelkaga tashlangan keng plashch edi.

Ishtonni vamsga biriktirib qo'yishardi, tikilgan paypoqlarni esa bog'ich yordamida Oyoqqa maxkamlashardi. Ikkalasida xam xar xil shaklda kesimlar qilinib, tagiga rangli matolar parchasi yopishtirilardi.

Olmoniyada o'rta asrdan qolgan assimetrik kiyimlar keng tarqalgandi.

Qo'lqoplarda xam bug'imglar ustidan mayda kesimlar qilingandi.

Asming ikkinchi choragida Olmoniya kostyumi bashangroq bo'lgandi. Shaube uzunligi qisqardi. Uzun shaube kiyimlardagina kilgandi (olimlarda, merda, munitsipial soveti xodimlarida va b.). Shaubening o'zgarishi vamsga ko'proq axamiyat berishga izn berdi.

Natijada, yangi bichimlar, kashta va ko'p kesimlar kiritildi. Vamsning uzunligi avvalgiday beldan sal pastroq qilinardi, yoqa o'mizi kichraydi va oldi tugmalanadigan bo'ldi. Vams kashta va kesimlar bilan bezatildi. Uning yangi shakli tik yoqali kashtalangan ko'ylaklarga mos edi. Ko'ylakning yoqa va manjeti burmalangan kichkina xoshiya bilan bezatilgandi. Yangi ustki kiyim "*fal troq*" paydo bo'lgandi. Uning bichimi vams bilan moslashardi: agar vams keng yengli bo'lsa, fal troq yengeiz bo'lardi. Fal troq gavdaga

yopishib turgan lif va yubkadan iborat edi. Uni boshdan kiyishardi yoki yonidan tugmalanadigan qilishardi.


Bosh kiyimlari yumshoq soyabonli beretlar (69-71-rasmlar), gulchambarlar va chepetslar bo'lgandi. Erkaklar sochlarini kalta qirqib yurishardi va mo'ylov qo'yishardi.

Asming ikkinchi yarmida kostyum odmilandi. Ispan modasi bu yerga kechroq kelgandi. Ola-chipor ranglar to'q ranglar bilan almashdi. Kiyimda gorizontall chiziqlarning o'rniga trapetsiyasimon siluetlar paydo bo'ldi. Keng shaubening o'rnini nimcha yoki Ispan plashchi yopinchiq egalladi. Tik yoqa vamedada xam urf bo'lgandi. Vamsning oldi ochiq bo'lib, kesimlar bilan bezatilardi va dagal astarli qilinar edi. Keng ishtonlarining uchi tizzada burmalanib, kashtalangan tasma bilan bog'lanardi. Asr oxirida tukilgan paypoqlar modaga kirgandi. Bosh kiyim kichkina, tor soyabonli Ispan bereti edi. Oyoq, kiyimlari tumshuui keng ("sigar tumshugi") tufli o'rniga kesimli, tor, keyinroq, uchi uchli tufllilar edi (72-rasm).



72-rasm. Uyg'onish davrining oyoq kiyimlari.

XVI asrda nemislarning didini ifodalaydigan land-sknextlar kostyumi edi. Ularning kostyumi ko'ylak, vams, fal troq, tizzasigacha ishton yoki sharovarga o'xshagan uzun tasmasimon ishton "*lyudexauzen*", Ispan plashchi va baland cho'qqili shlyapadan iborat edi (71-rasm). Ularning ko'p xar xil shakldagi kesimlari rang-barang astar laxtalar xamda tuyaqush patlari, kashta va qimmatbaxo toshlar bilan bezatilardi (73-rasm).



73-rasm. Olmoniya bosh kiyimlari.

Ayollar kostyumi. Nemis ayollarini "Zk", ya'ni kirxa-cherkov, kinder-bola va kuxnya-oshxona uchun yashashi kerak deb xisoblashardi. Ko'ylakning tor lifi gavdaga

yopishib turib, uning barcha shakllarini takrorlardi, chuqur dekolte orqasini ochib, oldida ichki ko'ylakini ko'rsatardi. Bir necha taxlamli keng yubkaning shleyfi lifga tikilgandi. Bosh kiyimlari karkasli va baland qilinib, kashtalanardi (74, 75-rasmlar). Yu'qa vual peshonasini koshigacha berkitardi. Oyog'ida yumshoq uchli tufli. Ustki kiyimlari erkaklarniki singari shaube edi. Ayollarning shaubesi uzunroq, ancha oddiyroq va odmiroq bo'lib, yoqa va yenglari keng emas edi. Ko'pincha yaxlit bichilgan tik yoqa bog'ichga aylangandi; tor yenglarida oddiy kesimlar qilinardi. Lifning oldi ochiq bo'lganligi sababli, shnurovkaning tagidan maxsus ulok kuyilardi yoki yupqa matodan tikilgan **ichki** ko'ylak kiyishardi. Ichki ko'ylakning yoqa o'mizi kashta yoki parchadan qilingan tasma bilan bezatilardi. yenglari bufli va kesimli bo'lgandi. Keng yubka chuqur taxlamli qilinib, parcha yoki baxmal bilan bezatilgandi. Bunday kiyimda ayollar ozgin, qomatli bo'lib kurinardi.

Asrning 70-yillarida yengsiz jaketcha "*koller*" paydo bo'ldi.

Asr ikkinchi yarmida Ispan modalari Olmoniya ayollarining kostyumida o'ziga xos ifodasini to'pgandi. Kiyim kotma bo'lib, didsiz chegaralarga ega bo'ldi, dekolteni o'rniga tik yoqa qilindi. Ustki kiyim shaube avvalgiday koldi. Lekin u, ko'pincha, yengsiz va tik yoqali qilib tikilardi. Shaube qatorida keng uzun plashch xam kiyilardi. Bu davrda Ispaniya modalari Olmoniya maxalliy xususiyatiga binoan o'zgaryb, kiyimda uz ifodasini topgandi. Misol uchun, Ispaniyada plisse qilingan yubka va peshbandlar keng tarqalgandi.



74-rasm. Gans Golbeyn (kichigi). Yosh qiz. Gravyura



75-rasm. Urs Graf. Shveytsariya. Qiz bolaning haykali. Gravyura

Shunday qilib, maxalliy oliftalar did-farosat va urf-odatlariga binoan Ispan uslubini o'zgartirib, uzlariga moslab kostyumlarni yaratishgan. Ammo Olmoniya kostyumlari, ularning shakl va dekorativ printsiplari Ovrupo kostyumiga ta'sir etmadi. Ular Olmoniyada saqlanib qolib, faqat xalq kostyumiga o'tgandi.

4.Barokko uslubidagi Yevropa erkaklar va ayollar kostyumi. Materiallar, ranglari va naqshlari. Mushketerlar modasi.

Barokko usulidagi Ovropea davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

XVII asr — cheksiz monarxiya va mutlaqlik kamol topgan, siyosiy to'qnashuvlar va katta iqtisodiy o'zgarishlar davri edi.

Bu davrda feodal jamiyat orasida vujudga kelgan yangi sinf — burjuaziya siyosiy maydonga chiqqandi. Burjuaziya mutlaqlik bilan kurashga kirishib, ayrim davlatlarda (Angliya, Gollandiya) inqilobiy toqnashuvlarda *golib* bo'lib chiqqandi. Ammo feodalizm negizi kuchli va burjuaziya kuchsiz bo'lgan mamlakatlarda asr davomida mutlaqlik rivojlanmagan edi. Frantsiya va Ispaniya klassik mutlaqlik mamlakatlari bo'lgan. Agar XVII asrda Ispaniya chuqur siyosiy va iqtisodiy inqirozga kirgan bo'lsa, Frantsiya asrning ikkinchi choragidan boshlab muvaffaqiyatli urushlar va qator ichki reformalar natijasida dunyo miqyosida katta axamiyatga ega bo'lgandi.

XVII asr san'atida Barokko uslubi rivojlangandi. yetuk mutlaklikning dvoryan—cherkov siginishi bilan bog'langan Barokko uslubi katta uslubga intilgandi. San'-atda qarama-qarshilik, keskinlik, manmanlik va gerdayishga intilish, xaqiqat va xom xayolni mujassamalantirish ushbu uslubga mansub edi. Barcha san'at turlarida Barokkoning qonunkoidalari uz aksini topgandi. San'atning milliy variantlari xilma-xil bo'lgan edi.

XVII asr — Dekart va Spinozaning ratsionalistik falsafasining kamoloti; Mol yer, Kornel , Lo'e de Vaganing dramaturgiyasida aristokratiya madaniyatining aks etishi; aristokratik musiqaning taraqqiyoti; Rembrand, Rubens, Velaskes, Van Deyk kabi buyuk rassomlar nomlarining dunyoga mashxur bo'lishi va tasviriy san'at taraqqiy etishi davri edi.

Ovrupoda Frantsiya eng buyuk davlat bo'lib, moda sohasida xam oldingi o'rinda borardi. Asr mobaynida Frantsiya tarixiga binoan kostyum modasi o'zgargandi. XVII asr

birinchi yarmida Frantsiyaning tashki va ichki siyosati cheklanmagan monarxiyaning kuch-qudratini oshirishga qaratilgandi. Mamlakatning iqtisodini rivojlantirish masalalari eng muxim deb xisoblangandi. Sanoat mollarining asosiy iste'molchisi dvoryanlar bo'lgani sababli, zeb-ziynat buyumlarini ishlab chiqarish jadal ravishda o'sdi. Ipak gazlamalar (baxmal, atlas, kimxob, tafta va b.), to'rlar, tasmalar, ipak paypoqlar, batist, qo'lqoplar, zargarlik buyumlari boshqa mamlakatlarga sotilib, frantsuz modasining barcha Ovrupo mamlakatlari tarqalishiga sabab bo'lgandi.

Frantsuz mutlakligi uz poytaxtini eng go'zal shaxarga aylantirishga intildi va, natijada, parij Ovrupoda eng yirik madaniyat markaziga aylandi. Modalar faqat parijda yaratilib, barcha Ovrupo mamlakatlari tarqaladigan bo'ldi.

XVII asr mobaynida frantsuz kostyumi olti marta o'zgartirildi. Mutlaqlik ko'chaygan sari dvoryanlar kostyumida ko'p o'zgarishlar ro'y berdi, unda feodalritsar belgilari kamdan-kam qolgandi.

Barokko usulidagi Ovrupa davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari

Birinchi davr (1600—1629 yy.)

Erkaklar kostyumining shakli **XVI** asr oxiridagi kostyumidan deyarli o'zgarmagandi. Bu davr shakli oldingi asrga nisbatan yumshoqroqligi, yangi yoqa turlari va ishton "*o-de-shoss*" bilan farqlanardi. Kostyum kalta pur-purendan, keng kalta o-de-shossdan, ipak paypoq va etik yoki tuflidan iborat edi. Bosh kiyim yupqa namatdan ishlangan bir tomoni tepaga kutarilgan keng yoki tor soyabonli baland shlyapa bo'lgan (76 a-rasm).

Kostyumning barcha bulimlari o'zaro tikilmasdan bog'ich yoki ilgaklar yordamida biriktirilardi. Bu usul o'rta asrlardan qolgandi (ritsar sovutidan).

Purpurening lifi to'rt bo'lakdan iborat edi. Uning uzunligi beligacha bo'lib, old bo'lagining etagi uchburchak (mops) shaklida va uzunroq edi. Lifning pastiga tasma bilan baskani biriktirishardi. U bir necha bo'ulimdan (8-12) iborat edi. Baskaning shakli turli o'lchamli trapetsiyasimon edi. U astarli qilinib, tasma "*galun*" bilan bezatilardi. Bir necha bo'lakdan iborat *epoletlar* purpurening yeng o'mizini bezatardi. Ba'zan, purpuren kesimlar bilan bezatilardi, ularning orasidan astar kurinardi. purpuren ko'p tugma (soni 576 gacha yetardi), yoqalar va manjetlar bilan bezatilgandi. Bu davrda freza yoqasidan tashqari oq qaytarma yoqa va manjet urf bo'lgandi.



76-rasm. Jak Kalloning “La Noless” tsiklidan gravyuralar.
a–zodagon erkaklar kostyumi; b-zodagon ayollar kostyumi

purpurenni ostidan avrasi yumshoq taftadan, astari satindan qilingan kalta *"shemizett"*ni va yupqa mato-dan tikilgan keng ichki ko'ylakni kiyishardi.

XVI asrdan qolgan ishtonlar kengroq bo'lib tugma-lanadigan bo'ldi, ikki kavat astarli va tik kesimlar qilinib, chegarasi tasma galun bilan bezatilgandi.

Erkaklar kiyimi, asosan, movut va shoyidan qilinardi. Keng tarqalgan ranglar: qora, qizil, kul va yashil-jigar ranglar.

Ustki kiyim endi yumshoqroq bo'lgandi. Ustki kiyimning asosiy turlari: *"kazak"*, *"manto"*, *"kaban"*, *"on-gerlin"* bo'lgan. *"Kazak"* —plashch turi. Ko'p taqilmalar yordamida uni uzun keng yengli yoki kalta plashchga aylantirish mumkin edi yoki orqa bo'laklariga yengning yon tomonini biriktirib, yengning old qismini old bo'lakka biriktirmay, qo'l uchun joy qoldirilardi. Kalta *"kazak"* mushketyorlarning kiyimi bo'lgan. Kumush xochlar va galunlar bilan bezatilgan xavo rangli kazakni qirol mushketyorlari kiyishgan, oq bezakli qizil kazak esa — kardinal Rishil yening mushketyorlariga xos edi.

"Manto" — doyra shaklli, yoqali va boyaichli plashch edi.

"Kaban" — yengli, to'gri bichimli, uzunligi tizzagacha bo'lgan kiyim. U xarbiylarning asosiy kiyimi xisoblangan.

"Ongerlin" — Vengriyadan taqlid etilgan qishki kiyim. U mo'yna bilan sirlanib, chegarasi xam mo'yna bilan bezatilardi. Uning lifi deyarli tor bo'lib, to'rtta baskali edi.

Oyoqqa shoyi yoki junli trikotaj paypoq kiyishgan. Oyoq kiyimi baland poshnali tufli, baland kunjli etiklar — *"botfortlar"* va ularning ustidan yogingarchilikda charmdan tayyorlangan yogoch taglikli poshnasiz *"galosh"* kiyishardi.

Kiyimning qo'shimchasi oltin to'r va popuk bilan bezalgan dastro'mollar edi.

Sochlarini avvalgiday qisqa qirqib, Soqol qo'yishardi.

Ikkinchi davr (1620—1935 yy.)

Bu davr purpurenning qotirmalardan va ode-shossning valiklardan voz kechishi bilan tavsiflanadi. purpurenning bichimini o'zgarishi va ishtonning yangi shaklining paydo bo'lishi erkaklarning tashqi ko'rinishi mutanosibligini o'zgartirgandi. Endi uning beli baland, lifi tor, to'rtta uzun baskali va yenglari kengroq bo'lgandi. Baska ko'p tik kesimli yoki tasmalardan qilinardi. Yoqalari freza yoki qaytarma edi.

Erkin ishton o-de-shosslarning uzunligi endi tizzadan pastroq bo'lib, metall uchli tasma — "*egiyettlar*" bilan bezatilardi.

Bosh kiyimlari keng soyabonli, tuyaqushning pati bilan bezatilgan shlyapalar edi. Uzun sochlari jingalak qilinib yelkaga tushib turardi. Soqollarini olib tashlab, muylov kuyishgandi.

Tor uzun etik o'rniga keng kunjli, tizzadan qaytarilgan etik bo'lgan. Ipak paypoqlar tizzagacha edi, etik bilan kiyiladigan paypoqlarning tepa tomoni to'r bilan bezatilib, etik tepasidan ko'rinib turardi.

Yangi kostyum erkaklarga yangi tashki ko'rinish kasb etgandi. Endi ular bu kostyumda baland buyli ko'rinib, xarakatlari jushqinlik kasb etardi.

Takror-takror ta'qiqlarga qaramasdan, bu dabdabali, yumshoq va plastik kostyum — tilla kashta bilan bezatildi, ko'p tugmalarning o'rnini egiyettlar va bantlar egalladi.

Uchinchi davr (1635—1643 yy.)

Ikkinchi va uchinchi davrlarda Frantsiya kostyumining rivojlanishi eng yuqori darajaga erishgandi. Oldingi davrdagi og'ir kiyimlarning o'rniga nozik va oddiy kiyimlar kelgandi. Kostyumning erkin shakllari, uning yumshoq chegaralari, yorqin ranglar va ularning garmonik birikmalari kostyumga go'zallik berardi. Kostyumning anik konstruksiyasi esa, uning to'p-to'p rangli bolaklarga o'xshamasligini ta'minlardi. Kostyum bu davrda yosharish tassavurini tuydirardi.

purpuren va shossning bichimi o'zgargandi. purpurenning baskasi yumshoq bo'lib, faqat orqasida bo'lardi, oldi esa uzunroq edi. yenglar bichimi o'zgarmagandi. Shosslar endi "*pantolon*" (Italiya komediyasining personaji pantalonedan) deb atalardi. pantolonlar keng bo'lgan, uzunligi tizzadan pastroq bo'lib, uchi tasmadan qilingan ilgaklar yordamida tugmalanardi, old takilmasi — "*bragett*" uchburchak shaklida joylashgan bir necha qator tasmadan qilingan izmalar bilan birkartilardi.

Freza yoqa endi kiyilmasdi, faqat to'r bilan bezatilgan katta qaytarma yoqalar va manjetlar qolgandi. yeng o'mizlari xam epoletlar bilan endi bezatilmaydigan bo'ldi.

Yumshoq etiklarning uzunligi endi boldir o'rtasigacha bo'lib, qaytarmalari qolgandi. Etiklar baland poshnali edi. Baland poshnali tufllilar tasmalardan qilingan rozetka bilan bezatilardi.

paypoqlar avvalgiday rangli va, ayniqsa, zangori va qizil ranglarda bo'lgan.

To'rtinchi davr (1643—1660 yy.)

Qirol Lyudovik XIII olamdan qo'tishi bilan frantsuz kostyumiga deyarli o'zgarishlar kiritilmadi. Ammo odamning tashki kurinishiga qiziqish va ma'lum odatlarga intilishning zo'rliqi 1644 yilda "Frantsuz xushmuomalalik qonunlari" degan kitobning chiqishiga sabab bo'ldi. Unda aristokratlarga oid xarakatlar, qachon va qanday kiyim kiyish mumkinligi bayon etilgandi.

Bu davrda taxtda utirgan qirol Lyudovik XIV o'zini "kuyosh qiroli" deb atardi. U o'zini madx qilish maqsadida san'at va fanning rivojlanishiga ko'p e'tibor bergandi. Erkaklar kostyumida yangi uslubiy yechimlar paydo bo'lgandi va Barokko uslubining ta'siri juda sezilardi.

Kiyimning barcha turlarining bichimi o'zgargandi; ko'p gazmol, tasma, yupqa ichki kiyim va to'rlar orasida gavda sezilmasdi.

purpuren o'rniga qisqa yengli yoki tasmali, erkin kurtkacha — "*bras yer*" kirib keldi. Uning baskasi juda kalta bo'lib, shoss kamarini sal-pal berkitardi. Bras yerning oldi gijimlanmasligi uchun old bo'laklariga karton tikishardi.

Shosslar xam yangi shaklga ega bo'ldi. Endi ular keng, erkin bo'lib, tizzasidan burmalangandi. Ustidan keng yubkasimon, qisqaroq "*rengrav*" kiyilardi.

Erkaklar ikkita ichki ko'ylak (tor ichki ko'ylak va ustidan jun matodan bitta yoki ikkita kamzol) va ustidan yupqa oq matodan tikilgan keng ustki ko'ylak kiyishgan. Old taqilmasi to'r yoki burma xoshiya "*jabo*" bilan bezatilgandi. Xurpaygan manjetlar xam to'r bilan bezatilardi.

50 yillarda o-de-shossning uchiga yoki ustki paypoqlarga keng burma "*kanon*"ni tikishardi. Ular oq batistdan qilinib, kashta va to'r bilan bezatilardi.

Ustki kiyimning eng muxim turi kichkina yoqali, chegarasi kashta yoki to'r bilan bezatilgan plashch bo'lgan.

1660 yilda baland, qattiq soyabonli, tuyaqush pati bilan bezatilgan shlyapalar keng tarqalgandi. pariklar kattalashgan sari shlyapalar pastroq bo'lgan va ularni kulda olib yurishgan.

Erkaklar kundalang burmalangan paypoqlarni kiyadigan bulishgan. Oyoq kiyimlari: baland poshnali rangli tufllilar va etiklar bo'lgan.

Bu davrda konstruktiv aniqlikning yo'qolganligi, kostyumning ser bezakliligi ko'zga tashlanar edi.

Kostyum qo'shimchalari qo'lqop va shpaga bo'lgan.

Beshinchi davr (1660—1685 yy.)

Bu davr mutlaklikning eng yuksak darajaga erishgan davri edi. Frantsiyaning xalqaro obro'yi juda ko'chaygandi. Bunga Frantsiya saroyining dabdabali va savlatli ruxiy kuchi, madaniyatining yuqori darajaga erishganligi sabab bo'lgandi. Qirol Lyudovik XIV podsholik davrida saroy xayoti muxim rol o'ynagan. Uning buyrug'iga binoan saroy marosim tartiblari joriy qilingandi.

Erkaklar kiyimida yangi saroy liboslari paydo bo'lgandi. Ularning ranglari, bezaklari va qo'llangan matolari shaxsning tabaqasiga qarab belgilangandi. Misol uchun, kimxobdan tikilgan va zarbof bilan bezatilgan kiyimni faqat qirol va uning oila a'zolari kiyishi mumkin edi.

Bu davr yangiligi: mavsumga binoan kiyinish va, albatta, kiyimni almashtirish shartligi to'risida qonun chiqarilgandi. Baxorda va kuzda — yengil movutdan, qishda — duxoba va atlasdan, yezda — faqat taftadan tikilgan kiyim kiyish tavsiya etilgandi.

Erkaklar ustki kiyimi endi xarbiy kiyimdan olingan "*jyustokor*" edi. purpurenni endi kiyishmasdi.

Xarbiy ralablari Frantsiyaning xalqaro obro'sini ko'targandi. Shu davrda Lyudovik XIV birinchi martaba xarbiy formani armiyaning barcha turlariga kiygizgandi. Kiyimning bichimi, rangi va bezagidagi arzimasi farqlar kushinlarning turini belgilardi.

Ammo maxalliy kostyumda bashanglikdan voz kechish to'grisida ran xam bo'lmagandi. Kostyumning asosiy xususiyatlari dabdabalik va xashamatlik edi. Xurpaygan, baland, uzun parik; ko'ylak, kalta vesta, uzun jyustokor, kalta o-de-shoss va baland poshnali tufli — erkaklarning asosiy kiyimlari edi. Turli yoqaning o'rniga oq matodan uchi to'r bilan bezatilgan galstuk "*kroat*" kiyishadigan bo'lgandi. Ranglar gammasi: ko'k va qizil, zan-gori va qizil, qizil, oq bo'lgan.

Oltinchi davr (1680—1700 yy.)

Lyudovik XIV siyosati kutilgan natijaga olib kelmadi. Bu qirolni asabiylashtirardi va saroy amaldorlari unga begona bo'lib qolganday tuyo'lardi. Karigan qirolning diliga endi bashanglik, bayramlar bilan qiziqish sigmasdi. Uning kostyumi endi oddiyligi bilan, to'q ranglar, oddiy bezaklar bilan saroy amaldorlarnikidan farqlanardi. Qirolning kiyimi to'q rangli baxmaldan tikilgan, kashta va oddiy tilla i'plardan qilingan tugmalar bilan bezatilgandi. U xech qachon uzuk takmagandi va qimmatbaxo toshlarga uz munosabatini ko'rsatish uchun faqat Oyoq kiyimlarini uplar bilan bezattirardi. Shu sababli bu davrda kostyumning faqat ayrim bo'limlari o'zgargandi. Yo'l-yo'l matolar modaga kirgandi. Undan jyustokor tikishardi. Ular tilla to'r, zar uqa va ko'p tugmalar bilan bezatilardi. Jyustokor belga yopishib turardi va yelpirichsimon taxlamalar yordamida yonlari kengayardi. Kopqoqli cho'ntaklarning shakli va yunalishi xam o'zgarib turardi. Jyustokorni oldi, odatda, tugmalanmasdi va shuning uchun ichidan boshqa rangli yoki naqshli matodan qilingan *kamzol*"*vesta*" kurinardi. Keng o-de-shoss o'miga tor "*kyo 'lot*" kiyishgandi. Ular xam cho'ntakli qilinardi.

Kishki jyustokorlar mo'yna bilan sirlanardi, kullarini esa katta "*mufta*"ga berkitishardi.

Galstuklarni boyalash usullari xam tez-tez o'zgargandi. 70-yillarda uni bir necha ingichka bantlarga boylab, turli uchini jyustokorga chiqazib kuyishgandi; 80-yillarda galstuk tugunining ikki tomonidan tasma bilan ko'p ilgaklar qilinardi; 90-yillarda "*kroat Shtenker*" galstugi paydo bo'ldi — bu bog'lanmagan sharfsimon galstuk bo'lib, uning bitta uchi jyustokorni oltinchi va yettinchi izmasidan utkazilgandi (jang paytda ofitserlar galstugini boglay olmagani uchun).



76-rasm. XVII asr general formasi.

Ustki kiyimlarning nomi saqlanib kolsa xam, ularning shakli va tashki kurinishi o'zgargandi. plashch keng va uzun bo'ldi, uni gavdada drapirovka qilib, bir uchini orqaga tashlab qo'yishardi. Kazak uzun yengli va manjetli bo'lib, keng erkin paltoga aylangandi (76-rasm). Uning oldi qaytarmali bo'lib, shnurdan qilingan izmalar va tugmalar bilan bir tomonidan va popuklar bilan — ikkinchi tomonidan bezalgandi. Kaytarmasi orqasida yoqani xosil etardi. **XVII** asr oxirida yangi ustki kiyim "*syurtot*" (**XIX** asr syurkotining timsoli) paydo bo'lgandi. Bu tepadan pastgacha tugmalangan jyustkorning bir turi edi (77-rasm). Manto jun matodan, astari esa yorqin rangli baxmaldan qilinardi.

Bosh kiyimlari avvalgiday tuyaqush pati bilan bezatilgan to'rra yoki kaytarilgan soyabonli shlyapa edi. pariklar kostyumning juda muxim bulimi deb xisoblanardi.

Oyoq, kiyimi poshnali, tumshugi to'ri to'rtburchak shaklli, yon tomonidan taqiladigan botinkalar edi.

XVII asrda aristokratiya va burjuaziyaning kiyimlari keskin farqlanardi.

Barokko usulidagi Ovro'a davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari

XVII asr mobaynida erkaklar kostyumiga nisbatan ayollar kostyumi shaklining o'zgarishlari kamroq bo'lgan.

Birinchi davr (1600—1620 yy.)

Bu davrda XVI asrning asosiy shakllari saqlanib qolgandi. Ayollar kostyumining asosi "*korset*" va "*ver tyugal*" edi. Ichki ko'ylak ustidan korset va "*kaleson*"ni siyishardi. Kalesonlar qimmatbaxo matolardan qilinardi; kishda astarini baxmaldan, yezda esa tuyaning terisidan qilinardi. *Kalesonlar tasma "galun"*, kashta va tugmalar bilan bezatilardi.



77-rasm. Kiborli kostyum. XVII asr oxiri

Ko'ylak avvalgiday "*kor-de kott*"tn, "*kott*"tsan va "*rob*"dan iborat edi. Kor-de kott lifining yukori kis-mi keng, yengi esa uzun edi, uning shakli tol chiviklar yordamida ushlanib turilardi. Kott taxlamli yubkaga aylandi. Lif va yubkasi bir xil matodan qilingandi (77 b-rasm) Atlas, pan, duxoba, tafta, kamelot, byural keng tarqalgan matolar edi. Ustki kiyim — rob — oldi ochiq, kalta yengli keng manto edi.

Aslzoda ayollar ko'pincha bosh kiyim kiyishmasdi, faqat beva ayollargina kora "*shaperon*"- kiyishardi.

Go'zallik va boylik ramzi sifatida avvalgiday tilla va kumush, qimmatbaxo toshlar bilan kashta qilingan matolar xisoblanardi.

Ikkinchi davr (1620—1635 yy.)

Bu davrda shakl va xajmning yangi nisbatlari yaratilgan. Vertyugal o'rniga kiya boyalangan valik kiyishgan. Bichim, shakl, mutanosibliklarning taxdili kuyidagilarni kor'satardi: bo'ksani kengaytirish, orqani toraytirish va yenglarni kengaytirish bilan ayol-

lar tulalikni berkitmokchi bo'lishgandi. Kostyum shakllarining nisbatlari gavdaning barcha kismalarini bir xil qilib kor'satardi.

Kostyum avvalgiday bir necha bo'limdan iborat edi. Ichki ko'ylak, kaleson, korset, valik va ichki yubkaning ustidan bir xil matodan qilingan "*korsaj*" (lif) va kottni kiyishardi. Korsajning orqasi bir yoki ikki bo'lakdan iborat edi, oldiga esa pasti uchburchak shaklda bo'lgan kashtalangan uloq tikishardi. Korsajning yenglarida tik yunalishdagi kesimlar bo'lgan (78-rasm). Ularning ustidan yana redingotga o'xshash oldi ochiq, korsaji shnurovka qilingan kiyim kiyishgan.



78-rasm. Abraham Bosse gravyurasi 1640 yil. Ayollar kostyumi.



79-rasm. Rembrand van Reyn. Yosh ayol portreti.
Bukingem saroyi. London.

Chuqur dekolteni yupqa ok matodan qilingan, chegarasi to'r bilan bezatilgan kaytarma yoqa bezatardi. Yelpg'ichsimon shaklli va freza yoqalari modadan chikkandi. Ushbu yangi ko'ylak "*hulay ko'ylak*" deb atalardi, chunki ayollar unda bemalol xarakat kilishi mumkin edi (79-rasm).

parik o'rniga uzlarining sochlaridan yasalgan prichyoskalar qilinardi. Oldilaridan qisqa peshonagajak kirkishardi, yon sochlarini jingalak qilishardi. Korsajning belida shnur, tasma va zanjirlarga kis-tirilgan oynacha, yelpig'ich, soat va boshqa kerakli buyumlarni olib yurishardi. Ayollar kostyumida xam qimmat-baxo turlar va matolarni

kullash man etilgandi. Qimmatbaxo ziynat buyumlarni ham kam kiyishgandi. Odatda, marvarid marjon yoki korsajda marvarid rozetkani taqishgan.

Ustki kiyimlari manto va ongerlin bo'lgan. Manto "*p'elerina*" singari kalta yoki gavdani butunlay berkitadigan uzun bo'ulishi mumkin edi. Ongerlin astarli yoki mo'yna bilan sirlangan, yengli va baskali bo'lgan.

Uchinchi davr (1635—1645 yy.)

Bu davrda adabiyot, falsafa, fanlarga, san'atga qiziqish tugilgani uchun yangi estetik ideal paydo bo'lgandi, ular frantsuz ayoli tashki kurinishining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Ayollar, eng avvalo, bo'ksada valikni kiymaydigan bo'ldilar. yenglarning xajmi kichraydi. Bel chiziqlari yuqorida saqlanib qoldi, to'rli yubkalar tuflilarni berkitib turardi. Shunday qilib, past buyli to'la ayol baland xushbichim figurali ayolga aylandi. Ustki ko'ylakning yubkasi avvalgiday oldi ochiq bo'lgan; oldi berk yubkalar xam uchrardi. Ba'zan yubkaning old etagini belga qistirib qo'yishardi (77, b-rasm). Chuqur de-koltega ikki qavatli kaytarma yoqani tikishardi. Yoqa va qaytarma manjetlar to'r bilan bezatilardi. Yoqa bilan baravariga bo'yinda ro'mol bo'qlardi.

Ongerlinni o'miga baskali jaket keng tarqalgan edi.

Bu davrda peshband kiyish odatga kirdi. Uni kiyim turlarining sonini ko'paytirish uchun kiyishardi.

Qizil, qora, sariq va kul ranglar kiyimda keng ko'llanardi.

Kiyim o'zgarishi prichyoskalarining o'zgarishiga sabab bo'ldi. Sochlari jingalak qilinib, yelkalariga erkin tushib turardi, orqalarida esa sochlar turmaklab kuyilardi.

Marvarid marjonlar va ziraklar kostyumning asosiy bezagi edi.

Ko'lqoplar zeb-ziynat belgisi bo'lgandi.

Bu davrda ayollarning sernozligi kostyumlariga xam ta'sir etgandi. Nozlar kiyimlarning ayrim bo'laklariga yangi nomlarni berishgandi: ustki ko'ylak yubkasini - "*modest*" (odmi), ichki ko'ylak yubkasini — "*fre'on*" (uynoki), ichki yubkani — "*sekret*" (yashirin) deb atashardi.

Yuzlarini va sevgi sarguzashtlarini yashirish uchun baxmaldan niqob va kora taftadan bosh kiyim "*kapor*" kiyishardi.

Oyoq kiyimlari: qimmat baxo toshlar bilan bezatilgan tuflilar edi.

Tannoz bezaklarning maxsus bir turi yasama xollar edi. Ular erkak va ayollar tomonidan keng kullanardi. Xollar yelimlangan kora taftadan xar xil shaklda (yo'l-duz, oy, gul va boshqalar) qilinardi.

Aristokratlarning yangi tashqi kurinishi asming 50—60-yillarida vujudga keldi va arziyas o'zgarishlar bilan asr oxirigacha saqlanib qoldi.

Tur'ginchi davr (1650—1660 yy.)

Bu davrdan boshlab siluetga aniqlik kiritildi. Kostyum shakli yanada kichraydi. Lifning karkas asosi saqlanib qoldi. Kit muyidan yasalgan korset belni ingichka (40 sm gacha) qilardi. Old bulagi pastining uchburchak shakli bu tasavvo'ni yanada ko'chaytirgandi. Ko'ylak silueta ikkita chuzilgan uchburchaksimon edi, unga xur'aygan, ovalsimon, kesimlar va kantlar bilan bezatilgan yenglar qarama-qarshilik kor'satardi. Kesimlarning orasidan turli volanlar bilan bezalgan ichki ko'ylak kurinardi. Olib kuyiladigan shleyfli yubka bo'lgandi. Shleyfli "manto" yonlaridan va orqasidan burmalanardi va max-sus to'g'nog'ich "*agraf*" bilan yubkaga biriktirilardi.

Dekolte keng bo'lib, chuqur emas edi va to'r bilan bezalgan oq mato tasma bilan bezatilardi. Undan tashkari, ko'ylak erkaklarniki singari lentalar tutami bilan bezalgandi. Manto va lif bir xil gazmoldan qilinardi. Mantoli ko'ylakni faqat aristokratlar kiyishardi.

60-yillarda erkaklar kiyimida jjustokor paydo bo'lganda, ayollar kiyimida xam xarbiy kiyimga intilish paydo bo'ldi. Ayollarning ov uchun kostyumi erkaklar kostyumiga o'xshagandi.

prichyoskalar yengil va erkin bo'ldi. Boshga to'r ro'molni tashlab qo'yishardi.

Beshinchi davr (1670—1680 yy.)

Asrning 70-yillarida ayollar kostyumida bir necha uzga-rishlar kiritilgandi. Ko'ylakning lifi uzaydi va beli tabiiy xoliga keldi, lif undan xam toraygandi. Bu tasavvurga korset yordamida erishilardi (korset avvalgi-day ko'krakni sikib yassi kilmasdan, ko'krak shaklini kor'satardi). Tashki kurinishning nozikligiga va go'zalligiga maxsus e'tibor berardilar. Sun'iy shakllarga asoslangan kostyum oddiylikka va tabiiylikka erishishga intilgandi. Shu davrda erishilgan sifat - orastalik - frantsuz ayollarining millim go'zallik tushunchasi bo'ldi va kelgusi rivojga asos bo'lib, Frantsiyaning kelajak modalarining qonundori bo'lishiga sabab bo'ldi. 70-yillarda kostyumning faslga mosligiga ko'p axamiyat beriladigan bo'ldi. Bu, asosan, matolar va ranglarda o'z aksini to'di.

Bezak sifatida turlar keng tarqalgandi. U bilan boshni, ustki va ichki kiyimni bezatishardi.

Shu davrda qalbaki yubka - peshband modaga kirgandi. Bu ser bezatilgan, ustki yubkaga tugnogich bilan qadab quyiladigan, olib kuyiladigan old bo'lak edi.

Katta keng plashch o'rniga ayollar "kssh"ni (pelerinaning bir turi) kiyishgan; unda sharfga o'xshagan kapyushon bo'lib, uning uchi oldida bog'lanardi.

70-yillarning o'rtasida mo'yna yoki matodan qilingan yopinchiq "alantin"ni kiyishgan.

50—60 yillarda xar xil rangli va 70-yillarda tana rangidagi paypoqlarni kiyishgan.

Oyoq kiyimi baland poshnali tuflilar edi. Ular lenta va kashta bilan bezatilgandi.

Sochlarini jingalak qilib, turli prichyoskalar qilishardi.

Oltinchi davr (1680—1690 yy.)

Asr oxirida ayollar kiyimi asta-sekin odmiligini yo'qotadi. Avval siluetda o'zgarishlar kam edi. Ammo 90-yillarda yubkaning shakli maxsus tikilgan yasalgan yosti

qcha yordamida keskin o'zgargandi. Yubka orqasida burmalangani uchun bu davrda yon silueti asosiy bo'lgandi (73-a, 76-rasmlar).



76-rasm. XVII asr ayol libosi. “A-li fontaj coch turmagi”

Oldiga tikilgan ulog'i torayib, lifning yon tomonlari qaytarilgandi. Dekolte taxlama to'r va qimmatbaho toshlar tikilgan tasma bilan bezatilardi. Ustki yubkasi endi ko'ndalang taxlama qilini, aplikatsiya, kashta, qalbaki toshlar va popuklar bilan bezatilardi. Kashta ko'ndalang joylashgani sababidan, kostyumning mutanosibliklarini o'zgartirgandi. Yangi kostyum xushbichimligini va nozikligini yo'qotdi, ser bezaklari esa ratsional - konstruktiv asosning yo'qolishiga sabab bo'lgandi. Shu asosda yangi badiiy uslubga o'tish yo'nalishlari paydo bo'ldi.

Palantin va galstuk kabi modali buyumlar qatoridan peshbandlar ham o'rin oldi. Ular kalta bo'lib, to'r, cho'ntaklar bilan bezatilardi.

Asrning oxirgi choragida yo'l-yo'l matolar boshqa matolarga qaraganda keng tarqalgandi. Davrning yangiligi katak-katak matolar edi. Matoning ranglari yorqin bo'lib, qarama-qarshi rang birikmalari kop ko'llangandi. Ammo asr oxirida nozik ranglarga e'tibor kopaya boshladi.

Pprichyoskalar murakkablashib, o'zgarib turardi. Prichyoskalar baland bo'lib, tasma va to'r bilan bezatilardi.

Bosh kiyimi to'r, tasma bilan bezatilgan qattiq, kichkina shapka edi.

Asr oxirida keng tarqalgan aksessuarlar: yelpig'ichlar, qo'l oynachalari, yasama xollar uchun qutichalar, soyabonlar, qo'lqoplar edi.

Ispaniya kostyumi

XVII asrda Frantsiya qatorida Ispaniya xam mutlaqlik tayanchi bo'lgandi. Ammo bu davrda Ispaniya chuqur siyosiy va iqtisodiy inqirozda edi. Kulolchilik bilan shug'ullangan mavrlarning haydalishi hunarmandchilikning rivojiga putur yetkazib, iqtisodning og'ir ahvolga tushishiga sabab bo'lgandi.

Ispan qirollarining iste'dodsiz siyosati, muvaffaqiyatsiz urushlari, katolik cherkovining kuchli ta'siri Ispan mutlakligini o'ta reaksion qilgandi.

Ammo XVII asr adabiyot va san'at sohasida Ispaniya uchun haqiqatdan "oltin" asr bo'lgandi. Jahon madaniyati tarixiga taniqli ijodkorlar: Lo'e de Vega, Kal de-ron, Tirso de Molina, Servantes, Murilo , Surbaran, Velaskeslar ko'shildi. San'atda insonparvarlik g'oyalari o'z aksini topdi. Bu buyuk milliy madaniy an'analar estetik rivojga asos bo'lib, XVII asr Ispan kostyumiga o'ziga xos xususiyatlar kiritdi. Umum Ovrupo modalari Ispan kostyumiga uncha ta'sir etmagandi, ammo frantsuz modasini ular o'z estetik didlariga moslashtirishgandi. Ispanlarning sipoligi kostyumda o'z aksini to'gan-di. Katolik cherkovining ta'siri ham Ispan kostyumida sezilardi.

Modalar zulmat bosgan saroyda yaratilardi. XVII asr boshida Ispan modalari XVI asr kostyumiga o'xshash noqulay, xashamatli bo'lib, gavdaning tabiiy mutanosibliklarini butunlay yashirardi. Faqat XVII asrning ikkinchi yarmidagina Ispaniyaga frantsuz modalarining ta'siri sezila boshladi: ayollar dekolte va uzun sochli prichyoskalariga o'tishdi. Ammo, faqat 1706 yildan keyin, Ispaniya Burbonlarning xokimiyatiga o'tgandagina, Ispaniya modasi umumiy Ovrupo modasi bilan tamomila uyg'unlashdi.



77-rasm. XVII asr oyoq kiyimlari

XVII asrning birinchi yarmida erkaklar xurpaygan, uzunligi tizzagacha bo'lgan ishton; koletga o'xshash "*xubbon*" (kopincha uzun osilingan yengli va yelkasida valikli) va ohorlangan yoqa frezani kiyishgandi. Ustki kiyim plashch edi. Sochlarini qisqa kirqishardi, Frantsiyadan kelgan pariklarni esa faqat oliftalar kiyishardi. Bel kiyimi ishton "*kalses*" edi. Uning bichimi erkakning ijtimoiy holini ko'rsatardi.

Frantsuzlar singari bo'ksasida valiklar qilishmasdi. Kalses tizzasini berkitib, yonida bog'ich bilan bog'lanardi, yon choki kop tugmalar bilan bezatilardi.

Paypoqlari oddiy edi. Oyoq kiyimlari charmli tufli va baland ko'njli tor etik edi. Duxobadan tikilgan tuflilar ko'pincha oltin yoki kumush to'qa bilan bezatilgandi (77-rasm).

Bosh kiyimlar: "*baret*", soyabonli shlyapa "*sombre-ro*" va tepasi baland "tok"simon shlyapalar.

Qo'lqopni faqat aristokratlar kiyishgandi.

Asrning birinchi yarmida ayollar kostyumi XVI asr kostyumi bilan koproq bog'langandi. Modada o'sha-o'sha karkasli qattiq yubkalar, berk ko'ylaklar urfda edi. Yubka uzunligi yergacha tegar edi, chunki avvalgiday yubkaning ostidan oyoq kiyimning uchi ham ko'rinmasligi kerak edi. Lif tor bo'lib, gavdaning tabiiy shakllarini kisib berkitardi va berk yoqali edi. Ayollar kiyimida ranglar yorqinroq bo'lgan.

Asrning o'rtalarida erkaklar kostyumining shakli bir oz oddiylashtirildi va ayrim oliftalar frantsuz "*mushketyor*" kostyumini kiyishadigan bo'ldi. Frezaning o'rniga kichkina qaytarma yoqa urf bo'lgandi. Kolet uzayib erkinroq bo'ldi, yenglari esa, kopincha, kaytarma bo'lgandi. yelkasini kengroq qilib ko'rsatish uchun yengining ustidan yelkasiga valiklar tikilardi. yenglari deyarli keng bo'lib, kesimlar bilan bezatilgan, uzun va manjetli edi. Ustki kiyimi — plashch ancha uzaygandi. Ishtonlar kalses va yumshoq, deyarli tor, tizzasini pastidan bant bilan bog'langan pantolonlar bo'lgandi.

Sochlari uzunroq bo'lsa xam yuzidan pastga tushmagandi.

Kostyumda, albatta, qo'lqop bo'lishi shart edi, ularni odatda qo'lda ushlashardi yoki faqat chap qo'lga kiyishardi.

Shlyapalar, ko'pincha, dumaloq shaklli bo'lib, pat bilan bezatilardi.

Kiyimlar, asosan, qora rangda bo'lganligidan qat'iy nazar, dvoryanlarning kostyumi juda qimmat va hashamatli edi, chunki bitta kostyumda har xil fakturalar qo'llanardi: duxoba, ipak, jun.

Oliy zot ayollarining kostyumi avvalgiday noqulay, beso'naqay edi. Bashang ko'ylakning yubkasi yon tomonga juda cho'zilgan karkasga tortilardi. Lif juda tor bo'lib, orasiga paxta solingani uchun gavdaning tabiiy shakllari berkitilardi. Ba'zan, korsetni ustidan beli siqilgan baskali jaket kiyishgan. Uning yenglari har xil bo'lsa ham, yelka tomoni doimo tor bo'lardi. Odatda, ustki ko'ylakning yengini yelkasidan pastroq kesim qilib qaytarib qo'yishardi, kesimning orasida ichki ko'ylakning yengi ko'rinardi. Dekol teni doimo berkitishardi, chunki etiket (odob) bo'yicha oliy zot ayollarga ochiq ko'ylak kiyish va uzun sochlarini yoyib yurish man' etilgandi. Baska va ko'ylakning etaklariga kashtalangan qimmatbaxo matodan hoshiya qilishardi. Ko'ylaklarning rangi qizil, yashil, qora va kul rang bo'lgan.

Tantanali prichyoskalar past va keng yubkaning siluetiga o'xshash bo'lgandi. Sochlarini patlar, gullar, tasmalar bilan bezashgan. Ko'chaga chiqqanda ayollar boshiga va yelkasiga yengil, ba'zan to'rli "*mantil ya*"ni tashlab yurishardi.

Kostyumning ko'shimchalari: dastro'mol, yelpig'ich va tasbeh bo'lgan.

Oddiy tabaqali ayollar yorqin rangli yubka, kofta va shnurlangan rangli korsaj kiyishgan. prichyoskalari ham oddiy bo'lgan, to'g'ri farqqa taralgan sochlar o'rildirdi va orqasida savatsimon turmaklanardi. Ularda ham mantilya va yelpig'ich kostyum ko'shimchasi bo'lgan.

5.Rokoko uslubidagi Yevropa kostyumi. Materiallar, ranglari va naqshlari.Erkaklar va ayollar kostyumining konstruktiv va dekorativ yechimi. Modani tarqalishi.

Rokoko usulidagi Ovroq davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

XVIII asr birinchi yarmi kostyumi

XVIII asr — feodalizm tuzumining so'nggi bosqichi va burjua inqiloblari davri edi.

Bu davrga kelib, burjua madaniyatining asoslari paydo bo'la boshlaydi. Bu asoslar (Didro, Vol ter, Russo kabi) ma'rifatchilar mafkurasida o'z ifodasini to'padi. So'zsiz, har bir davlat o'zining tarixiy sharoiti va milliy xususiyatlariga ko'ra taraqqiyot yo'liga egadir.

XVIII asrda insonparvar madaniyat birligi to'g'risida fikr tug'ilgandi. Bu milliy intellegentsiyaning paydo bo'lishi va ular orasidagi aloqalarning kengayishi bilan uzviy bog'lik edi. Buning natijasida mamlakatlararo madaniy aloqalar kengaydi. Iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xosligi, texnik taraqqiyot va ma'rifatparvarlik Frantsiyaning burjua inqilobiga olib keldi. Frantsuz inkilobi feodal tuzumini batamom yo'qotib, kap'italistik jamiyatni barpo etdi. Frantsiya san'ati barcha Ovroq davlatlariga namuna bo'ldi, frantsuz tili xalqaro til bo'lib qoldi, frantsuz modasi barcha Ovroq mamlakatlariga tarqalib, umumiy Ovroq modasiga aylandi. Angliyaning ta'siri falsafada, iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalarda hamda san'atda sezilardi. Frantsiya orqali ingliz kostyumi bir oz o'zgarib, "frantsuzlashib" barcha Ovroq mamlakatlariga tarqalgandi.

XVIII asr birinchi yarmi kostyumi

XVIII asr kostyumlarining rivojlanishi bir necha bosqichlardan iboratdir.

Asrning birinchi yarmida badiiy yo'nalish rokokko uslubida o'z aksini topdi. Agar barokko mutlaqlik taraqqiy topgan paytda aristokratlarning didini aks ettirgan bo'lsa, rokokko — mutlaqlik inqirozga uchragan davrni aks ettiradi. Rokokko barokko badiiy uslubini nixoyasiga yetkazgandi.

Rokokko — kichkina bino va shahar atrofidagi saroylar, qishloq va kichkina dekorativ shakllarning uslubi. Bu uslub barokkoga o'xshasa ham, uning o'ndan bir kuchiga ega edi. Nozik dekor, egri chiziqlar, ishqiylik — ushbu xususiyatlar rokokko uslubining tavsiflaridir. Nozik interyerni yengil va nafis ishlangan mebel, chinni buyumlar (lyustralar, vazalar, haykalchalar) bezatardi. Mebel esa odamlarning didiga moslangandi.

XVIII asr rassomlari A.Vatto, Bushe, Sharden, Levitskiy, Roqotov, Geynsboro va boshqalar odam siymosini va libosini xayron qolarli darajadagi go'zal nozikligini o'tkir did bilan tasvirlashgan. A.Vattoning tasviriy san'ati tufayli biz yangi uslubning go'zal va yetuk, to'liq manzaralari bilan tanishishga muyassar bo'ldik.

Rokoko usulidagi Ovro'pa erkaklar kostyumi

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi XVIII asrda bir qator o'zgarish va evolyutsiyadan o'tib, asrning oxirida uning shakli va rangi butunlay o'zgarib, birinchilikni ayollar modasiga berishgandi.

Erkaklar kostyumi ichki va ustki kiyimlardan iborat bo'lgan. Ko'krak qirqimi to'rtli jabo bilan bezatilgan, to'rtli manjetli oyoq ich ko'ylak kiyimning majburiy qismi edi. Ko'ylakning ustidan kamzol "*vesta*"ni va uning ustidan kaftan "*abi*"ni kiyishgan. Kamzol yorqin shoyi matodan tikilib, kashta bilan bezatilardi. Kaftan baxmal yoki qalin shoyi matodan tikilib, gavdaga beligacha yopishib turardi. Etagiga esa yelimlangan qalin mato yoki kitning mo'yini tikishardi. Kaftan va kamzol yoqasiz bo'lgan. Kaftanning yengi keng, uzunligi tirsagigacha, boshqa rangli matodan qilingan manjetli edi. Uen cho'ntaklari ko'pqoqli bo'lgan va belidan pastroqqa joylangandi. Bort va manjetlari zar yoki kumush bilan kashtalangan va metall tugmalar bilan bezatilgan. Odatda, kaftan tugmalanmasdi. Galstuk qizil yoki tor tasmadan qilinib, bantga bog'lanardi.

Tor pantolon "*kyo'lot*"lar tizzadan pastroq bo'lib, pochasi tugmalanardi.

Dvoryanlar, odatda, oq paypoq, burjuaziya — rangli paypoqni xush ko'rishgan. Sovuq paytda Angliyadan kelgan "*getr*"larni kiyishgan.

Oyoq kiyimlari past poshnali metall to'qa bilan bezatilgan bashmoqlar bo'lgan.

Asr boshida (1715 yilgacha) modada XVII asrning pariklari uchraydi. Keyin pariklar kichkina bo'ldi. Soch-larini jingalak kilishgan yoki orqaga silliq qilib tarab, qora lenta bilan bog'lab, uchini qora xaltachaga solib qo'yishgan (upa kaftanni bulg'amasligi uchun). Bosh kiyimi pat bilan bezalgan uch kirrali shlyapa edi.

Kostyumning qo'shimchalari: shpaga, qo'lqop tamaki quti va muftalar bo'lgan.

Rokokko usulidagi Ovro'pa ayollar kostyumi

Ayollar kostyumi. XVIII asrning birinchi yarmida ayollar kostyumi juda go'zal, nafis, och rangli bo'lgan. Ular nozik chinni haykalchalarga o'xshagan (78-rasm).



78-rasm. Fransua Bushe. Madam Pompadur. 1759 yil.

Tor yelka, juda ingichka bel, yumaloq bo'ksa chizig'i, kichkina pariklar gavdaga noziklik baxsh etgan. Korset va ichki yubkaning ustidan ichki ko'ylak "*frepon*" va ustki ko'ylak "*modest*" kiyilgan. Ichki yubkalari ohorlanardi, ba'zan qavilardi. Tantanali marosim liboslarida karkasi kit mo'yidan qilingan ichki yubkalar kiyishgan. Saroy ko'ylaklari kopincha shleyfli bo'lgan. Ammo yubka karkasga tortilgani uchun shleyfi mato parchasidan qilinib, yelkasiga yoki beliga qistirilardi. Ichki ko'ylak — fre'onning lifi korset yordamida tor bo'lgan, ustki ko'ylak — modestning lifi oldi ochiq bo'lib, lenta yoki shnurovka bilan biriktirilardi. Ustki ko'ylakning yubkasini oldi ochiq va chegarasi ser burmalangan oborka bilan bezatilardi. Ichki yubkaning etagi esa ko'ndalang yo'nalishda bezatilardi (to'r, kashta, ryush, oborra va volanlar bilan). Keng tarqalgan yoqa o'mizi kare edi. Uni kopincha to'r yoki yengil matodan qilingan volan bilan bezashardi. yenglari tor bo'lib, uzunligi tirsagigacha edi. Uchi to'r yoki yengil matodan qilingan volan bilan bezatilardi.

Bo'yinlariga yengil shoyi ro'mol, mato yoki to'rdan ryush yoki duxoba tasmani bog'lashgan.

Ustki kiyim "*kontush*" bo'lgan (79-rasm). Kontush yelkasidan kengaygan trapetsiyasimon siluetli, beli qirqilmagan va belgilanmagan, orqasi chuqur taxlamli (Vatto taxlamlari) ichki yubka yoki karkasning ustidan kiyilgan ko'ylak edi. Uning oldi ochiq bo'lib, tasmalar yordamida biriktirilgan. Ba'zan, kontushni oldini kesmasdan boshdan kiyishgandi. Bu ko'ylaklar shoyi, atlas, yengil duxobadan tikilgan. Ranglari och va yorqin bo'lgan. Asr o'rtalarida kontush kalta jaketchaga aylangan. Qulay bo'lgani uchun uni uyda kiyishgan, ko'chaga esa endi uni faqat oddiy aholi kiygan.

Bu davrning barcha ko'ylaklari bantlar, to'rlar, guldastalar va boy kashtalar bilan bezatilgan.

Prichyoskalari kichkina, jingalaklari tepaga ko'tarilgan bo'lib, lentalar, patlar va marvaridlar bilan bezatilgandi. Bu davrda bosh kiyim kamdan-kam kiyishgan. Uyda to'rlar, lentalar va gullar bilan bezalgan chepetslarni kiyishgan, ko'chaga chiqqanda boshga yengil yopinchoq, sayohatga borganda erkaklarning uch qirralli shlyapasini kiyishgan.

Bu davrning barcha ko'ylaklari bantlar, to'rlar, guldastalar va boy kashtalar bilan bezatilgan.

Prichyoskalari kichkina, jingalaklari tepaga ko'tarilgan bo'lib, lentalar, patlar va marvaridlar bilan bezatilgandi. Bu davrda bosh kiyim kamdan-kam kiyishgan. Uyda to'rlar, lentalar va gullar bilan bezalgan chepetslarni kiyishgan, ko'chaga chiqqanda boshga yengil yopinchoq, sayohatga borganda erkaklarning uch qirrali shlyapasini kiyishgan.



79-rasm. Antuan Vatto. Ayol portreti. Vatto nomidagi tahlamli ko'ylak.

Paypoqlari oq va rangli bo'lgan. Oyoq kiyimlari baland poshnali, ochiq, atlas yoki yuqa charmdan tikilgan cham tuflilar edi.

Bu davrda marjonlar, bilakuzuklar, uzuklar, nozik zanjirli soatlar, guldastalar (kopincha chinnidan), tasvirlar chizilgan yelpig'ichlar tutishgan

6. XIX- asr Yevropa kostyumi. Klassizm uslubidagi kostyum. Kiyimning asosiy shakllari va assortimenti. Ampir uslubi. 1830-1860 yillardagi modaning keskin o'zgarishi.

XIX asr Ovropa davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

XIX asr Ovrupo kostyumi tarixi 1789 yildan, ya'ni frantsuz burjua inqilobidan boshlanadi, deb hisoblansa xato bo'lmaydi. Asr oxirida kostyumni shakllantirish asoslari yaratilgandi.

Frantsuz burjua inqilobi feodalizmni ag'darib tashlab, kapitalizmning rivojlanishiga asos solgandi. Yangi davr jamiyatning qizg'in rivojlanishi, iqtisodining yuksalishi, ilmiy kashfiyotlar va keskin ijtimoiy ziddiyatlari bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi, ichki ziddiyatlar va sinfiy to'qnashuvlar madaniyatning qarama-qarshiligini ta'riflaydi. Jamiyatning tez va notekis rivojlanishi turli uslubiy yo'nalishlarni (kopincha eklektika) vujudga keltirdi va aholi barcha tabaqalarining fikr va didini aks ettiradigan yangi badiiy vositalarni izlashga yo'naltirdi.

Frantsuz burjua inqilobi rasmiy jihatdan sinfiy tengsizlikka kostyumda ham barham bergandi. Saroy modasidan burjuaziya modasi ustunlik qilardi. Agar oldingi asrlardagi kostyum bekorchilik va behudalikni ko'rsatsa, endi kostyum yangi davr odamining ishchanligini, hayotiy kuchini ifodalardi. Erkaklar kostyumi endi amaliy kostyumga aylandi.

XIX asrda umumiy Ovrupo kostyumini yaratish jarayoni nihoyasiga yetgandi. Ammo turli mamlakatlarda yoki ijtimoiy tabaqalarda milliy va mahalliy belgilari bo'lgan.

Jamiyatda modaning o'rne ham o'zgargandi. Uning ijtimoiy vazifalari murakkabroq bo'lib, moda keng tarqaladigan bo'ldi. Moda endi shahar aholisi uchun did rahbari va did tarbiyachisi bo'lib qolgandi.

Moda endi oldingi davrlarga nisbatan tez-tez o'zgaradigan bo'ldi. Ommabop iste'mol mollari (ayniqsa, kostyum buyumlari) paydo bo'lishi va ular sonining kopayishi modani demokratikligini nomigagina ifodalardi. Modali liboslarning borligi, garderobning miqdori endi ijtimoiy tabaqani belgilardi.

XIX asr modasida asosiy o'rinni endi ayollar kostyumi egallardi. Erkaklar kostyumi esa faqat mato sifati bilan, ichki kiyimning oppoqligi bilan farqlanardi. Endi kiyimning yorqinligi va bezaklarning koplighi bilan ajralib turishi erkaklar uchun kelishmagan qiliq deb hisoblanardi. Ayollarning kiyimi esa erkaklar uchun "vizit kartochkasi" bo'lib qoldi.

Agar XIX asr davomida erkaklar kostyumining faqat detallari o'zgarsa, ayollarniki esa san'atning barcha uslubiy yo'nalishlariga bo'ysunib, keskin o'zgargandi.

XIX asr ayollar modasini yaratishda birinchilik Frantsiyada qolgandi, erkaklarnikida esa - Angliya edi.

XIX asr o'z zamondoshining didi, tashqi ko'rinishi to'g'risida son-sanoqsiz ma'lumot qoldirgan. Badiiy adabiyot, tasviriy san'at, son-sanoqsiz moda jurnallari, fotosuratlar, sanoat ko'rgazmalarining hisobotlari va sharxlari, olimlarning modaga bag'ishlangan asarlari - bular barchasi XIX asr odamining hayotini va kostyumini aks ettirgan.

XIX asr Ovrova *Birinchi davr (1800—1815 yy.)* erkaklar va ayollar kostyumi ***Birinchi davr (1800—1815 yy.)***

1804 yilda yosh konsul Napoleon o'zini imperator va Frantsiyani imperiya, deb e'lon qildi. Bu davr san'atida ampir (imperia, fr. — imperiya) badiiy uslubi barpo etilgandi. Endi san'at yangi tartibga qaram qilib qo'yildi. Napoleon o'zini san'atning qadriga yetuvchi shaxs deb hisoblardi, u san'atni o'z harbiy yutuqlari va hokimligini maqtash uchun ishlatgandi. Napoleon imperiya inqilobning yutuqlarini davom ettiradi deb e'lon qildi, harbiy diktaturasi klassik meros asosida yaratilgandi. Napoleon saroy me'morlari Pers ye va Fontenga Qadimiy Misr va Qadimiy Rim badiiy uslublariga asoslangan yangi ampir uslubini yaratish vazifasini topshirgandi. Me'morchilik va interyerning tashqi ko'rinishi klassitsizmni eslatardi, chunki ampir shakllari antik san'atga asoslangandi. Ammo rassomlar va me'morlarni endi grek ibodatxonalarining sipolighi, oddiylighi va nozikligi ilhomlantirmasdi. Rim me'morchiligining og'ir va hashamatli shakllari e'tiborda edi.

Qadimiy Misr san'ati an'analaridan tekisliklarning og'irlighi, yaxlitlikning bo'linmasligi; Rimdan esa naqsh, harbiy belgilar olingandi, chunki bu ramzlar davlat buyukligini va harbiy kuchlarni, g'alabalarni aks ettirardi.

Napoleon frantsuz to'qimachilik sanoatini rivojlantirish maqsadida atlas va baxmalni modaga kirgizadi. U armiyada mosh rang, sudyalar uchun — qora, sud maslahatchilariga — qizil va barcha aholi tabaqalariga oq rang libos kiyishni urf etadi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar ichki ko'ylagi baland tik yoqali oq ko'ylak bo'lgan. Ustidan ola-bula nimcha, ba'zan, baravar bir nechtasini kiyishgan.

Galstuk (halstuch, nem. — bo'yin ro'moli) sharfsimon bo'lib, bo'yinga o'ralib, oldida har xil usulda bog'langandi: katta bant yoki tugun qilib, uchlari esa nimchaga birkitilardi.

Asr boshlarida erkaklar uzunligi etigigacha bo'lgan pantolon kiyishgan. 1818 yilga kelib, pantolon to'piqqacha uzayib, modaga butunlay kirdi. pantolonlar "*od-tyajka*" (shimni tutib turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma) yordamida mahkamlanar edi, shim pochasi esa "*shtripka*" lar (pochatasma) qilinardi.

Eng keng tarqalgan ustki kiyim frak bo'lgan. Uning beli sal balandroq ko'tarilib, yeng qiyamasi keng va uchida voronkasimon manjet bo'lgan. Ko'pincha, yoqasi boshqa rangli duxobadan qilingandi. Fraklar, asosan, sidirg'a matodan tikilardi, ammo naqshli (yo'l-yo'l, chekma gulli va b.) ham uchrardi. Tugmalari kumush, chinni va ba'zan, qimmatbaho toshlardan bo'lgan (80-rasm).

Ustki kiyimlar va pantolonlar xar xil rangli edi; shu davr qoidalariga binoan, pantolon rangi ochroq bo'lishi kerak edi.



80-rasm. Sayohat uchun liboslar. Iyun 1808 yil.

Ot minganda avvalgiday redingot kiyishgan. Keyinroq u o'zgarib kundalik kiyim "*syurtuk*" ga aylandi. Oldin syurtukni (surtout, fr. — ustidan kiyiladigan) frak va mundir ustidan kiyishgan. Syurtuk hozirgi zamon paltosi vazifasini bajarardi. Asta-sekin uni frak ustidan kiymasdan, frak o'rniga kiyiladigan bo'ldi. Syurtuk belga yopishib turgan, uzunligi tizzagacha bo'lgan, yengining shakli fraknikiga o'xshash edi. Asrning 20-yillarida syurtuk ko'chada kiyiladigan kiyimga aylandi.

Frantsuz inqilobi davrida paydo bo'lgan kalta sochli prichyoska XIX asr yutug'i bo'lib qolgandi. Erkaklar prichyoskasi o'zgarib turgan bo'lsa ham, endi uzun pariklarga qaytish yo'q edi. Faqat ziyolilarning alohida guruxlari — rassomlar, yozuvchilar — ba'zan uzun sochli prichyoskalar qilishgan yoki pariklar kiyishgandi.

Ko'pincha sochlarini orqasidan kalta qirgishardi, oldi esa uzunroq qoldirilib ozgina jingalak qilinardi. Harbiylarning orasida "*bakenbard*" qo'yish odatga kirgandi (bakenbardlar frantsuz inqilobidan keyin paydo bo'lgandi).

Oyoq kiyimlari baland kaytarma qo'njli, qora, sariq rangli etik va balga oid ochiq tufllilar bo'lgan.

Dvoryanlarning yashash tarzi aslzodalikni belgilaydigan aristokratik udumlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgandi. Burjuaziya ham o'z kostyumini va yashash tarzini "aristokratlashtirishga" intilardi: bular interyerda, tantanali va kundalik kiyimlarda yaqqol sezilardi. Kostyumda tantanali abining bichimi kundalik frakdan orqasidagi chuqur taxlamlar va tik yoqa bilan farqlanardi. Ular uzun pantolonlar bilan emas, faqat kyoplotlar, oq paypoqlar va yengil poshnasiz tufllilar bilan farqlanardi.



81-rasm. "Parizyen" kostyumi. 1810 yil.

Harbiy qo'mondonlik va ofitserlar tarkibi aristokratlar orasida va saroyda asosiy o'rinni egallardi. Shuning uchun ularning formasi uch turga bo'linardi: dala, tantana va ballarga oid edi. Birinchisi odmi va soddaroq bo'lgan; ikkinchisi esa tilla zarli kashta bilan tikilgan och rangli matodan edi; uchinchi esa xuddi tantanalik kiyimga o'xshash bo'lgan, unda qurollar va shpagalar bo'lmas edi, ularni vestibulda qoldirib kirishardi.

Ishchilar va mayda burjuaziya kiyimi ko'ylak, inqilob karman oilasiga o'xshagan kurtka, uzun yoki kalta shimlar, qo'pol oyoq kiyim va "*fetr*" (namat) shlyapa bo'lgandi.

Ayollar kostyumi. Ampir uslubining ta'siri ayollar kiyimida tez sezildi. Bu Frantsiyada imperator saroyi va yangi aslzodalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Ular uchun Napoleon turli Ovrupo mamlakatlarining qirol saroylari odatlariga binoan saroy etiketini yaratgan edi. Undan tashqari, qimmatbaho matolar ishlab chiqarishning tiklanishi ayollar kostyumi plastik yechimining o'zgarishida ko'rinardi. Kostyum og'irlashib, turli dekorativ elementlari ko'paydi, ammo oldingi mutanosibliklar birinchi davr davomida saqlanib qolgan edi. Ko'ylaklarning bel chizig'i avvalgiday ko'krakdan pastda edi, to'g'ri yubkasi esa 1810 yilgacha shleyfli bo'lgan. Balga oid ko'ylaklarning dekoltesi chuqur bo'lib, shleyfi olib qo'yiladigan edi. 1810 yildan keyin yubka keng emas, qo'ng'iroqsimon shaklda bo'lib, etagi ser bezatilardi (80, 81-rasmlar).

Asr boshida, asosan, oq ko'ylak kiyishgan, keyinchalik sidirg'a rangli ko'ylaklar ham kiyiladigan bo'ldi. Tantanali ko'ylaklarda antik naqshli kashta qilingandi. Ko'ylak matosi mo'ljalga mos bo'lardi: yozgi ko'ylaklar och rangli yengil matolardan (doka, chit va boshqalar) qilinardi; tantanali ko'ylaklar atlas, tafta va duxobadan; kundalik ko'ylaklar esa yengil jun matodan edi. Ayni shu davrda Frantsiyada quyidagi maqol tug'ilgandi: "Chiroyli bo'lish uchun azob chekish kerak".

Ustki kiyimlari ko'p emas edi — "*spenser*" kurtkachasi va "*redingot*" edi. Ammo ayollar garderobida ko'p turli yopinchoqlar bo'lgan. Ko'pincha, yengil matodan qilingan uzun uchli "*kanzapi*" yelkaga tashlab, orqasida uchlarini bog'lashardi. Ayollar Napoleonning Hindistonga harbiy yurishlaridan olib kelingan kashemir shollarga o'ralib yurishardi. Shollar juda qimmat turardi va ayollar garderobining asosi bo'lib qolgandi.

Sholini drapirovka qilish mahorati ayniqsa qadrlanardi. Shu davr ayollari to'g'risida "yaxshi kiyingan" deyishmasdan, "yaxshi drapirovkalan" deyishardi.

Bu davrda modaga rus po'stini (shuba) kirgandi. Uy kiyimi sifatida to'rli "*pen yuar*" (peigner, fr. — sochini tarash) kirgandi.



82-rasm. Ko'chalik liboslar. 1810-1811 yillar.

Bir kun mobaynida kiyimni bir necha marotaba almashtirish shart edi. Misol uchun, olifta ayolning 365 tadan shlyapasi va oyoq kiyimi, 12 ta ko'ylagi bo'lishi lozim edi.

Ayollar fasonlarning xilma-xilligiga intilishardi, ammo silueti bir xil - antik uslubiga o'xshagan edi. Qomatni shu siluetga moslashtirish uchun korsetga muhtojlik tug'ilgandi. Korsetlar 1809 yilda amalga kirdi.

Fasonlarning xilma-xilligiga yoqalarning turli-tumanligi bilan, bo'yin va ko'krakni berkitadigan kichkina "pelerina"ning paydo bo'lishi bilan, pirpiraklar bilan bezatilgan dekoltelar bilan erishilardi. Lekin ikkinchi davr boshlanishiga qadar ko'krak va bo'yin ochiqligi urfda edi. yenglari, ko'pincha, "fonarcha" shaklida yoki keng, qiyamasi burmalangan va yaltiroq yoki gavhar to'qa bilan kistirilgandi. Prichyoskalar kiyimning detallariga o'xshash tez-tez o'zgarardi. Har xil jingalaklar yordamida yunon "tugu-ni"simon prichyoskalar qilingandi. Bosh kiyimlar xam tez-tez o'zgargan. Asosiy bosh kiyim "*kibitka*" bo'lgan. 1812-1814 yillarda harbiy "*kiver*" ga o'xshagan bosh kiyimni kiyishgan. Ballarga esa dokadan salla kiyishgan.

Oyoq kiyimi yengil , poshnasiz, uchi tor bo'lgan. Uni tasma yordamida chalishtirib Oyoqqa bog'lashardi.

Kiyimga qo'shimcha qilib uzun qo'lqop, yelpig'ich, xaltacha va kichkina soyabon tutishgan.

Asr boshida ayollar kostyumining juda ko'p qimmatbaho bezaklari bo'lgan: barcha barmoqlariga uzuk, oltin zanjir, bilakuzuk, marvarid marjon, tillaqosh, turli bezaklari bo'lgan to'qalar taqishgan. 1810 yilda qimmatbaho bezaklar modadan vaktincha chikib, o'rniga gullar, pat va gulchambarlar, tasmalar va boshqa bezaklar keng tarqalgandi.

Oddiy aholining kiyimi oddiyroq bo'lsada, silueti saqlangandi.

Birinchi bosqich oxirlarida ayollar kostyumiga xos bo'lgan kompozitsion oddiylik va yaxlitlik asta-sekin yo'qolib bordi. Asr boshidagi konstruktiv chiziqlar saqlangan holda plastik mayin matolar o'rniga zich to'qilgan og'ir matolar keldi. Ko'ylakning uzunligi

kaltaroq bo'lib, uni ko'pincha qalin astarli qilib, bezaklar bilan og'irlashtirib yuborishgan edi (83-rasm).



90-rasm. "Parizyen" kostyumi.

Frantsuz ayollariga tantanali ko'ylaklar yangi tashqi ko'rinish baxsh etardi. Ular endi ko'ylaklarni og'ir shoyi, atlas va duxobadan tikishar edi. Endi orqa dekolteni oldingiga nisbatan chuqurroq qilishardi va dekolteni oxorlangan to'rdan qilingan burma hoshiya bilan bezatishardi, chetlariga esa marvarid munchoqlar tikishardi.

Avval shleyf yubka bilan yaxlit bichilgan bo'lsa, endi u kiyimning maxsusismi bo'lib qoldi. Uni faqat malikalar kiyishi mumkin edi.

Saroy va tantanalarda kiyiladigan ayollar kostyumi asr boshidagi o'z plastik badiiy siymosini yo'qotdi. Mato va shakl birligining buzilishi natijasida shollar va kostyum organik birligini yo'qotgandi.

Klassitsizm uslubi asta-sekin yo'qolgandi.

XIX asr Ovro'pa *Ikkinchi davr* (1815—1830 yy.)erkaklar va ayollar kostyumi

***Ikkinchi davr* (1815—1830 yy.)**

Napoleon imperiyasi barbod bo'lishi bilan Frantsiyada monarxiya tiklandi. Bu davr Frantsiya tarixida Restavratsiya deb atalardi. Ovruponing eng reaksion monarxiyalari — Avstriya, Rossiya — o'z xalqlarining inkilobiy kurashiga qarshi turish uchun "muqaddas birlashma" tuzishgandi.

Ovrupo madaniyati XIX asrning ikkinchi choragida juda murakkab va qarama-qarshi bo'lgan. Endi avvalgiday yagona buyurtmachi — saroy emas; didni endi burjuaziya o'ziga bo'ysundirgandi. Jamiyatning tez rivojlanishi, dunyoqarash va didning tez o'zgarishi san'at va kostyumda o'z aksini to'di. Endi me'morchilikda, tasviriy va amaliy san'atda umumiy uslub yo'q edi. 20—30 yillarda adabiyot va tasviriy san'atda *romantizm* uslubiy yo'nalishi vujudga keldi. Klassitsizm va ma'rifatchilik realizmining badiiy ijod yo'nalishlari o'rnini bosishga jazm qilgan romantizm uslubiy yo'nalishi o'ta murakkab va rango-rang

badiiy hodisa bo'lib, unda inqilobiy va reaksion oqimlar qorishmasi asosiy o'rin egalladi. Bu oqimning siyosiy qarashlarida farqlar bo'lishiga qaramay, ular juz'iy va umumiy ijod aqidalari bo'yicha bir-birlari bilan birlashdilar.

Romantizm ijodiy-uslubiy yo'nalishi Frantsiya inqilobidan keyin ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy xayotda sodir bo'lgan tub o'zgarishlardan so'ng vujudga keldi. Romantizm mohiyatini burjua voqeligi yuzaga keltirgan yaramas, g'ayriinsoniy aqidalarni rad qilib, uning o'rniga inson qadr-qimmatini o'rnatish tashkil etardi. Shu bois romantizm yo'nalishida yaratilgan san'at asarlarida noyob shaxslar qiyofalari aks ettirildi. Romantizm jamiyat bilan murosasiz ziddiyatga yuz tutgan shaxsning ichki dunyosini birinchi marta asosiy mavzu qilib oldi. Romantizm ichki kechinmalari noyob bo'lgan shaxsning faqat o'z kuchiga ishonishi, qalb amriga quloq solishi bilan tasvirlanadi. Romantizm klassitsizm qonunqoidalariga kuchli zarba berib, realizm yo'nalishiga yo'l ochib berdi.

Romantik san'ati buyuk siymolar: Bayron va Shelli asarlarida; Delakruaning rasmlarida; Betxoven, Shubert va Sho'ening musiqasida; V.Skotning romanlarida o'z aksini to'g'and.

Erkaklar kostyumi. Agar 20-yillarning erkaklar kostyumi siluetiga astoydil e'tibor berilsa, unda o'rta asrlarning ta'siri seziladi. Yengi tepa tomonini hurpayganligi, redingot belining torligi va etagini kengayganligi o'rta asr jaketiga o'xshab ketadi. Ammo o'rta asr siluetining tiklanishi shu vaqtning obrazli yechimini yaratmasdan, ko'proq go'zallik va nafislikni shaharliklarga berardi.

Odatdagiday, moda shu paytda yuz berayotgan hodisalarga o'z munosabatini bildirardi. Misol uchun, 1817 yilda rus qo'shinlari Parijga kirgandan keyin "*alya rus*" kazaklar ishtoni va mo'yna urfga kirgandi.

Erkaklar kiyimlarining asosiy turlari qora, ko'k, sarg'ish-yashil va jigar rang frak va redingot bo'lgandi. Frakning oldi uzun va duxobadan qilingan shol yoqali bo'lardi. Redingot esa baland taqilmali, kichkina latskan (adip kaytarma)li, tik yoqali va pelerinali edi. Oliy modada alpaktan (yu'qa, yaltiroq, maxsus navli jundan qilingan mato) qilingan yumaloq latskanli redingotlar bo'lgandi.

Ustki kiyimda keng, qulay shakllar saqlanib qoldi. Odatdagi plashchdan tashqari bitta yoki ikkita pelerinali mantoni kiyishardi.

Galstuklar kam o'zgargandi, ammo kechqurun balga frak bilan kiyish uchun yangi, bog'lanmaydigan, ya'ni 12 to'g'nog'ich bilan biriktiriladigan galstuk "*lastron*" ixtiro qilingandi.

Tor soyaboni sal qaytarilgan baland shlyapalar keng tarqalgandi. 20-yillarda Kolumbiyaning haloskori Bolivar sharafiga soyaboni va tepasi keng shlyapa "*boli-var*" kiyishgandi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi oldingi davrning konstruktiv chiziqlarini saqlagan holda, bezagi (ayniqsa, ko'ylagining etagida) ko'paya boshladi.

Frantsiyada Burbonlarning tiklanishi aristokratlar qalbini g'oyat zavq-shavqqa to'ldirgandi va 1815 yilda eng modali rang — oq rang (qirol liliyasining rangi) bo'ldi. Kostyumga o'ziga xos ramziy ishoralar kirgizilgandi. Qirol Lyudovik XVIII sharafiga ko'ylakda 18 taxlam qilinib, qiroliy gerbning ranglari (oq va zangori) qo'llangandi.

1819-1820 yillarda ayollar kostyumining silueti o'zgardi. Bel chizig'i asta-sekin pastga tusha boshladi, yengning tepa tomoni kengaya boshladi, yubka toraydi va korsetning shakli o'zgardi. Siluet endi ayolni ustunga o'xshatmasdan, tabiiy komatini ko'rsatardi.

Chuqur dekolte va kalta yenglar faqat balga oid ko'ylaklarda saqlanib qolingandi; bir necha qator pelerinalar, ro'mol, frezalar bo'yin va ko'krakni berkitardi. 20-yillarning oxirida yeng 84ikki qavatli edi: ichki yengi qisqa "fonarik" shaklida, ustkisi esa — uzun, pastiga toraytirilgan bo'lib, harir matodan qilingan edi. Oldingiday spenser kiyishardi.

Yangi siluet, ko'ylak etagida bezaklarning ko'payishi mutanosiblikni o'zgartirgan edi. Ayollarning bo'yi endi pastroq ko'rinardi. plastik ayolning o'rniga 20-yillarda quruq, dag'al shaklli; shlyapa, lif, yeng va yubkasida ko'p bezakli kiyimdagi ayol bo'lgandi.

XIX asr Ovropa Uchinchi davr (1830—1848 yy.)erkaklar va ayollar kostyumi

Uchinchi davr (1830—1848 yy.)

San'at sohasida 30-yillar romantizmning eng avjiga chikkan davri hisoblanadi. Klassitsizmning ratsional normalari barbod etilib, romantizm g'alaba qozongandi. Amaliy san'atda va kostyumda uslublar va nomlar Frantsiyadan kelar edi, chunki Frantsiya modaning qonundori edi, Parij esa — Ovruponing madaniy markazi hisoblanardi. Ammo XIX asrning birinchi yarmida Frantsiya va Angliya qatoriga Avstriya, Olmoniya ham kirgan edi. Shuning uchun san'atda va kostyumda 30—40-yillarda ustunlik qilayotgan badiiy yo'nalishga birinchi marta nemis nomi "*bidermayer*" berilgandi. Frantsiyada bu uslubiy yo'nalish Lui Filip uslubi deb atalgandi.


1840—1850 yillar feshenebllar davri deb atalgan.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumida printsipial o'zgarishlar bo'lmagandi. Lekin uning xarakteri yangi ideallarga moslangandi. Jamoa barcha tabaqalarining kostyumi bir xil bo'lgani holda, odamlar bir-birlaridan "yaxshi odatlar" yordamida ajralib turishga harakat qilishardi. Angliyada elegantlik to'g'risida yangi tushuncha tarqalgan bo'lib, bu tushuncha kostyum bichimida, matoning sifatida, ichki kiyimning oppoqligida va qimmatbaho buyumlarni mensimaslikda o'z aksini topgandi. Umuman, 30-yillarda romantizm modasini "romantik beparvolik" tavsiflard: ataylab tugmalanmagan yoqalar, yoyilgan sochlar va boshqalar. Bunday beparvolik bilan kiyinish shaxs intellektualligining muximligini ko'rsatardi. Bashanglik nukta nazaridan qaraganda, frakni har uch haftada, shlyapani — har oyda, oyoq kiyimni — har haftada almashtirish lozim edi. Hammaga ma'lumki, bunday dang'illamalikni faqat boylar ko'tarishi mumkin edi (84, 85-rasmlar).



84-rasm. Ko'chalik liboslari. 1810-1811 yillar.

Erkaklar frak yoki syurtuk kiyishardi. Ular belga yopishib, bo'ksada kengayib turar, yenglari esa sonsimon shaklli, xurpaygan edi.



85-rasm. Jentelmenlarning ertalabki liboslari. 1834 yil.

Sharq ekzotikasi bilan qiziqish "*feska*" (turk erkaklari bosh kiyimi), xalatlar va b. kiyishda ifodasini topgandi.

Modali prichyoska jingalak sochlardan iborat bo'lib, ular peshonadan tepaga ko'tarib ko'yilib xo'roz tojiga o'xshar edi.

40-yillarda frak va syurtukning bel chizig'i sal pasayib, yangi toraygandi. Nimchalarning bichimi xar xil edi. Oq ko'ylaklarining yoqalari oxorlangandi. Sidirg'a yoki ola chipor matolardan bo'lgan keng galstuk bant qilinib yoki turli usulda bog'lanishi mumkin edi.

Erkaklar ustki kiyimida yangi turlar paydo bo'lgandi: "*karrik*" — bir necha kavat yoqali palto, palto — "*burnus*" edi.

1830—1832 yillarda pantolonlar kengaygandi { "*ied d'ele'hant* — fil oyog'i), 40-yillarda esa qaytadan toraydi. Kechki kostyum tor, uzunligi topiqdan balandroq pantolon va to'rli paypoqdan iborat edi.

Sochlar uzunroq, ba'zan, jingalak qilinardi. Asosiy bosh kiyim tsilindr edi. Undan tashqari keng soyabonli shlyapa "*bolivar*" va yumshoq fetrdan shlyapa "*garibal di*" keng tarqalgandi.

Oyoq kiyimlari nim etik va tufli — *lodochka* (oldi ochiq ilgaksiz tufli) edi.

Kostyumning qo'shimchalari qo'lqop, hassa,soyabon, dastro'mol, kamchi bo'lgan.

Erkaklar kostyumi yashil, ko'k, tamaki, kul va jigar rangli jun matolardan tikilgandi, pantolonlar esa ochroq rangli qilinardi. To'q ranglarga intilish xam sezilardi. Saroy kostyumlari va nimchalari shoyi va duxobadan bo'lardi. 40-yillarda katak-katak matolardan kiyim tikish modaga kirgandi.

Ayollar kostyumi. Asrning 30-yillarida ayollar kiyimi siluetida talay o'zgarishlar yuz berdi. Bel chizig'i tabiiy joyiga tushdi, lifning uzunligi xam tabiiy bo'lib, yubkasi va yenglari juda kengaydi. Belni imkoniyat boricha toraytirish maqsadida korset kiyishgan va ko'ylak belini keng belbog' bilan bog'lashgan. Keng yubkaning tagidan bir necha ichki yubkalar kiyishardi. Pasaytirilgan yelka chizig'i va o'tqazma katta keng yenglar belni tor va ingichka qilib ko'rsatardi. Ko'ylakning uzunligi topiqqacha edi. Ular turli och rangli shoyi matolardan (muar, reps, tafta, kashemir, chitlar) tikilardi. Ko'ylakning ustki qismi yurakka o'xshashi kerak edi, shuning uchun balga kiyiladigan ko'ylaklarda lifni dekol tesi ikkita yarim doira shaklida qilinardi. Yenglari esa "son-simon" hurpaygan bo'lgan.

Kundalik ko'ylakning uzun yenglari o'rta asrning "jigo" yenglarini eslatardi (86, 87-rasmlar).

Ayollar kostyumi. Asrning 30-yillarida ayollar kiyimi siluetida talay o'zgarishlar yuz berdi. Bel chizig'i tabiiy joyiga tushdi, lifning uzunligi xam tabiiy bo'lib, yubkasi va yenglari juda kengaydi. Belni imkoniyat boricha toraytirish maqsadida korset kiyishgan va ko'ylak belini keng belbog' bilan bog'lashgan. Keng yubkaning tagidan bir necha ichki yubkalar kiyishardi. Pasaytirilgan yelka chizig'i va o'tqazma katta keng yenglar belni tor va ingichka qilib ko'rsatardi. Ko'ylakning uzunligi topiqqacha edi. Ular turli och rangli shoyi matolardan (muar, reps, tafta, kashemir, chitlar) tikilardi. Ko'ylakning ustki qismi yurakka o'xshashi kerak edi, shuning uchun balga kiyiladigan ko'ylaklarda lifni dekol teshi ikkita yarim doira shaklida qilinardi. Yenglari esa "son-simon" hurpaygan bo'lgan. Kundalik ko'ylakning uzun yenglari o'rta asrning "jigo" yenglarini eslatardi (86, 87-rasmlar).



86-rasm. Tushlikdan keyin kiyiladigan ko'ylak. 1830 yillar.

Ayollar orasida otga minib yurish keng tarqalgani uchun maxsus kiyim "*amazonka*" vujudga kelgandi. U uzun movut yubkadan, tor kofta, vualli shlyapa, ko'lkop va kamchidan iborat edi.

Shu davrda ayollar garderobida pelerinalar, sharflar, kashemir shollar muxim rol o'ynagan bo'lsa ham, avvalgiday spenser va mantoni kiyilardi.

Oyoq kiyimlari ham avvalgiday poshnasiz, tor, lentali edi. Ammo ochiq tuflilar qatorida tugmali botinkalar ham moda bo'lgandi.



87-rasm. Balga oid liboslar. 1830 yillar.

Kostyumga qo'shimcha bo'lib, ko'lqo', quyma burmali soyabon va muftalar hisoblanardi.

Prichyoskalari juda murakkablashdi. Jingalak qilib o'rilgan sochlarga sun'iy gullar, lentalar, to'rlar va qimmatbaho toshlar kadalardi.

Prichyoskalarning balandligi tufayli shlyapalar baland va keng soyabonli bo'lgandi. Asosiy bosh kiyim "*ka-pot*" bo'lgan. Yozgi shlyapalar poxol va yengil matolardan bo'lib, lenta, to'r va gullar bilan bezatilardi; qishqilari esa — duxoba, baxmal va qalin shoyidan qilinar edi.

40-yillarda ayollar kostyumi zamonning yangi ideallariga binoan o'zgargandi. Ayollarning tenglik uchun kurashi (emansipatsiya) kostyumda ham o'z aksini to'gandi (88, 89-rasmlar).

Ko'ylak yubkasi uzayib, yelkasi toraygani tufayli silueti cho'zilgandi. Ko'ylakning lifi tor bo'lib, bel chizig'i sal pasaygandi. Odatda, lif berk, ba'zan kichkina qaytarma yoqali edi, ammo balga kiyiladigan ko'ylaklarning yoqa o'mizi chuqur yotiq bo'lgan. Yenglari qisqa yoki uzun bo'lishi mumkin edi, ammo, albatta, tor bo'lishi shart edi. Yubkasida yumshoq taxlamlar qilinardi, yonlari esa burmalanardi. Yubka ostidan sakkiztagacha oxorlangan ichki yubkalar yoki krinolin kiyishardi. Yubkaning tagidan tuflining faqat uchigina ko'rinardi. Ko'ylaklar, odatda, oq rangli edi. Shotlandiyaning tarixi bilan kiziqish tufayli modaga katak-katak matolar kirgandi.



88-rasm. Sayr uchun kostyum. 1840 yilalr.



89-rasm. Ayollar ustki kiyimi. 1840 yillar.

Ch.Dikens romanlari bilan qiziqish ayollar kiyimiga oddiylikni olib kirdi. "Saxovatlikka ishqibozlik" kostyumda ham sezila boshladi. Ayol sipo uy bekasiga o'xshash uchun to'r bilan bezatilgan shoyi peshband kiyardi va beliga qistirilgan bir dasta kalitlarni olib yurardi. Ko'chaga va mexmonga boradigan kiyimi ikkita ko'ylakdan iborat edi: ichki ko'ylagi berk va ustkisi — oldi ochiq bo'lib, ko'yma burma va zar uqa bilan bezatilardi. Baxmaldan tikilgan va mo'yna bilan bezatilgan kalta kofta — "*katsaveyka*" qishki kiyim sifatida modaga kirib keldi.

Oyoq kiyimi endi poshnali bo'lgandi.

prichyoskalari pastroq va odmiroq bo'ldi, ingliz modasi ta'sirida sochlarini silliq tarab, to'g'ri farq ochib ikki yondan jingalak yelkaga tushirib ko'yilardi. Bosh kiyimlari har xil edi, ammo, ko'pincha yuzning yon tomonini berkitadigan chuqur, to'g'ri soyabonli kichkina "*kibitka*" shlyapani kiyishardi.

Kostyum qo'shimchalari avvalgiday soyabonlar, yelpig'ichlar, qo'lqoplar, muftalar va b. bo'lgandi.

XIX asr Ovrova *To'rtinchi* davr (1850—1870 yy.) erkaklar va ayollar kostyumi

***To'rtinchi* davr (1850—1870 yy.)**

1848 yilgi frantsuz burjua inqilobidan keyin Ovrupo mamlakatlarida kapitalizm tez rivojlandi. Madaniyatning rivojlanishida burjuaziya asosiy rolni o'ynagandi. Modalarda avvalgiday burjuaziya didi hukmronlik qilardi, ammo ularning doirasi ancha toraygandi. Mayda burjuaziya modasiga bidermayerning o'rniga, yirik burjuaziya vakillari boyligini ko'z-ko'z qilib ko'rsatadigan cheksiz dabdabalilik kirib keldi.

Matoni bo'yashni arzonlashtiradigan anilin bo'yoklarning paydo bo'lishi, tikuv mashinasining ixtiro qilinishi, tikuv sanoatining rivojlanishi modaning tarqalishida muhim rol o'ynagandi. Fotografiyaning paydo bo'lishi XIX asr modalari to'g'risida ko'p ma'lumot qoldirdi.

Avvalgiday me'morchilikda va interyerda eklektika (turlicha badiiy uslublarni bir-biriga qorishtirib yuborish), buning ustiga 50—60 yillarida XVIII asr badiiy uslubi — rokokko — aloxida e'tiborga ega edi. Uning ta'sirida interyer va mebelda xashamatli eklektik uslub yaratilgandi ("*ikkinchi rokokko*" yoki "*ko'rgazma*" uslubi).

Erkaklar kostyumi. XIX asrning ikkinchi yarmida erkaklar kiyimida oddiylashtirish va demokratizatsiyalash yuz bergandi. Feodal o'tmish estetik an'analari bilan bog'liq dekorativ elementlar: to'r, parparalar bilan bezalgan ko'ylaklar, parchadan qilingan nimchalar va b. asta-sekin yo'qolgandi. Ammo "*arzon dabdabalik*" — tugmalanadigan oxorlangan yoqalar, manishka va manjetlar — paydo bo'lib, qimmatbaho ichki kiyim ko'rinishini berardi va ularni o'rtamiyona odamlar kiyishardi. Galstuklar xam oddiylashtirilgandi.

Kostyumning shakli endi, asosan, ishchan odamning turmush tarziga moslanib, qulay bo'lgandi. Shuning uchun erkaklar garderoibi va kostyum silueti o'zgargandi. Endi kostyumda bel chizig'i aniqlanmasdi va odamning qomatiga e'tibor berilmasdi. Frak tantanali kiyimga aylandi va boy odamlarning belgisi bo'lib qoldi. Redingot va syurtuk oxirgi "hayotini" kechirgandi. 50-yillarda uning turi "*jaquette*" yoki "*vizitka*" paydo bo'lgandi. U, syurtuk bichimini saqlagan holda, oldi ochiq, latskanli va oldi

dumaloqlangandi. Kiyimni yangi turi — "*vizitka*" — elegant ko'chalik kostyum bo'lib qoldi, Kundalik tualet vizitka va yo'l-yo'l shimdan iborat edi. Odatda, qora vizitkani yo'l-yo'lli kul rangli qora shim bilan yoki yo'l-yo'lli qora kul rangli shim bilan kiyishgandi. 60-yillardagi vizitka burjuaziyaning majburiy buyumlaridan biri edi.

Uyda va dala hovlida xar xil jaketlar va modaga kirgan duxoba bluzkani kiyishardi (keyinchalik shunday kiyim badiiy ijodkorlar kiyimi bo'lib qoldi).

Asrning birinchi yarmidagi ovchilar kostyumining bo'limi — "*veston*" — "*idjak* yoki kurtka erkaklar kundalik kostyumida endi asosiy o'rinni egallardi. Endi pidjak, nimcha va shim bir matodan tikilgan klassik kiyimga aylandi. Erkaklar kiyimi rang-barangligini yo'qotib, ko'k, to'q yashil, qora va jigar rang bo'ldi. Faqat yozda och ranglarni, ya'ni oq, sarg'ish va kul ranglarni kiyish mumkin edi. Katak-katak kostyumlar, ayniqsa Angliyada, keng tarqalgandi. 60-yillarda modaga qora yoki kul rangli yo'l-yo'l shimlar kirgandi.

Aynan bu davrda hozirgi zamongacha saqlanib qolgan bichimlar yaratildi. Shunday qilib, erkaklar kostyumida asrga oid standartlik va barqarorlik mavjud bo'lgandi. Moda kirgizgan o'zgarishlar arziyasini detallardan iborat edi.

Arzon narxda sotiladigan tayyor kostyumlar erkaklar kiyimining turg'unligiga sabab bo'ldi.

Nimchani asr davomida doimo kiyishgandi. O'zgarishlar faqat detallarida edi: yoqa o'mizining chuqurligi, yoqaning shakli va b. Frak bilan faqat oq nimcha kiyilardi.

Shimlar xar o'n yilda o'zgarardi. 50-yillarda shimlar pochatasmali (shtripkali), 60-yillarda esa shtripkasiz bo'lgan.

Ustki kiyim plashch "*reglan*" yoki "*macfarlare*" — bir bortli, yengsiz, katta pelerina va qaytarma yoqali palto edi. Kundalik palto mo'yna yoqali edi.

Galstuk avval keng va keyin tor bantga bog'lanardi.

Silindr avvalgiday asosiy bosh kiyim bo'lgan edi. Sport kostyumida fetr shlyapa — "*melona*" — bo'lgan. Yozda keng soyabonli panama, yumshoq fetr shlyapa va qattiq soyabonli past shlyapa — "*kanot ye*" kiyishardi.

50-yillarda Oyoq kiyimining tumshug'i uchli, 60-yillarda — to'mtoq bo'lib, baland poshnali edi. 50-yillarga kelib rezina oyoq kiyimlar paydo bo'ldi.

50-yillarda uzun sochlar qiyshiq farqqa ochilib, jingalak qilingandi, soqol va mo'ylov ko'yilardi. 60-yillarda esa qiska qirg'ilgan sochlar, mo'ylov va bakendbardlar modaga kirgandi.

Ayollar kostyumi. XIX asrning 50—60-yillarida ayollar kostyumi ma'lum darajada barqarorlashdi. Belni juda siqadigan korset, unga mos lif va keng yubka saqlanib qolgandi. Siluetning o'zgarishi yubka kengayishida, detallarning yangi variantlarida sezilardi. Siluetning asosiy tuzilishi — ikkita qarama-qarshi uchburchak — o'zgarmasdan qolgandi. Kostyumning xilma-xilligiga bezaklar yordamida erishilardi, ular yillar sayin ko'paygandi.

Moda qonundori yana frantsuz saroyi edi. Modalar ikkinchi imperiya modasi deb atalardi. Imperator rafiqasi Yevgeniya va uning atrofidagi oliftalarning didlari moda yo'nalishiga ta'sir etardi. San'atning eklektik oqimlari orasida moda rokokko uslubiga moslangandi, markiza pompadur davrining kostyumlari XIX asr kiyimlarining namunasi bo'lib qolgandi. Ko'ylak silueti bel chizig'ining tabiiy joyda joylashganligi bilan, pasaytirilgan yelka va katta krinolinli yubka bilan tavsiflanardi. Belni toraytirish uchun doimo zich shnurovkalangan korset kiyishardi. Yubkalar juda kengaygandi, chunki tagidan ot kilidan yoki bir necha metall gardishdan qilingan "*krinolin*" kiyishardi. 60-yillarda

krinolin orqaga tortilib oval shaklli bo'ldi. Kundalik ko'ylak lifi berk edi, balga oid ko'ylaklarning dekoltesi esa chuqur bo'lardi. Kundalik ko'ylaklarning yengi pastiga kengaygan va oq manjetli edi, balga kiyiladigan ko'ylaklar, odatda, yengsiz bo'lgan. Sayoxatga va mexmonga belga yopishib turgan jaket "*kazakin*" kiyilardi..

Ustki kiyimlar kofta — jiletlar, "*figaro*"-lar, shollar, yopinchiqlar, mantilyalar, pelerinalar va mo'yna bilan sirlangan "*rotonda*" lar edi.

Ko'ylaklar xilma-xil matolar: shoyi, atlas, shtof, reps, to'r, duxoba va jundan tikilardi. Ranglari juda yorqin, qizil, nafarmon va pushti bo'lgandi.

Bezakarlar: sun'iy gullar, tasma, to'qalar, shoqilalar, kashtalar va to'rlar kop miqdorda bo'lgan.

XIX asrning kostyumi **XVIII** asr kostyumiga o'xshashga intilsa ham ularning estetik mahorati va tashqi ko'rinishi butunlay boshqa edi. **XIX** asr kostyumining yuzasi kop miqdordagi xilma-xil bezaklar bilan bo'lingani va har xil matolarning bir kiyimda qo'llangani tufayli kostyumning yaxlitligi buzilgandi.

prichyoskalari hurpaygan shinondan yoki to'g'ri farqqa taralgan va orqasida maxsus to'rga solingan sochlardan iborat edi,

Bosh kiyimlari shoyi yoki poxoldan qilingan va gul yoki lentalar bilan bezatilgan kichkina shlyapalar yoki to'rli chepetslar edi. Shlyapalar engakka lentalar bilan bog'lanardi. Yozda florentsiya poxolidan qilingan shlyapa kiyishardi. Asrning 60-yillarida pat bilan bezalgan uch kirrali shlyapalar modaga kirdi.

Oyoq kiyimlari tufllilar va bog'ichli botinkalar bo'lgan.

Hashamatli liboslar kop miqdorda taqinchoqlar bilan bezatilardi. Modaga to'g'nog'ichlar, ziraklar, kulonlar (bo'yniga taqiladigan zanjirli asl tosh, ziynat buyumi) kirgandi.

Sumkachalar, lornet, soyabonlar kiyim qo'shimchasi edi.

Ayollar kostyumining silueti 1866-1867 yillarda o'zgargandi. Bel chizig'i baland joylanib, yubkaning tepasi burma va taxlamsiz bo'lganligi tufayli, lif yubkaga sillik o'tardi. Shu holda ko'ylakning sillik yuzasi axamiyatga ega bo'lgan. Yumaloq shakllarning o'rniga to'g'ri chiziq hamda burchaklar va yangi mutanosiblik paydo bo'lgandi. Ular ayollarning bo'yini balandroq qilib ko'rsatardi.

Bu davrdagi bichim — yaxlit bichilgan ko'ylak "*rin-cesse*" edi.

Og'ir, qalin va kam cho'ziladigan matolar chiziqlarning aniqligiga sabab bo'lardi.

Ko'ylakning siluetiga binoan prichyoska ham o'zgargandi. Sochlari tepaga ko'tarilib, bo'yinni ochgandi. Sochlari jingalak qilingandi.

Siluetning o'zgarishiga qaramasdan, 1869 yilda ko'ylaklardagi chiziqlar aniqligi yo'qolib, kostyumda yana o'zgarishlar ro'y berdi.

XIX asr Ovropa Beshinchi davr (1870—1880 yy.) erkaklar va ayollar kostyumi

Beshinchi davr (1870—1880 yy.)

XIX asrning 70—80-yillarida *sa'gl* " *ozitivizm*" uslubiy yo'nalishi bilan tavsiflanardi. Bu badiiy oqim uyning saranjom-sarishtaligini va qulayligini, burjuaziyaning didini ifoda etardi. Interyerda to'q ranglar; yumshoq, prujinali, qavilgan, charm va duxobadan qilingan mebellar; og'ir drapirovkalar va b. edi.

Asrning ikkinchi yarmida moda qahramoni ixtirochi-muhandis, konstruktor bo'lgan. Ayni shu yillarda muxandis Eyfel xalqaro ko'rgazma uchun minora qurgan. Keyin bu minora Eyfel minorasi deb atalgandi va Parij ramzi bo'lib qolgandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumining rivojlanishi oldin belgilangan yo'nalish bo'yicha borgandi. Tayyor kiyimlar shahar va qishloqlarga keng tarqaldi. Tikuvchiga kiyim tiktirish juda qimmatga tushardi.

Erkaklar kostyumi siluetining o'zgarishi faqat pidjak va paltoning eni va uzunligiga, yoqa va adip kaytarmasining fasoniga, shimning eni va uzunligiga, nimchaning yoqa o'mizi shakli va chuqurligiga va b. tegishli edi (90-rasm). Ko'ylaklar uncha o'zgarmagan; asosan, yoqa va galstukning fasoni o'zgargandi. Uchlari qaytarilgan baland yoqalar faqat tantanali marosimlarda kiyilardi.

Shimning pasti kengayib, voronkasimon holga keldi, yonida hoshiya — "*lampas*" lar paydo bo'ldi.

TSilindr asosiy bosh kiyim bo'lib qolgandi. 80-yillarning o'rtasidan boshlab dumalok, kichkina qattiq soyabonli "*kotelok*" shlyapa moda bo'ldi.



90-rasm. Erkak va ayol kostyumi. 1870 yil

Ayollar kostyumi. Bu davrda endi burjuaziya salonlari moda markaziga aylangandi. Pozitivizm uslubiy oqimi buyumlarning narxini va kiyimning boyligini namoyish etardi. "*Shik*" so'zi eng keng tarqalgan so'z edi. Shinam interyerlarda yumshoq mebel ataylab tartibsiz joylanardi. Mebel duxoba va baxmal bilan o'ranib, shokila va popuklar bilan bezatilgandi. Serdrapirovkalangan pardalar, gilamlar, gullar burjua xonadonini to'ldirardi.

Kostyum xam kop detallar va bezaklar bilan boyidi. Ko'pincha ular turli rang, faktura va naqshli matolardan qilinadigan bo'ldi.

1869 yilda vujudga kelgan siluet 1873 yilgacha saqlanib qoldi, ammo konstruktiv usullar o'zgardi. Kostyumga drapirovka kirgizilgandi va kompozitsion markazi orqaga ko'chirildi (75, 76-rasmlar).

1873 yilda ko'ylak silueti juda o'zgaradi. Endi baland xushbichim figuralar modaga kirdi. Shu tufayli ko'ylakning beli qirqilmasdan yaxlit bichilardi. Ko'ylak bo'ksagacha tanaga yopishib, bo'ksadan ko'ylak orqasiga tortilib drapirovka qilinardi ("*turnyur*"). Turnyur drapirovkasining xajmi katta va mustahkam bo'lishi uchun yubkaning ostiga belidan sal pastroqda yumshoq yostiqcha yoki metall karkas (sinch) qo'yilardi. Korsetlar figurani bo'ksaning o'rtasigacha siqib turar edi. Drapirovkalar plisse, kashta, ko'ngurali

bezak va shoqilalar bilan bezatilardi. Gazmolning "xarakati" *tyunik* drapirovkasining bitta nuqtasidan boshlanib, bant yoki kursi bilan belgilanib shleyfga o'tardi va baland ko'tarilgan prichoskaning yirik jingalaklari bilan mos edi. Bu birlik kostyumga dinamik yo'nalish berdi va bu davr yangiligi edi. "Polonez" va "rintsess" ko'ylak bichimlari keng tarqalgandi. Siluetga moslanib ichki yubkalarning shakli o'zgaradi. "Polonez" yubkasi XVIII asrdan o'zlashtirilib, XIX asr siluetiga moslangandi. "Printsess" bichimining bir necha turi uchrardi: ko'ylaklar gavdaga juda yopishib yoki sal yopishib turardi.

70-yillarning kostyumi rang-barang bo'lgan. Lif bilan yubka bir xil rangda qilinardi, drapirovkalangan *tyunik* esa ikkinchi rangda bo'lardi, shleyfda bu ikki rang mohirona ko'shilardi. Ularga xar xil bezaklarning rangi ko'shilardi: Plissirovkalangan kuyma burmalar, "*bul one*" (gaz yoki boshqa yupqa matodan qilingan bufli tasma), lentalar, kashtalar va tugmalar. Rangli paypoqlar xam modaga kirgandi.

Bu rang-baranglik qatorida kiyimda to'q ranglarga intilish paydo bo'ldi. Kiyimni xar xil rangligiga qaramasdan, ansambil tuzishga intilish sezilardi: bezakning rangi shlyapa va manto rangi bilan, ko'ylakning rangi paypoq va oyoq kiyim rangi bilan moslantirilardi.



91-rasm. Kechki ko'ylaklar

70-yillarda berk yoqalar va duxobadan "*rivera*" (latskan)lar va katta to'rli yoqalar kop uchrardi. Dekolteni yangi shakli — uzaytirilgan kare — paydo bo'lgandi. U "*ryush*" (qo'yma burmaning bir turi) va to'r bilan bezatilardi.

XIX asr ikkinchi yarmida shaxarlar va sanoatning keskin rivojlanishi shaxarliklar ijtimoiy tabaqalarining o'zaro nisbatining o'zgarishiga olib keldi. Mayda va o'rta mansabdorlar, texnikaviy xizmatkorlar va xizmatchilar soni kopaygandi. Ularning kiyimi modali va tejamli bo'lishi kerak edi. Ayol talabalar va xizmatchilarning paydo bo'lishi ayollar tashqi ko'rinishining o'zgarishiga sabab bo'lgandi. Ularning kiyimida erkaklarning kiyimiga intilish paydo bo'ldi. Qotirma yoqalar, manjetlar, galstuklar kiyimda uchraydigan bo'ldi. Ingliz kostyumi (bluzka, yubka va jaket) keng tarqalgandi.

1876 yilga kelib ko'ylakning hajmi kichraya boshladi. Orqasi shnurovkalangan lif "G'sirasa"ning uzunligi bo'ksa o'rtasigacha edi, etagiga kengaygan tor yubka odatdagi yo'nalishida sal drapirovkalangandi, lekin turnyur deyarli yo'qolgan bo'lsa xam, shleyfda xurpaygan drapirovka saqlangandi, yangi siluet figurani uzunroq qilib ko'rsatardi, ayniqsa yaxlit qilib bichilgan ko'ylak va paltoda yaqqol ko'rinardi (91-rasm).

XIX asr 70-yillarida o'tgan davr usullaridan nusxa olish va uni o'zlashtirish o'z qizig'ini yo'qotgandi. Kostyum va interyerlarda xalq va, ayniqsa, Sharq san'atiga intilish sezilar edi. Ayollar kostyumiga "yapon" xalati kirgandi. Besh yil mobaynida, ya'ni 1881 yilgacha, tor va to'g'ri siluet bilan kiziqish davom etdi. Ayollar kostyumida oddiylik va konstruktivlikka intilish paydo bo'lgandi. Kalta, "tren" (shleyf)siz kiyim vujudga keldi. Bezaklar endi kam qo'llanilardi. 1872 yilda Angliyada "Ayollar ratsional kiyimining assotsiatsiyasi" tashkil etilgandi. Ularning asosiy talabi: ichki kiyimni o'zgartirish va korset o'rniga elastik gigienik belbog'ni qo'llash edi. Ayollar kiyimining ratsionalizatsiyalanishi erkaklar kiyimiga o'xshashlikda va ustki kiyimda ko'rina boshladi. Noqulay mantil ya, "dolman" va boshqalar ustki kiyimlarning o'rniga sal yopishib turadigan siluetli ikki bortli palto "dp'lomat" paydo bo'ldi.



92-rasm. Kechki va yo'qlash uchun liboslar. 1884 yil

Ammo asosiy moda yo'nalishi o'zgarmagandi. Moda va yangi'turmush tarzining chuqur ixtiloflari, badiiy san'at buyumlaridagi didning pasayganligi san'atkorlar orasida ma'naviy jihatdan zamonni yaxshilash uchun intilishni tug'dirdi. Angliyada "Estetik harakatlar" paydo bo'ldi. Ular badiiy san'atni qayta tiklamoqchi bo'lgandi. Bu harakat reformatorlik bo'lib, hozirgi zamon kostyumi talablariga o'xshash edi. Tanaga erkinlik beradigan, chiziqlari oddiy, funktsional kiyim ayolni shaxsiy xususiyatlarini ko'rsatishi kerak edi.

80-yillarning ko'ylak siluetida bel chizig'i pasaytirilgan, baland yopik yoqa bo'lgandi (92-rasm). Kostyumda kontrast rangli va fakturali matolar qo'llangan. Jun, nim jun va ip matolar keng tarqalgandi. Shoyi gazmollardan kechki, tantanali, teatrga, balga va kontsertga kiyiladigan kiyimlar tikilardi.

Shlyapalarning soyaboni tor, tepasi baland edi. Qo'lqoplar, sumkalar va muftalar kostyumga qo'shimchalar edi.

Oyoq kiyimlarning poshnasi balandroq bo'lib, ularning shakli kiyim shakliga moslanardi. Asosiy poyabzal — shnurli botinkalar va tufllilar bo'lgan.

XIX asr Ovropa Oltinchi davr (XIX asrning 90-yillari) erkaklar va ayollar kostyumi

Oltinchi davr (XIX asrning 90-yillari)

1890—1900 yillar kostyumining xususiyatlari siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga binoan o'zgargandi. San'atda va adabiyotda *simvolizm*, *mistitsizm* va *dekadentlik* oqimlari hukmronlik qilar edi. Ular qatorida realistik oqimlar ham bo'lgandi.

Bu davr me'morchiligida texnikaviy progress o'z ifodasini topdi. XIX asr oxirida yangi uslub yaratishga harakat qilindi. Vujudga kelgan yangi badiiy uslub "*modern*", ya'ni zamonaviy uslub, deb ataldi. So'lg'in va oquvchan chegaralarda, suyri shakllar va assimetriyada yangi uslubning qat'iyatligi ifodalanardi. Naqshda nilufar guli, suv o'tlari va suv parilarini tasvirlash urfga aylandi. Naqsh chiziqlari ham suyri, oquvchan edi.

Interyerda, asosan, kichkina shinam xonalar, kopincha, noto'g'ri shaklli; devorlarni och rangli matolar bilan qoplanardi, ko'pincha rangli shishani ko'llashar edi.

90-yildan boshlab temir yo'l transportidan tashqari avtomobillar paydo bo'ldi; havoda uchish tajribalari o'tkazila boshlandi. Fotografiya — suratga olish ommalasha boshlagani tufayli moda jahonga keng tarqalib, xalqaro mavqega ega bo'lgandi.

Bularning barchasi modern kostyumida o'z aksini to'gandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi avvalgiday qulay bo'lib qolgandi, ammo Sportning ta'siri koproq sezilardi. Kostyum kengroq bo'ldi, velosipedda yurish uchun kalta shim va kurtka paydo bo'ldi. Syurtuk o'rnini pidjak oldi. Oq qotirma yoqali, rangli ko'ylaklar va fetr shlyapalar paydo bo'lgandi. Tsilindr endi faqat aristokratik kiyimlarda uchardi. Yozda panama va shlyapa "*kanot ye"sh* kiyishardi. Sochlar kalta qirqilib, to'g'ri yoki yon farqiga taralardi. Erkaklar soqol va mo'ylov qo'yishardi.

Kostyumga qo'shimcha qilib dastro'mol, hassa va "*monokl"ni* (bir ko'zga tutiladigan ko'zoynak) olib yurishardi.

Ayollar kostyumi. Asr oxirida kostyumda yangi yo'nalishlar bo'yicha izlanishlar davom etardi, moda tez-tez o'zgarardi.

Ayollarning beli korset bilan unchalik siqilmagandi; yubka sillik, burmasiz edi, bo'ksasigacha yopishib turgan va pasti kengaygan edi; tepa tomoni keng, yenglari burma, plisse, volanlar bilan bezatilgandi.

Bu davrga kelib "zamonaviy san'at" badiiy yo'nalishining estetik ideallarining ta'siri bo'lgandi. Yangi uslubda yapon san'ati elementlari, skandinav xalq mavzulari, o'simlik shakli o'z aksini to'gandi.

1893—1897 yillarda ayollar kostyumining silueti o'zgardi. Tor lifning o'rniga oldi osilib turadigan lif bo'ldi; beli ingichka, yubkasi klyosh, maxsus korset yordamida figura "S" shaklli chiziqqa o'xshatib egilgandi. Yenglarning tepasi keng, pasti tor edi. Konussimon prichyoskalar o'rniga tepaga ko'tarilgan, xurpaygan, baland har xil shaklli prichyoskalar qilishar edi. Modern uslubining ta'siri kostyum chiziqlarida, rangida va ularning bezaklarida sezilardi. Ilonsimon chiziqlar mo'ynadan, tuyaqush patidan, to'rdan qilingan "*boa"lyar* bo'g'ma iilon bilan aniqlanardi.

Sipo, baland tik yoqali, yangi siluetli uzun ko'ylaklar ayollarga qandaydir yashirin noziklik berardi. Ular yupqa gazmollar (batist, linobatist)dan tikilib, to'rlar, lentalar va nozik kashtalar bilan bezatilardi.

Ammo bu davrda paydo bo'lgan reformatorlik harakati ayollar kiyimining qulay bo'lishiga intilgandi. Tibbiyot xodimlari korset va korsajning ziyonligini isbotlashgandi.

To'g'ri siluetli uzun "*Rejorma*" ko'ylagida beli sal belgilangandi. Lekin bu yo'nalish asosiy bo'lmadi. Ayollar, hattoki, xizmatchilar ham korsetlarini baribir kiyishardi.

Ayollarning velosiped Sporti bilan qiziqishi kostyumga o'z ta'sirini o'tkazdi. Uzun ko'ylakning o'rniga bluzka va *yubkaishton* kiyildi. Ularda konstruktivlik va qulaylik o'z ifodasini topgandi va ular kelajakdagi ayollar kostyumining darakchisi bo'lgandi.


Shunday qilib, XIX asr kostyumida modalar tez-tez o'zgargandi. Lekin bu murakkab jarayonda asosiy rag'batlarni aniqlash mumkin edi. Erkaklar kostyumi ayollarnikiga nisbatan ancha sekinroq o'zgaradi. Kiyimning ayrim turlarida standartlashtirish, bichimni barqarorlashtirish va to'q ranglarning ustunligi ro'y bergandi.

7.XX asr Yevropa kostyumi. Kostyumning demokratizatsiyalanishi. Ayollar kostyumida modern uslubining ravnaq topishi. Urushdan keyingi davrgi yangi estetik timsol va modani keskin o'zgarishi.

XX asr Ovropa davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

XX asr Ovrupo kostyumining rivojlanishi shu davrning hayotiy murakkabligi va ziddiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Fan-texnikaning keskin taraqqiyoti, yangi turmush tarzi modaning tez-tez almashishiga va uning ijtimoiy vazifalarining o'zgarishiga olib keldi. Moda va kiyim ning demokratizatsiyalanishiga sanoat mollarining moda yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqarilishi sabab bo'lgandi. Ovrupo kostyumi tarixida yangi yirik davr boshlandi.



93-rasm. *a*—erkaklar flanel kostyumi, 1902 yil, *b*—erkaklar kostyumi, 1904 yil, *v*—erkaklar yozgi kostyumi, 1907 yil.

XX asr Ovropa Birinchi davr (1900-1908 yy.)erkaklar va ayollar kostyumi Birinchi davr (1900-1908 yy.)

Erkaklar kostyumi. Asr boshida erkaklar turmush tarzi Sport ta'sirida sezilarli darajada o'zgargandi. Sport kostyumi va uning elementlari kundalik kiyiladigan kostyumga moslashgandi. Kunning ikkinchi yarmida kostyum rangining odmiligi uning detallarida xam sezilardi: galstuk va oyoq kiyimlari ham oddiylashdi.

Erkaklar kostyumining unifikatsiyalanishi kiyimda barcha ijtimoiy farqlarni yo'qotgandi shaharliklar odmi kostyumda yurmasdan, Sport kostyumini kiyishardi. Ayniqsa, velosiped va mototsiklning keng tarqalishi modaga ham sezilarli ta'sir qildi.

Ammo avvalgi odat va qonun-qoidalar osoyishtalik bilan o'z o'rnini yangi urf-odatlariga bermasdi. Noqulay, azob beradigan baland oxorlangan yoqa "*padarkush*" yana modaga kirgandi.

Lekin kostyum bichimida erkinlik bo'ldi, syurtuk o'rniga tamomila pidjak kirdi, tsilindrning o'rniga esa fetr (namat) shlyapa kirdi. Tantanali kechalarda frak o'rniga "*smoking*" (shol yoqasi atlas matodan qilingan) kiyadigan bo'lishdi.

Lekin boi burjuaziya vakillari va London oliftalari — "*dendi*" ajralib turish uchun kostyumning ayrim bo'limlarini o'zgartirishga intilgandilar. Boylikni ko'rsatish uchun ularda oltin to'g'nog'ich, soat, zanjir, uzuk, ilmatugma (zaponka)ni taqish odati saqlanib qolgandi. Erkaklarning orastaligining sirlari va nozik tafsilotlari klassifikatsiyalangandi va boy odamlar ularni kunt bilan o'rganar edilar.

Ammo XIX asr oxirigacha kiyim yordamida erkaklar gavdasining go'zalligini ko'rsatishga intilgan bo'lishsa, endi moda barchani bir xil siluetga kiyintirib, gavdaga ahamiyat bermas edi (94-rasm).




95-rasm. Modern uslubi. Shifondan ko'ylak.1901 yil.



96-rasm. Modern uslubi. Kunduzgi ko'ylak. 1907 yil

Ayollar kostyumi. XIX asrning 90-yillari oxirida yaratilgan kostyum XX asr boshida saqlanib qolgandi (94, 95, 96-rasmlar). Amaliy san'atda modern uslubining taraqqiy topishi bilan va tanazzulga yuz tutgan adabiyot bilan qiziqish shu bejamdor idealning asosiy xususiyatlarini keskinlashtirgandi. Parij Moda uylari bu yo'nalishni astoydil tarqatgandi. Bu davrda ayollar kostyumining silueti o'zgarmagandi. Kiyimning xilma-xilligi ayrim detallar yordamida burma (oborqa) yoki buf yordamida kengaygandi; bel chizig'i oldida sal pasaytirilib, belbog' bilan aniqlanardi. yengil yoz ko'ylaklar va bluzkalar volanlar, plissirovkalar va to'rlar bilan bezatilardi.

Soyaboni bejamdor egilgan va sal qaytarilgan, katta shlyapalari gullar, patlar, to'rlar va bantlar bilan bezatilgandi.



107-rasm. 1900-1914 yillar. Oyoq kiyimlari.

1906—1907 yillarda siluet ma'lum darajada o'zgardi: bo'ksaga unchalik ahamiyat berilmasdan, gavda yanada egilgandi.

Oddiylilikni faqat kundalik kostyumlarda uchratish mumkin edi. Sport va sayohat uchun kiyimlar kisqaroq qilinardi, ammo baland berk yoqali va qalin jun matodan bo'lardi.

XX asr Ovropa ikkinchi davr (1909—1914 yy.) erkaklar va ayollar kostyumi **Ikkinchi davr (1909—1914 yy.)**

Erkaklar kostyumi. Bu davrda erkaklarning kopchiligi standart kostyum kiyishardi. Oldingi davrga nisbatan kiyimlar paltoning yangi uzunligi bilan; tugma va cho'ntaklarining soni bilan; shim — "gol f" qalin jun paypoq bilan birgalikda tarqalgani bilan; shlyapalar, yoqalar, ko'ylaklar, hassalar va boshqa buyumlar bilan farqlanardi.

Ayollar kostyumi. Parijda Dyagilev rus balet guruhining gastrollari ayollar kostyumida yangi siluet paydo bo'lishi bilan nishonlangandi. Parij modelyerlari rus rassomi L.Bakstning eskizlari bo'yicha kostyumlar yaratishdi. Yangi siluet modern uslubi chegarasida yaratilgandi, chiziqlarning egiluvchanligi saqlangandi.

Bel chizig'i ko'tarilgandi, ammo saqlanib qolgan uzun korset avvalgiday figurani egib turardi, to'g'ri yubkani faqat etagi qiya bichilgan "tren" yordamida kengaytirishardi, kunduzgi va kundalik ko'ylaklarda tor yenglar tugmalanardi.

Chiziq va bezaklarda asimmetriya keng ko'llangandi; lif va yubkada drapirovka paydo bo'lgandi.

Ayol gavdasi endi xurpaygan, gulning sal egilgan poyasiga o'xshagandi. Bu o'xshashlikni gul va patlar bilan bezatilgan katta shlyapalar kuchaytirardi.

Rus baleti bilan qiziqish kiyimda hashamatli rang birikmalari bilan (ko'k va yashil, sariq va tilla yashil, pushti va kul ranglar); qo'llangan faktura birikmalari bilan (baxmal va atlas, shifon va atlas va b.); kashtaning keng tarqalgani bilan ifodalanardi.

Yangi shakl izlanishlari o'tqazma yeng o'rniga yaxlit bichilgan yenglarga olib kelgandi.

Modali siluet chiziqlari saqlangan holda kundalik kostyum ancha oddiylashdi. "Reforma" ko'ylaklari saqlanib qolgandi va uning to'g'ri chiziqlariga qaramasdan korset kiyishgandi.

1910—1914 yillarda bel chizig'ining pasayishi siluetning o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Yapon san'atiga qiziqish erkin lifning' yelkasiga yumshoqlik va mayinlik beradigan "yaponka" bichimining (yaxlit bichilgan yeng) vujudga kelishi bilan nishonlandi.

1911—1914 yillarning mayin, "oqib" turgan chiziqlari oldingi siluetlardan farqlanardi. Figuraning egilganligi yo'qolib, gavda to'g'riroq va kengroq bo'lgandi; 1914 yilga kelib kostyum silueti cho'zilgan romb shakliga aylandi. Yangi mutanosiblik "tyunik"ning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. past sal kengaygan lifyunik va tor yubka nisbatlari o'ziga xos go'zallik yaratgandi (98-rasm). Mayin chiziqlarni maxsus usulda biriktirilgan gazmol bo'laklarining erkin drapirovkalari yaratgandi. Yirik rassom-modelyerlar Duse, Poken, Vort yaratgan drapirovkalangan ko'ylaklar bir bo'lak matodan bir harakatda qilinganga o'xshagandi.




98-rasm. Ayollar kostyumi va oyoq kiyimi. 1910-1915 yillar.

Ranglar gammasi har xil edi: qizil, to'k qizil, ko'k, och binafsha, sariq, kumush ranglar. Kundalik ko'ylaklarda esa ko'proq qora, jigar rang va kul ranglar uchrardi.

Qaytib kelgan drapirovkalar elastik matolardan qilinardi: harir shifondan "fay feodal" (yumshoq, og'ir, g'ijimlanmaydigan mato)gacha edi. Gazmollarning plastik va koloristik xususiyatlarini to'liqroq ko'rsatish uchun yu'qa rangli matolarni birining ustiga birini qo'yib drapirovka qilinardi va, natijada, ranglarning fazoviy aralashmasi yaratilib, yangi rang garmoniyasiga erishilardi.




105 a-rasm. Sayr uchun ayollar kostyumi. 1910 yil



99 b-rasm. Sayr uchun ayollar kostyumi.

Bu davrda mo'yna modaga kirgandi, ayniqsa, mo'ynali manto keng tarqalgandi. Kopincha qorako'lni suvsar bilan, dengiz mushugini kalamush mo'ynasi bilan qo'shib ishlatilardi. Ular juda qimmat turardi.



100 v-rasm. Sayr uchun ayollar kostyumi.

Agar kiyimda oddiylikka, qulaylikka, sog'lom tanani ko'rsatishga intilish paydo bo'lgan bo'lsa, ayolning tashqi ko'rinishida esa modernizm ta'siri xaligacha sezilardi. Grim yordamida hosil qilingan chuqur joylashgan katta ko'zlar, bo'zargan tana, xumor ko'zlar shuning ifodasi edi.

Prichyoskasi baland, konussimon, peshonasiga tushgan yirik jingalaklar yoki sillik, to'g'ri farq ochilgan, yuziga tushgan sochlar va past joylangan o'rilgan soch tugunlari edi.

Kundalik kiyimda ham o'zgarishlar bo'lgandi. Shaharda yangi turmush tarzi va yangi sharoitlar - tramvay, metro, avtomobillarning keng tarqalishi va ishlaydigan ayollarning kopayganligi kulay kiyimni talab etardi. Eng avval korsetlar o'zgargandi. Harakatga xalaqit bermasligi uchun avval elastik rezinani ko'shadigan bo'lishdi, keyin butunlay rezinali elastik matodan qilinadigan bo'ldi va old metall planshetkasini qiskartirishgandi.

Yubka va bluzkalar qulay kiyim bo'lgani uchun keng tarqalgandi. Kostyumlar ham oddiylashgandi. Bu davrda birinchi marotaba ustki kiyimni junli trikotajdan qilishga urinishgandi.

Qulay kiyimlar qatorida noqulay tor uzun yubka "*trubka*" va juda katta keng soyabonli shlyapalar modaga kirgandi (100-rasm).

XX asr Ovropa uchinchi davr (1915—1918 yy.)erkaklar va ayollar kostyumi

Uchinchi davr (1915—1918 yy.)

Birinchi jahon urushi modaga kuchli ta'sir ko'rsatgan edi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi deyarli o'zgarmagan, faqat qulay va oddiy harbiy kiyimlarning ta'siri sezilardi. Harbiy frenchga o'xshagan oldi berk pidjaklar, "*galife*" shimlar va etik ko'nji o'rniga "*kraga*"lar odat bo'lgandi.

Ayollar kostyumi. Erkaklar kostyumining barqarorligiga qarama-qarshi ayollar kiyimining yangi turlari paydo bo'ldi. Ovrupo ayollarining ijtimoiy holining o'zgarishi bunga sabab bo'lgan edi.



101-rasm. Ayollar kostyumi. 1914-1916 yillar.

1915 yilda ayollar kiyimida asosiy islohotlar amalga oshirilgan edi: ayollar uzun korset va uzun yubka kiymaydigan bo'lishdi. Kundalik kostyum ayollarning hayotida muxim o'rinni egallagandi. Yubka va bluzka endi faqat kundalik kiyimda emas, bashang. kiyimda xam keng tarqaldi. Ustki kiyimda erkaklar, ayniqsa uchuvchilar kostyumiga taqlid etilgandi. Keng paltolar "*aviatique*" deb atalardi. Bu og'ir yillarda ayollar ish kostyumi paydo bo'lgandi va u erkaklar ish kostyumining to'liq nusxasi edi.

Bu davr mobaynida hozirgi zamon kostyumining asosiy xususiyatlari yaratilgandi: konstruktivlik, bichimning oddiyligi va aniqligi, bezaklarning konstruktiv chiziqlarda joylashganligi - bularning barchasi yangi uslubiy yo'nalishning paydo bo'lishini anglatardi (102-rasm). 1918 yil, urushning oxirgi yili, ayollar kostyumiga oddiylikni olib kelgandi. Ayollar kiyimi qisqara va toraya boshladi, sochlari qisqa qir qilgandi.



102-rasm. Ayollar kunduzgi ko'ylaklari. 1919 yil.

XX asr Ovroqpa to'rtinchi davr (1919—1928 yy.) erkaklar va ayollar kostyumi

To'rtinchi davr (1919—1928 yy.)

Fan va texnikaning rivojlanishi ayollar kiyimida konstruktivizm qoidalarining keng tarqalishiga hamda ularning kelajakka asos bo'lib qolishiga sabab bo'lgandi.

Ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlar o'zgargandi. Endi ular xizmatdosh bo'ldi. Ish kuni davomida ularning bir-birlari bilan muzokaralari ayollarning tashqi ko'rinishiga ta'sir etgandi. O'tgan urushni va do'stona munosabatni eslatadigan ayolning g'alati siymosi vujudga kelgandi. Ayol o'spiringa (*la garconne*) aylangandi. Ingichka, serharakat, uzun ozg'in qo'lli, tor bo'ksali, yassi ko'krakli, qisqa qirqilgan sochli (*babico'fe*), ko'zlari va lablari bo'yalgan va og'zida doimo papirosi bor ayol o'spirinni va kopni ko'rgan ayolni o'zida mujassamlashtirgandi (108, 109-rasmlar).

Asrning 20-yillarida ayollar kostyumini yaratishga texnikaning rivojlanishi va tikuv sanoatining mexanizatsiyalanishi ta'sir etgandi. Bichim va tikuv texnologiyasi qulay va oddiyliqi, gavdaga kiyimning moslanganligi tayyor kiyim mahsulotining arzonlashtirilishiga va bozorda keng tarqalishiga olib keldi. Endi kiyimning (palto, ko'ylak va jaket) tayanch nuqtasi faqat yelka bo'ldi. Ko'ylak endi tor to'g'ri shaklli bo'lib, tor bo'ksada belbog' yordamida bog'lanib, solynib turardi. Dekorativ elementlar konstruktiv chiziqlarini boyitgandi

Konstruktivizmning asosiy qonunlaridan biri — matoning plastik xususiyatlarini aks ettirish kostyumga xam o'tgandi. Balga oid ko'ylaklarning tekis yuzasi asimmetrik drapirovkalar bilan ifodali qarama-qarshilik asosida yaratilardi Ko'ylak yengsiz bo'lib, old va orqasida chuqur dekolte qilingandi. Bu qarama-qarshilik, ayniqsa, ko'ylakning kaltaligida va qisqa qirqilgan sochda sezilardi. Chuqur, yumshoq, kichkina, tor soyabonli oldi ko'tarilgan, yonlari tushib turgan shlyapa ayollarga ajoyib bir ko'rinish berardi. Paltoning baland yoqalari engakni berkitardi.

Modellashning yangi muammolari kundalik, kasbga va Sportga oid kiyimlarning yangi turlarining paydo bo'lishiga olib keldi (108-rasm). Ko'ylak-paltoning yaratilishi shu davrning katta yutug'i bo'ldi.



103-rasm. Ayollar kunduzgi ko'ylaklari. 1920 yil.

Kiyim kalta bo'lgani uchun paypoq kostyumda muxim rolni o'ynaydigan bo'ldi. Och rangli yaltiroq ipak (viskozali) paypoqni sanoatda ishlab chikariladigan bo'ldi. Uning

arzon va hammabopligi ayollar kostyumining demokratizatsiyalashganligi ramzi bo'lib qolgandi. Ular turli tuflilarga mos kelardi (112-rasm).



104-rasm. Ayol siymosi. 1928 yil.

Ko'plab chiqarilayotgan ommabop matolar orasida xilma-xil rangli va deyarli arzon sun'iy ipak matolar muxim o'rin olgandi. Ulardan kundalik ko'ylaklarni tikishadigan bo'ldi. Ichki kiyim, bluzka va ko'ylakni tikish uchun jun va shoyi trikotaj matolar keng reklama qilindi. Shoyi trikotajning plastik xususiyatlari 20-yillarning ichki kiyimiga juda mos bo'lgani uchun ip gazlamalarga endi ehtiyoj yo'q edi.

Gazlamalar, asosan, yozlik kiyimlarda qo'llanardi.

Katta va qulay sumkani ayollar doimo olib yurishardi.


Qimmatbaho taqinchoqlarni endi deyarli taqishmasdi. Sun'iy marvaridlar va boshqa sun'iy toshlar tabiiy toshlar o'rniga kelgandi. Ayollarning tashqi ko'rinishiga bashanglik va tantanalilik berish uchun, asosan, yaltiroq sun'iy toshlar ko'llanardi.

"*Dancing*"larning (raqs tushish uchun xonalar) keng tarqalishi ishlaydigan yoshlar uchun kechki ko'ylak turlarini yaratishga asos bo'ldi.

XX asr Ovropa beshinchi davr (1929—1939 yy.)erkaklar va ayollar kostyumi

Beshinchi davr (1929—1939 yy.)

G'arbiy Ovrupo va Amerikaning iqtisodiy yuksalishi 1929 yilda chuqur iqtisodiy krizis bilan yakunlangandi. Ishsizlik, turg'unlik (depressiya), moddiy va ma'naviy turg'unlik yangi shavqatsiz urushga tayyorlanishga olib keldi.




105-rasm. Kechki ko'ylak.



106-rasm. Sayr uchun libos.

Bular barchasi madaniy soxalarga va, shu jumladan, ayollarning tashqi ko'rinishiga va kostyumiga ta'sir etgandi. Teng huquqlik "*la garson*" ayollar orasida meshchanlik fazilatlarini olib keldi. Endi ular Olmoniyada qadrlangan uyning saranjom-sarishtaligini orzu qilishardi.

Nazokatlikni qaytarishga intilishardi. Ammo turmush tarzi o'zgargani sababli eski urfdagi kostyumlarga qaytib bo'lmasdi. Balog'at yoshiga yetgan ayollarga mo'ljallangan siluet va undagi mutanosiblik, prichyoskalar va b. vujudga kelgandi. Uzunligi boldirdan pastroq tor ko'ylaklar ozg'in, yassi ko'krakli, tor bo'ksali ayollarga mo'ljallangandi. Bel chizig'i tabiiy joyiga ko'tarilgandi. 20-yillarning qat'iy konstruktivligiga qaramay assimetrik drapirovkalangan tyuniklar, og'ir yoqalar, volanlar, plissirovkalar paydo bo'lgandi. Kundalik ko'ylaklarda ko'p mayda chiziqlar - kesimlar, xar xil shaklli koketkalar qilina boshladi. Yo'l-yo'l matolar xar xil yo'nalishda bichilib, turli ko'rinishlar berardi Ustki kiyimda katta mo'ynali yoqa va manjetlar urf bo'lgandi..



107-rasm. Oyoq kiyimlari. 1925-1929 yillar.



108-rasm. Kunduzgi va kechki ayollar kiyimlari. 1931 yil.

XX asr Ovroqpa oltinchi davr (1940-1949 yy.)erkaklar va ayollar kostyumi

Oltinchi davr (1940-1949 yy.)

Yangi davr Ovrupoda zambarak va bombalarning gumburlashi bilan boshlandi. Ovrupo harbiy lagerga aylandi. Olmoniyaga bo'ysungan Ovrupo sanoati urushga ishlagandi. Frantsiya Moda uylari Amerikaga ko'chib kelganligi sababli Amerika moda qonundori bo'lib qolgandi.



109-rasm. 1949 yillar ayollar kostyumi.

Bu davrda baravariga uchta siluet vujudga kelgandi: N - to'g'ri to'rtburchak, A - uchburchak bilan to'rtburchak, X - ikkita uchburchak. Kiyimlarning uzunligi tizzasidan sal pastroq edi. Fasonlarda harbiy elementlar kop uchrardi: taxlamlar, cho'ntakli koketkalar, keng belbog'lar, manjetlar, erkaklar ko'ylagiga o'xshagan yoqalar va b. bo'lgan. Undan tashqari, harbiy davr sharoitiga mos shim ayollar kiyimida zarur buyumga aylanib qolgandi. Bo'larning katorida to'r yoqalar va jabolar, bantlar ham uchrardi (109-rasm).

Oyoq kiyimlar past yoki o'rtacha balandlikda, keng poshnali edi.

Sochlar jingalak qilingandi.

1947 yilda "Kristian Dior" frantsuz firmasining yangi modalar kolleksiyasi jamiyatning yangi estetik talabini vujudga keltirgandi. Yopishib turgan lifli, uzun keng yubkali, suyri yelkali ko'ylak, baland ingichka poshnali yengil tufli nazokatlilikni aks ettirardi.

Bu davrga kelib ximiya sanoati yangi - sintetik tolani yaratgandi. Uning yangi xususiyatlari tabiiy matolar (zig'ir, jun, ipak va paxta) o'rnini sal orqaga surgan edi.

Bu davrda ayollar va erkaklar kostyumlari bir-biriga yaqinlashib, ayollar ham shim va Sport kurtkalarini kiyisha boshlashdi. Erkaklar bo'lsa, ayollarnikiga o'xshash katak matolardan ko'ylak, Sport kurtkalarini oldin Sport kiyim sifatida kiyishgan bo'lsa, endi u kundalik kiyimga aylangan edi.



110-rasm. Nyu Luk. Kechki ko'ylak. 1948 yil.

XX asr Ovropa yettinchi davr (1950—1960yy.)erkaklar va ayollar kostyumi

Ettinchi davr (1950—1960 yy.)

50-yillar ayollarning tashqi ko'rinishiga, modasiga mustamlakachilikka qarshi mustaqillik uchun kurashlar ta'sir etgandi. Moda uylari sharq manbalarini va sharq "*makiyaj*"ini kostyumga kiritgan edi.

Erkaklar kostyumi. Avvalgi modalardan fraq va smoking qolgandi. Silindr va kotelok o'rnini yumshoq shlyapalar, beretlar egallagan. Bosh yalang yurish modasi ham paydo bo'ldi. Kiyimlar yengillashdi. Oldin faqat ayollar kiyimida bo'lgan yaxlit bichilgan yenglar palto va kurtkaga xam o'tdi.

Erkaklar gavdasi tabiiy holga yaqinroq bo'lishi uchun modelerlar shimning pastini toraytirishgandi.

Junli matolar o'rniga amerikaliklar didiga binoan g'ijim bo'lmaydigan sintetik matolar kirgandi.

Yoqasiz pidjaklar va kalta yengli ko'ylaklari paydo bo'ldi.

Oyoq kiyimlari yengil va qulay edi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumida baravar bir necha siluet paydo bo'ldi: yopishib turgan lifga keng rombsimon, oval va trapetsiyasimon yubkalar edi. Bunga qaramasdan, shakllarning barchasini oddiylik va mantiqiylik tavsiflardi. Shaxsning individualligini namoyon etish uchun bezaklar endi muhim ro'l o'ynagandi. Ular mutanosibliklarni va kompozitsion markazni aniqlar edi. Ammo bezaklar oddiy materiallardan (loy va yog'ochdan) qilingandi.

50-yillarning kostyumida oldingi davrning elementlaridan shakl va bichish usullarigina qolgandi (111, 112-rasmlar).



111-rasm. Nyu Luk. Kunduzgi ko'ylak. 1953 yil.



112-rasm. XX asr 50 yillar ayollar modasi.

1954 yildan boshlab Shanel modellari yana ommabop bo'la boshladi. Ular asosan to'rti siluetli jaket bilan ko'ylak va yubka, bluzka va jaket edi. Yoqasi, borti, cho'ntagi, yeng shlitsasi chilvir, tasma, popuk bilan bezatilgandi. Bluzkaning yoqasi bant yoki galstuk bilan bezatilar edi.

XX asr Ovropa sakkizinchi davr (1963—1980 yy.) erkaklar va ayollar kostyumi


Sakkizinchi davr (1963—1980 yy.)

1963—1965 yillarda G'arbiy Ovrupo mamlakatlarida eski burjua ideallariga qarshi yoshlar qat'iy norozilik bildirdilar. "*Tinejdjerlar*" — 13-19 yoshli o'spirinlar - o'z didini va kiyim kiyish odatini o'rnatmoqchi bo'ldilar. Ushbu yo'nalish "*antimoda*" deb atalgandi. Juda ozg'in; uzun Oyoqli; kalta malla sochli; yopishtirilgan uzun qalin kipriklari bilan o'spirin qiz *Tviggi* (*ingl.* — chiviqcha) go'zallik ramziga aylangandi. Antimoda odatdagi buyumlardan kechgandi. Sun'iy charmdan yamoqli mototsikl kurtkasi, ataylab yirtilgan sviter, eskirgan *djinsi*, sandal (shippak) ularning asosiy kiyimlari bo'lgandi.

Parij Moda uylariga qarama-qarshi modalar kolleksiyasini yaratishgandi. A.Kurrej konstruktiv elementlarni, 'Karden — kosmik mavzularni, Iv Sen-Loran — tsigan romantikasini va "*safari*" uslubini qo'llashgandi.

1964-65 yillarda frantsuz kutuyyesi A.Kurrej va ingliz model yeri Meri Kuant kiyimda "*mini*" uzunligini taqdim etishgandi (113-rasm).

1968 yildan boshlab kiyimda bu uzunlik va geometrik uslub juda keng tarqalgandi. Gollivudning kovboy filmlari ta'sirida shu yillarda djinsilar davri boshlangan edi.



113-rasm. *a*– XX asr 60 yillar ayollar modasi, *b*–XX asr 70 yillar ayollar modasi.

Bu yo'nalishlarga qarama-qarshi 70-yillarda yangi romantik uslub vujudga keldi. Xalk san'ati unga ijodiy manba bo'ldi. Ola-bula jun gazmollar va o'zga mamlakatlarning oddiy bichimlari modaga kirgandi. "*Gaucha*" ishtonlar, yopinchoq — "*poncho*", kashtalangan afg'on kurtkalari, hind shollari, to'qilgan shapkalari va qo'lqoplari, arab kiyimlari va boshqalar jaxon modasida keng tarqalgandi.

70-yillarda Shark dunyosining Ovrupo kiyim uslubiga "bostirib" kirishi bilan yapon modelyerlari jahon moda doirasida taniqli bo'lishdi. Ayniqsa, Kenzo Takada va Mitsuxiro Matsuda modellarining dong'i chiqqandi. Ular, bir tomondan, original Ovrupo modasini yaratishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, - odatdagi sharq kostyumi elementlarini yangi uslubga singdirishgandi. Kenzo, hattoki, Ovrupo modasiga Janubi-Sharqiy Osiyo qishloq kostyumi elementlarini kiritgandi.

Parij moda qonundori bo'lib qolgan bo'lsa xam, endi moda yaratuvchilarining shaxsiy uslublari yaqqolroq sezilardi. Bir mavsumda Ovrupo tarixiy kostyumlarining va boshqa qit'alar xalqlari kiyimlarining ta'siri bo'lgandi. Misol uchun, 80-yillarda Yapon samuray uslubi, Tibet xalk kiyimi, ibtidoiy qabilalar kiyimi, o'rta va Janubiy Amerika fol klor tendentsiyalari modada keng tarqalgandi. Shular qatorida "*qashshoqlik*" modasining xilma-xil usullari (eskirganga o'xshash maxsus bo'yalgan va yirtiklar hosil qilingan matolarni qo'llash) va zamonaviy (1910—1920 yy.) rassomchilik va me'morchilik (kubizm, Mondrian) ta'sirida kostyumlar yaratilgandi.

70—80-yillarda yoshlarning tajovuzkorligi "qopol uslub" — "*ank*" ni yuzaga keltirgandi. Tuturuksiz kiyimlar, sochlarini rang-barang bo'yoklarga bo'yab qilingan prichyoskalar atrofdagilarni hijolatda qoldirardi Erkin vaqt o'tkazishga, dam olishga, Sportga asoslangan 80-yillar modasi kiyimga erkinlik va shaxsiy ijodga imkoniyat yaratardi.

8 - MAVZU: O`RTA OSIYO KOSTYUM TARIXI.

Mashg`ulot turi - ma`ruza

Asosiy savollar:

- 1.O`rta Osiyo antik davrini san`ati va kostyumi.
- 2.Ilk feodal o`rta asrlikni san`ati va kostyumi.
- 3.O`rta Osiyo kech o`rta asrlar davridagi san`ati.

Tayanch so`z va iboralar:

O`rta Osiyo antik davrini san`ati va kostyumi. Kiyim turlari ularning bichimi,bezagi, qo`llaniladigan materiallari.

Ilk feodal o`rta asrlikni san`ati va kostyumi. Kiyim turlari ularning bichimi,bezagi, qo`llaniladigan materiallari.

O`rta Osiyo kech o`rta asrlar davridagi san`ati. Kostyum turlari, shakllari,bichimi, qo`llaniladigan materiallari. Erkak va ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo`llangan matolari.

Adabiyotlar

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А.Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
- 2.Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
- 3.Хасанбаева Г.К. То`qimachilik dizayn tarixi. O`quv qo`llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
- 4.Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.
- 5.Хасанбаева Г.К., Шомансурова М. Maxsus kompozitsiya. O`quv qo`llanma.-Т.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
- 6.S.U. Ro`latova va b. Libos kompozitsiyasi. O`quv qo`llanma.-Т.:Turon-Iqbol, 2006-у., 128b.
- 7.Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

1.O`rta Osiyo antik davrini san`ati va kostyumi.

O`rta Osiyo xalqlarining antik davrda tarixiy taqdiri va turmush tarzi, dinlari.

O`rta Osiyoning katta qismni miloddan avvalgi VI - asrlarda Eron Axmoniyolari, ulardan so`ng miloddan avvalgi 329-327 yillarida Iskandar Zulqarnayn qo`shinlari bosib olishi ham bu yerda qo`ldorlikning yanada rivojlanishiga ta`sir etgan. Miloddan avvalgi III-asr o`rtalarida O`rta Osiyoning g`arbida yirik quldorlik davlati-Parfiya vujudga kelgan. Koppina yozma manbalarga ko`ra u xatto Rum imperiyasining ham xavfli raqibiga aylangan.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan qabartma suratlar, oltin va kumush idishlarga ishlangan burtma manzaralar, turli xil tangalar fikrimizga yorqin dalil bo`la oladi.

O'rta Osiyoda quldolik madaniyati miloddan keyingi I-III asrlarda, ya'ni Kushon Podsholigi davrida o'zining eng yuksak davrini boshdan kechirgandi. Bu yuksalish, albatta o'z o'zidan yuz bermay, uning bir qator omillari ham bordir. Bu hollarda, dastavval sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, jamoaning yemirilishi, erkin jamoa a'zolarining xaddan tashqari qashshoqlanishi bilan bog'liq bo'lgandi.

Parfiya podshohligi inqirozga uchragandan keyin (III asrning brinchi yarmi) O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlari, asosan Eron sosoniylari qo'liga o'tdi. IV - V asrlarda Baktriya va Sug'diyonada esa Eftalitlar davlati paydo bo'ldi.

Urug' - aymog'lar uyushib yashashga ko'nikkan O'rta Osiyo xalqlari ayniqsa dehqonchilikka va chorvachilikka zo'r berdilar. Ular chorva mollarini asrash maqsadida keng maydonlarni qamragan qalalar ko'rdilar.

Buyuk yunon muarrixlari Gerodot, Kvint, Kurtsiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diador, Starbon, Pompey Torg, Yustin, Aristotel, Ksenofontlar O'rta Osiyo xalqlari xaqida ajoyib tarix bitganlar. Misol uchun, yozma manbaalarga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari kamida skiflar deb atalgan. Yunon muarrixi Pompey Trog O'rta Osiyo xalqlari xaqida gapirib, "qadimiylkda ular misrliklar bilan bahslashardilar", deb yozgan.

O'rta Osiyoda oramiy, yunon forsiy yozuvlari keng tarqalgan. Ular moddiy va manaviy madaniyatning keyingi ravnaqiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

Shu davrga taalluqli rasmlarda va haykallarda yer va unumdorlik xudosi Anaxita, otliqlar, xayvonlar, xayoliy maxluqlar shakl - tamoyillarni ko'ramiz. Afrosiyob topilmalari orasida chaqmon, uzun kunjli etik, uchli bosh kiyim kiygan, bo'yniga qimmatbaxo ma'danlardan bezaklar osib olgan xaykalchalar diqqatimizni tortadi.

Qadimda zarb etilgan tangalar, idish - tovoqlar, qurol aslaxalarga tushirilgan rasmlarda tabiat manzaralarini, odam va xayvonlar tasvirini ko'ramiz.

Ayrimtomdan topilgan yodgorliklarga ko'ra O'rta Osiyoda musiqa san'ati taraqqiy to'gan.

O'rta Osiyo xalqlari qadimda ajoyib me'morchilik obidalarini bunyod etdilar. qadimdan qolgan katta yodgorliklar - Kuykirilgan qal'a, Tuproq qal'a, Ayritom, Yonbosh qal'a, Dalvarzintepa, Varaxsha va boshqa tarixiy joylardan topilgan ajoyib saroylar, qadimiy san'at namunalari: me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, xaykaltaroshlik asarlari o'tmish ajdodlarimizning yuksak aql-zakovatidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo va Eron xalqlarining qadimgi madaniy merosining asl durdonalaridan biri, bu muqaddas "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, bu din ko'rtaklari ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan. Zardushtiylik quldorlik va ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda asosiy diniy e'tiqod sifatida keng tarqalgan. Zardushtiylik bu o'lkalarda islom dini joriy etilgan ilk davrlarda ham bir necha yillar saqlanib qolgan. "Avesto" nafaqat diniy kitob, balki kop mamlakatlarning uzoq asrlardagi tarixi, ijtimoiy - inson iqtisodiy xayoti, tili, yozuvi, badiiy madaniyatini o'rganishda ham buyuk manbadir.

Zardushtiylik mohiyati - ezgulik va yovuzlik (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi qarama - qarshilikka asoslangan.

Kushonlar imperiyasi davrida O'rta Osiyoga Hindistondan buddizm dini kirib kelgan. Imperiyaning madaniy markazlarida barpo etilgan budda ibodatxonalari o'sha

zamon san'ati bilan bezalganligi bilan ajralib turadi. Buddizm Kushonlar davlati tomonidan mafkuraga aylangan bo'lsada, aslida bu din unchalik e'tibor topmadi.

Kushon podsholigi davrida mustahkam istexkom - shahar qurilishi keng rivojlangandi. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralgan, ularning ichida arqalar bo'lib, har xil ko'targan. So'pol idishlar nihoyatda nafis, nozik va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san'at keng taraqqiy etgan. Zeb - ziynat buyumlari, mexnat va jang qurollari va mato to'qish rivojlangandi.

Qadimiy O'rta Osiyo san'at yodgorliklari antik davri kiyimlarining turlari bilan tanishishga boy imkoniyat beradi.

Yunon muarrix Gerodotning ma'lumoti bo'yicha hamma qabiladagi odamlar, xattoki erkaklar ham, kiyimsiz yurishni uyatli deb hisoblashardi.

Ayollar kostyum turlari

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi yunonsimon skifsimon va hindsimon bo'lgandi. Ular ichki va ustki; yelka, bel, bosh va oyoq kiyimlardan iborat edi.

Ayollar ko'ylagining ikki turi uchrardi. Birinchisi - tunikasimon bichimli ko'kragi tagida va belida belbog' bilan bog'langan to'g'ri ko'ylak edi. Uning yoqa o'mizi dumaloq bo'lgan, oldi esa tomchisimon kesimli edi. Ko'ylakning ikkinchi turi yunon xitoniga o'xshash edi: ikki bo'y baravar mato parchasini yelkada to'g'nog'ich bilan biriktirishardi, etagining yon burchaklarini tugunga bog'lab qo'yishardi (antik yunon xitonlarda esa etagi erkin tushib, drapirovkalanardi. Bu ko'ylak belida va ko'kragini tagidan belbog' bilan bog'lanardi.

Ustki kiyimlari skifsimon kaftanlar va yopishqoqlar bo'lgan. Kaftan bichimi tunikasimon bo'lgan, shakli to'g'ri yoki gavdaga yopishib turadigan edi. Tor yengi uzun edi, ba'zan, ko'ndalang tahlamalilari ham uchrardi. Kaftanlar tik yoki diogonal yo'nalishida qavilardi. Yoqa o'mizi va oldi to'qilgan tasma bilan bezatilgandi.

Ko'ylak yoki kaftan ustidan yopinchoq kiyishardi. Ular bo'y baravar to'g'ri to'rtburchak matodan qilinib, yelkaga tashlanardi, old uchlari esa to'g'nog'ich bilan biriktirilardi.

Bel kiyimi - uzun, etikka kirgizilgan ishtonlar edi. Ular ko'ylakning tagidan ko'rinishi mumkin edi.

Bosh kiyimlari konussimon namatdan qilingan qalpoqlar, yumshoq yassi shapkalar, sallasimon, tojsimon bosh kiyimlar va yopinchoqlar bo'lgan.

prichyoskalari murakkab va xilma - xil bo'lgan. O'rilgan sochlar turli usulda turmaklangandi (114 - rasm).



114 – rasm. Ayollar bosh kiyimlari.

Bezak taqinchoqlar: tojlar, ziraklar, tillaqoshlar, grivna va boshqalar bo'lgan.

Oyoq kiyimlari yumshoq etik edi, gohida, qo'njining tepa qismi qaytarilishi mumkin edi.

Buddizm turidagi kiyimlar quyidagilardan iborat edi:

- gavgada yopishib turadigan yoki ser drapirovkalangan ko'ylak; ustidan tugma va naqshli tasma bilan bezatilgan uzun ko'ndalang tahlamli yengli ko'ylak yoki kaftan va yana ustidan kiyilgan yengsiz ko'ylak. Ustki kiyimi yopinchoq. Bosh kiyimi - yumshoq, bir uchi yelkaga tashlanadigan ro'mol. Bezaklari: bo'ynida grivnalar, bilak uzuklar, peshona osilchoqlari, tillaqoshlar, og'ir ziraklar va marjonlar bo'lgan;

- tunikasimon, tor, uzun, ko'ndalang taxlamli yengli ko'ylak, ustidan beli bog'langan xotinlar yopinchoqqa o'ralgan edilar; drapirovkalangan ishtonlar bo'ksada keng yumshoq belboq yordamida mahkamlangandi;

- prichyoskalari har xil va murakkab bo'lgan: yuzaning aylanasi joylashgan o'rilgan sochlar yoki jingalaklar. Erkaklar kostyumi. Ularni kiyimi ham yelka va bel; ustki va ichki kiyimlardan iborat.

Yelka kiyimi ichki ko'ylak va ustidan kiyiladigan kaftandan iborat. Ularning bichimi tunikasimon, shakli to'g'ri edi. Kiyim gavgada sal yopishib turardi. Uzunligi bo'ksasidan pastroq yoki tizzagacha edi. Uzun yengi tor yoki ko'ndalang tahlamali bo'lgan.

Beliga belbog' bog'lashardi. Bel kiyimi tor yoki ko'ndalang tahlamali ishtonlardan iborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon qalpoqlar bo'lgan. Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi qaytarilgan etiklar edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo antik kostyumiga skiflar, ellinlar va hindlarning ta'siri bo'lgan. Ammo, O'rta Osiyoliklarning kiyimlarining shaklida, kiyinish odatlarida, kiyim turlarida mahalliy odatlariga oid xususiyatlari bo'lgan va juda keng va boy tarixga ega bo'lgan.

Erkaklar kostyum turlari

Ularning kiyimi ham yelka va bel, ustki va ichki kiyimlardan iborat.

Yelka kiyimi ichki ko'ylak va ustidan kiyiladigan kaftandan iborat. Ularning bichimi tunikasimon shakli to'g'ri edi. Kiyim gavgada sal yopishib turardi. Uzunligi bo'ksasidan pastroq yoki tizzagacha edi, Uzun yengi tor yoki ko'ndalang taxlamali bo'lgan. Beliga belbog' bog'lashardi. Bel kiyimi tor yoki ko'ndalang taxlamali ishtonlardan iborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon qalpolardan bo'lgan, Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi qaytarilgan etiklar edi.

Shunday qilib. O'rta Osiyo antik kostyumiga skiflar, ellinlar va hindlarning ta'siri bo'lgan. Ammo O'rta Osiyoliklarning kiyimlarining shaklida, kiyinish odatlarida, kiyim turlarida maxalliy odatlariga oid xususiyatlari mavjud bo'lgan va juda keng, boy tarixga ega edi.

Ilk o'rta asr davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari

O'zbekiston xududida quldorlik munosabatlarining ilk feodal munosabatlariga o'sib o'tishi uchun zarur shart - sharoitlarning yetilishi III - V asrlarga to'g'ri keladi. VI - IX asrlar davomida ilk feodal jamiyati bu hududda uzl - kesil qaror to'pdi.

V asrda O'rta Osiyo va Qozog'iston hududini ishg'ol etib, o'z davlatini vujudga keltirgan hunn qabilalardan iborat eftalitlar hukmronligi davrida feodal munosabatlari ancha rivoj topadi. Eftalitlar bilan Eron sosoniylari uzoq vaqt urush olib bordilar. Eftalitlar zarb etgan tangalar savdo – sotiq muomalasida muxim rol o'ynaydi. Ular maxalliy aholi bilan toboro shaharlar bunyod bo'lib, savdo-sotiq kengayadi. Shaharlarda yirik karvonsaroylar, shinam uy-joylar va ibodatxonalar qad ko'taradi.

VI asrda xozirgi Oltoy o'lkasi xududida ko'chmanchi turk qabilalarining birlashuvi natijasida turk xoqonligi tashkil topdi. Turk xoqonligi hukmronlik ta'sirining o'sib borishi O'rta Osiyo xalqlarini keyingi tarixiy taqdirida alohida o'rin topdi. Ularning kuchli zarbalari ta'sirida O'rta Osiyodagi eftalitlar davlati barbod bo'ldi. Bu davrda feodal munosabatlari o'sib, mustahkamlanib bordi. Turk xoqonligi savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi. G'arbiy Osiyo Eron va O'rta Osiyodan boshqa davlatlarga, Xitoyga boradigan savdo karvonlarni, "Upak yo'li" ni osoyishta bo'lishini ta'minlashga ham katta e'tibor berdi. Buning yorqin ifodasi shuki, bu davrda qurilgan va obod bo'lgan shaharlar va aholi yashash joylari asosan karvon yo'llari bo'yiga qurilgan.

VI asrning boshlariga kelib turk xoqonligi sharqiy va g'arbiy qismlarga ajralib ketdi. Bunday vaziyatdan arab istilochilari foydalanib qoldilar.

VII asr boshlarida ijtimoiy - siyosiy kuchlari yangi din - islom g'oyasi bayrog'i ostida qisqa muddat ichida o'z mavqelarini mustahkamladilar. Butun Arabiston, Old Osiyo, Eron hududlari arablar tomonidan bosib olinib, u yerlardagi xalqlar majburan islom diniga bo'ysundirildilar.

VIII asr boshlaridan e'tiboran arab bosqinchilarining asosiy diqqati O'rta Osiyo qirilariga qaratildi va u yerlarni ishg'ol qildilar.

O'rta Osiyoga islom dinining yoyilishi hamda u bilan bog'liq bo'lgan diniy rasm - rusmlar, shariat va tariqat qonun - qoidalari, aqidalarining tarkib to'ib borishi, mahalliy xalq namoyondalari uchun muayyan ijobiy rol o'ynadi. Odamlar har xil xudolar, chiltonlar, muqaddas sanalgan narsalarga sig'inishdan halos bo'lib, yakkayu yagona Ollox taolo timsoliga, uning rasuli Muhammad Alayxissalom ko'rsatmalari va ruhlariga e'tiqod ila amal qiladigan bo'ldilar.

O'rta Osiyoga bostirib kelgan arablar bu yerda o'zlariga qaraganda ancha yuqori darajada turgan moddiy va ma'naviy madaniyatga, yuqori turmush darajasiga duch keldilar. Shu boisdan ular pirovardida bu yerdagi xalqlarning ilg'or madaniyati, urf - odatlari va an'analarini qabul etib, siginishib ketdilar.

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlar Sug'diyona, Baktriyaning yuksak darajadagi o'ziga xos madaniyati, san'ati xaqida guvoxlik beradi. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikentdagi qazilmalardan topilgan san'at buyumlari O'rta Osiyo xalqlari qadimgi va ilk O'rta asr madaniyatining naqadar boyligidan darak beradi. Saroy va ibodatxona va turar joy binolari binolaridagi naqshu nigoralar shoxona bazmijamshidlar, raqslar, pyoda va otliq jangchilarning savashlari manzaralardan ayrim saxnalari, odamlarning xaykalchalari, odam va hayvonlar surati tushirilgan yog'och o'ymakorligi buyumlari, Mug tog'i va Afrosiyob topilgan sug'd yozuvlari O'rta Osiyo kostyum tarixining o'rganishga yangi yo'l ochdi. Ilk O'rta asr rassomchilik uslubi nozik,

kompozitsiyasi dinamik kuchlarga to'la qatnashuvchilarning harakatlari va holatlari plastiklik, odamlarning siymolari imkon boricha tipiklashtirilgand bo'lgan. . Ularning taxlili bu davrda to'qimachilik san'ati yuqori darajaga erishganligini ko'rsatadi. Toqish joylarda jun, vodiylarda - ipak va ip matolar qo'llanardi. Ular asosan organik bo'yoqlarga bo'yalardi. Bir yoki kop rangli ipaklar, sidirg'a yoki naqshli ip gazmollar, zar qushib to'qilgan matolar kiyimlarda qo'llanardi. Naqshli to'qima, bosma yoki tuguncha usulida qilinardi. Naqshda asosan geometrik, o'simlik, hayvoniy, fantastik va karta mavzulari uchrardi. Naqsh kompozitsiyasi ikki - uch yoki to'rt rangli bo'lgan. Rang gammasi qizil sariq, yashil, oq, qora edi.

O'rta Osiyo gazmol markazlarida "zandanachi" kabi ko'k rangli ipak va boshqa matolarni ishlab chiqarilishi, yopishtirma yassi, g'ilof kiyimlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Kiyimning kompozitsion markazi mato bo'lgandi.

Ilk o'rta asr davrining erkak va ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari

Ilk O'rta asr kostyumida o'z manbalari bor edi. Kushon, eftalit, sosoniy, turk, xind, eron ta'sirlari bilan maxalliy meros ma'lum darajada umumiy uslub yaratgandi. Bu davrda estetik ideallari badiiy uslubga mos bo'lgandi.

V asr erkaklari kuchli, baqaloq, yumaloq yuzli, bodomsimon ko'zli, kalta qirqilgan sochli, soqolsiz tasvirlangan. Ularning kiyimi otga minib yurishga mos bo'lib, quyidagilardan iborat edi: kalta kaftan va ko'ylaklar, keng ishtonlar va baland kunjli etiklar. yelka kiyimida trapetsiya shaklli tunikasimon bichim yon qiyiqlar yerdamda (qiyiqlar qo'ltig'idan yoki belidan tiqilishi mumkin edi) xosil qilinardi. Ishton bichimi uch bulakdan ya'ni ikkita poycha va bitta ogdan, iborat edi (115 – rasm).

Etnik differentsiatsiyasi ham belgilanardi: eftalitlar kostyumiga oldi ochiq bir tomonlama qaytarmali, tunikasimon bichilgan, bilagida toraytirilgan uzun yengli va etagida yon kesiklari qilingan kaftan kirardi. Ularning yoqasi, yon kesiklari, old, etagi, yengining uchi boshqa mato bilan bezatilardi. Ishtonlarni poychasi va boldirigacha yon choki boshqa rangli mato xoshiyasi bilan bezatilardi.

Bu davrda ideal ayol gavdasini mag'rur tutardi. U to'ladan kelgan, keng yuzli, nazokatli, qoshlari yoysimon, to'g'ri farq qilib ochilgan silliq uzun sochli, to'g'ri burunli, kichkina og'izli va nozik qo'lli bo'lgandi. Ayollarni kiyimi erkaklar kiyimi kom'leksiga o'xshash edi; ko'ylaklar, kaftanlar, bir tomonlama qaytarmali yopinchoqlar va ishtonlar edi.

Ulardan tashqari shleyfli uzun ko'ylak, kofta, yubka va po'stinlar x am kiyisardi Ustki kiyimlarini (kaftan, yopinchoq va po'stin) uzunligi tizzagacha bo'lgandi. yelka kiyimning yoqasi, etagi, oldi, yengning uchi boshqa rangli matodan qilingan xoshiya bilan bezatilardi.



115 – rasm. Oldi berk erkaklar ustki kiyimi.

VI - VII asrlarda erkaklarning estetik ideali o'zgargandi. Qopol kuchning o'rniga aql va noziklik kelgandi. Xashamatli qad - qomat va ayollarga xushmuomalali bo'lgan kishi, shu davrda mard deb xisoblanardi. Ideal erkakda uzunroq ingichka bel, ingichka bilaguzuk va uzuk bilan bezatilgan qo'l bo'lishi kerak edi. Kostyumda chorvador va shahar aholisi kiyimlarining assimilyatsiya bo'lganligi, o'troq xalqlarning madaniyatiga qizg'in qo'shilishi o'z ifodasini topgandi.

Erkaklar kostyumida avvalgi davrning kiyimlari qatorida, ikki tomonlama qaytarmali turk kaftanlari keng tarqalgandi. Kaftan gavdasiga yopishib turardi, uzunligi esa bo'ksasigacha bo'lib, yon kesimi bo'lmagandi. Dekorativ mato bilan faqat yoqasi va yeng uchi bezatilardi. Ustki kiyim – yopinchoq - ham ikki tomonlama qaytarmali bo'lgan. Bu davrda etiklari ham nozik bo'lgan.

VI - VII asrlarda ayollarning estetik timsoli ham o'zgargandi. Endi u beli ingichka, yuzi nozik ayol edi. Kiyimning yangi chegaralari yangi plastik siymosini yaratgandi. Kosmetika bunga ancha yordam berdi.

Ayollarning kiyimi erkaklar kiyim kom'leksiga o'xshash edi. Ulardan tashqari ayollar kiyim ansamblida nimchalar, koftalar, to'g'ri shaklli yubkalar va uzun ko'ylaklar uchragandi.

VII asrning oxirida - VIII asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari kostyumining bichimi murakkablashgandi (116-rasm).



116 – rasm. Erkak va ayollar kiyimining bir xil shakillari.

Kiyim tanaga yopishib turishiga qo'laylik beradigan o'tqazma yangli kiyim paydo bo'ldi. Kaftan va yopinchoqlarning bezagida kushonlar tunikasimon ko'ylagining bezaklarining ta'siri sezilardi. Yopinchoqlarda rang - barang matodan qilingan hoshiyali qiyiqlar paydo bo'lgan; ularning etaklar va yoqalarning bezagi ham o'zgargandi. Kiyimlarning uzunligi endi tizzadan pastda joylashgan. Tunikasimon bichim ham

o'zgargan: yenglari yelkadan sal pastroq tikilardi va yelka choklari dekorativ mato bilan bezatilgandi.

Erkaklar va ayollar kostyumida taqinchoqlar muxim rol o'uyngan. Ular shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatardi. Ayol va erkak zirak, qo'l va oyoq bilaguzuklarni, marjonlarni, ko'krak osilchoqlarni va kamarlarni taqishardi. Toharistonda faqat erkak va ayol xizmatchilar belbog' kiyishardi, aslzoda ayollar esa belini boqlamasdi.

2.Ilk feodal o'rta asrlikni san`ati va kostyumi.

O'rta Osiyo kech o'rta asrlar davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

Arab istolosidan keyin O'rta Osiyoda (IX - XII asr) feodal munosabatlar yanada mustaxkam negizi qaror topa bordi. Movarounnaxr va Xurosonning yirik feodal namoyondalari bo'lmish Toxir ibn Husayn, Somon Xudod singari yetakchi kuchlar madadi bilan halifalik taxtiga o'tirgan Xuroson noibi ma'mun yangi halifa sifatida maxalliy feodallar, amiru beklarga katta - katta iltifotlar ko'rsatib, ularning ichki mustaqilligini yanada mustaxkamlashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Buning natijasida Toxir ibn Husayn, Somon Xudod va ularning avlodlari Xuroson va Movarounnaxr hududlarining amalda hukmronlari bo'lib oldilar. X asrda Sharkiy Turkiston va yettisuva qoraxoniylar sulolasi nomi bilan atalgan qudratli feodal davlati vujudga keldi. Uning ta'sir doirasi O'rta Osiyoning Somoniylarga avval tobe bo'lgan katta xududlarga yoyildi. Qoraxoniylar davlatida o'rtoq va yarim o'rtoq holda yashay boshlagan turk va turklasha boshlagan aholi Xorazim va Toshkent voxalarida Fargona va Sug'diyona yerlarida asosiy kopchilikni tashkil etardi. Bu hol mazkur xududlarda turk xalqlari oilasiga kiruvchi o'zbek xalqining shakllanish jarayoniga mustaxkam asos yaratadi. X asrning ikkinchi yarmiga qarab feodal xo'jaligi o'sishi va chulli qipchoqlar, Volga buyi xalqlari va Sharq mamlakatlari bilan savdo – sotiqning yo'lga qo'yilishi natijasida, Xorazmning mustaqilligi ko'chaya boshladi, chunki shimoliy va Sharq mamlakatlar bilan savdo – sotiq ishlari Xorazm orqali amalga oshirilardi.

IX - XII asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat bobida shu qadar ajoyib fan kashfiyotlari va tadqinsonqotlari yaratildiki, bu o'tmish ajdodlarimizning jaxon madaniyati xazinasiga qo'shgan bebaho xissasigina bo'lib qolmasdan, ularning dahosi va aql - zakovatining nixoyatda yuksakligidan ham dalolat beradi. O'rta Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan hamda ilm - fan va madaniyatning turli soxalarida yetishib chiqqan hamda ilm - fan va madaniyatning turli soxalarida ulkan obro' va martabaga erishgan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Norshoxiy, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Abu Abdullo Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy singari daxo siymolarining o'lmas ijodlari bir necha asrlar bunyod Sharq va G'arbda ma'lum va mashxur bo'lib kelayotganligi xozirgi avlod kishilari uchun ham g'oyatda xayratlanarlidir.

O'rta Osiyo xalqlarining ushbu davrdagi madaniyati, san'ati va ma'naviyati darajasining nechog'li o'sganligi, taraqqiy etganligi dalilini Buxoro, Poykent, Afrosiyob, Varaxsha, Axsikent shaharlari haroblaridan, xozirgacha saqlanib qolgan ajoyib minora, madrasalar va maqbaralardan (Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Turkistondagi Axmad Yassaviy maqbarasi va xokazolar) ham bilishimiz mumkin. XIII

asr boshlariga kelib O'rta Osiyoda feodal munosabatlar yanada ko'chaydi va keskinlashdi. Bu so'zsiz markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi.

XIII asrda mo'g'ul qo'shinlari O'rta Osiyoni ishg'ol etdilar. Bosib olingan shahar va qishloqlar shavqatsizlik bilan talanib, honavayron qilindi. Turmush va madaniyati g'oyatda past bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ullar mahalliy madaniyat obidalari va yodgorliklarni harob qildilar. XIV asr 50-60 yillarida Movarounnaxr ancha murakkab davrni kechirdi va mo'g'ul istilochilarining bu yerlarni istilo qilishga olib keldi.

XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asrning boshlarida Amir Temur o'zining buyuk imperiyasiga asos soldi va dunyoni larzaga keltirdi. Bu davrda Movarounnaxr misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etishi bilan nishonlandi. Temu'rning avlodlari davlatning yuksalishini davom ettirdi. Temuriylar davrida Movarounnaxrda ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va madaniy xayot o'z maromida davom etdi. Samarqand O'rta Osiyoning yirik o'chog'iga aylandi, u yanada gullab - yashnadi, madrasalarda faqat diniy fanlar emas, shu bilan dunyoviy fanlar ham o'qitildi. Bibihonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shoxi Zinda ansambli qurilishlari poyonga yetkazildi. 1417 yilda Ulug'bek Buxoroda madrasa qurirdi. Uning eshiklariga quyidagi so'zlar yozilgan: "Bilimga intilish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir".

Samarqand ilmiy va adabiy xayot markazi sifatida shon - shuxrati Sharqqa keng tarqalgan edi. Shaharga mashxur olimlar va san'at arboblari kelib turishardi. Samarqand madaniy xayotning eng yuksak cho'qqisi bo'lgandi. Temur va temuriylar yirik madaniyat markaziga aylandi. Zamaxshariy, A.Jurjoniy, Muhammad Solih, Ali Shoshiy, Ismoil Buxoriy, Abduraxmon Jomiy, Sakkokiy, Vosifiy singari zabardast ilm - urfon va madaniyat arboblarning shu davrda yetishib chiqqanligi va ijod qilganliklari ham bejiz emasdir. Ular orasida buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri, buyuk olim va davlat arbobi, jaxon adabiyotining betakror siymolaridan biridir. XVI asrda temuriylar davlatining siyosiy va iqtisodiy qudratining zaiflashganligi, feodal tarqoqlik tufayli va xokimlikka da'vogar bo'lgan kopdan - kop raqiblar O'rtasida to'xtovsiz urushlarning bo'lib turishi - bo'larning hammasi pirovard oqibatda Movarounnaxrda temuriylar sulolasi xalokatini uzil - kesil tasdiq etib, bu xududda ko'chmanchi o'zbeklar davlatining xukmronligi qaror topishini tayin qildi. Shu tariqa M. Shayboniyxonning nomi bilan atalgan yangi sulola qariyb bir asr (1500 - 1601) O'rta Osiyo xududida egalik qildi.

Bu davrda xunarmandchilik birmuncha rivojlandi va savdo - sotil ishlari ancha keng rivoj topgandi. O'rta Osiyo kop mamlakatlar bilan savdo - sotiq va diplomatik aloqada bo'lgan. O'z navbatida qo'shni Xindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa mamlakatlardan katta - katta savdo karvonlari bu diyorga kelib turgan. O'rta Osiyodan chet mamlakatlarga asosan to'qimachilik mahsulotlari, bo'z, har xil rangdagi matolar, gilamlar, mis idishlar chiqarilardi va ular Sharq bozorlarida asosiy o'rinlardan birini egallardi. Shayboniyxonlar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan barcha aloqalar, tadbirlar o'z yo'nalishi bilan feodal tuzumni mustaxkamlashga, o'zbek xonlari va beklari xukmronligini kuchaytirishga xizmat qilishi lozim edi. Biroq jamiyatda hukm surgan to'xtovsiz feodal urushlar, yuqori tabaqalar O'rtasidagi kuchli ziddiyatlar va hokazo hollar provard oqibatda, Shayboniylar sulolasining ham inqirozga uchrashiga olib keldi.

Shu narsa ravshanki, XV - XVI asrlar davomida O'rta Osiyo ilm - fani bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida ancha rivojlandi. Feodal - klerikal mutaassibliги ko'chaygan, musulmon ruxoniylari ta'qibi avjga mingan bir sharoitda Movarounnaxrga dunyoviy fan, adabiyot va madaniyat namoyondalari katta jasorat va shijoat bilan o'z iste'dotlarini namoyon etib, o'lmas asarlar bitib, zulmat kuchlariga qarshi kurashdilar. Binobarin, jaholat va xurofot Movarounnaxrda qanchalik avjga chiqmasin adabiyot, tarix fanlari, me'morchilik va tasviriy san'at ham juda yuqori darajada rivoj to'di. Sulton Ali Mashxadiy, Mir Ali Xiraviy, Maxmud ibn Isxoq ash Shikobiy va boshqalar mashxur xusnixat ustalari edilar. Darvish Muhammad ibn Dustmuhammad Buxoriy xattot san'ati nazariyasiga oid asarlar yozganligi ham bejiz emas.

Adabiyot soxasida juda ko'plab shoir va shoirlar ijod etdilar. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi "Amiriy" taxallusi bilan o'zbek tilida go'zal gazallar yozgan. Uning rafiiqasi Moxlaroyim "Nodira" taxallusi bilan she'rlar yozib, butun Sharqqa mashxur shoira, davlat arbobi, benixoyat go'zal va bokira ayol sifatida nom taratdi. O'rta Osiyo kech O'rta asr davrining miniatyurachi rassomlari san'atda boy meros qoldirgan edilar. Kamoliddin Bexzod, Muhammad Chagru, Muassin Abdullo, Muhammad Murod Samarqandiy kabi rassomlar shu davrdagi aholining barcha tabaqalarini, turmush tarzini, tashqi ko'rinishi, kiyishgan liboslarini yuksak mahorat bilan tasvirlashgan. Ammo kostyum bilan miniatyura orqali tanishganda tasvirlarning shartligiga ahamiyat berish kerak. Matolarning rangi aslida va rasmda har xil bo'lishi mumkin, chunki rasm va matoni bo'yash uchun buyoqlar har xil bo'lgan.

Miniatyuralarga ko'ra O'rta Osiyo kiyimda asosan sidirg'a oq, zangori, binafsha, kul va jigar ranglar uchragandi. Naqshli matolar juda kam qo'llangandi, yo'l-yo'l matolar asosan Xind va Eronliklarniki edi. O'rta Osiyoda faqat XVIII asr ohirida ular kiyimda qo'llangandi.

3.O'rta Osiyo kech o'rta asrlar davridagi san'ati. O'rta Osiyo kech o'rta asrlar davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar libosi ustki va ichki, yelka va bel kiyimlardan iborat edi. Ustki yelka kiyimlari turli chopon va chaqmonlardan iborat bo'lgan. Eng keng tarqalgan kiyim - oldi ochiq chopon edi. Ularning bichimi bir xil - tunikasimon - bo'lib, detallari, bezagi, matosi va kiyish usuli bilan farqlanardi. Oldi ochiq kiyimlar kalta va uzun yengli yoki yengsiz bo'lardi. Ular tunikasimon bichimli bo'lgan holda, orqa bo'lagining o'rtasida yoqa o'mizidan beligacha vitochka qilinardi va shuning yordamida kiyim gavgdaga yopishib turardi. Odam harakatiga qulay bo'lish uchun, yon choklarining pastida kesik qoldirilardi. Choponlar qaytarma va tik yoqali yoki yoqasiz bo'lardi. Yoqalar va qaytarmalar boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalarning kiyimida mo'yna yoqalar ham uchrardi. Yoqalarning shakli asosan trapetsiyasimon bo'lgan. Odatda yoqalar qora rangli qilinardi, Buxoroda esa XVI asrda zarbof kashta qilinardi.

Choponlar astarli edi. Astarining matosi va uning rangi boshqa bo'lardi. Mo'yna astarli, mo'yna shol yeqali, bo'yni va yengi juda uzun chopon "faradji" deb atalardi.

Uning yengida qo'lini chiqazish uchun kesik qilinardi. Ko'pincha cho'onlar izma va tugmalar yoki bog'ichlar yordamida tugmalanardi. Tugmalar asosan boylarning kiyimida uchragan. Tugmalar bu kiyim turida XIX asrda yo'qolgandi (117 - rasm).

Aslzodalarning oldi ochiq kiyimini antika bezagi naqshli kashta bo'lgan. U asosan yelkasida, old va orqa tomonidan qilingan. Bu bezakni xitoy kiyimidan mo'g'ullar O'rta Osiyoga olib kelgan deb xisoblashadi. Shu davrdan boylarning kiyimida kashta bo'lishi shart edi, chunki kiyimlar sidirg'a matodan qilinardi. Uzun yengli cho'onning eni va uzunligi, kiyish usuli shaxsning ijtimoiy tabaqasi va mutaxassisligi bilan bog'liq edi. Mansabdor aslzodalar cho'oni deyarli uzun emas edi: aqliy mexnat bilan shug'ullanganlar esa cho'onni yelkasiga tashlab yurishardi.



117 – rasm. Erkaklar ustki kiyimi.

Dexqonlar, hunarmandlar va askarlar uzunligi tizzagacha yoki undan pastroq bo'lgan: tor, uzunligi bilagigacha yengli cho'on kiyilgandi. Ishlagan 'aytda ular oldi ochiq kiyimlarining barcha turlarini old etagini belboqqa qistirishardi, yenglari esa shimarilar edi yoki bir yoki ikki yelkasidan tushirib qo'yilardi. Ayniqsa, uzun yengli cho'onlar erkin va har xil holatda kiyilgan: hamma tugmalarga yoki bir - ikkisigina tugmalanardi: oldini ochib tugmalamasdan yoki yelkasiga tashlab yurishgan. Dam olgan paytda bitta qo'liga kiyib, yelkasiga tashlab yurishgan. Uzun yengli cho'onlar, ko'pincha, belbog'siz kiyilardi. Ishlagan 'aytda va dafn marosimida belbog'ni albatta kiyishardi. Kalta yengli cho'on "koba" ning bir necha turi uchragan. yeng uzunligi bilagining o'rtasigacha bo'lsa, cho'onning etagi kengaytirilib, ziyiga qavilgan mag'iz qilishardi. XV asrda shu turdagi cho'onda belidan pastgacha ikki yon kesim bo'lgan va ba'zan, orqasida ham kesim uchrardi. Keyinroq orqa kesim kiyimlarda qilinmaydigan bo'ldi (118 - rasm).



118 – rasm. Erkaklar ustki kiyimlari.

Koba uzun yengli joma yoki farandjiga tayyorlash kaltaroq edi. Uning uzunligi tizzagacha yoki boldirning o'rtasigacha bo'lgan, ba'zan, qariyalar, aslzodalar va saroy xizmatkorlarida uzunroqlari ham uchragandi. Cho'onlar tra'etsiyasimon qaytarma yoqali va oldi qaytarmali edi. Ular boshqa rangli matodan qilinardi. Bu davrda mo'g'ullar olib kelgan yengsiz, keng yelkali cho'onlar ham bo'lgan. O'ziga xos oldi ochiq kiyimni turi - assimetrik tugmalanadigan cho'on "jubba" bo'lgan. Bu kiyim aslzodalarda, askarlarda, ko'chmanchilarda va ba'zan, shaharliklarda uchrardi. Ushbu kiyim turi ko'chmanchilar, mugul va turk odatlari bilan bog'liq. Shunga e'tibor berish kerak: turklarning kiyimi o'ngdan chapga, mo'g'ullarniki esa - chapdan o'ngga o'ralardi (119 - rasm).



119– rasm. Erkaklar ustki kiyimlari.

Jubbaning uzunligi har xil bo'lib, shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi. yenglari tor bo'lib, uzunligi kafti yoki bilagining o'rtasigacha edi. Old qismining o'rtasida choki bor edi, chunki matoni eni tor bo'lgan. Yon qismlari ham uchragan. Jubba asosan sidirg'a matodan tikilardi. Uzun yengli jubbalar qatorida keng kalta yenglilari ham bo'lgandi.

Engning ziyida qavilgan mag'iz qilinardi. Qiya chap old bo'lagi o'ng tomonida qo'ltig'idan beligacha bog'ichlar yordamida birlashtiriladi, ustidan belbog' bog'lashardi. Ba'zan jubbaning cho'pon bilan kiyishardi. Oldi ochiq ustki kiyim qatorida miniatyuralarda oldi berk ustki kiyimlari ham tasvirlangan. O'rta Osiyoda XV - XVIII asrlarda oldi berk kiyimlar oldi ochiq kiyimlarga nisbatan kamroq uchraydi. XV - XVI asrlarda ular odatda uzun bo'ladi. XVII - XVIII asrlarda uzuni va kaltasi (tizzagacha) uchraydi. yenglari tor, uzun yoki kalta bo'lgandi, yengsizlari ham uchraydi. Ko'ylakning bichimi tunikasimon edi. Uchburchak shaklli yoqa o'mizi ko'kragigacha yoki beligacha bo'lishi mumkin edi.

Yoqalari ham cho'ponlarning turidan bo'lgan, XVIII asr oxirida esa yoqasiz qilinardi. Chuqur o'yilgan yoqa o'mizi tugma va izmaga tugmalanardi. Old va orqa bo'laklarining o'rtasida va yonlarida kesimlari bo'lgan. Oldi berk kiyimlari ham astarli qilinardi. Ularning rangi boshqa edi. Ushbu kiyimni aholining barcha tabaqalari g'ayri rasmiy sharoitlarda, kopincha dam olganda kiyishardi.

Ichki ko'ylagi "peroxan" yupqa oq matodan, ustkisi "peshvoz" esa - zangori, ko'k, yashil va jigar rangli matolardan qilinardi. Ko'ylakning yengi keng va uzun bo'lgan. Yoqa o'mizi tor, chuqur, ovalsimon yoki berk, qornigacha vertikal kesimi bo'lishi mumkin edi. Yoqa o'mizining ziyiga qavilgan xoshiya qilishgandi, ba'zan uni tugmalashardi. Ustki ko'ylakning uzunligi tizzagacha bo'lgan, ichki ko'ylagi esa

uzunroq, boldirining o'rtasigacha yoki topigigacha edi, xazmatkorlarniki - tizzagacha bo'lgan.

Ko'ylaklarni erkaklar faqat uyda kiyishardi. Miniatyurada tasvirlangan ishtonlarning bichimi ikki alohida 'oychadan va og'dan iborat bo'lgan. Ishton shaklining tepa tomoni keng bo'lib, pastga toraygandi. Ishton belda 'o'ukli tasma yordamida mustaxkamlanardi. Ko'pincha ishtonlar sidirg'a oq, ko'k va jigar rangli bo'lgan, yo'l - yo'l matolari ham uchrardi.

Turk kiyimi ta'sirida ishtonlar shalvarsimon keng bo'lgan va qizil, to'q sariq va to'q qizil rangli bo'lgan. Ishtonni yelka kiyimining ostidan kiyishardi. Boylar ov qilgan paytda poychasi keng ishtonlariga ustki kiyimini kirgizishardi. XV - XVI asrlarda erkaklarda sonbog'ich "futa" tasvirlangan. U bo'ksaga aylana o'ralib, ingichka belbog' yordamida maxkamlanardi.

Sonbog'ich keng, to'g'ri to'rtburchak cho'zinchoq mato bo'lagidan qilingan. Uning ranglari zangori, ko'k, yashil edi; yonlarida esa bitta keng yoki bir necha ingichka qora qo'llari bo'lgan. Sonbog'ichni quruvchilar, qurashchilar, jilovdorlar va aholining barcha tabaqalari hammomda kiyishgandi.

XV asr oxirida bel kiyimining yana bir turi "beldemchi"ga o'xshash bo'lgandi. Ular oldi ochiq yubkaga o'xshagandi va qalin rangli matodan qilinardi. Uni aslzodalar ovda kiyishgan. Erkaklar kiyimida bir necha qo'shimcha detallari bo'lgan. Olimlar, ilohiyot mutaxassislari va sufilar yelka sharfi "taylason" bo'lgan.

Taylason, musulmon Sharqda eskidan qolgan, ushbu tabaqalarning an'anaviy kostyum belgisi bo'lgan. U yelkaga tashlanardi yoki uchlari ko'krakda tugunga bog'lanardi; sufilar va imomlar esa - bosh kiyimini ustiga tashlashardi. XV - XVI asrlarda taylason futaga o'xshagan qilinardi. XVI asrni o'rtasidan boshlab ular tor yoki keng, qora va jigar rang, uchi kopincha oq xoshiyali qilinar edi. Oldin aytilganday, erkaklar ustki kiyimini belbog' bilan bog'lashardi. Boylar va aslzodalarning belbog'i keng, kambag'allarniki - ingichka bo'lgan va ba'zan, oddiy tasmadan bo'lgan. Belbog'lar har xil rangli matolardan iborat edi. Ba'zan, futani belbog' sifatida ishlatishardi. XVI asrdan boshlab bo'ylama yo'l-yo'l matodan belbog'lar keng tarqaldi. Ular kengroq bo'lgan. Ko'pincha bovlikka eshildirdi va oldida tugunga bog'lashardi yoki uchlarini yonida qistirib qo'yishardi. Aslzodalar va askarlar belbog'ning o'rniga ensiz, uch - to'rt yumaloq tuqa bilan bezalgan, oldida tugmalanadigan, qora charmdan ishlangan kamar taqishardi. Boylar kamarining tukasi qimmatbaxo toshlar bilan bezatilardi.

XV - XVI asrlarda O'rta Osiyoda erkaklarning zaruriy aksessuari (kostyumning qo'shimchasi) - o'ng yoki chap tomonida belboqqa qistirilgan engsiz dastro'mol edi. Bosh kiyimlarning turlari har xil bo'lgan. XV - XVIII asrlarning miniatyuralariga binoan har xil shaklli matodan tikilgan telpaklar edi. Uni aholining barcha tabaqalari uyda va ko'chada kiyishgan. Har xil bichimlar bosh kiyimlarning balandligini va shaklini o'zgartirardi.

Odatda, astarli qilinib, ular qavilardi. Telpakning gardishi qaytarma va kesimli qilinardi. Bu holda telpak rangli matodan, astari esa boshqa, kopincha, qora matodan qilinardi. Ularni aslzodalar va ba'zan, askar va ko'chmanchilar kiyishgan. Xindlardan farqli ravishda, O'rta Osiyoda ularni salla yoki bog'ichsiz kiyishgan, gardish

qaytarmalari aslzodalar yuzining markazida joylashardi, quyi tabaqalar bu bosh kiyimini erkinroq kiyishardi. Namatdan qilingan qalpoqlar ham keng tarqalgan.

XV-XIX asrlarda ularni asosan xunarmandlar, ovchilar, xizmatkorlar va tog'li aholi kiygan. Ular an'anaviy, dumaloq shaklli bo'lib, turk qalpog'i ta'sirida shakli qonussimon bo'lgandi. Qalpoqlar oq yoki rangli namatdan qilingandi. Qalpoqni chekkasi sal qaytarilib, kesim qilinardi. Mo'g'ullar Markaziy Osiyoni bosib olganidan keyin ko'chmanchi aslzodalar va ularning xizmatkorlari orasida qalpoq keng tarqalgandi. Shaharliklar orasida bu bosh kiyim kam uchragan. Boylar bosh kiyimining gardishlari kashta bilan bezatilgandi. O'rta Osiyoda mo'yna bilan bezatilgan yoki butunlay mo'ynadan qilingan bosh kiyimlar ham bo'lgandi. Ba'zan, matodan qilingan bosh kiyimlar mo'yna bilan sirlanardi.

Salla - O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim deb xisoblanardi. Uni aqliy mexnat bilan shug'ullangan aholining barcha tabaqalari kiyishgan. Salla - rasmiy va tantana bosh kiyim deb xisoblanardi. O'rta Osiyo sallasining kattaligi o'rtacha bo'lgan. O'rash usullari bir necha bo'lib, deyarli murakkab emas edi. Diniy va aqliy mehnat arboblari sallani egret bilan bezatishardi. Aslzodalarning sallasi - oq rangli; olimlar, shoirlar, din arboblari va sufilarniki - oq, zangori, yashil va qo'l rangli; jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilarniki - yorqin rangli bo'lgandi. Odatda salla sidirg'a va yo'l-yo'l matodan qilinardi.

Erkaklar oyoq kiyimlari etiklar va kavushlar bo'lgan.

O'rta Osiyo kech o'rta asrlar davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Ayollar kostyumi. Miniaturadagi tasvirlarga ko'ra ayollar kostyumining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezagi erkaklarnikiga o'xshash bo'lgan. Ichki kiyim tunikasimon bichimli, uzun yengli oq ko'ylak "ko'rta" edi. Uning yuqa o'mizi gorizontaal yoki chuqur vertikal bo'lgan. Bu ko'ylakning orqa va yon choklari bo'lgan. Ichki ko'ylak ustidan boshqa rangli, tunikasimon bichimli ko'ylak "piroxan" ni kiyishgan. piroxan uzun yoki kalta yengli bo'lib, ichki ko'ylagidan kaltaroq (tizzagacha) edi va beliga yopishib turardi.

Ichki bel kiyimi ishton "ezor" bo'lgan. Uning uzunligi tu'ig'igacha bo'lib, ba'zan, etik yoki maxsining ichiga kirgizilardi. Ayollarning ustki kiyimi joma, koba, faradji, mursak, yopinchoq va kaltachadan iborat edi (33 – 391 rasm). Ko'ylaklar ustidan oldi ochiq kiyim kobani kiyishgan. Uning yengi uzun (qo'lidan uzunroq) yoki kalta (tirsagigacha) bo'lardi. Chopon joma ob-xavodan saqlardi. I'ak yoki kimxobdan qilingan, uzunligi yergacha, juda uzun yengli (etagitgacha) bashang chopon faradjini tantanali marosimlarga kiyishgan. Uni yelkasiga tashlab yurishardi yoki bitta qo'lga kiyib yelkasiga tashlashardi. Ulardan tashqari miniatyuralarda ustki kiyim sifatida kalta, oldi ochiq, uzun yoki kalta yengli kiyim "kaltacha" tasvirlangan.

Koba, joma, faradji va kaltachaning astari boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalar ustki kiyimining astari ipakdan, faradjida esa - olmoxon, tulki va suvsar mo'ynasidan qilinardi. Erkaklarnikiga nisbatan ayollar kiyimi tanaga yopishib turganligi bilan (yon va o'rta choklari yordamida); kiyim turlari; bosh kiyimlari va zargarlik buyumlari bilan farqlanardi.



120 – rasm. Ayollar ustki kiyimi.

U keng, to'g'ri to'rtburchak shaklli matodan qilinib, gavdani berkitardi. Yopinchoqni boshiga yoki yelkasiga tashlab yurishgan, uchlarini esa qo'li bilan ushlab turishgan, yuzi ochiq qolardi, ammo kerakli paytda yuzini ko'zigacha berkitishardi. Shunday yopinchoqlar noqulay bo'lganligi uchun, ayollar ko'chaga chiqqanda boshiga cho'onni tashlab yuradigan bo'lishdi. XVI asrning oxirida - XVII asrning boshida miniatyurada shunday yopinchoqlar tasvirlangan. Choponni shu usulda kiyganda, yenglari erkin osilib turardi yoki bir qo'liga kiyilardi. XVII asrning ikkinchi yarmida miniatyura tasvirlarida paranji tasvirlangan. U yuqorida ta'riflangan chopon faradji edi, ammo, paranjida uzunligi ko'kragigacha, ot qilidan yasalgan tur "chashmband" bilan ayolning yuzi berkitilgandi.



121– rasm. Ayollar ustki kiyimi.

O'rta Osiyo ayollari kiyimining beli bog'lanmasdi. Bu davrda ayollarning kiyimiga Xind, Mo'g'ul, Eron, Xitoy kiyimlarini ta'siri liboslar turida, qo'llangan matolarida va bezaklarida sezilardi. Mahalliy urf - odatlar ayollar kostyumida ham sezilardi.



122 – rasm. Ayollar ustki kiyimi.

Buxoro kiyimlari boyroq va bashangroq edi, ularda chet el ta'sirlari ko'proq bo'lgan. Buxoro liboslarida zardo'zi kashtani old va orqa kiyimni bezatish ham uchrardi. Kiyimga qo'llangan matolar qimmatbaxo va rang - barang bo'lgan. XVI asr boshidan Buxoroda, Xirotda moda bo'lgan kiyimlarni kiyishgan. Barcha kiyimlarni uzunligi yergacha bo'lib, oyoqni berkitardi. Koba va cho'onlar sidirg'a matodan qilinib, zardo'zi kashta bilan bezatilgandi. Asrning 20-chi yillaridan boshlab, bu modaning o'rniga sipo, kashtasiz, sidirg'a gazmoldan qilingan kiyimlar keldi. Ularni rangi ko'k, zangori, jigar rang va boshqa ranglar bo'lgan. Koba kichkina qora yoqali bo'lgan. Ichki ko'ylagini yoqa o'mizi ko'ndalang bo'lib, tugmalanardi. Jomani old chegarasida qora xoshiyasi va ikki tomonida tugmalari bo'lgandi. 30 - yillarda kiyimlar ancha qisqarib (topigigacha), oyoqlari ko'rinardi.



123 – rasm. Ayollar ustki kiyimi.

Asrni o'rtalariga borib, ayollar kostyumi yana boyroq va turlicha bo'ldi. Yana zar kashta paydo bo'ldi (orqasida, ko'ragida va yelkalarida). Kiyimlarning rangi sariq, binafsha, ko'k, zangori bo'lib, sidirg'a koba va cho'onlarning bir-biriga mos bo'lishiga olib kelardi.



124 – rasm. Ayollar ustki kiyimi.

XVI asr oxirida - XVII asr boshida Movarounnaxr Eron bilan yana aloqa bog'laganligi Buxoro kostyumida sezilgandi. Ichki koba va ko'ylaklari sefevidlar modasi bo'yicha chuqur old yoqa o'mizi yukorisida bitta katta tugmaga tugmalanar edi. Ko'ylaklar boldirigacha qisqargani uchun 'oychasi toraygan yo'l-yo'l ishtonlari ko'rinardi. Mayda yoki yirik gul naqshli matolar qo'llangandi. XVII asr birinchi choragida kiyimlar yana uzaya boshladi, kaltacha esa tizzagacha uzaydi. Mursak keng tarqaldi.

Asrning 40-yillarida Buxoro modasiga xind kostyumlarining ta'siri sezilardi - kiyimlar yopishib turib, ayol gavdasini ko'rsatardi (xind kostyumining asosiy xususiyatlari).



125 – rasm. Ayollar ustki kiyimi.

Ular maxalliy va xind matolaridan tikilgandi. Harir matolar qo'llanadigan bo'ldi. Ustki kiyimlar, ayniqsa, koba va kaltacha kalta yengli edi (tirsagigacha), yengini uchi va etagi keng zar tasma bilan bezatilardi. Ustki ko'ylagini yoqa o'mizi kundalang bo'lib, yirik tugmaga tugmalanardi. Shunday moda Buxoro kostyumida XVII asrning oxirigacha bo'lgan. Samarqand modalari oddiyroq bo'lgan. Ularning sidirg'a matodan tikilgan choponlarida kashta qilinmasdi. Chet el modasi ta'siri juda kam bo'lgan va o'rta Osiyo xususiyatlari XVI - XVII asrlar davomida saqlangan.

XVI asrning boshida Samarqand Xitoy choponlariga o'xshash kiyimlarni kiyishgandi (butun Temuriylar imperiyasiga tarqalgan mo'yna bilan sirlangan faradji). XVI asr 40-yillarida, gavdaga yopishib turgan, uzunligi topigigacha, baxmaldan kichgina qaytarma yoqali koba va cho'ponlarni kiyishgan. XVII asrda Samarqandda Buxoro chopon va kobasiga o'xshagan kiyimlarni kiyishgan, ammo, ular sidirg'a matodan tikilib, bezagi bo'lmasdi.

Ko'ylaklarining old yoqa o'mizi chuqur uchburchakli edi va beli sal burmalanardi. Ichki ko'ylagi yirik tugmalariga tugmalanardi. Qari ayollarning kiyimi yoshlarnikidan nisbatan eng avval barovar kiyilgan kiyimlarning soni bilan farqlanardi. Ular ko'pincha juda keng kalta (bilagigacha) yengli, uchburchak yoqa o'mizli ko'ylakni kiyishgan. Ishtonlari esa keng, uzunligi topigigacha bo'lgan. Ularning yana bir farqlanadigan belgisi - ustki kiyimning beli bog'lanardi. Motam kiyimi qora va to'q ko'k rangli oldi yirtilgan cho'ponlar bo'lgan. Yana bir narsaga e'tibor berish kerak - motam kiyimida belbog' bo'lmagan, u XVIII yoki XIX asrda kiyilgan, chunki XVII asrdagi miniatyuralarda belbog' tasvirlanmagan. Bosh kiyimlari ro'mol, mo'yna bilan chekkasi bezalgan doppisimon qo'lqoplar, peshonabandlar va boshqalar bo'lgan. peshonaband eshilgan ro'moldan yoki yu'qa oq tasmadan qilingan. Buxoroda u naqshli kashta yoki qimmatbaxo toshlar bilan bezatilardi. peshonabandning ustidan ro'mol o'rashardi. Sochlari harkat qilganda oldiga tushmasligi uchun ro'mol ostidan boshiga soch'o'uk "qo'lyuta" yoki "chochka" kiyishardi. Xozirgi zamonda ular qirg'iz va qozoqlarda saqlanib qolgan. Qari ayollar qozoqlarnikiga o'xshash bosh kiyim "kimishek" kiyishgan. Motam marosimida bosh yalang bo'lishgan. Malikalar, xonlarning xotinlari, xon avlodlari toj kiyishardi. Erkak va ayol tojlari o'zaro farqlanardi.

XVI asrda Buxoro ayollari zar i'li doka ro'molning ustidan tillaqosh taqishgan.

Ayollar sochini berkitib yurishardi, qizlar esa sochini ikkitagi o'rib, ichiga 'ilik yoki soch 'o'uklar o'rashardi. Samarqandda qizlar sochini mayda o'rishardi.

Miniatyuralarda zargarlik buyumlari kam tasvirlangan, chunki ular kiyimining ostida bo'lgan. Yozuv ma'lumotlari bo'yicha va tasvirlarga qaraganda zargarlik buyumlari quyidagilar bo'lgan: zebigardon, xaykal, to'morlar, ziraklar, uzuklar, bilaguzuklar, buloglar. Shu narsaga e'tibor berish kerak, ular motam marosilarida taqinchoqlarini yechmasdi.

Ayollar kostyumini oyoq kiyimi yakunlaydi. Miniatyuralarda yosh ayollar va qizlar etik "maxsi", yarim etik "nim - chakme", baland kunjli peshonali etik "chakme" va charm tufli "kovush"da tasvirlangan. Buxoroda etikning kunji kashtalanardi. 'oyabzal asosan qora va ba'han oq va sariq rangli bo'lgan. Qari ayollar qora, uchi uchli kovushlarni yalang oyoqqa kiyishgan, yoshlar esa etikni ustidan kiyishardi.

9 - MAVZU: XIX – XX ASR BOSHIDAGI O'ZBEK KOSTYUMI.

Mashg'ulot turi - ma'ruza

Asosiy savollar:

- 1.O'zbekiston badiiy gazmollari.
- 2.XIX – XX asr boshidagi o'zbek kostyumi.

Tayanch so'z va iboralar:

O'zbekiston badiiy gazmollari. O'zbekiston abr gazmollari. Kiyimlarni tikishda ishlatiladigan matolar. Material ranglari va naqshlari.

XIX – XX asr boshidagi o'zbek kostyumi. Eraklarning milliy liboslari. Ayollarning milliy liboslari. Marosim kiyimlari. Kostyum turlarining shakli , bichimi va bezaklari. Kostyumdagi mintaqaviy va ijtimoiy belgilari.

Toshkent –Farg’ona, Samarqand- Buxoro, Qashqadaryo-Surxandaryo, Xorazm va Qoraqalpoq milliy kostyumlarining konstruktiv-dekorativ yechimi va o’ziga xos xususiyatlari.

Adabiyotlar

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А.Костюм тарихи. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320б
- 2.Пармон Ф.М., Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. М.: «Триада плюс», 2002. – 312с., 258 ил.
- 3.Хасанбаева Г.К. То’qimachilik dizayn tarixi. O’quv qo’llanma. – Т.: Iqtisodiyot – Moliya, 2007- 250b
- 4.Н.Содиқова.Ўзбек миллий кийимлари. Ўқув қўлланма – Т.:2006.-192 б. XIX-XX асрлар. Т.2001.
- 5.Хасанбоева Г.К., Шомансурова М. Maxsus kompozitsiya. O’quv qo’llanma.-Т.: Yangi asr avlodi, 2008.-168b.
- 6.S.U. Ro’latova va b. Libos kompozitsiyasi. O’quv qo’llanma.-Т.:Turon-Iqbol, 2006-у., 128b.
- 7.Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В., Композиция костюма. –М.: Академия. 2003

2.XIX – XX asr boshidagi o’zbek kostyumi.

XIX – XX asr boshidagi davrining va badiiy uslubining tavsifi, dinlari.

Movarounnaxr XVIII asrni oxirida va XIX asr boshlarida ashtarxoniylar hamda Nodirshox imperiyasi harobalarida Qo’qon va Xeva xonligi hamda Buxoro amirligidan iborat uchta davlat tashkil to’ldi.

XVIII asr oxirlaridan boshlab O’rta Osiyo iqtisodi asta - sekin mamlakat xo’jalik va madaniy hayotini izdan chiqargan inqirozdan qutula boshladi. Xonliklar ichida davom etayotgan o’zaro urushlarga qaramay, o’lkada savdo - sotiq tobora rivojlana bordi, ayniqsa Rossiyada hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi - yangi markazlar paydo bo’ldi. Tovar - pul munosabatlar rivojlangandi. Bu davrda sarmoyadorlik munosabatlarining ko’rtaklari paydo bo’la boshladi. XIX asr boshlaridagina fan, adabiyot va san’at rivojlanishida asta - sekin joshlanish sodir bo’la boshladi. Bu vaqtda Mahmud (Mahmur), Muhammad Sharif Gulxaniy, Goziy, Xiromiy kabi shoirlar samarali ijod qilib, shuxrat qozondilar. Ruxoniylarning ta’qibiga qaramay, ular o’zbek adabiyoti xazinasini boyitishda o’z xissasini qo’shdilar. XIX asr boshida vayron bo’lgan binolarni qayta tiklash va yangi saroylar, minoralar, madrasalar qurish ishlari avj oldiriladi. Biroq qurilgan imoratlarining me’moriy andazalari mavjud inshootlarni takrori bo’lib qoldi.

XIX asrning birinchi yarmida O’rta Osiyo xududida xonliklar o’rtasidagi to’xtovsiz urushlar har bir xonlikning o’zida doimiy ichki nizolarga, vaxshiyona talon - tarojlarga, vayronagarchiliklarga olib keldi, mamlakat xo’jalik va madaniy hayotini qattiq mayib qildi. O’rta Osiyoning rus chorizmi tomonidan bosib olinishi osonlashtirdi. XIX asr o’rtalaridan Rossiyada sarmoyadorlikning o’sishi chor xukumatining O’rta Osiyoga yorib kirishiga to’rtki bo’ldi. Sarmoyadorlik sanoatining o’sishi, yangi bozor savdosiga va xom ashyo manbalariga bo’lgan talabning kundan-kun oshib borishiga

imkon tug'dirdi. Bundan tashqari, Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi sabablaridan biri - Amerika Shimoli va Janubidagi fuqarolar urushi (1861 - 1865 yillar) munosabati bilan Amerika paxtasining Ovrupoga keltirilishining to'xtab qolganligidir. Paxta yetishmovchiligi natijasida to'qimachilik soxasida inqiroz yuz berdi, xom ashyoning yangi manbalarini qidirib topish zarur edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrlik boy tarixida XIX asrning ikkinchi yarmida uning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi eng muxim voqea sifatida aloxida o'rin tutadi. Asosan zo'ravonlik usullari bilan amalga oshirilgan bu istilochilik jaroxatlari uzoq vaqtlargacha azob berib kelgan bo'lsa ham, ma'lum taraqqiy parvarlik xususiyatiga ega edi. O'rta Osiyo xalqlari tarixida yangi saxifalar ochildi, ularning ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy xayotida, aholi turmushida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Turkiston xalqlari madaniyati juda qadimiy va yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ko'p ming yillik taraqqiyot jarayonini boshdan kechirgan. Biroq bir necha yuz yil mobaynida yuzaga kelgan tarixiy shart- sharoitlar ishlab chiqaruvchi kuchlar va madaniyat rivojlanishi sur'atining susayishi ularning yer egaligi munosabatlari doirasidan voz kechishiga imkon bermagan edi. Rus xukumati ham aholi turmushining shaklini o'zgartirishdan manfaatdor emasdi. Chorizm xalqning uqib ko'zi ochilishdan qo'rqqar, shuning uchun o'lkada jaholat va mutaassiblikni saqlab qolishga harkat qilardi.

O'rta Osiyo xalqlarining rus va Rossiyaning boshqa xalqlari bilan aloqalar o'rnatishi juda katta ahamiyat kasb etuvchi voqea bo'ldi. Maxalliy aholi Rossiyadan ko'chib kelgan hunarmand va dexqonlardan mexnat qilishning yangi usullari va saviyalarini o'rganar, sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligining yangi texnikasini o'zlashtirar edi. O'rta Osiyo xalqlari Rossiya orqali Ovrupo va rus madaniyatiga erishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Xalq ta'limi tizimida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tipografiya va litografiyaning paydo bo'lishi O'rta Osiyo xalqlarining madaniy xayotida muhim rol uynaydi.

Xalqlar xayotida ham ma'lum siljishlar ro'y berdi. Keng ulamo orasida qadimiychilik va jadidchilik tus ola boshladi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar tuzish dasturini olga surdilar, bu maktablarda asosan turkiy til, adabiyot va dunyoviy fanlar asosiy xisoblanardi. Jadidlar xalqni ma'rifatga chaqirdilar. M.Bexbudiy, A.Fitrat, Cho'l'on, A.Qodiriylar bu borada faollik ko'rsatdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ilmiy izlanish ishlari olib borilgandi.

Furkat, Muqimiy, Zavqiy kabi ma'rifatparvarlar o'rta asr qoloqligiga qarshi kurashda ko'zga ko'rinadigan ilg'or ijtimoiy tafakkur vakillaridan edilar. Ta'lim - tarbiyaning yangi tuzilmasini joriy etishga da'vat qilishgandi.

Bu davrda ruxoniylar tomonidan ta'qib qilingan tasviriy san'at rivojlana boshladi. Samarqand, Qo'qon va Buxoro miniatyurachilari - Maxmud Donish, Abduholik Maxmud, S. Sidiqov o'z ijodi bilan boy meros qoldirishgan.

O'zbekiston to'qimachilik san'ati va dekorativ amaliy san'ati ham keng rivojlangandi. An'anaviy o'zbek shoyilari (kaunas, shoyi, xonatlas), nimshoyilar (bekasam, banoras, parpasha, adras) Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ishlab chiqariladi. O'rta Osiyo aslzodalari shu gazmollardan kiyim kiyishardi. Kambag'al aholining kiyimi asosan ip matolardan (bo'z, olacha, susi, janda) bo'lardi.

O'rta Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgandan keyin fabrikalarda ishlab chiqarilgan matolar (chit, satin va boshqalar) keng tarqalgandi. Aslzodalar kiyimida Frantsiya va Rossiyada ishlab chiqarilgan naqshli shoyi gazmollar - baxmallar, kimxoblar, kundalar, farangilar va atlaslar qo'llanardi. Ulardan tashqari jun matosi movut ham erkaklar ustki kiyimida keng qo'llangan.


XIX – XX asr boshidagi davrining ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Ayollar kiyimi. Qadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimdan iborat edi (125–128 rasm).



126 – rasm. Ayollar ko'ylaklari.


Ko'ylakning shakli to'g'ri, ba'zan etagi kengaygan bo'lib, uzunligi topig'igacha edi. Qizlar ko'ylagida yoqa o'mizi ko'ndalang qilinib, chetlari boshqa rangdagi mato yoki tasma bilan tikib chiqilardi va o'sha matodan tayyorlangan tasma bilan bog'lanardi yoki bitta tugma bilan qadab qo'yilardi. Turmushga chiqqan ayollar esa vertikal kesimli ko'ylaklarni kiyishardi. Kesim ko'kragini o'rtasidan uzunligi taxminan 25 sm qilinib, tasmalar bilan bog'lanar, bitta tugma yoki to'g'nagich bilan qadalardi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa o'mizining chetlari zarbob tasma "eshko'rta" va kashta bilan bezatilgan. Yoqa o'mizi bu yerlarda juda uzun (etagiga sal yetmas edi) qilinardi. Ko'ylaklar juda keng bo'lgan, uning yenglari esa juda keng va uzun bo'lib, kaftni berkitib turgan. yenglari, ba'zan, boshqa qimmatbaho matodan qilinardi yoki kashta bilan bezatilardi. Ayollar qo'lini ko'ksiga qo'yib yurishardi va shu bois yengining go'zalligi to'liq ko'rinardi.



127 – rasm. Ayollar ko'ylaklari.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin tik yoqalar paydo bo'la boshladi. Ularni keyinchalik plissirovkalik "par-para" bilan bezatishadigan bo'ldi. Turkiston o'lkasida (avval shaharlarda, so'ngra qishloqlarda) odatda vertikal qirqimli qopqoq bilan berkitilgan, baland tik yoqa kirib kela boshladi. Bu yoqani "ish yoqa", "nugoy yoqa", zarafshon vodiysida "qozoqi yoqa" deb atashardi.

Yosh ayollar birinchi farzand tug'ilganicha uchlari yuqoriga qaragan kopgina uchburchak ko'rinishda "tishchalar" yoki plissirovka bilan bezalgan par - para tik yoqali ko'ylaklarni kiyishgan. Shunday tik yoqa o'zbek va tojik ayollarning ko'ylaklari uchun xos edi. XIX asrning oxirlarida qirqilgan koketkali ko'ylak - ko'krakburma ko'ylak paydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishi natijasida kelib chiqdi. Ko'ylak ser burmalangan gavda qismi, yelkasi qiya bichilgan koketka, o'tkazma yeng va yoqa qismlaridan iborat. Ushbu ko'ylak keyinchalik ayollar garderobida barqaror o'rnatilib qolib, ayollar milliy kostyumining asosi bo'lib qoldi.



128 – rasm. Ayollar ko'ylaklari.

Shular qatorida, tunikasimon bichimli, tik yoqali va yenglari manjetli ko'ylaklar ham keng tarqalgandi. Katta yoshdagi ayollar vertikal kesimli yoki plissirovkasiz tik yoqali ko'ylaklarni kiyishni davom etishgan.

Shu davrda uzun, uchi tor yengli ko'ylaklarni kiyishgan, ularga tirsak va bilak orasida ingichka, kashtalangan tasmalar tikishgan. Ilgarilari bu tasma o'rtasida kesim qirqilib, undan ishlagan paytlarida qo'llarini chiqarib qo'yar edilar, yeng uchini esa shimarib qo'yishardi. Bunday ko'ylaklar asosan Xorazmda qayd etilgan. Xozirgi paytda kashtalangan tasma tiqilib, kesim qilinmaydi, u dekorativ bezagi bo'lib qolgan.

Uy ichida bitta va sovuq kunlarda ikkita ko'ylak kiyilardi. Bayram kunlari aholining taniqli, boy tabaqalaridan bo'lgan ayollar ustima - ust uchta ko'ylakni kiyishardi. Bunda uchala ko'ylakning yenglari bir xil kenglikda, lekin har xil uzunlikda bo'lib, birinma ketin biri ko'rinish turardi, yeng uchlari esa kashta bilan tikib chiqilgandi. Agarda yana ham boyliklarini ko'rsatmoqchi bo'lsalar, o'zlari bilan bir necha ko'ylakni olib, mexmonga kelgandan so'ng, vaqti-vaqti bilan almashtirishar edilar.

Buxoro va Samarqandda badavlat odamlar orasida ko'ylaklarning soni yettitagacha yetardi. Kiyimning seroblighi bilan libosning egasi boyligini ko'rsatishni xoxlardi. Buni faqat yosh kelinlar to'ylaridan keyingi dastlabki kunlarda kiyishar edilar.

Ba'zan, ustki ko'ylak ostidan ichki ko'ylak kiyishgan. Ular oq ip matodan qilinardi.

Ko'ylaklarning uzunligi turlicha bo'lgan. Keksa ayolar uzunligi yergacha yetadigan, yoshlar-kaltaroq ko'ylaklarni kiyishgandi.

Xorazmda qizlar va yosh ayollar ola chipor matodan tikilgan ko'ylaklarni tikishardi.

O'tgan asrning oxirida ayollar ko'ylaklari ola chi'or chitlardan, o'ziga tuk oilalarda esa qizil shoyidan tikilardi. Qirq yoshlardagi ayollar odmiroq, ya'ni ko'k, zangori, yashil, binafsha rangdagi ko'ylaklarni ma'qul ko'rishardi. Keksa ayollar maxalliy ishlab chiqarilgan oq ip gazlama - bo'z yoki yashil qora mayda holli va gulli chitdan tikilgan ko'ylaklarni kiyishardi. Boy oilalarda kelinning nikox ko'ylagi maxalliy ishlab chiqilgan yoki Qo'qon, Buxorodan yoki O'rta Osiyoning boshqa shoyi to'quv markazlaridan keltirilgan shoyilardan tikilardi. Ba'zan, mablag'i yetishmagan oilalarda esa chopon ostidan ko'rinmaydigan ko'ylak bo'laklari boshqa, arzonroq mato, masalan chitdan, qilinardi.

Ayollar kostyumining ikkinchi asosiy qismi - lozim. Lozim beldan yuqori qismida o'tkazilgan ishton bog' yordamida ushlab turiladi. Odatda lozimlarni ikki xil matodan: pastki qismini, ya'ni ko'ylakdan ko'rinadigan qismini, ancha qimmat va chiroyli matolardan, yuqori qismini esa (taxminan bo'ksa o'rtasidan beligacha qismini) arzonroq va oddiyoq matodan tikilardi. Ishtonni uchi to'qilgan va kashta qilingan tor tasma "jiyak" bilan bezalgan, uning uchlari popukni xosil qilardi. Lozimning uzunligi va kengligi turlicha bo'lgan. Shaharlarda, shahar atroflarida va qishloqlarda asosan uzun lozim kiyishardi.

O'rta Osiyo xalqlariga oid ayollarning ishton bichimi odatdagicha bo'lib, erkaklar ishton bichimiga o'xshash edi. Ishtonlar uzun, asosan, topigicacha bo'lgan. Tepa qismi keng, pasti esa toraygan ishton poylarining orasiga og tikilardi. Katta romb, kvadrat va uchburchak shaklidagi og qadam tashlaganda ishtonni kengaytirardi va yurishga hamda otga minib yurishga xalaqit bermasdi.

Qizlar va yosh ayollar maxalliy ishlab chiqilgan oq yo'l-yo'l yoki gulli matodan, kekse ayollar - asosan oq matodan ishton kiyishardi. Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolari O'rta Osiyoga olib kelingandan keyin ular keng qo'llanadigan bo'ldi, chunki ular maxalliy matolardan arzonroq bo'lgan.

Ayollar ustki kiyimiga qavilgan paxtali choponlar kiradi (129-rasm). Ular erkaklar choponidan birmuncha farqlanib, tunikasimon bichimli edi. Ayollar choponlarining yoqa o'mizlari ochiq va keng bo'lgan, ular baxyalanmagan, adipi bir biriga kirmagandi. Erkaklar choponiga qaraganda yenglari bir muncha kaltaroq va kengroq bo'lgan. Xorazmliklarning paxta choponlari o'ziga yarasha juda qiziqarli edi. qo'lda qavish o'rniga, ular xiylagina mashinada qavishgan. Bilak qismida esa qo'l uchun kesim qilinib, ish qilayotgan paytda iflos bo'lmasligi uchun qadalib qo'yilardi.

Paxtali cho'ponlardan tashqari yozda qishloq, asosan Zarafshon vodiysi ayollari, astarsiz cho'pon "delegay" ni kiyishgan. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ustki kiyim sifatida yengli, beliga sal yo'pishib turib, pastiga qarab kengaygan, astarli chopon "rumcha" ni kiyar edilar. Rumchaning o'tkazma tor yenglari uzunligi bilagigacha edi. Ayollarning maxsus ustki kiyimi bo'lgan chopon "mursak" O'zbekistonda keng tarqalgandi. U Toshkentda - mursak, Samarqandda - munisak,

kaltacha, Farg'onada - munisak, munsak, Buxoro va Shaxrisabzda - kaltacha deb ataladi.

Mursak yoniga tiqiladigan qiyiqlar yordamida kengayardi, yonlarida esa yeng ostidan ser mayda burmalar qilinardi. Mursaqlar astarli qilinib, qavilardi, qishki mursakka esa yu'qa qatlam paxta qo'yilardi. XIX asr ikkinchi yarmigacha Toshkentda oddiy choponga nisbatan mursak yenglari bir muncha kalta bo'lgan. Keyinchalik mursakning yenglari tirsakkacha qilinib, "tirsak yeng" deb atalardi va uning ostidan ko'ylakning uzun yenglari chiqib turardi.




130 – rasm. Ayollar bosh yopinchiqlari.

Samarqandda mursakning tor yenglari qo'lning kaftigacha yetardi; Buxoro va Qashqadaryoda esa yenglari keng bo'lib, tirsakdan tushib turardi, uning ostidan ko'ylak yenglari chiqib turardi. Xorazmda oddiy chopondan mursak faqat yengining shakli bilan farqlanardi (yengi uchiga qarab toraygandi).

XIX – XX asr boshidagi davrining erkak kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Erkaklar kostyumi. Barcha yoshdagi erkaklar kiyimi tunikasimon bo'lgan. Bu erkaklar kiyimining qadimiyligini ifodalaydi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, bel va yelka kiyimlaridan iborat(131 - rasm).

Qadimdan erkaklarning ichki ko'ylagini uzunligi tizzagacha bo'lgan, keyinroq uni bo'ksasigacha qisqartirishdi. Ko'ylakning yoqasi ikki xil bo'lgan. Farg'ona vodiysida yoqani to'g'ri to'rtburchak shaklda matoni dioganali bo'yicha qirqib, keng tomonlarini biriktirib vertikal yoqa o'miziga tikishgan. Ko'ylakning ikkinchi turida esa, yoqa o'mizi gorizontaal qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda uni "mullavacha" deb atashardi. Yoqa o'mizining chekkasi jiyak bilan tikib chiqilardi. Ko'ndalang yoqali ko'ylakni Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazmda ham kiyishgan.



132 – rasm. Erkaklar kiyimi.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ichki ko'ylak "yaxtak" keng tarqalgandi. Uni ip matolardan (chit, bo'z, ipak) tikishardi. Yaxtakni yoshlar va keksalar kiyishgan. Bu yengil va qulay ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, uzunligi tizzagacha yoki uzunroq edi. Yoqasi zich choklar bilan qavilardi, ko'kragida bitta tugma va izmaga tugmalanardi.

Ichki bel kiyimi "ishton" keng bo'lgan. Uzunligi topig'igacha bo'lib, ishtonbog' bilan belida mahkamlanardi. Ishtonni ip gazlamadan tikishgan. Sovuq paytda jun yoki qalin ip gazmoldan tikilgan astarli yoki astarsiz "shimni" kiyishardi; chavandozlar namatdan qilingan, ovchilar - mo'yna yoki jundan qilingan astarsiz "shalvar" kiyishardi. Bu shalvarlar O'rta Osiyo erkaklarning qadimiy kiyimi bo'lgan.

Erkaklarning ustki kiyimi turli choponlar edi. Uni ko'ylak ustidan kiyishgan. Choponlarning tunikasimon bichimi ikki turli bo'lgan.

Choponni birinchi turi yaxlit mato parchasidan bichilardi; to'g'ri yoki sal toraygan yenglari gavda qismiga tikilardi; qo'ltig'iga xishtak (lastovitsa), yonlariga qiyiq tomoni bilan uloqlar tikilardi. Choponning ikkinchi turida gavda qismi ikki bo'lak matodan qilinardi. Choponlarning ikki yonidan kesimlar qilingan. Yoqasi; etagi va yengining uchiga tasma yoki jiyak, ko'kragida ikkita bog'ich tikilardi.

Choponlar astarsiz, astarli va paxtali qilinardi. Farg'ona vodiysida, Toshkent va Xorazmda qavilgan choponlar gavdaga yopishib turardi. Ularni qatorida Farg'ona vodiysida astarsiz chopon "avratun" ni qavilgan chopon ustidan kiyishardi.

Zarchoponlarni asosan amirlar kiyishgan. Qishda badavlat erkaklar qavilgan chopon ustidan "chaqmon", "kebanak", mo'ynali "po'stin" ni kiyishardi. Chaqmonning bichimi choponga nisbatan kengroq va erkinroq bo'lgan, yoqasi yosa orqada tik bo'lib, oldida torayar edi. Chakmon qo'y yoki tuya junidan qo'lda to'qilgan matodan qilinardi. Chorvachilik bilan shug'ullangan o'zbeklar jun matodan qilingan chopon "kebanak" kiyishgan. O'rta va katta yoshli erkaklar qishda qo'y terisidan qilingan po'stin kiyishgan. Choponlar va po'stinlar ikkibortli bo'lib, chapdan o'nga o'ralardi va belbog'siz kiyilardi. Ularni chegaralariga mo'yna tikilardi.

Belbog'lar (byelkars, chorsi, qiyiqcha) maxalliy matodan kvadrat shaklida qilinib, kashtalanardi. Badavlat odamlar va mansabdorlar duxobadan qilingan zar uqali yoki iroqi usulda kashtalangan keng kamarni taqishgan. Kamarlarga sirlangan, qora kumush bilan ishlov berilgan yoki tagnishon (qadama naqsh) qilingan katta to'qaga qadalardi.

Qishda kiyimni ip yoki ipakdan qilingan (uzunligi 11 m gacha) "o'rama belbog'" bilan bog'lashardi.

XIX asr o'rtalaridan boshlab, Rossiyadan kelgan "kamzol" ni shaharliklar kiyishgan. Bu oldi berk tugmalangan, tik yoqali, orqasida kesimi yo'q, so'rtaksimon kiyim bo'lgan. Uni ko'ylak ustidan kiyishar edi, qishda esa ustidan chopon kiyishardi.

XIX asrdan eng keng tarqalgan bosh kiyim doppi (qalpoq, kallapush va boshqalar) bo'lgan. U gazmoldan tiqilib, odatda, ipak yoki kumush va zar iplar bilan kashtalanardi. Oldin, do'ppining shakli salla o'rashga qulay bo'lishi uchun, cho'qqili qilinardi, gardishi esa keng bo'lgan.

XX asrda kvadrat yoki yumaloq tepali doppilar paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda "bodom" va "qalampir" naqshli (chust doppisiga o'xshash), Qashqadaryoda tutash iroqi kashta qilingan "gilamdoppi", Surxandaryoda "piltadozi" doppilarni kiyishgan.

Kashta qilingan doppilar qatorida Toshkentda to'q duxobadan tikilgan kashtasiz doppilar keng tarqalgandi.

Doppini yana bir turi - "shob'ush" - ip gazmoldan qilinib, mashina yoki qo'lda qavilardi. Uni qishda bosh kiyim ostidan yoki kechasi yotganda kiyishardi.

Ruhoniylar va ayrim aslzodalar va qarilar uch yoki to'rt qirrali mato parchalaridan tikilgan baland yumaloq bosh kiyim "qoplox" ni kiyishgan.

Farg'ona vodiysi qishloq aholisi namatdan qilingan qirg'iz qalpog'ini, qishda esa qozoqlarnikiga o'xshash mo'ynadan "tumoq" kiyishgan.

Xorazmda uzun mo'ynali qo'y terisidan qilingan katta yumaloq yassi bosh kiyim "chugurma" ni kiyishgan.

Qishda doppining ustidan mo'ynadan qilingan, astarli, yumaloq bosh kiyim - "telpak" kiyishgan. Buxoro vohasida mo'ynadan konussimon shaklli bosh kiyim kiyishgan. Uning tepasi qorako'ldan, chekkasi - qunduz mo'ynasidan va ichi - qo'y mo'ynasidan qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda qalpoqlar duxobadan tiqilib, chekkasi tulki, suvsar yoki barra mo'ynasidan qilinardi.


Sallani ip, yarim jun yoki dokadan qilishardi. Aholining har bir ijtimoiy tabaqasi uchun sallani o'rash usuli bo'lgan, Buxoroda esa, sallani o'raydigan maxsus mutaxassislar bo'lgan.

Ishlagan paytda va uyda salla o'rniga boshini chorsi yoki mato parchasi bilan bog'lashardi.

XX asrga dovur sallani o'spirinlar ham kiyishgandi. Qarilar sallasi - oq, o'rta yoshlarniki - kul rang, yoshlarniki - rang - barang bo'lgan.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi maxsi, kavush bo'lgan. "Amrikon" (Amerikadan kelgan) charmdan qilingan oyoq kiyimlari qimmatbaho bo'lgandi. Maxsi va qavushlar qalin charmdan qilinardi. Yozda kavushning o'zini kiyishardi (131 - rasm). Ulardan tashqari erkaklar baland kunjli va poshnali etik kiyishgan.

Qishloqda oyoq kiyimlar oddiyroq bo'lgan: etik, "chorik" (kunjsiz oyoq kiyim), kalta etik "mukki" (poshnasiz, yumshoq va qattiq teridan tikilgan), yoki "tovuldirik" (yog'ochdan qilingan uch oyoqli), dalada ishlaganda "xom kavush" (mol yoki ot xom terisidan ishlangan) kiyishgan.



133– rasm. Erkaklar oyoq kiyimlari.